



R.D.DUSMURATOV, G.B.TURSUNKULOVA

## TANNARX KALKULYATSIYASI

TOSHKENT-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

***D.R.DUSMURATOV, G.B. TURSUNKULOVA***

## **TANNARX KALKULYASIYASI**

Ozbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus  
ta`lim vazirligi oily o`quv yurtlari talabalari uchun  
o`quv qo`llanma sifatida tavsiya etilgan

(5233100 «Agrosanoatda buxgalteriya hisobi» yunalishi talabalari hamda mazkur soha  
mutaxassislari uchun)

Toshkent-2022

**O'UK: 330.133(075.8)**

**KBK 65.290-86ya73**

**D 99**

O`quv qo'llanma TDAU Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit kafedrasi professori R.D.Dusmuratov va katta o`qituvchisi G.B.Tursunkulova tomonidan tayyorlangan.

Mazkur o`quv qo'llanmada iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo`jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlarga qilingan xarajatlar tarkibi va mahsulot tannarxini hisoblash masalalari o`rganilgan.

O`quv qo'llanmada qishloq xo`jaligi sohasida bilim olayotgan iqtisodiy yo`nalish talabalarini va ishlab chiqarishdagi soha mutaxassislar uchun mo`ljallangan bo`lib, unda qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining hamma sohalari qamrab olingan.

O`quv qo'llanma 5233100 «Agrosanoatda buxgalteriya hisobi» bakalavriat ta'lim yo`nalishining namunaviy o`quv rejasida belgilangan «Tannarx kalkulyatsiyasi» o`quv fanining dasturi asosida tayyorlangan. Shuningdek, undan oliy o`quv yurtlarining mazkur sohadagi professor-o`qituvchilar, tayanch doktorantlar, stajer-tadqiqotchi izlanuvchilar, magistrantlar va agrar soha xo`jaliklari rahbarlari va buxgalterlari ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

A.K.Ibragimov -Toshkent Bank -Moliya akademiyasi «Buxgalteriya hisobi» kafedrasi professori

Sh.Qarshiev- Toshkent davlat agrar universiteti «Agrologistika va biznes» kafedrasi dotsenti

Ushbu o`quv qo'llanma Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit kafedrasi «\_\_\_\_\_» 2022 yil majlis bayonnomasi № va fakultet ilmiy –uslubiy komissiyasida (bayonnomasi № «\_\_» \_\_\_\_\_. 2022 yil) ko`rib chiqildi va ma'qullandi. Universitet ilmiy komissiyasida muhokama qilinib, chop etishga tavsiya etildi (bayonnomasi № «\_\_» \_\_\_\_)

ISBN- 978-9943-8738-9-6

**УДК: 330.133(075.8)**

**КВК 65.290-86ya73**

**D 99**

Учебное пособие подготовлено от профессора кафедры бухгалтерского учета, анализа и аудита ТГАУ Р.Д.Дусмуратова и старшего преподавателя Г.В.Турсункулова.

В данном учебном пособии изучена структура затрат на выращенную в сельском хозяйстве продукцию в условиях модернизации экономики и расчет себестоимости продукции.

Учебное пособие предназначено для студентов экономических специальностей и специалистов отрасли в производстве, получающих знания в области сельского хозяйства, и охватывает все сферы сельскохозяйственного производства.

Учебное пособие подготовлено на основе программы учебной дисциплины «Калькуляция себестоимости», определенной в типовом учебном плане направления бакалавриата 5233100 - «Бухгалтерский учет в агропромышленном комплексе». Он также может быть использован профессорско-преподавательским составом, базовыми докторантами, стажерами-исследователями, магистрантами и руководителями хозяйств и бухгалтерами аграрной сферы высших учебных заведений в этой области.

Рецензенты:

А.К.Ибрагимов-профессор кафедры «Бухгалтерский учет» Ташкентской банковско-финансовой академии

Ш.Каршиев-доцент кафедры «Агрологистика и бизнес» Ташкентского государственного аграрного университета

Методическое пособие кафедра бухгалтерского учета, анализа и аудита «\_\_\_\_\_» 2022 года, № протокола заседания и в научно-методической комиссии факультета (протокол № «\_\_\_» \_\_\_\_\_. 2022 г.) был рассмотрен и одобрен. Обсужден в научной комиссии университета и рекомендовано к публикации (протокол № «\_\_\_» \_\_\_\_)

ISBN- 978-9943-8738-9-6

**O'UK: 330.133(075.8)**

**KBK 65.290-86ya73**

**D 99**

The textbook was prepared by the professor of the Department of Accounting, Analysis and Audit of the TSAU R.D.Dusmuratov and the senior lecturer G.V.Tursunkulova.

In this tutorial, the structure of costs for products grown in agriculture in the conditions of economic modernization and the calculation of the cost of production have been studied.

The textbook is intended for students of economic specialties and industry specialists in production, gaining knowledge in the field of agriculture, and covers all areas of agricultural production.

The textbook was prepared on the basis of the program of the discipline «Cost calculation», defined in the standard curriculum of the undergraduate direction 5233100 «Accounting in the agro-industrial complex». It can also be used by faculty, basic doctoral students, research trainees, undergraduates and farm managers and agricultural accountants of higher education institutions in the field.  
Reviewers:

A.K.Ibragimov-Professor of the Department of «Accounting» of the Tashkent Banking and Finance Academy

Sh. Karshiev - Associate Professor of the Department «Agrologistics and Business» of the Tashkent State Agrarian University

The methodological manual of the Department of Accounting, Analysis and Audit «\_\_\_\_\_» 2022 y, No. of the minutes of the meeting and in the scientific and methodological commission of the faculty (minutes No. «\_\_» \_\_\_\_\_. 2022 y) was reviewed and approved. Discussed in the scientific commission of the university and recommended for publication (protocol No. «\_\_» \_\_\_\_ )

ISBN- 978-9943-8738-9-6

## KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlarida har tomonlama o'sish sur'atlari kuzatilmoxda. Bunda qishloq xo'jalik xo'jaliklarining ham o'ziga xos o'rni borligi, yetishtirilayotgan mahsulotlarning turi va hajmining yildan-yilga oshib borishi bu tarmoq faoliyatining to'g'ri yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi. Ma'lumki, aholini oziq-ovqatga, sanoatni xom-ashyoga bo'lgan talabini aynan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mahsulotlari qondiradi va ularning qay darajada sifatli va arzon narxda yetishtirilishi mamlakat farovonligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Albatta har bir ishlab chiqarish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va faqat shu tarmoqqa xos xarajatlar tarkibining mavjudligi ularda xarajatlarni hisobga olish va nazorat qilishning o'ziga xos yondashuvlarini talab qiladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bir qator xususiyatlari bilan iqtisodiyotning boshqa tarmoq ishlab chiqarishlaridan farq qiladi. Ayniqsa asosiy ishlab chiqarish tarmog'i bir nechta bir-biridan farq qiladigan ishlab chiqarish (dehqonchilik, chorvachilik va sanoat ishlab chiqarishi)lardan iboratligi, ishlab chiqarish uzoq muddat davom etishi va boshqalar tarmoq ishlab chiqarishining o'ziga xos tomonlari hisoblanadi. Bu xususiyatlar albatta xarajatlar hisobini tashkil etishda va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishda e'tiborga olinishi zarur.

Korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri tashkil etish, xarajatlarni hisobga olish va nazorat qilish, mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiyalash masalalari dolzarbligini hisobga olib, ularni o'quv jarayonida talabalarning puxta o'zlashtirishini ta'minlash maqsadida 5233100-Agrosanoatda buxgalteriya hisobi bakalavr yo'nalishi talabalari o'quv rejasiga talaba tanlov fani sifatida «Tannarxining kalkulyatsiyasi» fani kiritildi. Talabalar ushbu fanni o'zlashtirish jarayonida xarajatlar hisobinig o'ziga xos xususiyatlari, me'yoriy-huquqiy asoslari, ularning dastlabki, analitik va sintetik hisobi va tannarx hisoblash usullari bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladilar.

Ushbu o'quv qo'llanma «Tannarx kalkulyatsiyasi» fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlari bo'yicha xarajatlar hisobini tashkil etish, yuritish, etishtirilgan mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishga doir nazariy mavzular keltirilgan. Albatta tayyorlangan o'quv qo'llanma kamchiliklardan holi bo'lmasligi mumkin, oldindan uzr so'ragan holda, uni to'g'rilash va o'quv qo'llanmaning sifatini yaxshilash bo'yicha bildiriladigan fikrlarga bajonidil qo'shilamiz va xolis fikrli insonlarga oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

*Mualliflar*

## **I.BOB XARAJATLARNING IQTISODIY MOHIYATI, ULARNING TASNIFASHI VA HISOBI**

### **1.1. Tannarx kalkulyatsiyasi fanining mazmuni, predmeti va metodi**

«*Tannarx kalkulyatsiyasi*» fanining predmeti deganda, tannarxni kalkulyatsiya qilish jarayoninini iqtisodiy qonunlar asosida bog‘lab o‘rganish tushuniladi. Tannarxni kalkulyatsiya qilish jarayoniga quyidagilar kiradi:

-ishlab chiqarilayotgan mahsulot tarkibidagi xom-ashyo, materiallarni ishlab chiqarishga kiritish usullari;

-mahsulot ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan ishchilarga hisoblanadigan ish haqining turlari;

-asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash usullari hamda ularni ishlab chiqarishda qatnashishi va boshqalar<sup>1</sup>.

«*Tannarx kalkulyatsiyasi*» fani qishloq xo‘jaligi va sanoat xo‘jaliklarining ishlab chiqarish mahsulotlarini rejali, haqiqiy tannarxini aniqlash yo‘llarini o‘rganadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan paxta, sabzavot, poliz, makkajo‘xori, g‘alla, yem-xashak ekinlari, go‘sht, sut mahsulotlari, ot-ulov, transport xizmatlari, umumiy ovqatlanish xo‘jaliklari taomlari tannarxini kalkulyatsiyasi koeffitsenti va me’yorlar asosida hisoblash yo‘llari batafsil ko‘rsatiladi.

*Tannarx o‘rganishdan maqsadi*-xo‘jalik zaxiralarini topish va ulardan to‘la-to‘kis foydalanish tadbirilarini ishlab chiqish, mahsulot tannarxini kamaytirish, samaradorlikni oshirish, sotishdan ko‘proq foyda olishni ko‘zlab tajriba ortirish va ilmiy izlanishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

### **«*Tannarx kalkulyatsiyasi*» fanining vazifalari va uslubi**

«*Tannarx kalkulyatsiyasi*» fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

-xo‘jalik yurituvchi sub’ektlardan mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishda reja tannarxi ko‘rsatkichlarin aniqlash va nazorat qilish;

---

<sup>1</sup> Ro`zmetov B., Bekturdiev O., Yo`ldosheva Q., Matqulieva S., Matkarimov D. Tannarx kalkulatsiyasi Toshkent-ILM ZIYO-2006 230b.

-buxgalteriya hisoni joriy etish va mustahkamlashga yordam berish hamda mahsulot bahosini aniqlash;

-xarajatlar tarkibini aniqlash va ularni tejab sarflash natijasida tannarxni kamaytirish;

-har bir tarmoq va mahsulotlar bo‘yicha ishlab chiqarish xarajatlarini o‘z vaqtida aks ettirish, ularning aniq miqdorini hisoblab borish va mahsulot turlari bo‘yicha uning tannarxini aniqlash;

-xo‘jalikda xo‘jalik hisobining moliyaviy faoliyati yakunlarini tahlil qilish hamda uning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratish;

-tannarx kalkulyatsiyasini o‘z vaqtida rejali tuzish va yuqori tashkilot hisobotlarida aks ettirish;

-tannarxni kamaytirish omillarini o‘rganish;

-tannarx kalkulyatsiyalashda davlat standartlari, nizom, koeffitsentlar, me’yorlar, yo‘riqnomalarga to‘liq rioya qilish;

-tannarx kalkulyatsiyasida turli kompyuter dasturlaridan samarali foydalanish.

«*Tannarx kalkulyatsiyasi*» fanining mazmuni-iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish va uni haqiqiy tannarxini hisoblash to‘g‘risidagi iqtisodiy fandir. Bu fanning mavzulari sanoat, qishloq xo‘jaligi va yordamchi xo‘jalik mahsulotlarini tannarxini hisoblash va ularni rivojlantirishdagi iqtisodiy qonuniyatlarini o‘rganishdan iborat. Bunda mahsulot birligiga eng kam mehnat va mablag‘ sarflab, sanoatda, qishloq xo‘jaligida ko‘proq mahsulot yetishtirgan holda mahsulot tannarxini kamaytirishga e’tibor qaratiladi<sup>2</sup>.

Tannarxni kalkulyatsiya qilish mehnat jamoalari faoliyatining yakuniy natijalarini ko‘p jihatdan oldindan belgilab berishga qaratiladi. «*Tannarx kalkulyatsiyasi*» fani ishlab chiqarishda mahsulot bahosini ob’ektiv ravishda belgilab beradi, foya va zararni, rentabellik darajasini aniqlashda asosiy omil hisoblanadi.

---

<sup>2</sup> Ro‘zmetov B., Bekturdiev O., Yo`ldosheva Q., Matqulieva S., Matkarimov D. Tannarx kalkulatsiyasi Toshkent-ILM ZIYO-2006 230b

*«Tannarx kalkulyatsiyasi» fanning metodi*- Fan boshqa fanlar kabi tannarxni kalkulyatsiya qilish jarayonida har xil tadqiqot usullari, jumladan, statistik, iqtisodiy, matematik usullar va kompyuter dasturlaridan foydalaniladi.

*Tahlil qilish usuli*. Bu usulda predmet yoki hodisaning har bir qismini alohida o‘rganish, ular orasidagi bog‘lanishlarni tadqiq qilish maqsadida ularni tarkibiy qismlarga ajratib, xarajat moddalari tahlil qilinadi. U albatta sintez qilish bilan to‘ldiriladi. Chuqur tahlil qilmay turib, sintez qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun tannarxga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlil qilinadi.

*Monografik usul*. Mahsulotlar tannarxini monografik usulda o‘rganish uchun ilg‘or tajribalardan foydalaniladi. Tadqiqotning ana shu usulini qo‘llash ko‘pgina tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy masalalarni to‘g‘ri hal qilish imkonini beradi.

*Matematik usul*. Tannarxni kalkulyatsiya qilishda kompyuter dasturlari va axborot texnologiyalaridan foydalanilsa hisoblash ishlari ancha osonlashadi hamda baholarni to‘g‘ri belgilash amalga oshiriladi.

*Statistik usul*. Bu usulda tannarxni guruhash, unda ta’sir qiluvchi omillar o‘rganiladi va solishtirish yo‘li bilan tahlil qilinadi.

### **«Tannarx kalkulyatsiyasi» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi**

Tannarx kalkulyatsiyasi buxgalteriya hisobini joriy qilishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi va mulkdorlar saqlanishini nazorat qiladi. Korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotning necha so‘mga tushganligini bilish muhim vazifa hisoblanadi. Bu vazifa bajarish uchun buxgalteriya hisoboti qonun-qoidalariga monand mahsulot tannarxi aniqlanadi va hisob-kitob qilinadi.

«Tannarx kalkulyatsiyasi» fani buxgalteriya hisobi, statistika, iqtisodiy tahlil, iqtisodiy geografiya kabi fanlar bilan aloqada bo‘ladi. Ayniqsa, buxgalteriya hisobi fani bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, rejalashtirish, boshqarish kabi yo‘nalishlarda iqtisodiy kategoriylar asosida faoliyat ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligi respublikamiz xalq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib kelgan va u shunday tarmoqlardan biri bo‘lib qolmoqda. Buning negizida turli sabablar yotadi. Masalan:

*birinchidan*, respublikamiz aholisining 60 foizi qishloq joylarda yashaydi. Bu, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligini qishloq joylarda yashovchi aholini ish bilan ta’minlaydigan asosiy soha ekanligini bildiradi;

*ikkinchidan*, mamlakatimizning iqlim sharoiti va tabiiy resurslari qishloq xo‘jalik mahsulotlari tez yetishtirish imkonini beradi;

*uchinchidan*, 30 milliondan ortiq aholisi bo‘lgan respublikamizda odamlarning qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talabini mahalliy sharoitlardan kelib chiqib hal etish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi;

*to‘rtinchidan*, qishloq xo‘jaligi mamlakatimizning kun sayin rivojlanib borayotgan yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari xo‘jaliklarini arzon va sifatli mahalliy xom- ashe va materiallar bilan ta’minalashning asosiy manbai hisoblanadi.

*beshinchidan*, respublikamizda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ko‘pchilik turi boshqa mamlakatlarda yetarlicha emasligi, qishloq xo‘jaligini nafaqat ichki maqsadlardagi, balki eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaradigan tarmoqqa aylantirish imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini respublikamizda rivojlantirish sabablari va imkoniyatlari nafaqat yuqoridagilar bilan chegaralanadi. Ular to‘g‘risida juda ham ko‘p izohlarni berish mumkin. Bu izohlar qishloq xo‘jaligiga oid maxsus fanlarda atroflicha yoritilgan. Shu bois ham, yuqoridagi izohlar bilan cheklangan holda, quyida qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarining buxgalteriya hisobining muhim sub’ektlari sifatidagi tashkiliy-huquqiy maqomlariga, ular faoliyatining hisob ob’ektlari sifatidagi xususiyatlariga to‘xtalamiz.

Rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga o‘tish respublikamizda qishloq xo‘jalik tarmog‘ining quyi bo‘g‘inini tashkil qiluvchi sub’ektlarning tashkiliy va huquqiy maqomida turli o‘zgarishlarga olib keldi. Ilgarilari asosan davlat va jamoa xo‘jaliklaridan iborat bo‘lgan qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari mustaqillik yillarida ko‘p o‘zgarishlarni o‘z boshidan o‘tkazdi. Davlat xo‘jaliklari tugatildi, ularning o‘rniga shirkat xo‘jaliklari, qishloq xo‘jalik

kooperativlari, agrofirmalar, dehqon-fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari, fermer xo‘jaliklari, shuningdek ularning uyushmalari tashkil qilindi.

Davlatimizning qishloq xo‘jaligini isloh qilish borasidagi hozirgi siyosati negizida eng ustuvor yo‘nalish sifatida yerni dehqonlarga, fermerlarga berish, shu asosda dehqon xo‘jaliklari va fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish yotadi. Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarini buxgalteriya hisobi sub’ektlari sifatida turlicha tasniflash mumkin. Ushbu tasnifiy belgilar ichida qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarining turlari, sohasi, ixtisoslashganligi, xodimlarining soni, soliq to‘lash rejimi muhim o‘rin tutadi.

*Turlariga ko‘ra* qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari fermer xo‘jaliklariga, dehqon-fermer xo‘jaliklariga, shirkat xo‘jaliklariga, agrofirmalarga bo‘linadi.

*Sohasiga ko‘raqishloq* xo‘jalik xo‘jaliklari dehqonchilik va chorvachilik, shuningdek ushbu sohalarning har ikkalasiga ham doir bo‘lgan xo‘jaliklarga bo‘linadi.

*Ixtisoslashganligiga ko‘ra* qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari dehqonchilik va chorvachilikning turli yo‘nalishidagi xo‘jaliklarga bo‘linadi. Masalan, chorvachilik sohasidagi qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari qoramolchilik, qo‘ychilik, yilqichilik, cho‘chqachilik, parrandachilik va boshqa shu kabi sohalarga ixtisoslashgan. Dehqonchilik sohasidagi qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari bog‘dorchilik, g‘allachilik, tamakichilik va boshqa yo‘nalishlardagi xo‘jaliklarga bo‘linadi. Agrofirmalar ham qishloq xo‘jaligining u yoki bu sohasiga, shuningdek aralash sohalarga doir xo‘jaliklar hisoblanadi.

*Xodimlarining soniga ko‘ra* qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari mikrofirmalar, kichik xo‘jaliklar, yirik xo‘jaliklarga bo‘linadi. Respublikamizning qonun hujjatlariga ko‘ra qishloq xo‘jalik tarmog‘ida mikrofirmalar toifasiga kiruvchi xo‘jaliklar bo‘lib xodimlarining soni 20 tagacha bo‘lgan, kichik xo‘jaliklar bo‘lib xodimlarining soni 50 tagacha bo‘lgan xo‘jaliklar hisoblanadi. Yirik qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari xodimlari sonining aniq miqdori qonun hujjatlari bilan belgilanmagan.

*Soliq to 'lash rejimiga ko 'ra qishloq xo'jalik xo'jaliklari umumbelgilangan va ixchamlashtirilgan soliq rejimlarida ishlovchi xo'jaliklarga bo'linadi.* Respublikamizning soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi hamda ularni qayta ishlovchi qishloq xo'jalik xo'jaliklari faqat yagona yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanadilar. Sotib olingan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash faoliyati, shuningdek savdo, vositachilik, xizmat ko'psatish va boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi qishloq xo'jalik xo'jaliklari ushbu faoliyat turlari bo'yicha xodimlarining soniga qarab umumbelgilangan soliqlar yoki ixchamlashtirilgan soliq to'lovini ham to'laydilar.

Qishloq xo'jalik qorxonalarida yuritiladigan buxgalteriya hisobining eng muhim ob'ektlari bo'lib ularning faoliyat turlari, xo'jalik jarayonlari va operatsiyalari, mablag'lar, mablag'larni tashkil topish manbalari, daromad, xarajat, foya va zararlar hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik xo'jaliklari faoliyati asosiy va asosiy bo'lмаган faoliyat turlariga bo'linadi. Ularning asosiy faoliyatiga bevosita qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bilan bog'liq faoliyat, asosiy bo'lмаган faoliyatiga esa qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishga bevosita aloqasi bo'lмаган moliyaviy, investitsiya va boshqa faoliyat turlari kiradi.

Qishloq xo'jalik xo'jaliklarining qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha faoliyati ikki turga – dehqonchilik va chorvachilikka bo'linadi. Ushbu faoliyat turlari maxsus litsenziya talab qilmaydigan faoliyat hisoblanadi.

**Dehqonchilik** – bu bevosita inson va jonli hayvonlar tomonidan iste'mol qilinadigan, ishlab chiqarishga moddiy asos bo'lib hisoblanadigan o'simliklar, ekinlar, xom-ashyo va materiallarni yetishtirish (ishlab chiqish) bilan bog'liq jarayonlar majmuasi.

**Chorvachilik** deganda mahsulot va nasl beradigan barcha jonli hayvonlarni yetishtirish bilan bog'liq jarayonlar majmuasi tushuniladi.

Dehqonchilik va chorvachilik sohalarining buxgalteriya hisobi ob'ektlari sifatidagi xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

*Birinchidan*, dehqonchilik va chorvachilik faoliyatları turli jarayonlardan tashkil topadi. Masalan, dehqonchilik o‘z ichiga yerni shudgorlash va ekishga tayyorlash, urug‘ni ekishga tayyorlash, urug‘lik qadash, ekinni parvarishlash (sug‘orish, yaganalash, chilpish, defoliatsiya qilish), hosilni terib olish va topshirish kabi xo‘jalik ishlarini bajarishni talab qiladi. Chorvachilik mollarning tug‘ilganligidan (sotib olinganligidan) boshlab, to ularni xo‘jalik balansida turgan davri ichida parvarishlash, mahsulot (nasl) olish, mahsulotni topshirishgacha bo‘lgan juda ham xilma-xil bo‘lgan xo‘jalik jarayonlarini bajarishni taqozo etadi. Qishloq xo‘jaligi xo‘jaliklarida yuz berayotgan ushbu jarayonlar son va sifat jihatdan turli o‘lchov birliklarida o‘z aksini buxgalteriya hisobida topadi.

*Ikkinchidan*, dehqonchilik va chorvachilikboshqa ishlab chiqarish turlaridan o‘zlarining davomiyligi, shuningdek mavsumiyligi bilan farq qiladi. Misol uchun paxtani yetishtirish faoliyati yerni ekishga tayyorlashdan tortib, to hosilni yig‘ishtirib olgunga qadar kamida 7-8 oy mobaynida olib boriladi. Buzoqni katta ona mollar tarkibiga o‘tkazish uning birinchi tug‘ishiga yetib kelganigacha qadar bo‘lgan davrni (odatda, kamida ikki-uch yil) o‘z ichiga oladi, xo‘kizchani katta mollar tarkibiga o‘tkazish eng kamida 18 oy yoki 1,5 yil davom etadi. Demak, dehqonchilik va chorvachilikning davomiylik xarakteriga ega bo‘lishligi ularga qilinayotgan sarflarni va olinadigan mahsulotlar davrlarini bir-biriga mos emasligini ko‘rsatadi. Mahsulotni yetishtirishga ketadigan jonli va buyumlashgan mehnat sarflari to‘xtovsiz, butun yil mobaynida davom etadi, hosilni yig‘ishtirib olish esa yilning ma’lum davriga to‘g‘ri keladi. Bu o‘z navbatida dehqonchilik va chorvachilikda tugallanmagan ishlab chiqarish jarayonini hisobot yili oylari bo‘yicha, shuningdek kelgusi davr uchun uzluksiz hisobga olib borish zaruratini tug‘diradi. Aksariyat qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishning mavsumiy xarakterga ega bo‘lishi mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan notejis foydalanishga, shuningdek mavsumiy zahiralarni yaratishni zarurat qilib qo‘yadi.

Uchinchidan, qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar asosiy va qo‘srimcha mahsulotlarga bo‘linadi. Tannarxni kalkulyatsiya qilish ob’ekti bo‘lib asosiy mahsulot hisoblanadi. Lekin qilingan xarajatlar ham asosiy, ham

qo'shimcha mahsulotga tegishli bo'ladi. Shu bois ham, xarajatlarni asosiy va qo'shimcha mahsulotlar o'rtasida taqsimlash, ular har birining reja va haqiqiy tannarxlarini, kirim qiymatini va sotish baholarini to'g'ri aniqlash zarurati tug'iladi. Bu ishlar har bir mahsulot turi bo'yicha individual yondashishni talab qiladi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jalik xo'jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar mavsum davomida faqat reja tannarxida kirim qilib boriladi. Ularning haqiqiy tannarxi, erishilgan moliyaviy natijalar faqat qishloq xo'jalik taqvim yili tugagandan keyingina, buxgalteriya hisobida barcha turdag'i daromad va xarajatlar to'liq aks ettirilgandan so'ng aniqlanadi.

Beshinchidan, etishtirilgan mahsulotlarning tez buzilishga moyilligi, maxsus saqlash joylarini talab etishi, ishlatilish maqsadi va boshqa jihatlari ularni turli usullarda kirim qilishni va xaridorlarga jo'natishni taqozo etadi. Masalan, terilgan paxta bevosita daladan paxta punktlariga topshiriladi. Xuddi shunday tez buziladigan meva-sabzavotlar, poliz ekinlari, chorvachilik mahsulotlari ularni qayta ishslash xo'jaliklariga bevosita daladan (fermalardan) yuklatiladi. G'alla qishloq xo'jalik xo'jaliksining omborlariga yoki to'g'ridan-to'g'ri g'alla qabul tayyorlov xo'jaliklariga topshiriladi. Tez buzilmaydigan mevalar, poliz ekinlari, chorvachilik maxsulotlari qishloq xo'jalik xo'jaliklarining maxsus saqlash joylariga kirim qilinadi.

Oltinchidan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish qishloq xo'jalik xo'jaliklarida bu soha bo'yicha ixtisoslikka ega bo'lgan mutaxassislardan iborat bo'lgan mehnat jamoalarini shakllantirishni shuningdek ular mehnatiga haq to'lashni turli shakllarda hamda tizimlarda tashkil etishni taqozo etadi. Qishloq xo'jalik xo'jaliklarining o'ziga xos mutaxassislariga agronomlar, zootexniklar, veterinarlar, miroblar, cho'ponlar, sut sog'uvchilar, traktorchilar, ishchilar va boshqalar kiradi. Qishloq xo'jaligi asosan jamoa mehnatiga tayanadi. Shu bois ham bu tarmoq xo'jaliklarida mehnat va unga haq to'lashning brigada shakli keng qo'llaniladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, qishloq xo‘jaligi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan ishlab chiqarish tarmog‘i hisoblanadi. Bu tarmoqning xususiyatlari qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning o‘ziga xos jihatlarini ham belgilaydi. Shu bois ham, qishloq xo‘jaligiga mutaxassis tayyorlovchi oliv ta’lim muassasalarida qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobi maxsus fan sifatida o‘rganiladi.

Qishloq xo‘jaligning o‘ziga xos xususiyatlari ushbu tarmoq xo‘jaliklarida umumbelgilangan hamda tarmoq ahamiyatiga ega bo‘lgan tartib-qoidalarga asoslangan hisob siyosatini shakllantirishni, shuningdek ushbu hisob siyosatiga qat’iy amal qilish vazifasini qo‘yadi.

Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari hisob siyosatining xarakterli xususiyatlari bevosita buxgalteriya hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarida, ularda qo‘llaniladigan schyotlar rejasida, xo‘jalik muomalalarini hujjatli rasmiylashtirilishida, hisob ma’lumotlarini qayd etish, guruhash, jamlash va foydalanuvchilarga uzatishda, moliyaviy hisobot shakllari moddalarini to‘lg‘azish tartibida hamda boshqa jihatlarida yorqin namoyon bo‘ladi.

Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobining tashkiliy shakliga ushbu xo‘jaliklarning katta-kichikligi bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yirik qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi maxsus bo‘linmani, ya’ni buxgalteriyani tashkil qilish yo‘li bilan olib boriladi. Kichik qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarida maxsus buxgalteriyani tuzish zarurati bo‘lmaydi. Ularda hisob ishlari mehnat shartnomasi asosida ishga olingan yagona buxgalter tomonidan yuritiladi. Kichik fermer xo‘jaliklarida hisob-kitob ishlarini bevosita xo‘jalik rahbarining o‘zi ham olib borishi mumkin. Shuningdek, ularda buxgalteriya hisobi tuzilgan shartnoma asosida professional xizmatlarni ko‘rsatuvchi tashkilotlar tomonidan ham yuritilishi respublikamiz qonunchilik hujjatlarida ta’qilanganmagan.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining xususiyatlari ushbu tarmoq xo‘jaliklarida yuz berayotgan jarayonlar, xo‘jalik muomalalarini tizimli ravishda aks ettirishga mo‘ljallangan buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini qo‘llashni taqozo etadi. Ularda olib borilayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish faoliyati

umumbelgilangan tartibdagi 2010 «Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar» tizimida maxsus 2011-Dehqonchilik va 2012-Chorvachilik kabi schyotlarni nazarda tutishni taqozo etadi. Ushbu schyotlar tarkibida, o‘z navbatida, alohida olingan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarini hisobi uchun mo‘ljallangan schyotlar ochilishi ham mumkin. Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari Dehqonchilik va Chorvachilik schyotlarida aks ettiriladigan xarajatlarning tarkibini belgilashda respublikamizda amalda bo‘lgan «Mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish to‘g‘risida Nizom»da keltirilgan tartiblarga amal qilishlari lozim. Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu schyotlarning ochilishi, yuritilishi va yopilishi tartiblariga keyingi boblarda alohida to‘xtalamiz.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining uzluksizligi, yetishtirilgan mahsulotlarning tannarxi, ularni sotishdan olingan moliyaviy natijalar qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarida ta’midot va sotish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etilganligiga, ishlab chiqarish zahiralarining o‘z vaqtida olinganligiga, ularni tegishli miqdorda mavjudligiga, butligi, sifati, sotib olish qiymati (tannarxi) hamda boshqa jihatlariga bevosita bog‘liqdir. Bu xususiyatlar qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarida ishlab chiqarish zahiralari holati, kirimi, sarfi va boshqa chiqimlari ustidan uzluksiz tizimli nazorat o‘rnatishni talab qiladi. Buning uchun ishchi schyotlar rejasida ishlab chiqarish zahiralari hisobi uchun mo‘ljallangan maxsus schyotlarni nazarda tutish, ularda materiallar holati va harakatiga doir ma’lumotlarni uzluksiz, hujjatli asosda jamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarining bu xususiyatlari ularning ishchi schyotlar rejasida Urug‘liklar, O‘g‘it, Yem-xashak Dori-darmonlar va boshqalar shu kabi maxsus schyotlarni ochish hamda yuritishni taqozo etadi.

Yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining tannarxiga sarflangan materiallar qiymatini (tannarxini) baholash usullari (FIFO, AVEKO) ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari o‘zlarining hisob siyosatida ushbu ikkala usuldan tanlab olinganini yoki ularning har ikkalasini qaysi turdagि ishlab chiqarish zahiralari bo‘yicha qo‘llash tartibini belgilab olishlari lozim.

Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarida, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishning uzoq davomiyligi hamda mavsumiyligi tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini hisob-kitob qilish va inventarizatsiyadan o‘tqazishning aniq tartibini belgilashni taqozo etadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar haqqoniy tannarxini ular kirimi paytida aniqlash imkonining mavjud emasligi hisob siyosatida ular kirimi hisobini yil mobaynida reja yoki normativ tannarxi bo‘yicha olib borish, yil oxirida esa mahsulotlarning haqqoniy tannarxi aniq bo‘lgach, ular holati va xarakatiga doir buxgalteriya yozuvlariga tuzatishlar kiritish tartibini o‘rnatish talabini qo‘yadi.

Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarining daromadi asosan yetishtirilgan mahsulotlarni sotishdan olinadi. Mahsulotlarni sotish davlat tomonidan qat’iy belgilangan narxlarda, shuningdek erkin bozor narxlarida amalga oshiriladi. Davlat tomonidan qat’iy belgilangan narxlar ayrim mahsulotlar bo‘yicha, masalan paxta, g‘alla, pilla, tamaki va boshqa umumdavlat ahamiyatiga molik qishloq xo‘jalik mahsulotlari bo‘yicha belgilanadi. Shuningdek, ularga davlatga topshirish rejasidan ortiq yetishtirilgan mahsulotlarni (paxta va pilladan tashqari) erkin narxlarda naqd va naqd pulsiz, shuningdek mehnat haqi evaziga natural to‘lov sifatida berish ruxsat etiladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishning ushbu xususiyatlari sotishdan olingan daromadlarni hisoblash tamoyiliga asosan tan olish, ularni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hujjatli rasmiylashtirish hamda tegishli schyotlarda aks ettirish tartiblariga qat’iy amal qilish talabini qo‘yadi.

Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari o‘zlarining asosiy vositalari, joriy aktivlari, xususiy kapital va majburiyatlarining tarkibi, ularni shakllantirish tartibi bo‘yicha ham, bir tomondan, boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlardan farqli jihatlarga ega. Masalan, asosiy podani shakllantirish, yosh mollarni asosiy podaga o‘tkazish, texnika va transport vositalarini dala ishlari, terim mavsumlariga tayyorlash, xususiy mulkni ustav kapitaliga kiritish, olingan foydani ishlatish, paychilar o‘rtasida taqsimlash kabiladagi xususiyatlar qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarining hisob siyosatida ular hisobini yuritish tartiblarini aniq ifodalashni taqozo etadi.

Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarida yuz berayotgan xo‘jalik operatsiyalarini hujjatli rasmiylashtirish turlicha o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, traktorlarda yerni shudgor qilish, paxta qatorlariga texnika yoki qo‘l mehnatida ishlov berish, urug‘ ekish, mineral o‘g‘itlash, yem-xashaklarni mollarga ozuqa ratsioni hamda belgilangan ozuqa kunlari bo‘yicha sarflashdagi xususiyatlar ushbu operatsiyalarni rasmiylashtirish uchun mo‘ljallangan boshlang‘ich hujjatlar klassifikatorini qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari hisob siyosatining tarkibiy elementi sifatida ishlab chiqishni hamda ularga to‘liq amal qilish talabini qo‘yadi.

Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari o‘zlarining hisob siyosatida buxgalteriya hisobining umumbelgilangan shakllaridan birini tanlab olishlari mumkin. Bunday shakllar bo‘lib buxgalteriya hisobining memorial-order, jurnal-order, kompyuterlashtirilgan shakl, soddalashtirilgan shakllar hisoblanadi.

Fermer xo‘jaliklari uchun maxsus moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi namunaviy schyotlar rejasи tasdiqlandi. Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shakli quyidagi shakllar bo‘yicha yuritilishi mumkin:

- a) buxgalteriya hisobining oddiy shakli;
- b) buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shakli.

Fermer xo‘jaligi o‘zining ishlab chiqarish va boshqaruv talablaridan kelib chiqqan holda ushbu tavsiya etilgan ikkita shakldan birini mustaqil tanlaydilar.

Nizomga muvofiq fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobining tanlangan shaklidan qat’iy nazar, hisobot davrining xo‘jalik operatsiyalari xronologik tartibda «Xo‘jalik operatsiyalarini qayd etish jurnali»da ro‘yxatga olib boriladi. Xo‘jalik operatsiyalarini qayd etish jurnali kitob shaklida yuritiladi, unda xo‘jalik operatsiyalarining qayd etilishi va hisobi hisobot davri uchun oylar yoki choraklar kesimida yuritiladi. Bunda, xo‘jalik operatsiyalarini qayd etish jurnali tikilgan va raqamlangan bo‘lishi shart. Xo‘jalik operatsiyalarini qayd etish jurnalining so‘nggi varag‘ida fermerning imzosi bilan «Mazkur jurnalda ..... varaq raqamlangan» deb yoziladi va muhr bilan tasdiqlanadi. Varaqlar soni yozuv bilan yoziladi.

Buxgalteriya hisobining oddiy shaklida fermer xo‘jaliklarida xo‘jalik operatsiyalari hisobini yuritish uchun maxsus «Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga

olish kitobi» registri qo'llaniladi. Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida operatsiyalar hisobi butun hisobot yili davomida yuritiladi. Bunda, xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobi tikilgan va raqamlangan bo'lishi shart. Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobining so'nggi varag'ida fermerning imzosi bilan «Mazkur Kitobda ..... varaq raqamlangan» deb yoziladi va muhr bilan tasdiqlanadi. Varaqlar soni yozuv bilan yoziladi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida xo'jalik operatsiyalari natijalari aktivlarni, majburiyatlarni, xususiy kapitalni, daromadlar, xarajatlar, foya va zararlarni hisobga oluvchi schyotlarda aks ettiriladi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida yozuvlar tizimli tartibda «Xo'jalik operatsiyalarini qayd etish jurnalı»da keltirilgan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobi kombinatsiyalashgan registr hisoblanadi, unda fermer xo'jaliklari tomonidan qo'llaniladigan barcha schyotlar mavjud bo'ladi va ularning har birida xo'jalik operatsiyalari hisobini yuritish imkoniyatini yaratadi. Bunda, balansning tegishli moddalarining mazmunini asoslab berish uchun u yetarli darajada bat afsil bo'lishi lozim. Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida har bir qo'llanilayotgan buxgalteriya schyoti uchun aniq buxgalteriya schyotlari bo'yicha o'tgan yillarning tajribasini hisobga olgan holda, xo'jalik operatsiyalarining kutilayotgan hajmidan kelib chiqqan holda, ma'lum betlar ajratiladi.

Xo'jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobi «20\_\_ yil «\_\_»\_\_\_\_\_ dagi qoldiq» qatorida aktivlarning, majburiyatlarning va xususiy kapitalning har bir turi bo'yicha hisobot davrining boshida mavjud bo'lgan qoldiq summasi yozushi bilan ochiladi. Aktiv schyotlarning qoldig'i ushbu schyotlarning debitida, passiv schyotlar bo'yicha qoldiq esa ushbu schyotlar kreditida yoziladi.

Har bir qatorda tegishli buxgalteriya schyoti bo'yicha yozuvlar xo'jalik operatsiyalarini qayd etish jurnalida keltirilgan buxgalteriya yozuvlari (provodkalar) ma'lumotlari asosida pozitsiya usulida xronologik ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Har bir oyning (chorakning) oxirida xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida yakun chiqariladi va unga asosan fermer xo‘jaligi faoliyatining natijasi aniqlanadi.

Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida yuritilgan aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni hisobga oluvchi schyotlarning qoldiqlari 1-sonli shakl «Buxgalteriya balansi»ga o‘tkaziladi.

Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish kitobida yuritilgan daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarning hisobot davridagi aylanmasi 2-sonli shakl «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»ga o‘tkaziladi.

Buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shaklini yuritishda buxgalteriya hisobining quyidagi hisob qaydnomalaridan foydalilanadi:

- a) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish qaydnomasi;
- b) moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish qaydnomasi;
- v) kapital qo‘yilmalarni hisobga olish qaydnomasi;
- g) tayyor-moddiy zaxiralarni hisobga olish qaydnomasi;
- d) boquvdagi va o‘sirishdagi hayvonlarni hisobga olish qaydnomasi;
- e) xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;
- j) boshqa debtorlik qarzlarini hisobga olish qaydnomasi;
- z) pul mablag‘larini hisobga olish qaydnomasi;
- i) mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;
- k) hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;
- l) mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisob-kitoblarni hisobga olish qaydnomasi;
- m) boshqa majburiyatlarni hisobga olish qaydnomasi;
- n) xususiy kapitalni hisobga olish qaydnomasi;
- o) hisobot davri xarajat (sarflarini hisobga olish qaydnomasi;
- p) dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi;
- r) chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi;

s) yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari va xizmatlarini hisobga olish qaydnomasi;

t) sof foyda (zarar)ni hisoblash qaydnomasi;

u) xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish jamlanma qaydnomasi.

Alohiba ob’ektlar hisobi uchun mo‘ljallangan ushbu qaydnomalarning yuritilish tartibiga keyingi boblarda alohiba to‘xtalamiz.

Davlatimiz tomonidan iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish borasida olib borilayotgan tadbirlar bevosita qishloq xo‘jaligiga ham dahldordir. Dehqonchilik va chorvachilik sohalari moddiy texnika bazasini yangi texnika va texnologiyalar kiritish asosida yaxshilash, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, kengaytirish va rekonstruktsiya qilish, suv ta’minoti va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash buxgalteriya hisobi oldiga ushbu ishlarga ketgan sarf-xarajatlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hujjathashtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonlari sintetik va analitik hisobini yuritish, tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini to‘g‘ri aniqlash, sotilgan mahsulotlar tannarxini aniq kalkulyatsiya qilish, ularni hisobot davri daromadlariga hisoblash tamoyiliga asosan kiritish, o‘zaro hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshirish kabi muhim vazifalarni qo‘yadi.

Qishloq xo‘jaligining xususiyatlari fermer xo‘jaliklarida ularning mulki hamda bu mulkni tashkil qilish manbalari hisobi oldiga ham muhim vazifalarni qo‘yadi. Masalan, asosiy vositalar hisobi va hisobot tizimi ushbu aktivlar tarkibidagi qimmat turadigan qishloq xo‘jaligi texnikasi, omborxonalar, maxsus bino va inshoatlarning holati va harakati, ularning ish faoliyati, amortizatsiyalanishi va boshqa jihatlari to‘g‘risida bat afsil ma’lumotlarni berishi lozim.

Qishloq xo‘jaligi ishlarining belgilangan muddatlarda bajarilishi tegishli xom ashyo va materiallarning o‘z vaqtida kelib tushishiga, ular bo‘yicha tasdiqlangan limitning mavjudligi, butligi va sifatiga bevosita bog‘liqdir. Bundan tashqari kelib tushayotgan materiallar qiymatini (tannarxini) to‘g‘ri baholash, ular hisobini baholashning u yoki bu usulda yuritilishi yetishtirilayotgan mahsulotlarning

tannarxiga, ularni sotishdan olinadigan daromadlarga, fermer xo‘jaliklarining sof foydasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bularning barchasi qishloq xo‘jaligi xo‘jaliklarida materiallar hisobi oldiga ular qiymatini to‘g‘ri baholash, materiallar holati va harakati ustidan usliksiz nazoratni olib borish, ular kirimi va chiqimiga doir hujjatlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida rasmiylashtirish, ushbu boyliklar ombor va buxgalteriya hisobi registrlarini belgilangan tartibda yuritishdek muhim vazifani qo‘yadi.

Qishloq xo‘jaligi ishlari boshqa ishlardan farqli o‘laroq kollektiv mehnatga tayanadi, ya’ni ularni olib borishda mehnatni tashkil qilishning brigada shakli keng qo‘llaniladi. Mos ravishda bajarilgan ish va xizmatlarga haq to‘lashda ham mehnatning brigada shakli asos qilib olinadi. Qishloq xo‘jalik ishlarining yaxlit brigada a’zolari tomonidan bajarilishi jami hisoblangan ish haqini, unga qo‘shimchalarni brigada a’zolari o‘rtasida ularning mehnatdagi haqiqiy ishtirokiga mos tarzda to‘g‘ri taqsimlab chiqish va hisobini yuritish vazifasini qo‘yadi.

Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari o‘z faoliyatini yuritishda xo‘jalik hisobi tamoyiliga asoslanuvchi sub’ektlar hisoblanadi, ya’ni ular o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta’minalashlari, olgan daromadlari evaziga xarajatlarini to‘liq qoplashlari va pirovardida foya olishlari lozim. Bu tamoyilga amal qilish talabi buxgalteriya hisobi tizimi oldiga daromadlar, xarajatlar va yakuniy moliyaviy natijalar ko‘rsatkichlarini milliy pul birligida tizimli aks ettirishdek muhim vazifani qo‘yadi.

Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari boshqa xo‘jaliklar singari davlatimizning soliq qonunchiligida nazarda tutilgan soliqlar va ajratmalarning to‘lovchilari hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi tizimi qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari tomonidan to‘lanadigan tegishli soliqlar va majburiy ajratmalarni to‘g‘ri hisoblanishi, ularni o‘z vaqtida byudjetga o‘tkazib berilishiga xizmat qilishi lozim.

## **1.2. Agrar sektor xo‘jaliklarida xarajatlarning tarkibi, ularning turkumlanishi va hisobining tashkiliy- uslubiy asoslari**

Bugungi kunda xarajatlarni hisobga olish va nazorat qilishni bozor talablari asosida tashkil etish muhim masalalardan hisoblanadi. Shu boisdan xarajatlarni tavsiflash, hisobni boshqarish tizimidagi innovatsiyalar, jumladan xarajatlarni optimallashtirish modellari zarur bo‘lmoqda. Strategik rejalashtirish, hisob, nazorat va tahlilning markaziy ob’ekti sifatida xarajatlar korxonaning foydasiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil bo‘lib, uning ta’sir darajasini boshqaruv qarorlarini, jumladan, strategik qarirlarni qabul qilish orqali ahamiyatli darajada tartibga solinadi.

Ma’lumki, xarajatlarni shakllantirishning nazariy asoslari va normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan respublikamizda amalda xarajatlarni tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom hisoblanadi. Zamonaviy nazariyada xarajatlar tushunchasi xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatining buxgalteriya hisob-kitoblarida aks etadigan xarajatlar tushunchasidan farq qiluvchi ba’zi bir jihatlarga ega. Chunki buxgalteriya hisob-kitoblarida xarajatlar mazkur fanning usullari, printsiplari va rasmiy belgilangan talablari asosida shakllantiriladi. Xo‘jalik sub’ektlari faoliyatidagi xarajatlar to‘g‘risida iqtisodiy ma’lumotlarni ob’ektiv shakllantirish masalasi - buxgalteriya hisobi va uning usullari orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislarining «Xarajat», «Tannarx» va «Kalkulyatsiya» tushunchalarining iqtisodiy mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan ta’riflari va fikr-mulohazalari e’tiborga molikdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib «xarajat» tushunchasining mohiyatini aniq ta’riflash zarur bo‘ladi. Shu boisdan «xarajat» tushunchasini ta’riflashga

xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining yondashuvlarni ko'rib chiqamiz. Quyidagi jadvalda «xarajat» tushunchasiga yondashuvlar berilgan (1.2.1-jadval).

### **1.2.1-jadval**

#### **“Xarajat” tushunchasining mohiyatini ochib berishga asosiy ta’riflar va yondashuvlar**

Ma'lumot manbai	Xarajat tushunchasiga berilgan ta'riflar va yondashuvlar
«O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» O'zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent, 2000. - 392b.	Xarajatlar - tovarlarni ishlab chiqarish va muomala jarayonida turli resurslar (xom ashyo, materiallar, mehnat, xizmatlar, mablag'lar) sarflari bilan bog'liq chiqimlarning pul shaklidagi ifodasi
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari <a href="https://mf.uz/media/file/buh-uchet/2021/msfo_proekti/26_04_2021/Uzb_GVT_BB2020_IAS01.pdf">https://mf.uz/media/file/buh-uchet/2021/msfo_proekti/26_04_2021/Uzb_GVT_BB2020_IAS01.pdf</a>	Xarajat-hisobot davrida iqtisodiy foydani aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o'rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir.
O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos”(AV 09.09.2016 y. 475-1-son bilan ro'yxatga olingan)	Xarajatlar – hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko'payishidir
A.Karimov, F.Islomov, A.Avloqulov. Buxgalteriya hisobi.-T: «Sharq» NMAK, 2004.-93 b.	Xarajatlar - hisobot davrida iqtisodiy foydani aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir
A.X.Pardaev va B.X. Pardaevlar Boshqaruvin hisobi. Toshkent –»G'ofur G'ulom» -2008-49b	«xarajat-ishlab chiqarish hajmi-foyda» ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligida ifodalanadi
A.K.Ibragimov., I.Ochilov, I.Qo'ziev, N.Rizaev Moliyaviy va boshqaruvin hisobi./O'quv qo'llanma.-T.: «IQTISOD-MOLIYA» 2008. - 444 b.	Xarajat – bu moddiy resurslarni sotib olishga qilingan sarflar bo'lib, daromadlar va xarajatlar kontseptsiyasiga ko'ra, o'sha davrning o'zida daromad keltirishi kerak
B.A.Xasanov., A.A.Xashimov. Boshqaruvin hisobi. Darslik. - Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyoti NMIU, 2013. – 312 b.	Xarajatlar - mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlar sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sarflarning puldagi ifodasidir
M.Y.Raximov., N.N.Kalandarova Moliyaviy tahlil. Darslik.-Toshkent-“Iqtisodiyot-moliya”, 2019-738 b.	Xarajatlar- muayyan davr oralig'ida sarflangan resurslarning pul o'chovidagi qiymatidir.
B.Ro`zmetov, O.Bekturdiev, Q.Yo`idasheva, S.Matkarimov. Tannarx kalkulatsiyasi. Toshkent,»ILM ZIYO», 2006.-230 b.	Xarajatlar - mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish uchun sarflangan xarajatlar
H.IO.Носкова. Учет затрат, калкулирование и бюджетирование в различных отраслях производственной деятельности: Учебное пособие Н.Ю.Носкова. -Ульяновск: УГТУ, 2009. - 124 с	Xarajatlar - bu korxonaning o'z faoliyati jarayonida foydalanadigan resurslar qiymatining bahosi

Sharhlangan manbalarga tayanib ta'kidlash mumkinki, xarajatlar tushunchasi tannarx va kalkulyatsiya tushunchalaridan kengroqdir. Xarajatlar xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z maqsadlariga erishish uchun va oldiga qo'ygan vazifalarni hal qilish uchun amalga oshirgan sarf va chiqimlarning puldagi ifodasi hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlarning ta'rif va yondashuvlarini e'tirof etgan holda «xarajat» tushunchasiga quyidagicha mualliflik yondashuvimizni keltiramiz: «**Xarajat** - xo'jalik yurituvchi sub'ekt maqsadiga erishish uchun mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi moddiy, nomoddiy, mehnat va boshqa sarflarning puldagi ifodasidir».

Xo'jalik yurituvchi subektda va uning ayrim olingan bo'limlarida ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini aks ettiradigan ko'rsatkichlarning umumiy tizimida tannarx ko'rsatkichi asosiy o'rin tutadi. Chunki tannarxonning tarkibi uni tashkil qiladigan tegishli xarajatlar yig'indisidan iboratdir.

Tannarx mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish orqali mahsulot qiymatini yaratish bilan bog'liq xarajatlardir. Tannarx hisoblash xarajat normalari va normativlarining ilmiy asoslanganligini baholash, ularning dinamikasini nazorat qilish va tannarxni pasaytirish rezervlarini aniqlash hamda mahsulotlarning bozor bahosini belgilash va uni tezkor qayta ko'rib chiqishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bois, «Tannarx» tushunchasiga ham ilmiy va o'quv-uslubiy manbalardagi yondashuvlarni ilmiy sharhlashimiz maqsadga muvofiq quyidagilar asosida tahlil qilamiz.

Shu boisdan «Tannarx» tushunchasini ta'riflashga xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining yondashuvlarni ko'rib chiqamiz. Quyidagi jadvalda «Tannarx» tushunchasiga yondashuvlar berilgan (1.2.2-jadval).

Yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlarning ta'rif va yondashuvlarini o'rgangan holda «Tannarx» tushunchasiga quyidagi mualliflik yondashuvni shakllantirildi: «**Tannarx** - bir birlik ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun qilingan jami joriy xarajatlarning puldagi ifodasidir».

## 1.2.2-jadval

### «Tannarx» tushunchasi iqtisodiy mazmunini ochib berishga asosiy yondashuvlar

Ma'lumot manbai	Tannarx tushunchasiga berilgan ta'riflar va yondashuvlar
«O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti Toshkent. – 2000. -264 b.	Tannarx, mahsulot tannarxi – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hamda ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun qilgan jami joriy xarajatlarining pul shaklidagi ifodasi
B A Xasanov, A.A Xashimov. Boshqaruv hisobi. Darslik –Toshkent Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi- 2003-260 b.	Mahsulot tannarxi – mahsulotlar ishlab chiqarishga sarflangan bevosita xarajatlarning yig'indisi
R.D.Dusmuratov., B.Yu.Menglikulov. Qishloq xo`jaligidagi buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. T.: «Fan va texnologiya» 2014, 392 b.	Tannarx - xo`jalik ishlab chiqarish va moliya faoliyatining muhim iqtisodiy ko'rsatkichidir
B.Ro`zmetov, O.Bekturdiev, Q.Yo`idasheva, S.Matkarimov. Tannarx kalkulatsiyasi. Toshkent, «ILM ZIYO», 2006.-230 b.	Tannarx-mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish uchun ketgan xarajatlarning puldagi ifodasi
H.YU.Носкова. Учет затрат, калкулирование и бюджетирование в различных отраслях производственной деятельности: Учебное пособие Н.Ю.Носкова. -Ульяновск: УГТУ, 2009. - 124 с	Tannarx – bu xarajatlarning shunday bir turiki, qaysiki qabul qilingan har bir aniq vaziyatda moliyaviy hisobotlarni tuzishning eksportbopları va tamoyillari asosida moliyaviy natijalarni kamaytirish (ya'ni daromaddan chegirish)ga ruxsat etilgandir
B.E.Керимов Учет затрат, калкулирование и бюджетирование в отдельных отраслях производственной сферы. - Москва, 2005. - 246 с.	Mahsulot tannarxi - bu korxonaning pul ko'rinishidagi jami xarajatlari bo'lib, uning negizida mahsulotni ishlab chiqarish va sotishda ishlab chiqarishning muomala xarajatlari yotadi
A.T.Maxkambaev, F.T.Abduvaxidov, D.A.Satylvaldieva, E.T.Shodiev. Калкуляция себестоимости: Учебное пособие. -T: «ILM ZIYO», 2012. - 208 s	Mahsulot tannarxi - bu korxonaning ishlab chiqarish va mahsulot sotish uchun amalga oshirilgan jami xarajatlarning pul ko'rinishidagi ifodasi bo'lib, uning negizida ishlab chiqarishning muomala xarajatlari yotadi

Erkin iqtisodiyot sharoitida kalkulyatsiyaning mohiyati aniq ishlab chiqarish sharoitlari, xarajatlarni taqqoslash uchun tannarx ko'rsatkichlariga ega bo'lish, baho belgilash, nazorat va qaror qabul qilish hamda mahsulotlar tannarxini hisoblash usullarini qo'yilgan maqsadlar uchun qo'llash zarurati bilan belgilanadi.

Kalkulyatsiya mohiyatiga iqtisodiy adabiyotlarda turlicha ta’rif va yondashuvlar keltirilgan (1.2.3-jadval).

### **1.2.3-jadval**

#### **«Kalkulyatsiya» tushunchasining mohiyatini ohib berishga qaratilgan ta’rif va yondashuvlar**

Ma'lumot manbai	Kalkulyatsiya tushunchasiga berilgan ta'riflar va yondashuvlar
«O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi» O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti Toshkent – 2000. - 407 b.	Kalkulyatsiya (lot. calculatio, calculo - hisoblayman, hisob-kitob) - mahsulot birligi yoki bajarilgan ish tannarxini hisoblab chiqarish
A.T.Maxkambaev, F.T.Abduvaxidov, D.A. Satyvaldieva, E.T. Shodiev. Kalkulyatsiya sebestoimosti: Uchebnoe posobie. - T: Izdatelskiy dom «Ilm ziyo», 2012 g.-208 s	Kalkulyatsiya - bu bir birlik mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxini hisoblash (hisoblash jarayonining yig‘indisi) usulidir
A.A.Karimov, F.R.Islomov, A.Z.Avlaqulov Buxgalteriya hisobi.-T.: “Sharq”, 2004.- 592b.	Kalkulyatsiya - bu korxona faoliyatini boshqarish jarayonida sarflangan xarajat-larni va ishlab chiqarilgan mahsulot, ish yoki xizmat birligining tannarxini aniqlash usulidi
R.D.Dusmuratov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. - T.: «Fan va texnologiya», 2013, 476 b.	Kalkulyatsiya - tayyorlangan materiallar, ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatning tannarxini aniqlashdir
B.Ro`zmetov, O.Bekturdiev, Q.Yo`idasheva, S.Matkarmov. Tannarx kalkulatsiyasi. Toshkent,»ILM ZIYO», 2006.-230 b.	Kalkulyatsiya - mahsulot yoki bajarilgan ishlarning ayrim turlari bo‘yicha ularning birligiga to‘g‘ri keladigan xarajatlarni pul ifodasida hisoblashga aytildi
Учет затрат, калкулирование и бюджетирование в различных отраслях производственной деятельности: Учебное пособие Н.Ю.Носкова. - Ульяновск: УГТУ, 2009. - 124 с	Kalkulyatsiya - korxonada u yoki bu turdagи mahsulotni ishlab chiqarish yoki korxonaning ma'lum bir faoliyatini amalga oshirishda zarur bo‘ladigan xarajatlar ro‘yxatidir

Ular tomonidan keltirilgan fikrlarning hammasi samarali iqtisodiy muhitni shakllantirishi hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning boshqaruв qarorlarini qabul qilishda yordam berishi bilan tavsiflanadi.

**«Kalkulyatsiya** - bir birlik mahsulot (ish, xizmat)ning tannarxini hisoblab chiqarish usulidir» mazmunidan mualliflar fikriga qo‘shilamiz. Ammo berilgan ta’rif va yondashuvlar ham mutlaq to‘liq deb hisoblanmaydi. Bu tushunchalar bo‘yicha yana ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilishi zarur deb hisoblaymiz.

Xo‘jaliklarida xarajatlar hisobini to‘g‘ri va samarali tashkil qilish ko‘p jihatdan ushbu faoliyat xarajatlari tarkibini to‘g‘ri belgilash va ularning

turkumlanishini amalga oshirishga bog‘liq bo‘ladi. Chunki ular xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘liq shakllanishi va batafsil bo‘lishi uchun sharoit yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldag‘i 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq mahsulot (ish, xizmat) larning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra quyidagi elementlar bo‘yicha guruhlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarish bilan bog‘liq moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqindilar qiymati chegirilgan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnat haqi xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirish qiymati.

Ko‘rinib turibdiki, mazkur Nizom mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha tarmoqlari uchun yagona normativ hujjat hisoblanadi.

Shu bois, iqtisodiyotning muayyan tarmog‘i va uning quyi tarmog‘ida xarajatlarni elementlar bo‘yicha guruhlash korxona tomonidan hisobot davrida nima va qancha sarflandi degan savolga javob beradigan axborotlarni olish zaruratidan kelib chiqishi zarur.

Bundan tashqari, 4-BHMSning «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish xarajatlari (tugallanmagan ishlab chiqarish) » deb nomlangan 10-bandida «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish xarajatlari bevosita va bilvosita, o‘zgaruvchan va doimiy ishlab chiqarish xarajatlarini o‘z ichiga oladi» deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Mamlakatimizning bir qator iqtisodchi olimlari tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xarajatlarning tarkibi va ularning turkumlanishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar va bu bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalari hamda takliflarini bergenlar.

Jumladan, iqtisodchi olimlar B.Ruzmetov, O.Bekturdiev, Q.Yo'ldasheva, S.Matqulieva, D.Matkarmovlar xarajatlar tarkibiga ko'ra, barcha xarajatlar elementli va kompleks xarajatlarga bo'linadi deb ta'kidlaydilar. Ularning yozishicha, fermer xo'jaliklari dastlab tashkil topa boshlagan paytda, xarajatlarni quyidagi tartibda turkumlash maqsadga muvofiq. Xususan:

- «— mehnat xarajatlari (faqat yollangan shaxslar uchun);
- materiallar va ularga tenglashtirilgan sarflar (em-xashak, yonilg'i, materiallar);
- moliyaviy sarflar (sug'urta to'lovleri, kredit uchun foizlar) ».

Xarajatlar tarkibidan ko'rinish turibdiki, ular fermer xo'jaligida sodir bo'ladigan barcha munosabatlarni o'z ichiga qamrab olmagan. Xo'jalik amaliyotida mazkur tartibning qo'llanilishi xarajatlar hisobini tashkil etish va yuritishda ma'lum noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Iqtisodchi olim A.Rizaqulovning fermer xo'jaliklarida xarajatlar tarkibi bo'yicha bildirgan fikrlari, boshqa iqtisodchilar qarashlariga nisbatan ham shaklan, ham mazmunan batafsilroq. Uning fikricha, xarajatlar tarkibi va tuzilishi bo'yicha keng qamrovli bo'lib, quyidagi ko'rinishda yuzaga chiqadi:

- «A) mehnat haqi (doimiy ishchilar va chetdan jalg qilinganlar uchun);
- B) material xarajatlari – urug', o'g'it, elektr quvvati, yonilg'i va moylash materialari;

- amortizatsiya ajratmalari;
- ijara to'lovleri;
- bajarilgan ishlar va xizmatlar.

V) pul xarajatlari».

Biroq, mazkur qarashning ham ma'lum cheklangan tomoni shundaki, unda faqat xarajatlar ishlab chiqarish yo'nalishida ta'riflanadi, xo'jalikni boshqa faoliyat uchun sarflari e'tiborga olinmagan. Albatta, buning o'ziga xos ob'ektiv va sub'ektiv sabablari mavjud. Chunki mazkur davrlarda fermer xo'jaliklari endigina tashkil etilayotgan bo'lib, ular asosan o'ta kichik xo'jalik, asosan oilaviy fermer

xo‘jaliklari shaklida faoliyat ko‘rsatar edi. Tabiiyki, kichik xo‘jalikning mexanizmi o‘ziga muvofiq ustqurmani talab etgan.

Professor N.Yu.Jo‘raev fermer xo‘jaliklari xarajatlarini quyidagicha tartiblaydi:

- «1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi.
- 2. Sotish xarajatlari.
- 3. Ma’muriy xarajatlar.
- 4. Boshqa xarajatlar.
- 5. Foyda solig‘i».

Ushbu tartib soddalashgan ko‘rinishi bilan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Iqtisodchi olim B.J.Hakimov fermer xo‘jaliklari faoliyati moliyaviy natijalarini aniqlashtiradigan xarajatlar tarkibini taklif etgan:

- «A) Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi:
  - bevosita va bilvosita moddiy xarajatlari;
  - bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;
  - ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar;
  - bevosita va bilvosita amortizatsiya ajratmalari;
  - boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan ustama xarajatlar.

#### V) Davr xarajatlari:

- sotish xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlari;
- asosiy faoliyatning boshqa xarajatlari va zararlari.

#### S) Umumxo‘jalik faoliyatiga tegishli boshqa xarajatlar (turlari bo‘yicha) ».

Fikrimizcha, muallifning bu taklifida quyidagi afzalliklar mavjuddir. Ya’ni :

- fermer xo‘jaligi faoliyatidagi moliyaviy natijalarini aniqlashtiradigan barcha turdagи xarajatlarni qamrab oladi;
- xarajatlar hisobi bo‘yicha boshqaruv va moliyaviy hisob ishlarida uzviy birlik va o‘zaro muvofiqlikni ta’minlaydi;

– xarajatlar tarkibi yuzaga chiqish shakli va tarkibiga ko‘ra respublikamizda amalda bo‘lgan normativ hujjatlar talablariga mos keladi, deb hisoblagan.

Bir qator xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari xarajatlarni bir necha belgilari bo‘yicha turkumlanishida yiriklashtirilgan holda bo‘lishini taklif qilganlar, boshqalari, aksincha turli belgilari bo‘yicha turkumlanishni tavsiya etganlar. Masalan, iqtisodchi olimlar A.Ibragimov, I.Ochilov, I.Qo‘ziev, N.Rizaevlar fikricha ishlab chiqarish xarajatlarini quyidagi tartibda turkumlarga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

#### **1.2.4-jadval**

<b>Tasniflash belgisi</b>	<b>Tasniflash elementlari</b>
1. Mahsulotni tayyorlashdagi texnik-iqtisodiy roliga qarab	- asosiy ; - ustama
2. Ayrim mahsulot turlarining tannarxiga qo‘shilishi (taqsimlanishi)ga qarab	- bevosita (to‘g‘ri); - bilvosita (egri).
3. Tayyorlanayotgan mahsulot miqdoriga bog‘liqligiga qarab	- o‘zgaruvchan; - o‘zgarmas
4. Xarajatlarning turiga qarab	- iqtisodiy elementlar; - kalkulyatsiya moddalari.
5. Tarkibiga qarab:	- bir elementli; kompleks.
6. Ishlab chiqarish bilan bog‘liqligiga qarab:	- ishlab chiqarishdagi; - noishlab chiqarishdagi.
7. Mahsulot tannarxini hosil qilishdagi xarakteriga qarab:	- unumli; - unumsiz.
8. Rejaga kiritilishiga qarab:	- rejalshtiriladigan; - rejalshtirilmaydigan.
9. Hosil bo‘lish joyiga qarab:	- sex; uchastka; bo‘lim; brigada.
10. Taqvim davriga tegishliliga qarab:	- joriy davr; kelgusi davr; - keljakdagli xarajatlar rezervi.

Soha mutaxassislari A.X.Pardaev, Z.A.Pardaevalar quyidagi klassifikatsiya bo‘yicha xarajatlarni turkumlaganlar.

#### **1.2.5-jadval**

<b>Nº</b>	<b>Klassifikatsiya belgilari</b>	<b>Xarajatlar turlari</b>
1	Ishlab chiqarish jarayonidagi iqtisodiy roliga qarab	Asosiy va ikkilamchi
2	Ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga kiritilishiga qarab	To‘g‘ri va egri (bevosita va bilvosita)
3	Ishlab chiqarish hajmiga nisbatan	O‘zgaruvchan va doimiy
	Shu kabi jami o‘n sakkizdan ortiq belgilariga qarab klassifikatsiya qilinadi	

Professor R.D.Dusmuratov tomonidan xarajatlar quyidagicha turkumlangan.



Muallifning xarajatlarni bunday tartibda turkumlarga ajratishi ancha soddalashgan tasnifi ko‘zga tashlanadi.

Soha mutaxassisni B.T.Eshnaev tomonidan yog‘-moy mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sub’ektlarda xarajatlarni quyidagicha turkumlagan.

### 1.2.6-jadval

Xom-ashyoni tayyorlash xarajatlari	Tayyorlov-ta’milot faoliyatiga bog‘liqligiga qarab
chigitni presslash xarajatlari	
filtrlash xarajatlari	
mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar	
taqsimlanishi lozim bo‘lgan xarajatlar	
boshqa ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog‘liq xarajatlar	
asosiy ishlab chiqarish xarajatlari	Ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liqligiga qarab
yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari	
ishlab chiqarish quvvatlarini ishlatish va asrash xarajatları	
umumiyl ishlab chiqarish xarajatlari.	
tayyor mahsulotni yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar	Ma’muriy-boshqarish va

	tijorat faoliyati bilan bog'liqligiga qarab
to'lanadigan komission yig'imlar	
marketing axborotlarini yig'ish, tarqatish va marketing tadqiqotlari bo'yicha xarajatlar	
reklama xarajatlari	
vakillik xarajatlari	
bir turdag'i mahsulot (yog', sovun, shrot va h.k.) ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar	Mahsulot turlarini ishlab chiqarilishiga qarab
bir necha turdag'i mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar	

Yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda xarajatlarni mazkur tartibda guruhlashtirishning quyidagi afzalliklari mavjud: javobgarlik markazlarida mavjud ortiqcha xarajat turlarini aniqlash; faoliyat segmentlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini hisoblashning aniqligini oshirish; xarajatlarni faqatgina ularni ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq ravishda qat'iy taqsimlash mumkinligini ko'rsatgan.

Iqtisodchi olim B.J.Hakimov tomonidan fermer xo'jaliklarida xarajatlarni tasnif qilish mezonlariga quyidagicha berilgan.

### 1.2.7-jadval

Tasnif mezonlari	Xarajatlar tasnifi		
Ishlab chiqarishda qatnashuviga ko'ra	ishlab chiqarish	noishlab chiqarish	
Mahsulot tannarxiga qo'shilishiga ko'ra	to'g'ri	egri	
Mahsulot hajmi o'zgarishiga bog'liqligiga ko'ra	o'zgaruvchan	o'zgarmas	shartli o'zgarmas
Sotishdan olingan tushumga bo'lgan munosabati (hisobdan chiqarish davri) bo'yicha	Mahsulot tannarxi	Davr xarajatlari	
Xarajat turiga ko'ra	Iqtisodiy elementlar	Kalkulyatsiya moddalari	Xarajat ob'ektlari
Tarkibiga ko'ra	bir element (oddiy)	Kompleks (murakkab)	
Hosil bo'lish joyiga ko'ra	Asosiy tarmoq	Yordamchi tarmoq	Boshqa sohalardagi
Davriga qarab	Joriy yilgi	kelgusi yilgi	o'tgan yilgi
Rejaga kiritilishiga ko'ra	Rejalaشتi riladigan	Rejalaشتi rilmaydigan	
Me'yoriy hisob bo'yicha	me'yor	Me'yordan chetga chiqish	Me'yoriy o'zgarish
Fermer xo'jaligiga tegishli bo'lish yoki bo'lmasligi bo'yicha	fermer xo'jaligi xarajatlari	fermer oilasi xarajatlari	
Uzluksiz nazoratda bo'lishga majburligiga ko'ra	uzluksiz nazorat ostidagi xarajatlar	Uzluksiz nazorat qilinmaydi gan xarajatlar	
Zimmaga tushgan xarajatlar	Sarflanishi tanlab olingan xarajatlar	voz kechilgan xarajatlar	
Muqobil xarajat farqlari			

Bu iqtisodchi olimlarimiz ham xarajatlarni turkumlashda har bir ob'ekt bo'yicha ajratgan. Xarajatlarning tasniflash elementlari to'liqroq berilgan.

Bu xarajatlarning turkumlanishi qishloq xo'jaligi to`liq tarmog'i xarajatlarini turkumlanishini qamrab olmaydi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni e'tirof etgan holda xo'jaliklarida xarajatlar tarkibi o'zining ishlab chiqarish –texnologik xususiyatlaridan kelib chiqib shakllantirilishi lozim deb hisoblaymiz. Xususan, dehqonchilikda qilinadigan xarajatlar o'zgaruvchan va notekis hisoblanadi. Shu bois, xarajatlar tarkibi boshqa tarmoqlardan farq qilinadi.

Yuqoridagi xarajatlar turkumlanishiga yondashuvlarni e'tirof etgan holda sharxlangan ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar normativ hujjatlar va amaliyotni o'rganish natijalariga asoslanib xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlarini quyidagicha turkumlanadi. Demak, xo'jaliklarida moliyaviy natijalarni to'g'ri shakllantirish maqsadida xarajatlar - xo'jaliklarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib hamda amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari asosida turkum va tarkiblarga ajratiladi. Amaldagi xarajatlar tarkibi va tasnifiga hamda bu boradagi xalqaro tajribalarga ijodiy yondashgan holda xarajatlar tarkibi va ularning turkumlanishi quyidagi jadvalda keltirilgan.

### **1.2.8-jadval**

<b>Tasniflash belgisi</b>	<b>Tasniflash elementlari</b>
Iqtisodiy element (maqsaddan qat'iy nazar xarajatlarning yagona turi) bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqindilar qiymati bundan mustasno);</li> <li>- mehnat xarajatlari;</li> <li>- ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalar;</li> <li>- amortizatsiya xarajatlari;</li> <li>- boshqa xarajatlar</li> </ul>
Xarajat elementi (xarajatlarning mo'ljali bo'yicha)	<ul style="list-style-type: none"> <li>- ishlab chiqarishda foydalaniladigan moddiy resurslar:</li> <li>- urug'lar va ko'chat materiallari, o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari, neft mahsulotlari, texnologik maqsadlar uchun yoqilg'i va energiya, ishi va xizmatlari.</li> <li>- ish haqi: asosiy, qo'shimcha, boshqa to'lovlar;</li> <li>- asosiy vositalar xarajatlari: amortizatsiya, boshqa xarajatlar</li> <li>- soliqlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar</li> <li>- boshqa xarajatlar</li> </ul>
Ishlab chiqarish jarayoniga munosabat bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mehnat xarajatlari;</li> <li>- mehnat vositalari xarajatlari;</li> </ul>

Xarajatga kiritish usuli bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- ishlab chiqarish xarajati bilan bevosita bog'langan to'g'ridan to'g'ri xarajatlar</li> <li>- mahsulotlarning ayrim turlarining qiymatiga bog'liq bo'lgan bilvosita (belgilangan bazaga mutanosib)</li> </ul>
Xarajatlar tarkibi bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- oddiy (bir elementli), bitta xarajat elementidan iborat</li> <li>- murakkab (kompleks) bir necha xarajat elementlaridan iborat</li> </ul>
Texnik va iqtisodiy tarkib bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- asosiy xarajatlar;</li> <li>- qo'shimcha xarajatlar (ishlab chiqarishni ta'minlash va boshqarish xarajatlari)</li> </ul>
Mahsulot hajmiga bog'liqlik yuzasidan bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- o'zgaruvchi xarajatlar (ishlab chiqarish hajmiga qarab)</li> <li>- shartli doimiy xarajatlar (mustaqil yoki ishlab chiqarish hajmiga bog'liq emas)</li> </ul>
Pul mablag'lari aylanish doirasi bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- muomala sohasi logistika xarajatlari (muomala xarajatlari);</li> <li>- ishlab chiqarish sohasining xarajatlari (ishlab chiqarish xarajatlari);</li> <li>- sotish xarajatlari (muomala xarajatlari)</li> </ul>
Vujudga kelish chastotasi bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- bir martalik xarajatlar;</li> <li>- hozirgi xarajatlar;</li> <li>- davriy xarajatlar</li> </ul>
Rejalashtirish qamrovi bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- rejalashtirilgan xarajatlar;</li> <li>- rejalashtirilmagan xarajatlar</li> </ul>
Me'yorlash qoplami bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- me'yorlashtirilgan xarajatlar;</li> <li>- me'yorlashtirilmagan xarajatlar</li> </ul>
Cheklov bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- cheklangan (soliq maqsadlarda) xarajatlar;</li> <li>- cheksiz xarajatlar</li> </ul>
Mahsulot tayyorligi darajasi bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- tayyor mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi;</li> <li>- yarim tayyor mahsulot tannarxi;</li> <li>- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari</li> </ul>
Boshqarish ob'ekti bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- ularning yuzaga kelish joyidagi xarajatlar;</li> <li>- xarajatlar markazi xarajatlari;</li> <li>- mas'uliyat markazi xarajatlari</li> </ul>
Xo'jalik faoliyatiga bog'liqlik bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- bog'liq xarajatlar;</li> <li>- mustaqil xarajatlar</li> </ul>

Yangicha yondashuv resurslardan foydalanishning eng maqlul yo'llarini topish, sarflarning eng samarali tomonlarini belgilash, maqbul nazorat yo'nalishlarini tanlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda mahsulotlarning xarajatlari va chiqishini aniq hamda o'z vaqtida hisobga olish muhim rol o'ynashi kerak. Qishloq xo'jaligida xarajatlar hisobining to'g'ri tashkil etilishi birinchi darajali ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning o'ta o'ziga xos tarmog'idir. Qishloq xo'jaligidagi mablag'larning aylanishiga ishlab

chiqarishning mavsumiylik xarakteri, jumladan ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotining chiqish davri o‘rtasidagi uzilish jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi: sohasidagi ishlab chiqarish xarajatlari uzoq vaqt davomida qilinib, u o‘ta notekis xarakterda bo‘ladi, mablag‘larni qoplash-mahsulotning chiqishi o‘simliklar pishib yetilishining tabiiy sharoitlari belgilaydigan vaqtida sodir bo‘ladi. Bu xususiyatlarning barchasini, tabiiyki, bu sohadagi xarajatlarni hisobga olishni tashkil qilishda nazarda tutmaslik mumkin emas.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish jarayoni ko‘p oylab davom etishi hamda xarajatlar bir-biri bilan bog‘langan ikki yil hosili uchun parallel qilinishi tufayli, buxgalteriya hisobi xarajatlarni yillar bo‘yicha aniq chegaralashi lozim. Shuning uchun qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligidagi xarajatlari buxgalteriya hisobida ikki qismga:

joriy yil hamda kelgusi yil hosiliga qilingan xarajatlarga ajratiladi.

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligida xarajatlar ayrim ishlab chiqarishlarda ko‘pincha aniq ekinlarni o‘stirishda ham amalga oshiriladi; bu ham buxgalteriya hisobida aniq qayd etilishi lozim. Shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlarining analistik hisobi ishlab chiqarish turlari va tegishli ekinlarni parvarish qilish bo‘yicha tashkil etaladi.

Qishloq xo‘jaligidagi ishlab chiqarish — bir vaqtida bo‘lib o‘tadigan jarayon emas. Ishlab chiqarish jarayoni yilning turli fasllarida (kuz, qish, bahor, yozda) bajariladigan har xil turdagи ishlardan tarkib topadi. Qishloq xo‘jaligidagi ishlab chiqarishning texnologik jarayoni quyidagi asosiy ishlar kompleksini: tuproqni ekishga tayyorlash, ekish, ekinlarni parvarish qilish, hosilni yig‘ishtirishni qamrab oladi. Bu komplekslarning har biri ko‘p sonli aniq ishlardan, masalan, tuproqni ekishga tayyorlash, haydash, boronalash, mola bostirish, g‘altaklash kabi ishlardan tarkib topadi. Demak, qilinadigan xarajatlar buxgalteriya hisobida bajarilgan ish turlari bo‘yicha chegaralanishi lozim.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonida aniq ishlarni bajarishda turli xarajatlar qilinadi: neft mahsulotlari, urug‘, o‘g‘it sarflanadi, mashinalar va

boshqa asosiy ishlab chiqarish vositalari qisman eskiradi, ishlab chnqarish ishchilari mehnatiga haq to‘lanadi va hokazolar.

Bu aniq xarajatlarning barchasi hisobga alohida-alohida to‘planishi lozim. Demak, qishloq xo‘jaligi xarajatlarini buxgalteriya hisobida umumiy summa bilan hisobga olib bo‘lmaydi; hisob moddama-modda (tannarxni hisoblashda ularning nomenklaturasiga muvofiq xarajat moddalari bo‘yicha) olib borilishi kerak.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining tarqoqligi tufayli bir turdag'i ishlar va xarajatlar xo‘jalikning turli bo‘linmalarida bir vaqtida qilinadi. Masalan, yer 1- va 2- sabzavot maydonida haydaladi va shu kabilar. Buxgalteriya hisobi qishloq xo‘jaligidagi xarajatlarni xo‘jalikning aniq bo‘linmalari bo‘yicha chegaralanishini ta‘minlashi lozim.

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi ishlab chiqarish jarayonining xususiyatlariga ko‘ra hisobda xarajatlar va tegishli yakuniy ma’lumotlarning olinishi chegaralanishi lozim:

- ishlab chiqarishning qo‘shni yillari bo‘yicha;
- ishlab chiqarish va ekinlarning asosiy turlari bo‘yicha;
- bajariladigan ishlarining asosiy turlari bo‘yicha;
- xarajatlarning asosiy .moddalari (turlari) bo‘yicha;

Birinchi belgiga kelganda, xarajatlar haqida ishlab chiqarish yillari bo‘yicha ma’lumotlarni alohida-alohida olinishijoriy yil va kelgusi yil mahsulotlari uchun xarajatlarning alohida analitik schyotlarini ochish hisobiga ta‘minlanadi. Odatda, har bir yil boshida oldingi yildan o‘tgan xarajatlar joriy yildagi mahsulot xarajatlariga qo‘shiladi (nomenklatura hisobi muvofiq kelmagan hollarda ularni alohida moddalar bo‘yicha taqsimlanadi); kelgusi yil hosiliga qilingan xarajatlar alohida ajratiladi.

*Xarajatlarni turlar bo‘yicha chegaralash*, ya’ni ularni moddama-modda hisobga olish schyotlar shakllarini tegishlicha tuzish hisobiga ta‘minlanadi. Ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar hisobi ko‘p grafali registrlarda olib borilib, unda ochilayotgan schyot bo‘yicha xarajatlarning har bir turini hisobga olishi uchun alohida grafalar ajratiladi.

*Xarajatlarni xo‘jalik bo‘linmalarini bo‘yicha chegaralash* odatda analitik hisobni tegishlicha tuzish hisobiga ta’milnadi. Odatda bu maqsadlarda ishlab chiqarish hisobotlari yoki ularning o‘rnini bosuvchi registrlardan foydalaniladi.

*Xarajatlarni ishlab chiqarish, ekin va bajariladigan ishlar turlari bo‘yicha chegaralash* ularni hisobga olishining turli usullarini qo‘llash vositasida ta’milanishi mumkin. Qishloq xo‘jaligida xarajatlarni hisobga olish va tashkil qilishning bir necha usullari ma’lum.

1. Ikki bosqichdagi: bajariladigan ish turlari va o‘sirilayotgan ekinlar bo‘yicha alohida hisob (yoki xarajatlarni ikki bosqich bo‘yicha hisobga olish).

Birinchi bosqichda xarajatlar hisobi bajariladigan ish turlari bo‘yicha qilinadi, ya’ni har bir ish turi bo‘yicha analitik schyotlar ochiladi. Ish yakunida uning tannarxi aniqlanadi va barcha xarajatlar ekin hisobi schyotiga ularni bajarilgan ish hajmiga proportional taqsimlash yo‘li bilan o‘tkaziladi.

Ikkinci bosqichda hisob ekinlar yoki ekinlar guruhlari bo‘yicha olib boriladi. Bu schyotlarga xarajatlarning asosiy turlar taqsimlash orqali tushadi (mehnatga haq to‘lash neft mahsulotlari va shu kabilar). Bajarilgan ishlarga bog‘liq bo‘lmagai ayrim hujjatlarga (urug‘, mineral o‘g‘it va boshqalar) schyotga to‘g‘ri yozilishi mumkin. Hisob mahsulot tannarxining hisoblash bilan yakunlanadi.

Shunday qilib, hisobning bu usulida xarajatlarni ish turlari bo‘yicha, bajarilgan ishlar va ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini hisoblash bilan ekinlar bo‘yicha ham hisobga olish ta’milanadi. Shu bilan birga bu usul jiddiy nuqsonlarga ega. Birinchidan, hisob ancha murakkablashadi, chunki analitik schyotlar soni bir necha marta ko‘payadi, xarajatlarni hisobni birinchi bosqichsiiing schyotlaridan ekinlar schyotiga taqsimlashdek sermehnat ish paydo bo‘ladi. Ikkinchidan, bunday taqsimlashda hisobga olinayotgan ob’ektga o‘tkazilgan xarajatlar hajmi, demak, mahsulot tannarxi ham yetarlicha aniq bo‘lmaydi, chunki ish turlari bo‘yicha xarajatlar o‘zlarini yozilayotgan ekinlardan ajralgan holda hisobga olinadi va taqsimlanadi.

Xarajatlarni hisobga olishning ikki bosqichli usuli hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida qo‘llanmaydi.

Barcha ishlab chiqarish xarajatlarini bir bosqichda (bir bosqichda) hisobga olish shu xarajatlarga taalluqli bo‘lgan ekinlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Hisobning bu usulida analitik schyotlar ekin turlari yoki guruhlari bo‘yicha ochilib, ishlab chiqarish xarajatlari bevosita ana shu schyotlarga o‘tkaziladi. Ish turlari bo‘yicha xarajatlar hisobi schyotlar tizimida olib borilmaydi. Tannarx faqat ishlab chiqarilgan mahsulot bo‘yicha hisoblanadi. Hisobning bu usuli qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarida keng tarqalgan.

Hisobning bir bosqichli usuli ikki bosqichli usuldan bir qator afzallikkarga ega. Analitik schyotlar soni bir necha marta qisqaradi. Mahsulotning tannarxi anchagina aniq hisoblanadi, chunki bajarilgan ishlar xarajatlari bevosita ekinlar bo‘yicha hisobga olinadi va bu xarajatlarni taqsimlash ishiga ehtiyoj qolmaydi. Shunday bo‘lsada, bu usulning jiddiy nuqsoni bor bo‘lib, bu ham bo‘lsa bajarilgan ishlarni tizimli hisobga olishning yo‘qligi va ularni tannarxining aniqlanmasligidir. Holbuki bajarilgan ishlar bo‘yicha xarajatlar haqidagi ma’lumotlar ishlab chnqarishni operativ boshqarishda zarurdir. Hisobning bir bosqichli usulida bajarilgan ishlar bo‘yicha barcha xarajatlar (shu jumladan traktorda bajarilganlari ham) ekinlar bo‘yicha xarajatlar hisobi schyotlarida egasizlantiriladi.

Ko‘rinib turibdiki, xarajatlarni hisobga olishning ikki bosqichli usuli ham, bir bosqichli usuli ham nuqsonlardan holi emas. Bu nuqsonlar asosan bajarilgan ishlarni hisobga olish (birinchi navbatda mexanizmlashgan, traktor bilan bajariladigan) usullariga taalluqlidir. Bu nuqsonlarni bartaraf etish maqsadida keyingi yillarda traktor ishlari xarajatlarini hisobga olish masalalarini hal qilishning turli usullari qo‘llanildi. Bularidan eng muvaffaqiyatlisi traktor ishlari xarajatlarini hisobga olishning tranzit usuli bulib chiqdi.

Bajarilgan ishlarni hisobga olish usullaridagi farqlarga qaramay qishloq xo‘jaligida xarajatlarni hisobga olishning yagona printsipi o‘stirilayotgan ekin turlari yoki ekinlar guruhi bo‘yicha analitik schyotlar ochishdir.

Dehqonchliik tarmog‘idagi hisob quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

xarajatlarni ishlab chiqarish, ekinni ekin guruhlari bo‘yicha to‘g‘ri va iqtisodiy asoslangan holda cheklash;

xarajatlarning asosiy moddalari: mehnat, urug‘, o‘g‘it, yonilg‘i, yordamchi ishlab chiqarishlar xarajatlari va tarmoqqa taalluqlp boshqa xarajatlar bo‘yicha kerakli ma’lumotlarni olish;

xosildan olinayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotini o‘z vaqtida hamda to‘liq hisobga olish;

mahsulot tannarxini hisoblash uchun zarur bo‘lgan axborotni iqtisodiy asoslangan holda tizimlashtirish va umumlashtirish;

xarajatlarni qo‘shti yillar ishlab chiqarishi bilan mahsulot olinadigan bo‘lajak qishloq xo‘jalik davrlariga taalluqli xarajatlarni doimo ajratib (kuzgi ekinlar, ko‘p yillik o‘tlar, shudgor qilish va shu kabilar xarajatlari) aniq hamda iktisodiy asoslangan holda chegaralash;

xo‘jalik hisobi vazifalarining bajarilishini nazorat qilish va operativ rahbarlikni amalga oshirish uchun xo‘jalik bo‘linmalari bo‘yicha xarajatlar haqida zarur axborot berishni ta’minalash.

### **Mavzuga oid tayanch iboralar**

Qishloq xo‘jaligi, Fermer xo‘jaligi, Dehqon-fermer xo‘jaligi, Dehqonchilik, Dehqonchilik jarayoni, Chorvachilik, Chorvachilik jarayoni, Qishloq xo‘jaligi xo‘jaliksining hisob siyosati

#### **Nazorat savollari:**

1. Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha nechta turga bo‘linadi?
2. Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarida hisob siyosati qanday yuritiladi?
3. Fermer xo‘jaligida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shakli nechta shakllari bo‘yicha yuritish mumkin?
4. Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobining vazifalari?

## **II BOB DEHQONCHILIK XARAJATLARI, MAHSULOTLAR CHIQISHINI HISOBGA OLİSH**

### **2.1. Dehqonchilik tarmoqlarining tasnifi, hisobining uslubiy asoslari va vazifalari**

Dehqonchilik qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom ashyoga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlaydi, chorvachilikni yem-xashak bilan ta’minlaydi va bu tarmoqning rivojlanishida zamin hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlarga doir hukumat qarorlariga ko‘ra dehqonchilikda yaqin kelajakda don ekinlarining hosildorligini oshirish hisobiga olinadigan donning yillik o‘rtacha yalpi miqdorini jiddiy o‘stirishni, qishloq xo‘jalik mahsulotlari (paxta, kartoshka va sabzavot, shuningdek, meva, rezavor, uzum) ishlabchiqarishni oshirishni ta’minlash nazarda tutiladi.

Dehqonchilik tarmog‘ining muhim vazifalaridan biri chorvachilik uchun mustahkam ozuqa bazasini yaratish va ozuqa ishlab chiqarishni ko‘paytirishdir. Bu vazifalarni bajarish qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika ta’minotini har tomonlama mustahkamlash, dehkonchilikni ximiyalashtirish, kompleks mexanizatsiyalashtirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash yo‘li bilan intensifikatsiyalash tadbirlarini amalga oshirish orqali ta’minlanadi.

Bu vazifalarning hal etilishida dehqonchilik tarmoqlariga qilinadigan xarajatlar va undan olinadigan mahsulotlarni aniq hamda o‘z vaqtida hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dehqonchilik qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining o‘ta o‘ziga xos xususiyatlarga ega tarmog‘idir. Dehqonchilik tarmog‘ida mablag‘larning aylanishiga ishlab chiqarishning mavsumiylik xususiyati, jumladan ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar olinishi o‘rtasidagi uzilish jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Dehqonchilik sohasiga ishlab chiqarish xarajatlari uzoq vaqt davomida qilinadi va o‘ta notekis tusda bo‘ladi. Sarflangan mablag‘larning qoplanishi mahsulotlarning chiqishi, pishib etilishining tabiiy sharoitlari bilan belgilanadi. Bu xususiyatlarning barchasi, tabiiyki, ushbu sohada xarajatlarni hisobga olishni

tashkil qilishda nazarda tutilishi lozim.

Dehqonchilikda ishlab chiqarish jarayoni uzoq davom etishi hamda xarajatlar bir-biri bilan bog‘langan ikki yil hosili uchun parallel qilinishi tufayli, buxgalteriya hisobida ular yillar bo‘yicha aniq chegaralanishi lozim. Shuning uchun qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarining dehqonchilik xarajatlari buxgalteriya hisobida ikki qismga: joriy yildagi hamda kelgusi yil hosili uchun qilingan xarajatlarga bo‘linadi.

Bundan tashqari, dehqonchilikda xarajatlar ayrim ishlab chiqarishlarda ko‘pincha konkret ekinlarni o‘sirish uchun ham amalga oshiriladi. Bu ham buxgalteriya hisobida aniq aks ettirilishi lozim. Shuning uchun boshqaruv hisobida ishlab chiqarish xarajatlarining analitik hisobi ishlab chiqarish turlari va tegishli ekinlarni parvarish qilish bo‘yicha tashkil etiladi.

Dehqonchilikdagi ishlab chiqarish – bir vaqtda amalga oshiriladigan jarayon emas. Ishlab chiqarish jarayoni yilning turli fasllarida (kuz, qish, bahor va yozda) bajariladigan har xil turdag'i ishlardan tarkib topadi. Dehqonchilikdagi ishlab chiqarishning texnologik jarayoni quyidagi asosiy ishlar majmuidan iborat: tuproqni ekishga tayyorlash, ekish, ekinlarni parvarish qilish, hosilni yig‘ishtirish. Bu majmuilarning har biri ko‘p sonli aniq ishlardan, masalan, tuproqni ekishga tayyorlash, haydash, boronalash, mola bostirish, g‘altaklash, kultivatsiyalash va shunga o‘xshashlardan iborat. Demak, qilinadigan xarajatlar buxgalteriya hisobida bajarilgan ish turlari bo‘yicha chegaralanishi lozim.

Dehqonchilik ishlab chiqarishi jarayonida muayyan ishlarni bajarishda turli xarajatlar qilinadi: neft mahsulotlari, urug‘lik, o‘g‘it sarflanadi, mashinalar va boshqa asosiy ishlab chiqarish vositalari qisman eskiradi, xodimlarga mehnat haqi hisoblanadi va to‘lanadi va hokazolar.

Bunday xarajatlarning barchasi hisobda alohida-alohida to‘planishi lozim. Demak, boshqaruv hisobida dehqonchilik xarajatlarining hisobi umumiyligi summa bilan emas, balki xarajat moddalari bo‘yicha yuritilishi kerak.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining tarqoqligi tufayli bir turdag'i ishlar va xarajatlar xo‘jalikning turli bo‘linmalarida bir vaqtida qilinishi mumkin. Boshqaruv

buxgalteriya hisobi dehqonchilikdagi xarajatlarning mas’uliyat markazlari bo‘yicha chegaralanishini ta’minlashi lozim.

Shunday qilib, dehqonchilik tarmog‘idagi ishlab chiqarish jarayonining xususiyatlariga ko‘ra hisobda xarajatlar va tegishli yakuniy ma’lumotlarning olinishi quyidagilar bo‘yicha chegaralanishi lozim:

- ishlab chiqarishning yondash yillari bo‘yicha;
- ishlab chiqarish va ekinlarning asosiy turlari bo‘yicha;
- bajariladigan ishlarning asosiy turlari bo‘yicha;
- xarajatlarning asosiy moddalari (turlari) bo‘yicha;
- mas’uliyat markazlari bo‘yicha.

Birinchi belgiga ko‘ra, xarajatlar haqida ishlab chiqarish yillari bo‘yicha ma’lumotlarni alohida-alohida olinishi joriy yil va kelgusi yil mahsulotlari uchun xarajatlarning alohida analitik schyotlarini ochish hisobiga ta’milanadi. Odatda, har bir yil boshida oldingi yildan o‘tgan xarajatlar joriy yildagi mahsulot xarajatlariga qo‘shiladi (nomenklatura hisobi muvofiq kelmagan hollarda ular alohida moddalar bo‘yicha taqsimlanadi); kelgusi yil hosiliga qilingan xarajatlar alohida ajratiladi.

Xarajatlarni turlari bo‘yicha chegaralash, ya’ni ularni moddalar bo‘yicha hisobga olish schyotlarning shakllarini tegishli tarzda tuzish hisobiga ta’milanadi. Ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar hisobi ko‘p grafali registrlarda olib borilib, unda ochilayotgan schyot bo‘yicha xarajatlarning har bir turini hisobga olish uchun alohida grafalar ajratiladi.

Xarajatlarni xo‘jalik bo‘linmalari bo‘yicha chegaralash, odatda, analitik hisobni tegishli tarzda tashkil etish hisobiga ta’milanadi. Odatda, bu maqsadlarda ishlab chiqarish hisobotlari yoki ularning o‘rnini bosuvchi registrlardan foydalananiladi.

Xarajatlarning ishlab chiqarish, ekin va bajariladigan ishlar turlari bo‘yicha chegaralanishi, ularni hisobga olishning turli uslublarini qo‘llash orqali ta’milanishi mumkin. Dehqonchilikda xarajatlarni hisobga olish va tashkil qilishning bir necha uslublari mavjud.

Bajarilgan ishlarni hisobga olish uslublaridagi farqlarga qaramay dehqonchilikda xarajatlarni hisobga olishning yagona tamoyili parvarishlanayotgan ekin turlari yoki ekinlar guruhi bo‘yicha analitik schyotlar ochishdir.

Dehqonchilik tarmog‘i bo‘yicha boshqaruvin hisobida quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

    xarajatlarning asosiy ishlab chiqarish, ekinlar va ekin guruhlari bo‘yicha to‘g‘ri hamda iqtisodiy asoslangan holda chegaralanishi;

    xarajatlarning asosiy moddalari: mehnat, urug‘lik, o‘g‘it, yonilg‘i, yordamchi ishlab chiqarishlar xarajatlari va tarmoqqa taalluqli boshqa xarajatlar bo‘yicha kerakli ma’lumotlar olinishini ta’minalash;

    olinayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini o‘z vaqtida hamda to‘liq hisobga olish;

    mahsulot tannarxini hisoblash uchun zarur bo‘lgan axborotlarni iqtisodiy asoslangan holda bir tizimga keltirish va umumlashtirish;

    xarajatlarni yondosh yillar ishlab chiqarishi bilan mahsulot olinadigan kelgusi qishloq xo‘jalik davrlariga taalluqli xarajatlarni doimo ajratib (kuzgi ekinlar, ko‘p yillik o‘tlar, shudgorlash va shu kabilarning xarajatlari) aniq hamda iqtisodiy asoslangan holda chegaralash;

    tezkor nazorat va rahbarlikni amalga oshirish uchun xarajatlar haqida zarur axborot berishni ta’minalash.

## **2.2. Dehqonchilikda ishlab chiqarish xarajat ob’ektlari va moddalari**

Dehqonchilik tarmog‘i mahsulotlarining xarajatlari va chiqishini hisobga olish, yuqorida aytib o‘tilganidek 2010 “Asosiy ishlab chiqarish” schyotning 2011-“Dehqonchilik” analitik schyotida amalga oshiriladi.

Bu analitik schyotning debetida ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar, kreditida — mahsulotiing chiqishi hisobga olinadi. Debet va kredit bo‘yicha yozuvlar yil davomida o‘sib boruvchi summalarda tashkil qilinadi; shunga ko‘ra joriy balansda schyotning ma’lumotlari yoyilgan holda ko‘rsatiladi. Faqat yil oxiriga kelib schyot bo‘yicha qoldiq aniqlanib, uni yakuniy balansda

donchilik tarmog‘ining tugallanmagan ishlab chiqarish summasi sifatida aks ettiriladi.

Dehqonchilik tarmog‘ida xarajatlarni hisobga olish ob’ektlari quyidagilardir:

1. Ekinlar yoki ekin guruhlari.
2. Qishloq xo‘jalik ishlari.
3. Taqsimlanishi lozim bo‘lgan xarajatlar.
4. Boshqa ob’ektlar.

Xarajatlarni o‘stirilayotgan u yoki bu ekinga joriy yil hosiliga bevosita o‘tkazish mumkin bo‘lgan barcha hollarda ular birinchi guruh xarajatlarni hisobga olish ob’ektlari schyotlarida hisobga olinadi. Ikkinchi guruh xarajatlarni hisobga olish ob’ektlari tarkibida kelgusi yil hosili uchun qilingan qishloq xo‘jalik ishlarini bajarish xarajatlari aks ettiriladi, bularni tabiiyki, hosili joriy yilda olinadigan ekinlar xarajatlarini hisobga olish ob’ektlariga o‘tkazib bo‘lmaydi. Ularni hisobga oluvchi uchinchi guruh ob’ektlari tarkibida hisobning bir necha yoki ko‘pgina ob’ektlariga o‘tkaziladigan, demak ularga taqsimlanadigan (joriy ta’mir, sug‘orish va quritish xarajatlari va boshqalar) xarajatlar hisobga olinadi. To‘rtinchi guruh hisobi ob’ektlari tarkibida ozuqa ishlab chiqarish va ayrim boshqa xarajatlar hisobga olinadi.

Yuqorida aytilgan to‘rttala guruh bo‘yicha aniq tarzda hozirgi kunda xarajatlarni hisobga olish ob’ektlarining quyidagi nomenklaturasi qabul qilingan.

**Birinchi guruh.** *Don va dukkakli don ekinlari. Kuzgi don ekinlari.* Kuzgi don ekinlari (kuzgi bug‘doy, kuzgi javdar, kuzgi arpa). Bahorgi bug‘doy. Bahorgi boshqa boshoqli don eshshlar (bahorgi javdar, bahorgi arpa, suli, polba). Yerm eknnlar: tariq, qora bug‘doy, sholi.

*Jo ‘xori.* Dukkakli don ekinlar — no‘xat, loviya, dukkakli xashaki ekinlar — chechevitsa, xashaki no‘xat va xashaki no‘xat aralashmasi, lyupin (shirin, achchiq), seradella (doni uchun), pelyushka, boshqa dukkakli don ekinlar.

Texnik ekinlar. Paxta, zig‘ir (uzun tolali), zig‘ir (kalta tolali), nasha, qandlavlagi, kungaboqar, soya, gorchitsa, tamaki, maxorka. Turlar bo‘yicha boshqa texnik ekinlar— kanop, jut. Efir-moy va boshqa texnik ekinlar.

Texnik ekinlar urug‘liklari (har bir ekin bo‘yicha alohida).

*Kartoshka, ochiq yerga ekiladigan sabzavotlar va poliz ekinlari.* Kartoshka, karam, bodring, pomidor, osh lavlagi, piyoz, sarimsoq. Ochiq yerga ekiladigan boshqa sabzavot ekinlari (petrushka, sholg‘om, turp, salat, shpinat, ukrop va boshqalar). Xo‘raki poliz ekinlari. Sabzavot ekinlari urug‘liklari (har bir ekin bo‘yicha). Poliz ekinlari urug‘liklari. Sabzavotchilik yordamchi xarakterda bo‘lgan ixtisoslashmagan xo‘jaliklarda xarajatlar hisobi ochiq yerda ekiladigan barcha sabzavotlar bo‘yicha yalpisiga yuritiladi.

*Yopiq yerga ekiladigan sabzavotchilik.* Qishki teplitsalar (ko‘kpiyoz, bodring, pomidor, salat, shpinat, rediska va boshqalar). Bahorgi teplitsalar (ko‘kpiyoz, bodring, pomidor, salat, shpinat, selderey, karam, pomidor ko‘chatlari va boshqalar). Parniklar (ko‘kpiyoz, bodring, pomidor, salat, shpinat, selderey, karam, pomidor ko‘chatlari va boshqalar). Sovuq kirmaydigan boshqa yerlar (ko‘kpiyoz, bodring, pomidor, salat, shpinat, selderey, karam, pomidor ko‘chatlari va boshqalar). Shampin’on xonalar (qo‘ziqorinlar, shampinon mitseliylari).

*Yesh-xashak ekinlar, pichanzor va yaylovlari.* Xashaki ildizmevalar (xashaki lavlagi, xashaki sholg‘om, sabzi va boshqalar). Molga oziq uchun qand lavlagi. Xashaki ildizmevalilar urug‘liklari. Xashaki poliz ekinlari. Silos uchun jo‘xori. Silos ekinlari (juxoridan tashqari). Ekilgan bir yillik o‘tlar. Ekilgan ko‘p yillik o‘tlar. Ko‘k ozih sifatida kuzgi don ekinlari. Qo‘k o‘g‘it ekinzorlari (lyupin, seradella va boshqalar), Ekin o‘rib olingan yerga ozuqabop ekilgan ekinlar (xashaki karam, bryukva, xashaki sholg‘om va boshqalar). Madaniy pichanzorlar. Madaniy yaylovlari. Tabiiy pichaizor va yaylovlari.

*Meva, rezavor meva va boshqa ko‘p yillik daraxtlari.* Urug‘li ekinlar: olma, nok, behi, ryabina, do‘lana, na’matak va boshqa urug‘li, danakli, ekinlar. Danakli ekinlar: olxo‘ri, olcha, gilos, o‘rik, shaftoli va boshqalar. Rezavor

mevali ekinlar: qulupnay, malina, smorodina, krijovnik, maymunjon va boshqa. Yong'oq mevali ekinlar. Subtropik ko'chatlar. Sitrus ekinlari. Tokzorlar. Choy reyatatsiyalari. Xmel reyatatsiyalar. Gulchilik. Mevazor ekinlar pitomniklari. Daraxt va bug.pavlari pitomniklari. Lavr pitomnigi. Efir-moy ekinlaripitomnigi. Manzarali ekinlar pitomnigi.

Sabzavotchilik tarmog'i yordamchi xarakterda bo'lgan ixtisoslashmagan xo'jaliklarda xarajatlar hisobi ekinlar guruhsiga ( puchok urug'li, danakli ekinlar, rezavorlar) bo'yicha yoki yalpi tarmok— bog'dorchilik bo'yicha yuritiladi.

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi xo'jaliklarida melioratsiya borasida katta ishlar qilinmoqda. Sug'oriladigan, shuningdek kuritilgan yerlardagi ekin maydonlari yildan-yilga ko'paymoqda. Buxgalteriya hisobida lalmi, sug'oriladigan va quritilgan yerlardagi donchilik bo'yicha xarajatlar qat'iy chegaralanadi. Shuning uchun yuqorida keltirilgan klassifikatsiya bo'yicha birinchi guruh hisob ob'ektlarining barchasi to'rt guruh: regulyar sug'oriladigan yerlar, shartli sug'oriladigan yerlar, lalmi yerlar bo'yicha chegaralanadi. Demak, xo'jaliklarda ayni bir ekining o'zi sug'oriladigan va lalmi yerkarda ekilgan bo'lsa, ular bo'yicha xarajatlar hisobi turlari ob'ektlari bo'yicha chegaralanadi. Lalmi yerlardagi xarajatlar tarkibida sug'orilgan yerlarda mahsulot yetishtirish xarajatlari alohida ajratiladi.

**Ikkinchchi guruh.** Bajarilgan qishloq xo'jalik ishlari bo'yicha xarajatlar hisobining ob'ektlari, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, agarda qishloq xo'jalik ishlari bo'yicha xarajatlar darhol ekinlar (ekinlar guruhi) bo'yicha joriy yildagi hosil hisobi ob'ektlariga o'tkazish mumkin bo'lмаган hollarda ajratiladi. Bu kelajak yillar hosillariga ya'ni dexqonchilikdagi tugallanmagan ishlab chiqarishga qilingan xarajatlardir. Bu guruhga xarajatlar hisobining ob'ektlari quyidagi ish turlari: kuzgi don ekinlari uchun har bir ekin bo'yicha yerga ishlov berish, ko'kat oziq va silos uchun kuzgi don ekinlari (agarda ular ajratilsa), sabzavot ekinlarini kuzda ekish (ekinlar bo'yicha), kuzgi shudgor. yumshatish (kuzgi shudgorsiz) organik o'g'itlarni chiqarish,

mineral o‘g‘itlarni chiqarish, qorni saqlab qolish (IV kvartalda). Oldingi yillar ko‘p yillik o‘tlar ekinlari (ekilgan yillar bo‘yicha alohida) hisobot yili bahorgi va kuzgi sof ko‘p yillik o‘tlar, ko‘p yillik aralash o‘tlar, hisobot yili kuzidagi qora shudgor, kelgusi yil bahorgi ekinlar hosili uchun shudgor, yangi yerlarni o‘zlashtirish, yaxshilangan (tubdan yaxshilash) pichanzorlar va madaniy yaylovlarni (kuzgi oziqlantirish va boshqa ish turlari), pichanzor va yaylovlarni yuzaki yaxshilash, tuproqni ohak, gips bilan o‘g‘itlash xarajatlari (o‘z mablag‘lari hisobiga), melioratsiya qilinayotgan yerlarni dastlabki madaniylashtirish xarajatlari, parnik, teplitsa, shampinon xonalar, bog‘lar (hosil terib olingach), pitomniklardagi ishlar, boshqalar ajratiladi.

Bu guruh analitik schyotlarida yil oxiriga hisobga olingan xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarishda qoladi va keyingi yilga o‘tadi. Keyingi yilda ular birinchi guruh xarajatlarni hisobga olish ob’ektlariga taqsimlanadi. Bunda taqsimlashning turli usullaridan foydalaniлади. Xarajatlarning ayrim turlari yerni ohaklash, melioratsiya qilinayotgan yerlarni dastlabki madaniylashtirish va boshqa xarajatlarni hisobga olish ob’ektlariga 5—7 yil davomida taqsimlanadi; shuning uchun bunday xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarish tarkibida bir necha yil davomida turishi mumkin.

**Uchinchi guruh.** Xarajatlarning ayrim turlarini xarajatlar hisobi ob’ektlarining xoh birinchi, xoh ikkinchi guruhiga darhol o‘tkazish mumkin emas, chunki ular xarajatlarni hisobga olish ob’ektlarining bir necha guruhlariga taalluklidir. Ular yil davomida alohida analitik hisoblarda hisobga olinib, yil oxirida taqsimlanadi. Ularni ikkinchi guruh xarajatlarni hisobga olish ob’ektlaridan farqi shundaki, ular hisobot yilida to‘liq taqsimlanadi. Bu ular tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida kelgusi yilga o‘tmaydi demakdir.

Bu guruh xarajatlarni hisobga olish ob’ektlariga quyidagi taqsimlanadigan xarajatlar: donchilikda ishlatiladigan asosiy vosatalarning taqsimlanishi lozim bo‘lgan amortizatsiya ajratmalari; donchilikda ishlatiladigan asosiy vosatalarning taqsimlanishi lozim bo‘lgan joriy ta’miri xarajatlari; taqsimlanishi lozim bo‘lgan sug‘orish xarajatlari; taqsimlanishi lozim bo‘lgan

yerlarni qurilish xarajatlari; ihota o‘rmonlarini saqlash xarajatlari taalluqlidir.

Yuqorida keltirilgan xarajatlarni hisobga olishning har bir ob’ektiga alohida analitik schyot ochilib, unda tegishli xarajatlar moddalarning belgilangan nomenklaturasiga ko‘ra hisobga olinadi. Bu analitik schyotlar yil oxirida xarajatlarni birinchi va ikkinchi guruh xarajatlarni hisobga olish ob’ektlariga taqsimlab yopiladi. Bu holda xarajatlarning har bir turining o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib, taqsimlashning turli usullaridan foydalaniladi.

**To‘rtinchi guruh.** Dehqonchilik tarmog‘idagi xarajatlarning ayrim turlari oziq yetishtirish, mahsulotga o‘rim-yig‘imdan keyin qayta ishlov berish, poxolni yig‘ishtirish va g‘aramlash kabilar bilan bog‘liqdir. Bu xarajatlar alohida analitik schyotlarda: silos tayyorlash, senaj tayyorlash, o‘t uni, granula va briketlar ishlab chiqarish, mahsulotga o‘rim-yig‘imdan so‘ng qayta ishlov berish va shu kabilarda hisobga olinadi. Bu xarajatlarni hisobning alohida ob’ektlari sifatida ajratish yoki ayrim qo‘shilgan va yordamchi mahsulot turlarining tannarxini aniqroq hisoblanadi yoki oziq ishlab chiqarish xarajatlarini alohida guruhga ajratish zaruriyatidan kelib chiqadi. Xarajatlar har bir analitik schyotda moddalarning belgilangan nomenklaturasiga muvofiq hisobga olinadi. Yil oxirida tegishli mahsulot turlarining tannarxi hisoblanadi yoki xarajatlar birinchi guruh ob’ektlari schyotlariga taqsimlanadi.

Donchilik sohasida xarajatlar hisobi moddalarning quyidagi nomenklaturasiga ko‘ra yuritiladi:

1. ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
2. ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
3. ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar;
4. asosiy jamg‘armalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
5. ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Birinchi moddaga tegishli ekinga ishlatilgan urug‘ va ko‘chat materiali oralariga qayta sepish uchun sarflangan urug‘lar ham kiritiladi. Urug‘lar sarfi ikki ko‘rsatkichda: natural (miqdori tsentnerlarda) hamda pul ifodasida (ming dona ko‘chat) aks ettiriladi. Sarflangan urug‘ning qiymati mazkur moddada balans— bahorda: xarid narxlari + plyus olib kelish xarajatlari, o‘zi ishlab chiqargan, oldingi yillardan o‘tgan haqiqiy tannarx bo‘yicha joriy yilda ishlab chiqarilgan-rejali tannarxda yil oxirida haqiqiy tannarx bo‘yicha tuzatilib aks ettiriladi. Urug‘lar tannarxiga ularni ekish me’yoriga yetkazishgacha bo‘lgan xarajatlar (quritish, dorilash, navlarga ajratish va shu kabilar) ham qo‘shiladi.

Mazkur moddaga urug‘larni ekishga tayyorlash: dorilash, yuklash va ularni ekish joyiga olib borish kabi xarajatlar kiritilmaydi. Bu xarajatlar tegishli ekinlarga taalluqliligiga ko‘ra xarajatlar moddasiga (mehnatga haq to‘lash, transport xarajatlari va shu kabilar) o‘tkaziladi.

Mazkur moddada mazkur ekin (ekinlar guruhi)ga berilgan barcha o‘g‘itlarni hisobga olish uchun ajratiladi. Bunda mineral va organik o‘g‘itlar alohida ajratiladi. Mineral o‘g‘itlarning har bir turi (superfosfat, ammiakli selitra, nitrofoska kabilar) bo‘yicha fizikaviy massa (ts) va 100% ozuqa moddalarining 100% qayta hisoblanganda (kg) ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Mineral o‘g‘itlarni umumiy miqdorini ozuqa moddasining 100% ligiga qayta hisoblash o‘g‘itni har bir turining fizik massasini uning tarkibidagi tarkibiy modda protsentiga ko‘paytirish va olingan natijani 100 ga bo‘lish orqali aniqlanadi. Natural ko‘rsatkichlar bilan birga amaldagi bahoda sarflangan o‘g‘itlar qiymati ham aks ettiriladi.

Yana ushbu moddaga o‘simliklarni har xil zararkunanda hasharotlardan, kasalliklardan saqlash uchun ishlatiladigan zaharli moddalar sarfi hisobga olinadi. Masalan, pestitsidlar, gerbitsidlar, defoliantlar va boshqa (biologik) usullar bilan kurashuv xarajatlari, har xil kasalliklar, yovvoyi o‘tlar bilan kurashish uchun qilingan xarajatlar.

Ikkinchi moddada bevosita ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlarning asosiy va qo‘shimcha (mehnatga haq to‘lash)ning barcha turlarini tegishli

harajatlarini hisobga olish ob'ektlarida hisobga olishga mo'ljallangan. Bu o'rinda ot-ulov ishlarida band bo'lgan xodimlar, shuningdek kombaynchilarining mehnat haqi bu moddaga 6710-«Mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar» schyoti bilan bevosita korrespondentsiyada o'tkaziladi. Traktorchi hamda donchilikdagi mexanizmlashgan ishlarda band bo'lgan boshqa shaxslarning mehnatga haq to'lash ta'mir ustaxonasi parki ekspluatatsiya qilish xarajatlari schyotidan tranzit bilan yoziladi.

Bu moddada mehnati bevosita mazkur ekinni yoki ekinlar guruhini ishlab chiqarishda, shuningdek tugallanmagan ishlab chiqarish ishlarida sarflangan turli kategoriyadagi xodimlarga mehnatga haq to'lash xarakteriga ega bo'lgan barcha turdag'i pul va natural to'lovlar hisobga olinadi. Bunga traktorchilarining yerni ekishga tayyorlash, ekinlarga ishlov berish, hosilni yig'ishtirish, mazkur ekinlarga taalluqli transport ishlarni bo'yicha ish haqlari mehnatga haq to'lash, mazkur ekin (ekinlar guruhi)ni yetishtirishda ekishdan oldingi ishlardan tortib, urug'ni ekishga tayyorlash kabi tayyor mahsulotga takror ishlov berishgacha bo'lgan ishlarga band bo'lgan ishchi-dalachilar (mehnatiga haq to'lash) taalluqlidir.

Mazkur modda bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlariga bajarilgan ishlar uchun ishbay baholar yoki donchilikda band bo'lgan xodimlarning ish haqlari tarkibiga kiritiladigan ishlangan soat uchun tarif stavkasi bo'yichahisoblangan summa sifatida, mahsulotga uning sifatini hisobga olib, bajarilgan ishning yuqori sifati uchun, ish muddatining qisqartirilganligi, traktorchi- mashinistlarga sinfi uchun qo'shimcha va boshqa to'lovlar (texnikaning saqlanganligi, ikki smenali ish, agregatda ishlarni birga bajarish va shu kabilar) sifatida kiritiladi.

Bu moddada ishchilarga mehnatiga haq to'lash hisobiga belgilangan bahoda berilgan mahsulot ham hisobga olinadi.

Sarflangan mehnat bu moddada ikki ko'rsatkich pul (hisoblangan ish haqi) so'm va tiyinlarda hamda mexnat (sarflangan soatlar miqdorida) aks ettiriladi.

Uchinchi moddada ijtimoiy sug‘urta organlariga ish xaqiga nisbatan qilingan ajratmalar hisobga olinadi. Shuningdek bu moddada ekinlar, asosiy vositalar va donchilik tarmog‘ida ishlatiladigan boshqa mol-mulk bo‘yicha sug‘urta to‘lovlari ham hisobga olinadi. Sug‘urta to‘lovlari summasi bu moddaga 6510-«Sug‘urta bo‘yicha hisob-kitoblar» schyoti bilan korrespondentsiyasida o‘tkaziladi. Bunda ekinlar sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlar bevosita, asosiy vositalar va boshqa mol-mulk bo‘yicha hisoblangan amortizatsiya summalariga proporsional yoziladi.

To‘rtinchi asosiy vositalar amortizatsiyasi va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi moddasida donchilik ishlab chiqarishida ishlatilayotgan asosiy vositalar ehtiyoji uchun sarflanayotgan xarajatlar, shuningdek nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi ham hisobga olinadi.

Bu xarajat-moddasida donchilik sohasida ishlatilayotgan traktorlarga qishloq xo‘jalik mashinalariga sarflangan boshqa xarajatlar inventar xarakterga ega bo‘lmagan kapital sarflarning tegishli xarajat summalarini kiradi.

Beshinchi ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar. moddasiga xo‘jalikning yordamchi xo‘jaliklari (ta’mir ustaxonasi, avtoparki), traktor-transport ishlari, suv, issiqlik ta’minoti ishlari, jonli tortishuv kuchini bajargan ishlari, elektr, gaz ta’minoti va hokazo ishlari, shuningdek boshqa chet tashkilotlarni donchilik sohasi uchun bajarib bergen ishlari, ko‘rsatgan xizmatlari xarajatlari kiradi.

Bu moddada umumishlab chiqarish xarajatlari dehkonzhilik tarmog‘ining tarmoq xarajatlari ham hisobga olinadi, ular 2510- «Umumishlab chiqarish xarajatlari» schyotidan belgilangan bazaga proporsional taqsimlash orqali o‘tkaziladi. Shuningdek donchilik ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan lekin yuqorida ko‘rsatilgan xarajat moddalariga kirmaydigan xarajatlar ham hisobga olinadi.

Bu xarajat moddasiga xususan quyidagi xarajatlar kiritiladi: ishlab chiqarishga bog'liq bo'lgan ilmiy-tekshirish ishlari, texnikani sinash va mahsulotlarni qadoqlash, maxsus qiymat xarajatlari kiradi va hokazo.

### **2.3. Dehqonchilik xarajatlari va mahsulotlar olinishining dastlabki, analitik va sintetik hisobi**

Agro sektor xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari, shu jumladan mahsulotlarni ishlab chiqarishda buxgalteriya hisobini tashkil qilish hamda ichki foydalanuvchilarning zarur ma'lumotlarga bo'lgan talablarini qondirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan xarajatlar va mahsulot chiqishi yig'ma hisobini kuzatishning turli usullari va tizimlashtirish usullaridan foydalanishga qarab har xil yo'llar bilan tashkil etish mumkin. Ya'ni, ma'lum bir qishloq xo'jaligi korxonasining buxgalteriya xizmati buxgalteriya hisobini yuritish paytida bir tomonidan, buxgalteriya ishini oqilona tashkil etishga intilishi kerak, boshqa tomonidan esa ekinlar bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarini ishonchli hisobga olish va samarali nazoratni ta'minlashi kerak.

Ma'lumki, metodologiyaga muvofiq, mahsulotlarni ishlab chiqarishda buxgalteriya hisobini tashkil qilish o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Ammo, ushbu sohada mahsulotlar tannarxi va ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi boshlang'ich ma'lumotlarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning yagona jarayoni sifatida ifodalanadi. Ya'ni ushbu jarayonlar uch bosqichda amalga oshiriladi: *boshlang'ich hujjatlar, boshlang'ich hisob ma'lumotlarini to'plash va guruhlash, ishlab chiqarish qiymati hisoblanishi.*

#### **1. Boshlang'ich hujjatlar:**

- mahsulot tannarxini ro'yxatdan o'tkazish va o'lchash;
- tegishli boshlang'ich hujjatlarni rasmiylashtirish.

#### **2. Boshlang'ich hisob ma'lumotlarini to'plash va guruhlash:**

- sintetik va analitik hisob registrlarida ma'lumotlarning to'planishi;
- buxgalteriya ob'ektlari o'rtaida bilvosita xarajatlarni taqsimlash;

- muayyan sharoitlarda ichki ishlab chiqarish (tarkibiy) bo‘linmalar o‘rtasida xarajatlarni taqsimlash va ichki hisobotlarni tayyorlash (qoida tariqasida, boshqaruv hisobini tashkil qilish nuqtai nazaridan).

### 3. Ishlab chiqarish qiymati hisoblanishi:

- ishlab chiqarish birligiga xarajatlarni hisoblash va hisob ob’ektlari o‘rtasida xarajatlarni taqsimlash;

- mahsulot tannarxi bo‘yicha hisobtlarning ixtisoslashtirilgan shakllarini tuzish.

Birinchi bosqichda boshlang‘ich ma’lumotlar hosil bo‘ladi, ikkinchisida, ikkilamchi ro‘yxatga olinadi, qayta ishlanadi va tizimlashtiriladi va buxgalteriya tsiklining uchinchi yakuniy bosqichida olingan ma’lumotlarning ko‘rsatkichlari (ishlab chiqarish xarajatlari ko‘rsatkichlari)ga aylantiriladi.

Shunday qilib, xarajatlarni hisobga hisoblash jarayoni, ya’ni nafaqat yakuniy ko‘rsatkichlar - mahsulot birligining tannarxini hisoblash, balki turli darajadagi boshqaruv organlarini tegishli qarorlar qabul qilish uchun zarur ma’lumotlar bilan ta’minalash orqali tartibga solinadi. Shu munosabat bilan, mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi xarajatlar va chiqimlar bo‘yicha yig‘ma buxgalteriya sintetik va analitik hisob-kitoblar kontekstida ishlab chiqarish xarajatlarining yig‘ma buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini umumlashtirish darajasiga qarab farqlanadi.

Boshlang‘ich hujjatlar olingandan so‘ng ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar maxsus guruhlangan yig‘ma hujjatlariga va xarajatlarni hisobga olish registrlariga o‘tkaziladi. Umumlashtirilgan xarajatlarni hisobga olishning asosiy shakli - bu xarajatlarning yig‘ma hisoboti. Bu xarajatlar, bajarilgan ishlar, mahsulot chiqishi to‘g‘risidagi boshlang‘ich hujjatlarning ma’lumotlarini zarur ma’lumot bo‘limlarida qishloq xo‘jaligidagi xarajatlarning analitik hisobi registrlarida keyinchalik qayd etish uchun ma’lum bir tizim bo‘yicha to‘plashga xizmat qiladi.

Yig‘ma hisobot barcha tarmoqlar va turlar uchun yig‘ma hisobning yagona shakli bo‘lganligi sababli 3 bo‘limni birlashtiradi va o‘z ichiga oladi. Birinchi bo‘limda har bir boshlang‘ich hujjat uchun zarur ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar to‘planadi. Ikkinci bo‘limda xarajatlar to‘g‘risidagi

ma'lumotlar ularning turlari bo'yicha yig'iladi, bu yerda har bir ishlab chiqarishda ularning ko'rsatkichlarini aks ettirish uchun grafalar ajratib ko'rsatiladi. Uchinchida - mashina - traktor parklari, avtotransport, ish va xarajatlar iste'molchilar o'rtasida taqsimlanadi.

Shu bilan bog'liq holda, xarajatlarning yig'ma hisoboti - bu mehnat va xarajatlarni hisobga olishning jamlangan jurnali, chunki meva-sabzavotlarni yetishtirishda xarajatlarning vujudga kelishi joylarida ularning shakllanishi ustidan tezkor nazorat mehnat, moddiy va moliyaviy mablag'lardan foydalanish to'g'risida doimiy ma'lumotlarni talab qiladi.

Ushbu yig'ma shaklda meva-sabzavotlarni yetishtirish xarajatlari alohida hisob ob'ekti vazifasini bajaradigan individual ekinlar va ish turlari uchun alohida qayd etiladi. Bundan tashqari, mexanizatsiyalashgan va qo'lda bajariladigan ish turlari uchun ham shu shakl tavsiya qilinadi. Ushbu hujjatni to'ldirishda mexanizatsiyalashgan yoki qo'l mehnati bilan bog'liq xarajatlarni ajratishga rioya qilish zarur. Qo'lda ishlash uchun bu yerda jismoniy va shartli o'lchovlardagi ish hajmining ko'rsatkichlari, ish haqi miqdori to'g'risida ma'lumotlar to'planadi. 2310-«Yordamchi ishlab chiqarish» schyotida buxgalteriya hisobi uchun tranzit usulini ta'minlab, «Mexanizatsiyalashtirilgan (dala ishlarida) mashina-traktor parkini ishlatalish xarajatlari» analistik hisobini yuritish uchun mexanizatsiyalashgan ishlarning xarajatlari, otda va qo'l mehnati ko'rsatkichlari bo'yicha alohida ajratilishi kerak.

Xarajatlarning buxgalteriya hisobini yuritish orqali hosilni ishlab chiqarishda hisobga olishning me'yoriy usulini amalga oshirishni ta'minlash mumkin, chunki u ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishda normativ ko'rsatkichlardan og'ishishlarni taqqoslash va aniqlashga asoslangan.

Har bir ekin uchun xarajat me'yorlari va ish turlari texnologik xaritalar bilan belgilanadi. Ular eng kam ishlab chiqarish xarajatlarini ta'minlaydigan ishlab chiqarish texnologiyasining ilg'or usullarini qo'llashni hisobga olgan holda tuziladi. Texnologik xaritalar muayyan ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. Yil davomida qishloq xo'jaligida olib boriladigan ishlarning

davrlariga muvofiq har bir ish turi uchun belgilangan standartlar ishlab chiqilishi lozim. Bunday holda, xarajatlar normalarini to‘g‘ri hisoblash juda muhimdir. Me’yorlar maqbul bo‘lishi va muayyan ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga olishi kerak.

Ishlab chiqarish tannarxini hisobga olishning me’yoriy usulini qo‘llashda, haqiqiy xarajatlarning belgilangan me’yorlardan og‘ishi bevosita xarajatlarning buxgalteriya hisobida aniqlanadi. Bunda qishloq xo‘jaligi ekinlari nuqtai nazaridan xarajatlarni tizimli hisobga olish amalga oshiriladi. Texnologik xaritalarning to‘g‘ri tuzilishi va yuritilishi texnologik talablarning bajarilishini va xarajatlar standartlariga muvofiqligini kuzatishga imkon beradi. Shu maqsadda yil boshida har bir ekin va bajarilayotgan ish turi uchun yig‘ma hisobotda ishlab chiqarish rejasiga muvofiq schyot ochiladi, uning ichida xarajatlar texnologik xaritalar asosida ishlarning asosiy turlari bo‘yicha aks ettiriladi. Yig‘ma hisobotning birinchi qatorida ishning kengaytirilgan turlari uchun normativ ko‘rsatkichlarni texnologik xaritalarda yozilishi kerak. Amaliy ma’lumotlar traktorchilarni ro‘yxatga olish varaqalari, mehnat va bajarilgan ishlarni ro‘yxatga olish varaqalari, buyruqlar, dalolatnomalar, yo‘l varaqalari va boshqa boshlang‘ich hujjatlar asosida aks ettiriladi. Haqiqiy ko‘rsatkichlarni me’yorlar bilan taqqoslash orqali ishlab chiqarish texnologiyasidagi og‘ishishlar aniqlanadi va ularga muvofiq tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Xarajatlar bo‘yicha buxgalteriya hisobini yuritishda quyidagi xususiyatlarni yodda tutish kerak. Agar u kengaytirilgan ish turlari to‘g‘risida ma’lumotni aks ettirishga mo‘ljallangan bo‘lsa, masalan, ekish ishlarini umumlashtiradi: tashish, urug‘larga ishlav berishi, zarur ma’lumotlarni umumlashtirish kerak. Ushbu registrda har bir turdag'i ish uchun standart xarajatlar ko‘rsatilishi ularning bajarilishi ustidan keyingi nazoratni yaxshilaydi.

Yozuvlarni bayonnomalarda va xronologik tartibda, ya’ni ish ko‘lami o‘sib borishi tartibida saqlash mumkin, Bunday holda, normativ ko‘rsatkichlardan og‘ishishlarni taqqoslash va aniqlash to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladi. Bu oyning oxirini kutmasdan, normadan og‘ishish sabablarini

aniqlashga imkon beradi. Biroq, buxgalteriya hisobi bir xil ko'rsatkichlarning schyotlarda va hisobotlarda takrorlanishiga olib keladi. Shu bilan birga, qayd etishning ushbu usuli ishlarning bajarilishi va xarajatlarning shakllanishi ustidan kunlik nazoratni kuchaytiradi. Shuningdek, ma'lum ishlar tugallangandan so'ng, schyotlarga hujjatlarning yakuniy ko'rsatkichlarini o'tkazish mumkin, bu yozuvlar sonini sezilarli darajada kamaytiradi.

Shunday qilib, mohiyatiga ko'ra, yig'ma hisobotdagi (ish va xarajatlarni hisobga olish jurnali) me'yoriy xarajatlar bilan taqqoslaganda haqiqiy xarajatlarning umumlashtirilgan hisobini yuritish bu ma'lumotni ishlab chiqarishning jarayon-me'yoriy yoki operatsion usulining ifodasidir. Bunda xarajatlar, dastavval bajarilgan ishlar bo'yicha tizimlashtiriladi, so'ngra natijalarga ko'ra tizimlashtiriladi. Hozirgi sharoitda, ishlab chiqarishning rivojlanishini kuzatish vositasi sifatida ishlab chiqarish tannarxining roli sezilarli darajada oshib, ko'rib chiqilgan xarajatlarni umumlashtirish usuli ishlab chiqarish xarajatlari darajasini eng ishonchli va samarali aks ettiradigan hamda ishlab chiqarishning yakuniy ko'rsatkichini - mahsulot tannarxini shakllantiradigan samarali vosita bo'lishi mumkin.

Ushbu konsolidatsiya qilingan shaklning yakuniy ma'lumotlari asosida mahsulotlarni yetishtirishda ishlab chiqarish xarajatlarini ushbu tizimlashtirishning oraliq xarakteriga qaramay, yakuniy natijalarni - mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha ichki hisobotlarni to'ldirib, umumlashtirish mumkin. Har bir ekin bo'yicha hisobotda ish turlari, bajarilgan ishlarning haqiqiy hajmi va hisobot davri va yil boshidagi xarajatlari aks ettiriladi. Normativdan og'ishishlar 1 hektar maydonga standart (rejalashtirilgan) xarajatlar bo'yicha bajarilgan ishlarning haqiqiy hajmi asosida hisoblanadi. Xarajatlardagi og'ishishlarni tahlil qilish ularning o'zgarishiga ta'sir qilgan sabablarni aniqlashga imkon beradi.

Xarajatlarning vujudga kelish joylari (bo'lim, ustaxona) yoki umuman xo'jalik nuqtai nazaridan ichki hisobotning bunday tuzilishi xarajatlarning shakllanishini tizimli tahlil qilish, ortiqcha xarajatlarning oldini olish uchun

tegishli choralarni ko‘rish imkonini beradi. Barcha og‘ishishlar uchun qisqacha tushuntirish berish tavsiya etiladi.

Ushbu hisobot boshlang‘ich buxgalteriya hisobini kim yuritganiga qarab tegishli ishlab chiqarish bo‘linmasi rahbari (guruh rahbari yoki buxgalter) tomonidan tuzilib, har oy xo‘jalikning buxgalteriya bo‘limiga taqdim etiladi. Boshlang‘ich hujjatlarning ma’lumotlari bilan tekshirilgandan so‘ng, hisobotning haqiqiy ko‘rsatkichlari meva-sabzavotchilik bo‘yicha ishlab chiqarish hisobotiga kiritiladi.

Fermer xo‘jaliklarining amaldagi buxgalteriya amaliyotida meva-sabzavotlarni yetishtirishda tannarxni hisobga olishni tashkil etishning turli xil variantlari mavjud bo‘lib, ularning eng keng tarqalgani har bir turdag'i xarajatlarning kumulyativ xususiyati hisoblanadi.

Mahsulot tannarxini hisobga olishni bunday tashkil etish bilan xarajatlarni hisobga olishning yig‘ma hisoboti, ishlab chiqarish hisoboti ishlatilmaydi, ularning o‘rniga yig‘ma hisobot registr sifatida qo‘llaniladi.

Yig‘ma hujjatlar buxgalteriya hisobining har xil shakllarida, ham memorial-order, ham jurnal-order shakllarida ishlatiladi. Bir qator korxonalarda yig‘ma bayonnomalar tarkibiy bo‘linmalar nuqtai nazaridan, umuman boshqa korxonalarda, xo‘jalik uchun ishlab chiqiladi va saqlanib qoladi, ammo aksariyat hollarda har bir ishlab chiqarish ob’ekti uchun emas, balki butun korxona uchun analistik hisob yuritish amalga oshiriladi.

Yig‘ma hisobotga ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishni tashkil etishdagi kamchiliklari tarkibiga jamlangan buxgalteriya hisobining turli xil yig‘ma shakllari kiradi. Ular yakka ko‘rsatkichlarni bitta konsolidatsiya qilingan hujjatda tizimlashtirmaydi va bu tabiiy ravishda buxgalteriya xodimlariga qo‘sishma mehnat xarajatlarini keltirib chiqaradi. Ishlab chiqarish hisobotlaridan foydalangan holda mahsulot tannarxini hisobga olishni tashkil etishning ikkinchi keng tarqalgan varianti uyg‘unlashgan registr sifatida ajralib turmaydi.

Uyg‘unlashgan registrda, birinchisida bo‘lgani kabi, xarajatlarni hisobga olishning yig‘ma hisobotida boshlang‘ich hujjatlarni tizimlashtirish amalga

oshirilmaydi. Yig‘ma hujjatlar asosida ishlab chiqarish hisobotining tarmoq shakllari analitik buxgalteriya registrlari sifatida ishlatiladi, bu yerda boshlang‘ich buxgalteriya hisobotining yig‘ma shakllaridan ko‘rsatkichlar kiritiladi. Ishlab chiqarish hisobotlarida, odatda, korxona uchun analitik hisobini yuritish muhim hisoblanadi. Xo‘jaliklar uchun bir vaqtning o‘zida yozuvlar olib borilganda, analitik hisobning ma’lumotlarini tekshirish uchun tuzatish varaqasi tuziladi. Xo‘jalik tarkibiy bo‘linmalarining analitik hisobi ishlab chiqarish ob’ektlari va hisob-kitoblarning belgilangan nomenklaturasi uchun ochiladi. Ko‘pincha odatda, fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish hisobotlari to‘g‘ri yuritilmasdan, har doim ham to‘liq va aniq ma’lumotlarni o‘z ichiga olmaydi, ya’ni barcha tafsilotlar to‘ldirilmaydi. Bunday to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlar yetarlicha chuqur tahlilni ta’minlay olmaydi.

Fikrimizcha, eng mukammali - bu xarajatlarni hisobga olishni tashkil etishning uchinchi kombinatsiyalangan varianti bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkich yordamida xarajatlarni hisobga olish jarayoniga qo‘yiladigan barcha talablar qondiriladi: har bir operatsiya, texnologik bosqich va umuman ishlab chiqarish jarayoni to‘g‘risidagi ma’lumotlarning samaradorligi, to‘liqligi va ishonchliligi.

Bu yerda xarajatlarni hisobga olish ob’ektlari va shu bilan birga tarkibiy bo‘linmalar kontekstida ma’lumotlarni aks ettirishi ishlab chiqarish hisobotlari - alohida bo‘linmalarning shaxsiy schyotlari asosida hisobga olish texnikasi yordamida erishiladi.

Ushbu hisobotlardagi ma’lumotlar bizga individual ishlab chiqarish bo‘linmalarining natijalarini aniqlashga imkon beradi, bo‘linmalar yoki tsexlarning xarajatlarini guruhash va yig‘ish registri hamda kelajakda ularning ishlarini tahlil qilish manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarish hisobotidagi xarajatlarning qisqacha mazmuni sintetik va analitik hisob o‘rtasidagi tafovutni bartaraf qiladi (uning ma’lumotlari ham analitik, ham sintetik schyotlariga yuborilishidan oldin olinadi (2010-“Asosiy ishlab chiqarish” schyoti). Bu hozirgi tahlilni tezlashtirishga yordam beradi. Qishloq xo‘jaligining ayrim tarmoqlari va ishlab chiqarish bo‘linmalarini (ustaxonalar, bo‘limlar va h.k.) joriy tahlili bo‘yicha ma’lumotlar bu

yerda 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” sintetik schyoti joylashtirilganga qadar olinadi. Birlashtirilgan analitik registr sifatida ishlab chiqarish hisobotining qiymati qancha yuqori bo‘lsa, xarajatlar aniq tarkibiy bo‘linmalar bo‘limida aks ettiriladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish hisobotida bunday axborot blokini ta’kidlash zarurati, ularning shakllanishini tezkor nazorat qilish orqali xarajatlarni kamaytirish uchun zaxiralarni topish, ichki iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish shartlari talablariga bog‘liq bo‘lishi kerak. Ya’ni korxonaning tuzilmasini isloh qilishning zamonaviy talablariga muvofiq, xarajatlar markazlari yoki tarkibiy ishlab chiqarish bo‘linmalarini oxir-oqibat “javobgarlik markazlari” ga aylantirilishi kerak. Bu holda bo‘linmalarning ichki ishlab chiqarishning o‘zini o‘zi moliyalashtirish faoliyatini tashkil etish darajasi rejalashtirishning to‘g‘ri tashkil etilishi bilan belgilanadi, bu esa buxgalteriya hisobi, tahlil va nazoratning tegishli shakllanishini o‘z ichiga oladi. Ichki xo‘jalik va iqtisodiy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish o‘zini o‘zi ta’minlaydigan bo‘linmalarga ishlab chiqarish hajmi va xarajatlari bo‘yicha rejali maqsadlar to‘g‘risida o‘z vaqtida hisobot berishni, shuningdek ularning amalga oshirilishini sintetik nazorat qilishni talab qiladi. Vazifalarni bajarishda erishilishi kerak bo‘lgan asosiy narsa shundaki, ishlab chiqarish va xarajatlar uchun ushbu rejalar (byudjetlar) haqiqiy, iqtisodiy asoslangan va ajratilgan ishlab chiqarish bo‘linmalarini tomonidan to‘g‘ri taqsimlanishi kerak. Tarkibiy bo‘linmalar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada isloh qilish, qachon bo‘linmalar xarajatlar va maromiy daromadlarni shakllantirish markazlari bo‘ladi, buxgalteriya hisobining instrumental uslubiy apparati qo‘llanilishini talab qiladi.

Xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va hosildorligini jamlagan buxgalteriya hisobini yuritish buxgalteriya siyosati doirasida ishlab chiqarish hajmi, tarkibi, kadrlar, ofis uskunalarini va avtomatlashtirish asosida har bir korxona tomonidan mustaqil ravishda qo‘llaniladigan buxgalteriya hisobi shakli bilan uzviy bog‘liqdir. Buxgalteriya hisobi shakllari registrlarning tuzilishida, soni va tashqi ko‘rinishi, sintetik va analitik hisobning o‘zaro bog‘liqligi, registrlardagi yozuvlarning ketma-ketligi va usullari, iqtisodiy ma’lumotlarga ishlov berish

darajasi bilan farqlanadi. Hozirgi vaqtida turli xil tashkiliy-huquqiy shakllardagi qishloq xo‘jalik korxonalari asosan buxgalteriya hisobini yuritishning jurnal-order shaklidan, qo‘lda qayd etish texnikasining asosiy shakllaridan biri sifatida foydalanadilar. Ushbu shaklda xarajatlarni hisobga olish jarayoni deyarli umumlashtirilgan, garchi belgilangan jadvallar va boshqa registrlar o‘rniga buxgalteriya kitoblari, analistik kitoblarning bir nechta versiyalari qo‘llanilsada. Ayrim fermer xo‘jaliklarida memorial order shakli tuzilganda va alohida saytlarda ma’lumotlarni kompyuterda qayta ishlashda “aralash buxgalteriya shakli” qo‘llaniladi. Ba’zi korxonalar yuritishda osonroq bo‘lgan memorial order shaklidan foydalanadilar. Shu bilan birga, barcha holatlarda, ichki boshqaruv ehtiyojlari uchun ham, barcha manfaatdor foydalanuvchilar uchun moliyaviy (buxgalteriya) hisobotlarni tayyorlash uchun, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari to‘g‘risidagi boshlang‘ich ma’lumotlarni tizimlashtirish kerak. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish xarajatlarining qisqacha bayoni ishlab chiqarish hisoboti shaklidagi shaxsiy schyotlarda keltirilgan. Ushbu ishlab chiqarish hisobotlarida ishlab chiqarish tannarxini hisoblash birliklari bo‘yicha ham, umuman qishloq xo‘jaligi mahsulotlari nuqtai nazaridan ham ishlab chiqarish tannarxini hisoblash uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlar (xarajatlar va mahsulot chiqishi) to‘plangan. Korxonada xarajatlarni hisobga olishni tashkil etishga qarab, shaxsiy schyot (ishlab chiqarish hisoboti) har xil usulda yuritilishi mumkin. Agar xarajatlar butun birlik tomonidan aks ettirilsa (xarajatlarni hisobga olishning alohida ob’ektlari bo‘yicha taqsimlanmagan), unda shaxsiy hisob yiliga har oyda tegishli oyning xarajatlari va natijalari bo‘yicha bitta ustunni egallagan holda ochilishi mumkin. Alohida ob’ektlar (ekinlar, ekinlar guruhlari, tugallanmagan ish turlari) bo‘yicha xarajatlar va mahsulotlarni hisobga olishda har bir buxgalteriya ob’ekti uchun maxsus ustun ajratilishi kerak. Bunday holda, ishlab chiqarish hisoboti analistik buxgalteriya registri sifatida bir oy davomida yoki qo‘sishma jadvallardan uzoqroq (chorak yoki yarim yil) foydalanilganda ochiladi. Korxona uchun shaxsiy hisob (ishlab chiqarish hisobotlari) 2010-«Asosiy ishlab

chiqarish» schyoti, ishlab chiqarishning boshqa turlari, sintetik schyotlar bo‘yicha yig‘ma ishlab chiqarish hisobotlarida umumlashtiriladi.

Dehqonchilik xarajatlari va mahsulotlar olinishi to‘g‘risidagi barcha yozuvlar tegishli dastlabki hujjatlar ma’lumotlariga asosan yoziladi. Bunday dastlabki hujjatlar to‘rt guruhga: mehnat, mehnat buyumlari va mehnat vositalari sarfi hamda mahsulot chiqishiga oid hujjatlar.

Mehnat sarfini hisobga olish hujjatlarida dehqonchilik tarmog‘ida o‘sirilayotgan ekinlar bo‘yicha muayyan ishlarni bajarish uchun sarflangan mehnat va hisoblangan to‘lov aks ettiriladi. Mexanizatsiyalashtirilgan ishlarda traktorchi mashinistning hisob varaqalari (67- va 67-b shakllar), mexanizatsiyalashtirilmagan ishlarda mehnat hisobi va bajarilgan ishlar varaqalari (66- va 66-a shakllari) qo‘llanadi. Shuningdek, ishbay ishlarda ishlangan vaqtini hisobga olish uchun – ish vaqtini hisobga olish tabeli (64-shakl) qo‘llanadi.

Mehnat predmetlari sarfi hisobga olinadigan hujjatlarda dehqonchilik tarmog‘ida sarflangan turli moddiy qiymatlar: urug‘lik, o‘g‘it, zaharli ximikatlar, gerbisidlar, ehtiyot qismlar va hokazolarni qayd etadi. Ekishga sarflangan urug‘ va ekish Materiallari urug‘ va ekish materillarini sarflash dalolatnomasi (119-shakl), o‘g‘it, zaharli ximikat va gerbisidlar sarfi – ma’danli, organik va bakterial o‘g‘itlar zaharli ximikatlar va gerbisidlarni ishlatish to‘g‘risida dalolatnoma (118-shakl), mayda inventar va buyumlar – ishlab chiqarish va xo‘jalik inventari va buyumlarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi (126-shakl) bilan rasmiylashtiriladi va hokazo. Dastlabki hujjatlar ko‘rsatkichlari oy oxirida moddiy qiymatlar harakati haqidagi hisobotlarda (121-shakl) umumlashtiriladi, shundan so‘ng bo‘linmalarning ishlab chiqarish hisobotlariga moddiy qiymatlar sarfi haqida tegishli yozuvlar kiritiladi.

Mehnat vositalari sarfini hisobga olish hujjatlari dehqonchilik tarmog‘ida foydalilanigan mehnat vositalari bo‘yicha xarajatlar, xususan hisoblangan amortizatsiya ajratmalar aks ettiriladi. Bunga amortizatsiyani hisoblash va taqsimlash bo‘yicha turli hisob-kitoblar: yil boshidagi holatiga ko‘ra asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalar hisob-kitobi kelib (52-shakl) tushgan va chiqib ketgan asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalar hisob-kitobi (60-

shakl), bir oylik amortizatsiya ajratmalarini hisoblash qaydnomasi (62-shakl), dehqonchilik tarmog‘idagi asosiy vositalari bo‘yicha hisoblangan amortizatsiyasi taqsimlash qaydnomasi (63-shakl).

Bu guruh bilan asosiy vositalarni joriy ta’mirlash bo‘yicha hujjatlar uzviy boglangan. Bularga mashinalarni ta’mirlash uchun defektlar qaydnomasi (130-shakl), joriy ta’mirlash xarajatlarini taqsimlash qaydnomasi taalluqlidir.

Mahsulotlar chiqishini hisobga olish bo‘yicha hujjatlar: don, texnik ekinlar, sabzavot, meva, ozuqa kabi dehqonchilik tarmogi mahsulotlarini kirim qilish qayd etiladi. Bularga: don ekinlari bo‘yicha – don va boshqa mahsulotlarni daladan jo‘natish qaydnomasi (77-shakl), mahsulotni daladan olib chiqish yo‘llanmasi (77-a-shakl), donni talonli hisobga olish usulida talonlar (77-b,77-v,77-g-shakl), don va boshqa mahsulotlarni qabul qilish reestri (78-shakl), donni tarozibon tomonidan qabul qilish reestri (78-a-shakl), don va boshqa mahsulotlar harakati qaydnomasi (80-shakl); kartoshka, sabzavot, meva, rezavor meva va boshqa ekinlar bo‘yicha - qishloq xo‘jalik mahsulotining kelib tushish qaydnomasi (82-shakl), yopiq yerga ekilgan mahsulotning kelib tushish qaydnomasi (83-shakl), bog‘dorchilik mahsulotlarini kelib tushish qaydnomasi (84-shakl); ozuqa ekinlari bo‘yicha – dag‘al va shirali ozuqalarini qabul qilish dalolatnomasi (92-shakl), yaylov ozuqalarini kirim qilish dalolatnomasi (93 va 93-a-shakllari) kiradi. Dehqonchilik tarmog‘ida xarajatlarni hisobga olish bo‘yicha ham, mahsulotlar chiqishini hisobga olish bo‘yicha ham ko‘p miqdordagi xilma-xil hujjatlardan foydalaniladi. Har bir guruh hujjatlaridagi ma’lumotlar ularga ishlov berilganda ma’lum belgilariga ko‘ra hujjatlarning harakatlanishi va ishlatilish tavsifiga ko‘ra bir tizimga solinadi. Mehnat sarflari hisobga olinadigan hujjatlarning ma’lumotlari ish haqi hisoblash va to‘lash uchun har bir xodim hamda xodimlar toifasi bo‘yicha ish haqi fondidan foydalanishni nazorat qilish maqsadida umumlashtiriladi. Mehnat predmetlarini hisobga olinadigan hujjatlarning ma’lumotlari moddiy javobgar shaxslar hamda moddiy qiymatlarning kelib tushishi va sarflanishi yo‘nalishlari bo‘yicha bir tizimga solinadi. Mehnat vositalarining sarflanishi hisobga olinadigan hujjatlarning ma’lumotlari bir turdagи asosiy vositalar guruhlari va turlari hamda asosiy

vositalardan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha bir tizimga solinadi. Mahsulotlar chiqishi hisobga olinadigan hujjatlar ma’lumotlari mahsulot turlari, moddiy javobgar shaxslar, mahsulotning kelib tushish va sarflanish yo‘nalishlari bo‘yicha bir tizimga solinadi.

Shuningdek, dehqonchilik sohasidagi barcha hujjatlarning ma’lumotlari xarajatlarni hisobga olish obektlari – ish turlari hamda ekinlar (egin guruhlari) bo‘yicha albatta bir tizimga keltiriladi. Bunday bir tizimga keltirishda maxsus ishlab chiqilgan jamg‘arma qaydnomalar va jurnallardan foydalaniladi. Masalan, yuqorida aytib o‘tilgan mehnat sarflari to‘g‘risidagi va boshqa ayrim hujjatlarning ma’lumotlari yuqorida ko‘rib chiqilgan, ta’mirlash ustaxonasidan foydalanish, jamg‘arma qaydnomasi (73-shakl) hamda ish va boshqa xarajatlarni hisobga olish jurnalida (37-shakl) to‘planadi.

Ish va xarajatlarni hisobga olish jurnallari ishlab chiqarish bo‘linmalarida yuritiladi. Ularda har bir ekin (eginlar guruhi), bajariladigan ishlar va hisobning boshqa obektlari uchun taxmin qilinayotgan yozuvlar miqdoriga ko‘ra sahifalar ajratiladi. U yoki bu ekinga taalluqli ish turlari texnologik kartaga muvofiq tarzda yoziladi. Har bir hisob obekti bo‘yicha bajarilgan ishlarning hajmi naturada hamda shartli etalon gektarga aylantirib, ishlangan vaqt soatlarda va hisoblab o‘tkazilgan to‘lov (traktorchilar va boshqa xodimlar bo‘yicha alohida-alohida), yoqilg‘i sarfi (norma bo‘yichava haqiqiysi), yorug‘lik va ekish Materiallarining sarfi va boshqa xarajatlar qayd etiladi. Ish va xarajatlarni hisobga jurnali dastlabki hujjatlar asosida, ta’mirlash ustaxonasi xarajatlari bo‘yicha esa ta’mirlash ustaxonasidan foydalanish jamg‘arma qaydnoma (37-a-shakl) asosida qilinadi. Dehqonchilik tarmog‘ida qilingan xarajatlar va yetishtirilgan mahsulotlar 2011-«Dehqonchilik» schyotida hisobga olinadi. Bu schyot debetida mahsulot yetishtirish uchun qilingan xarajatlar hisobga olinsa, kreditida esa yetishtirilgan mahsulotlarning reja tannarxida baholanganqiymati va yil oxirida reja tannarxi bilan haqiqiy tannarx o‘rtasidagi tafovut aks ettiriladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari yil oxirida ushbu schyot debetida qoldiq tarzida aks ettirilib, yillik balansda ko‘rsatiladi.

### 2.3.1-jadval

#### O'simlikchilik xarajatlari va mahsulotlari chiqishini hisobga olish

#### Q A Y D N O M A S I

№	Xarajatlar	Analitik hisob obektlari						Debet bo'yicha jami	schyot lar		
		joriy yil kuzgi bug'doyi			kuzgi bug'doy kelgusi yil						
		yil boshidan	1 oy	Jami	yil boshidan	1 oy	jami				
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10		
<b>I O'simlikchilik xarajatlari</b>											
1	Mehnat haqi	184000	-	184000	116000		116000	300000	6710		
2	Yagona ijt. to'lov	46000		46000	29000		29000	75000	6520		
3	Urug'lik	-	-	-	275000		275000	275000	1010		
4	Mineral o'g'it	178000		178000	59600		59600	237600	1010		
5	Mahalliy o'g'it	-	-	-	93440		93440	93440	2012		
6	Neft mahsuloti	39900	-	39900	32400		32400	72300	1030		
7	AV eskirishi	108900	-	108900	99500		99500	208400	0200		
8	AV joriy ta'mir	62500	-	62500	49700		49700	112200	6010		
9	Avtotransport	345000	-	345000	105000		105000	450000	2310		
9a	Tannarx farqi	-34500	-	-34500	-10500		-10500	-45000	2310		
10	Boshqa xarajatlar	86800		86800	32000		32000	118800	1010		
11	<b>j a m i</b>	1016600		1016600	881140		881140	1897740			
12	Yil boshiga qoldiq (shartli)	399800		399800	-	-	-	399800			
13	<b>h a m m a s i</b>	1416400		1416400	881140		881140	2297540			
<b>II O'simlikchilik mahsulotlari olinishi</b>											
14	Don, s	225		225				225			
15	Qiymati, so'm	1125000		1125000				1125000	2810		
16	Don chiqiti, s	70		70				70			
17	Qiymati, so'm	140000		140000				140000	2810		
18	Somon, s	255		255				255			
19	Qiymati, so'm	102000		102000				102000	1090		
	jami mahsulot, so'm	1367000		1367000				1367000	X		

Boshqaruв buxgalteriya hisobini tashkil etishda xo'jalik bo'yicha xarajat obektlarini to'g'ri belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Dehqonchilikda xarajat obektlari bo'lib ekin turlari yoki guruhlari, ishlar, taqsimlanadigan xarajat turlari va boshqa obektlar hisoblanadi.

Dehqonchilikda xarajatlar va olingan mahsulotlarning analitik hisobi «O'simlikchilik xarajatlari va mahsulotlari chiqishini hisobga olish qaydnomasi»da yuritiladi. Ushbu qaydnomaga ma'lumotlari xarajat limitlariga rioya qilinishini nazorat qilish hamda butun xo'jalik bo'yicha analitik va sintetik hisobni tashkil

etish uchun foydalaniladi. Qaydnoma xarajatlar har oyda o'simliklar (o'simlik guruhlari) va tegishli xarajat moddalari bo'yicha bir oylik va yil boshidan o'sib boruvchan tartibda aks ettirib boriladi.

Ayrim o'simliklarni parvarishlash uchun qilingan xarajatlarni hisobga olishga mo'ljallangan analitik schyotlardan tashqari, mustaqil hisob obektlarini aks ettirish uchun quyidagi analitik schyotlar ochiladi: «O'simlikchilikda ishlatilgan asosiy vositalar bo'yicha taqsimlanmagan amortizatsiya ajratmalar», «O'simlikchilikda ishlatilgan asosiy vositalarning taqsimlanadigan joriy ta'mirlash xarajatlari», «taqsimlanadigan sug'orish xarajatlari», «sho'r yuvish xarajatlari» va h.k. Bu analitik schyotlarda o'simlik turlari (o'simlik guruhlari) ga bevosita o'tkazib bo'lmaydigan tegishli xarajatlar yil davomida to'planib boradi.

Amortizatsiya, joriy ta'mirlash xarajatlari, sug'urta to'lovlar va o'simlikchilik bo'linmasiga biriktirilgan qishloq xo'jalik mashinalarini saqlash va ulardan foydalanish xarajatlari yordamchi ishlab chiqarishlar, asosiy vositalarni saqlash va ishlatish bo'yicha yil davomida to'planib boriladi. Ko'rsatilgan xarajatlar yil oxirida tegishli o'simliklar (o'simliklar guruhi) va bo'linmadagi hamda boshqa bo'linmalardagi hisob obektlariga bajarilgan shartli etalon gektarlarga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Buning uchun mazkur qaydnomada ishlangan shartli etalon gektarlarda o'simliklar (o'simliklar guruhi) bo'yicha aks ettiriladi. O'simlik va ish turlari bo'yicha guruhlangan jami ma'lumotlar oy oxirida ishlarni va xarajatlarni hisobga olish jurnali (37-shakl) dan qaydnomaga o'tkaziladi. Bundan tashqari, yil oxirida, tegishli o'simlik turlari (guruhlari)ga xizmat ko'rsatgan boshqa bo'linmalardagi asosiy vositalarning amortizatsiyasi, joriy ta'mirlash xarajatlari, sug'urta to'lovlar va boshqa qishloq xo'jalik texnikalarini saqlash va foydalanish bo'yicha boshqa xarajatlar o'tkaziladi.

Oy oxirida, korrespondensiyalanuvchi schyotlar bo'yicha bir tizimga keltirilgan jami xarajatlar, qaydnomadan 10-ASK jurnal-orderga o'tkaziladi.

Qaydnomaning II «O'simlikchilik mahsulotlari chiqishi» bo'limida yig'ib-terib olingan maydon, kirim qilingan mahsulotlar miqdori, qiymati ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, qaydnoma ma'lumotlaridan fermer xo'jaligining faoliyatini

yakunlash, mahsulot yetishtirish bo‘yicha shartnomalarining bajarilishi va ishlab chiqarish xarajatlari limitlariga rioya qilinishini aniqlanadi.

Oy davomida 2010-schyoti kreditining korrespondentsiyalananuvchi schyotlar bo‘yicha barcha muomalalar bir tizimga keltirilib, jami ma’lumotlar qaydnomadan 10-ASK jurnal-orderga o’tkaziladi.

Yil davomida o‘simlikchilikdan olingan mahsulotlar reja tannarxi bo‘yicha baholanib, 2011-«Dehqonchilik» schyot kreditidan 2811-«Ombordagi o‘simlikchilik mahsulotlari» schyotining debetiga kirim qilinadi. Agar mahsulot olinayotgan paytida urug‘lik yoki yem-xashak sifatida foydalaniishi ma’lum bo‘lsa, 2011-«Dehqonchilik» schyot kreditidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri 1010-«Xomashyo va Materiallar» schyotiga tegishli o‘simlik turi bo‘yicha urug‘lik analitik schyoti (masalan, «urug‘lik sholi») ochilib qabul qilinadi.

Yil oxirida, 2011-«Dehqonchilik» schyot bo‘yicha yordamchi ishlab chiqarish bajargan ishlarning reja va haqiqiy tannarxi o‘rtasidagi farqlar, hamda umumishlab chiqarish xarajatlarining o‘simlikchilikka to‘g‘ri keladigan ulushi aks ettirilgandan so‘ng o‘simlikchilik mahsulotlari tannarxini hisoblashga doir tayyorgarlik ishlariga kirishiladi.

### **Nazorat savollari**

1. xarajat,tannarx va kalkulatsiyalarga olimlarning ilmiy yondashuvi?
2. «O‘simlikchilik xarajatlari va mahsulotlari chiqishini hisobga olish qaydnomasi» yuritilish tartibi qanday?

### **III BOB CHORVACHILIK XARAJATLARI, MAHSULOTLAR CHIQISHINI HISOBGA OLİSH**

#### **3.1.Chorvachilik tarmog‘i tavsifi, hisobining vazifalari va uslubiy asoslari**

Chorvachilik tarmog‘i aholining sut, go‘sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatning esa xom-ashyoga bo‘lgan talabini qondiradi. Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligida islohotlarning chuqurlashtirish natijasida chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar (MCHJ) va xususiy chorvachilik xo‘jaliklari rivojlanmoqda. Ushbu tarmoq rivojlanishidagi bunday yo‘nalish mahsulot yetishtirishni ko‘paytirish, mehnat unumdorligini oshirish mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini arzonlashtirishga imkon yaratmoqda.

Chorvachilik o‘simlikchilik bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lib, uning tarkibiga sut va go‘sht yo‘nalishidagi qoramolchilik, qo‘ychilik, cho‘chqachilik, yilqichilik, parrandachilik, asalarichilik, quyonchilik, ipakchilik, baliqchilik va boshqalar kiradi. O‘z navbatida bu tarmoqlarning har biri mahsulotning ayrim turlarini yetishtirishga ixtisoslashgan holda muayyan ishlab chiqarishlarni: qoramolchilik – sut chorvachiligini hamda mol go‘shti, parrandachilik – tuxum hamda parhez go‘sht yetishtirishni o‘z ichiga oladi.

Shunga ko‘ra, chorvachilikdagi xarajatlar ishlab chiqarish sohalari va turlari bo‘yicha farqlanadi. Bu esa buxgalteriya hisobida o‘z aksini topishi kerak.

Boshqa sohalarda bo‘lgani kabi chorvachilikda ham ishlab chiqarish xarajatlari xilma-xil. Ular turli xildagi moddiy xarajatlarni (ozuqa, biopreparatlar, dori-darmonlar, turli Materiallar va hokazolar), sarflangan mehnat, asosiy vositalarning eskirishi va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Demak, buxgalteriya hisobi chorvachilik xarajatlarini ularning turlari bo‘yicha qat’iy hisobga olishni ta’minlashi kerak.

Chorvachilikda mablag‘larning doiraviy aylanishi dehqonchilikdagiga qaraganda muhim farq va xususiyatlarga ega. Tarmog‘da ishlab chiqarishning texnologik jarayoni muomalalarning bir maromda sodir bo‘lishi va bir xilligi bilan o‘simlikchilikdagidan farq qiladi. Bu xususiyatlar albatta, tabiiyki, xarajatlarni

hisobga olishni tashkil etishga ta'sir ko'rsatadi.

Chorvachilikda, odatda, mablag'lar sarflanishi va mahsulotlar olish davrlarida uzulishlar uzoq davom etmaydi. Shu bois, joriy yildagi barcha xarajatlar mazkur kalendar yilida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga tegishli bo'ladi. Demak, buxgalteriya hisobida chorvachilik xarajatlarini, dehqonchilikdagi singari, yondash yillarga ajratish zaruriyati yo'q. Chorvachilikdagi barcha xarajatlar joriy yil mahsulotlari uchun qilinadigan xarajatlar hisobga olinadigan schyotlarda aks ettiriladi.

Chorvachilikda dehqonchilikdagi singari bajariladigan ishlar ham xilma-xil bo'lmaydi. Bunda ishlab chiqarishning texnologik jarayoni bajariladigan ishlar (oziqlantirish, mollarga qarash va mahsulot olish)ning bir xilligi bilan tavsiflanadi. Bu ishlarning hammasi, odatda, uzlusiz davom etadi va vaqt bo'yicha qat'iy chegaralanmaydi. Demak, buxgalteriya hisobida xarajatlarni mana shu belgilar bo'yicha bo'limlarga ajratish uchun ehtiyoj yo'q.

Nihoyat, chorvachilikda ishlab chiqarish jarayoni, odatda, bir joyga jamlangan bo'ladi. Masalan, sut ishlab chiqarish sutchilik majmularida va hokazo. Shunday ekan, buxgalteriya hisobida xarajatlarni ayrim ishlab chiqarish bo'linmalari bo'yicha hisobga olishga ham ehtiyoj yo'q.

Shunday qilib, chorvachilikda ishlab chiqarish xarajatlarini yondash yillar, ish turlari va ba'zan ishlab chiqarish bo'linmalari kabi muhim belgilar bo'yicha alohida-alohida hisobga olishga ehtiyoj yo'q. Xarajatlarni chegaralash va tegishli yakuniy ma'lumotlar olish, odatda, ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

- ishlab chiqarishning asosiy turlari va chorva mollarining asosiy guruahlari bo'yicha;

- xarajatlarning asosiy turlari bo'yicha;

Ayrim hollarda masalan, qorako'lchilik va parrandachilikda xarajatlar hisobi bo'linmalari alohida tashkil etilishi mumkin.

Xarajatlarni ishlab chiqarish turlari va chorva mollarining guruahlari bo'yicha hisobga olish analitik hisob obektlarini to'g'ri tashkil etish hisobiga ta'minlanadi. Analitik hisob obektlari chorvachilikning asosiy tarmoqlari bo'yicha, tarmoq

ichida esa ishlab chiqarishning har bir turibo‘yicha yoki chorvamollarining guruhi bo‘yicha ochiladi. Xarajatlarni asosiy turlari bo‘yicha hisobga olish hisob registrlarini tegishli tarzda tuzish orqali ta’minlanadi. Xarajatlarni hisobga olish ko‘p grafali shakldagi registrlarda xarajatlarning har bir tarmog‘iga alohida grafa ajratilgan holda olib boriladi. Chorvachilik xarajatlarni hisobga olishda har xil uslublardan foydalanish ehtiyoji paydo bo‘lmaydi. Barcha zarur ma’lumotlar analitik hisob va hisob registrlarini odatdagicha tuzish orqali olinadi.

Chorvachilik xarajatlari hisobining olishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- xarajatlarni ishlab chiqarish turlari va chorva mollarning guruhlari bo‘yicha iqtisodiy asoslangan holda ajratish;
- etishtiriladigan mahsulotning tannarxi shakllanadigan barcha xarajatlarni iqtisodiy jihatdan bir turdag element va tarmoqlar bo‘yicha aniq ajratib chiqish;
- chorvachilikdan olingan mahsulotlarni o‘z vaqtida, aniq va to‘liq aks ettirish;
- xo‘jalikning bo‘linmalari bo‘yicha xarajatlarni aniq aks ettirish;
- asosiy, yondash va qo‘srimcha mahsulotlar tannarxini iqtisodiy asoslangan holda hisoblash.

### **3.2. Chorvachilikda xarajatlar hisobining obektlari va moddalari**

Chorvachilik tarmog‘i qishloq xo‘jalik iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Bu tarmoqning roli keyingi yillarda tobora o‘sib bormoqda. Hukumatimiz qarorlariga muvofiq yaqin kelajakda mollar mahsulorligining oshishi va bir vaqtning o‘zida ular sonining o‘sishi bilan chorvachilik tarmog‘ining jadal rivojlanishi ko‘zda tutilgan. Fermer xo‘jaliklari va agrosanoat integratsiyasi negizida ishlab chiqarishni kontsentratsiyalash va ixtisoslashtirishni rivojlantirish bo‘yicha keng tadbirlar belgilangan. Jumladan, keyingi yillarda chet el texnologiyalariga asoslangan chorvachilik komplekslari va parrandachilik fabrikalari qurish yirik ko‘lamlarda amalga oshirilmoqda. Tarmoq rivojlanishidagi bunday yo‘nalish mahsulot yetishtirishni ko‘paytirish, mehnat unumdarligini oshirish va mahsulot tannarxini arzonlashtirishga imkon beradi.

Chorvachilik boqiladigan mollarning turiga ko‘ra bir qator mustaqil tarmoqlarga: qoramolchilik, cho‘chqachilik, qo‘ychilik, parrandachilik va boshqalarga ega. O‘z navbatida bu tarmoqlarning har biri mahsulotning ayrim turlarini yetishtirishga ixtisoslashgan holda konkret ishlab chiqarishni qoramolchilik sut - chorvachiligini hamda mol go‘shti, parrandachiliq tuxum hamda go‘sht yetishtirishni o‘z ichiga oladi.

Binobarin, chorvachilikdagi xarajatlar ishlab chiqarish sohalari va turlari bo‘yicha farqlanadi. Bu buxgalteriya hisobida o‘z ifodasini topmog‘i zarur.

Boshqa sohalarda bo‘lgani singari chorvachilikda ham ishlab chiqiladigan xarajatlar bir xil emas. Ular turli konkret material xarajatlarni (oziq biopreparatlar, dori-darmonlar, turli materiallar va hokazolar), sarflangan mehnat, asosiy vositalarning qisman eskirishi va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Chorvachilikdagi buxgalteriya hisobi, binobarin, xarajatlarni ularning turlari bo‘yicha qat’iy farqlashni ta’minalashi kerak. Chorvachilikdagi xarajatlar ham dehqonchilikdagi xarajatlar singari mana shu belgilar (ishlab chiqarish va xarajatlar turi bo‘yicha)ga ko‘ra tizimlashtiriladi. Biroq bu boshqa belgilar bo‘yicha hisobga olish to‘la mos keladi, degan fikrni bildirmaydi. Umuman olganda chorvachilikdati xarajatlarni hisobga olishning tuzilishi bir qator o‘ziga xosliklarga ega. Bu ushbu sohaning xususiyatlari bilan bog‘liqdir.

Chorvachilikda mablag‘larning doiraviy aylanishi dehqonchilikda mablag‘larning doiraviy aylanishiga qaraganda muhim farq va xususiyatlarga ega. Chorvachilik tarmog‘i ishlab chiqarishiga mablag‘ sarflash, mahsulotning chiqishi singari anchagina katta bir xilligi bilan ajralib turadi. Mablag‘ sarflash va ularni aylanishdan bo‘shatish o‘simlikchilikda bo‘lgani singari vaqt nuqtai nazaridan qat’iy chegaralanmaydi, chunki chorvachilik tarmog‘idagi ishlab chiqarishning texnologik jarayoni muomalalarning anchagina bab-baravarligi va bir xilligi bilan xarakterlanadi. Bu xususiyatlarning hammasi, tabiiyki, xarajatlarni hisobga olishni tashkil etishga ta’sir etmasdan qolmaydi.

Chorvachilikda, odatda, mablag‘ sarflash va mahsulotning chiqish muddatlarida uzoq davom etadigan uzilishlar bo‘lmash ekan, ushbu kalendor yildagi

barcha xarajatlar mana shu kalendar yildagi mahsulot ishlab chiqarishga tegishli bo‘ladi (amaliyotda hamisha ham ular bir-biriga mos kelavermaydi), Binobarin, buxgalteriya hisobida chorvachilik xarajatlarini dehqonchilikda qabul qilingani singari yonma-yon yillar bo‘yicha farqlash zaruriyati yo‘q. Chorvachilikdagi barcha xarajatlar joriy yil mahsulotlari chiqishi xarajatlarini hisobga olish. bo‘yicha schyotlarda ifodalanadi.

Chorvachilikda dehqonchilikdagi singari bajariladigan ishlar xilma-xil bo‘lmaydi. Bunda ishlab chiqarishning texnologik jarayoni bajariladigan muomalalar (oziqlantirish mollarga qarash va mahsulot olish)ning bir xilligi bilan xarakterlanadi. Bu muomalalarning hammasi, odatda, uzlucksiz davom etadi va vaqt e’tiboriga ko‘ra chegaralanmaydi. Binobarin, chorvachilikda dehqonchilikdan farq qilgan holda xarajatlarning ish turlari bo‘yicha vaqtga ko‘ra, ayrim muomalalar bo‘yicha aniq ifodalangan bo‘linish mavjud emas. Buxgalteriya hisobida, shunday qilib, xarajatlarni mana shu belgilar bo‘yicha bo‘limlarga ajratish uchun ehtiyoj yo‘q.

Nihoyat, chorvachilikda ishlab chiqarish jarayoni, odatda, bir joyga jamlangan bo‘ladi. Masalan, sut chorvachiligi mahsulotlari qoramolchilik fermalarida, cho‘chqachilik mahsulotlari, cho‘chqachilik fermalarida ishlab chiqariladi va hokazo. Binobarin, buxgalteriya hisobida xarajatlarni ayrim ishlab chiqarish bo‘linmalari bo‘yicha chegaralashga ehtiyoj yo‘q (bor turdagি mol bir nechta fermada saqlanishidan boshqa hollarda) chiqishi muddatlarida uzoq davom etadigan uzilishlar bo‘lmas ekan, ushbu kalendar yildagi barcha xarajatlar mana shu kalendar yildagi mahsulot ishlab chiqarishga tegishli bo‘ladi (amaliyotda hamisha ham ular bir-biriga mos kelavermaydi), Binobarin, buxgalteriya hisobida chorvachilik xarajatlarini dehqonchilikda qabul qilingani singari yonma-yon yillar bo‘yicha farqlash zaruriyati yo‘q. Chorvachilikdagi barcha xarajatlar joriy yil mahsulotlari chiqishi xarajatlarini hisobga olish bo‘yicha schyotlarda ifodalanadi.

Chorvachilikda dehqonchilikdagi singari bajariladigan ishlar xilma-xil bo‘lmaydi. Bunda ishlab chiqarishning texnologik jarayoni bajariladigan muomalalar (oziqlantirish, mollarga qarash va mahsulot olish)ning bir xilligi bilaa

xarakterlanadi. Bu muomalalarning hammasi, odatda, uzluksiz davom etadi va vaqt e'tiboriga ko'ra chegaralanmaydi. Binobarin, chorvachilikda dehqonchilikdan farq qilgan holda xarajatlarning ish turlari bo'yicha vaqtga ko'ra, ayrim operatsiyalar bo'yicha aniq ifodalangan bo'linish mavjud emas. Buxgalteriya hisobida, shunday qilib, xarajatlarni mana shu belgilar bo'yicha bo'limlarga ajratish uchun ehtiyoj yo'q.

Nihoyat, chorvachilikda ishlab chiqarish jarayoni, odatda, bir joyga jamlangan bo'ladi. Masalan, sut chorvachiligi mahsulotlari qoramolchilik fermalarida, cho'chqachilik mahsulotlari, cho'chqachilik fermalarida ishlab chiqariladi va hokazo. Binobarin, buxgalteriya hisobida xarajatlarni ayrim ishlab chiqarish bo'linmalari bo'yicha chegaralashga ehtiyoj yo'q (bor turdag'i mol bir nechta fermada saqlanishidan boshqa hollarda).

Shunday qilib, chorvachilikda xarajatlarni bir qator muhim belgilarga ishlab chiqarishning yonma-yon yillari bo'yicha, ish turlari bo'yicha, ba'zan ishlab chiqarish bo'linmalari bo'yicha farqlashga ehtiyoj yo'q. Xarajatlarni farqlash va tegishli yakuniy ma'lumotlar olish, odatda, ikki yo'nalishda ta'minlanmog'i kerak.

- ishlab chiqarishning asosiy turlari va mollar guruhi bo'yicha;
- xarajatlarning asosiy turlari bo'yicha.

Ishlab chiqarish bo'lib yuborilganda xarajatlar xo'jalikning bo'linmalari bo'yicha farqlanadi.

Birinchi belgi bo'yicha xarajatlarni farqlash analitik hisobni tegishli ravishda qurish hisobiga ta'minlanadi. Xarajatlarning analitik hisobi chorvachilikning asosiy tarmoqlari bo'yicha, tarmoq ichida esa ishlab chiqarishning har bir turi bo'yicha yoki mollar guruhi bo'yicha ochiladi.

Ikkinchi belgi bo'yicha farqlash hisob registrlarini tegishlicha qurish evaziga erishiladi. Xarajatlarni hisobga olish ko'p grafali shaklli registrlarda xarajatlarning har bir tarmog'iga alohida grafa ajratilgan holda olib boriladi.

Bo'linmalar bo'yicha xarajatlarni farqlash ishlab chiqarish hisobotlari tuzish bilan ta'minlanadi.

Chorvachilik tarmog‘ida xarajatlarni hisobga olishda turli metodlardan foydalanish masalasi paydo bo‘lmaydi. Barcha kerakli ma’lumotlar analitik hisob va hisobga olish registrlarini odatdagicha qurish orqali olinadi.

Chorvachilik tarmog‘ida xarajatlarning hisobga olishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

 xarajatlarni ishlab chiqarish turlari va mollar guruhi bo‘yicha iqtisodiy asoslangan holda farqlash;

 etishtiriladigan mahsulotning tannarxi shakllanadigan barcha xarajatlarni iqtisodiy bir turdag'i element va tarmoqlar bo‘yicha aniq ajratib chiqish;

 chorvachilikdan olinadigan mahsulotning chiqishini o‘z vaqtida aniq va to‘la aks ettirish;

 xo‘jalikning bo‘linmalari bo‘yicha xarajatlarni aniq aks ettirish;

 asosiy, tutash va yordamchi mahsulotning tannarxini iqtisodiy asoslangan holda aniqlash.

Chorvachilik tarmog‘idan xarajatlar va mahsulot chiqishini hisobga olish 2010- «Asosiy ishlab chiqarish » operatsion va tannarxni hisoblash 2- chorvachilik analitik schyotida olib boriladi, uning debeti bo‘yicha xarajatlar, krediti bo‘yicha esa mahsulotning chiqishi aks ettiriladi.

Ushbu schyot bo‘yicha xarajatlarni hisobga olish ob’ekti sifatida tarmoqlar chegarasida mollarning ayrim turlari va guruhlari ajratib ko‘rsatiladi: qoramol (sut va go‘sht chorvachiligi), cho‘chqachilik, qo‘ychilik, parrandachilik va shu kabilar. Schyot bo‘yicha hisobga olish nomenklaturasi quyidagicha.

Chorvachilikda qoramol sut chorvachiligi; asosiy poda, barcha yoshdag'i yosh chorva mollar va bo‘rdoqiga boqilayotgan mollar, sigir va g‘unajinlar yetishtirish (ixtisoslashtirilgan xo‘jaliklarda bir maqsadni ko‘zlab yetishtirish). Qoramol go‘sht chorvachiligi: asosiy poda, 8 oylikdan katta bo‘lgan yosh mol va bo‘rdoqiga boqilayotgan mol. Buqalar: buqalarning‘ asosiy podasi, boquvga qo‘yilgan har xil yoshdag'i buzoqlar va katta yoshdag'i buqalar. Qo‘toslar: qo‘toslarning asosiy podasi, barcha yoshdag'i yosh qo‘toslar va boquvga qo‘yilgan katta yoshli qo‘toslar.

Cho‘chqachilikda cho‘chqaning asosiy podasi, ikki oylikdan to‘rt oylikkacha bo‘lgan yosh cho‘chqalar, to‘rt oylikdan katta bo‘lgan yosh cho‘chqalar va bo‘rdoqiga boqilayotgan cho‘chqalar. Ixtisoslashtirilmagan xo‘jaliklarda xarajatlar hisobi umuman tarmoq bo‘yicha yuritiladi.

Qo‘ychilikda xarajatlar hisobi uning yo‘nalishlari mayin junli, yarim mayin junli, yarim dag‘al junli, dag‘al junli, qorak) teri va barra teri bo‘yicha yuritiladi:

Parrandachilikda tuxum qo‘yadigan tovuqlar katta yoshli ona tovuqlar; sanoat uchun boqiladigan ona tovuqlar, 1 kunlikdan 150 kunlikkacha bo‘lgan yosh tovuqlar. Go‘sht va go‘sht tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar katta yoshli ona tovuqlar;

1 kunlikdan 180 kunlikkacha bo‘lgan yosh tovuqlar jo‘ja (broyler)lar. Parrandalarning boshqa turlari (o‘rdaklar, g‘ozlar, kurkalar, tsesarkalar, bedanalar) hisob ikki guruh bo‘yicha yuritiladi katta yoshdagi va barcha yoshdagi yosh parrandalar. Inkubatorlarda tuxumlar inkubatsiyasi parrandalar turi bo‘yicha hisobga olinadi.

Yilqichilikda (otlar, eshaklar, xachirlar) naslchilik nasldor (zotli) otlarning asosiy podasi, zotli toychalar (tug‘ilgan yili bo‘yicha). Ishlatiladigan yilqichilik (sut beradigan va uyurdagi yilqilar) asosiy poda, barcha yoshdagi uyuridan ajratilgan yosh yilqilar. Yosh ish otlari yetishtirish alohida hisobga olinadi (katta yoshdagi ish otlari bosh soni bo‘yicha xarajatlar 2310-schyotda hisobga olinadi). Eshak, xachir, otlar o‘stirish ham shu tarzda hisobga olinadi.

Bug‘uchilik va tuyachilikda xarajatlarni hisobga olish ikki guruh bo‘yicha yuritiladi: asosiy poda, barcha yoshdagi bug‘u va bo‘taloqlar, bo‘rdoqiga boqiladigan bug‘u va tuyalar. Barcha guruh hayvonlar birgalikda saqlanganda (shimol bug‘uchiligida yaylovlarda) xarajatlar hayvonlarning barcha guruhlari bo‘yicha birlashgan holda hisobga olinadi.

Quyonchilikda va mo‘ynali hayvoilarda. Ishlab chiqarish yo‘nalishlari bo‘yicha (go‘sht, teri, tivist) hisobga olinadi. Mo‘ynali hayvonlar hayvon turlari bo‘yicha ikki guruhga: asosiy poda va yosh hayvonlarga bo‘lingan holda hisobga olinadi.

Baliqchilik, asalarichilik, ipakchilik hayvonlar va parrandalarni sun’iy qochirish. Baliqchilikda: umuman tarmoq bo‘yicha ixtisoslashtirilgan xo‘jaliklarda semirtiriladigan va pitomnik havzalari bo‘yicha alohida. Asalarichilikda asalari boqish, asal, asal changlatish, changlatish bo‘yicha. Ipakchilik umuman tarmoq bo‘yicha. Sun’iy urchitish hayvonlar turi bo‘yicha nasl beruvchilar (sperma olish).

Chorvachilikda dehqonchilikdan farq qilgan holda xarajatlarni hisobga olish ob’ektlarining bunday xilma-xilligi yo‘q. Asosan ob’ektlarning analitik schyoti hayvonlar guruhlarining turlari yoki yosh jinslari bo‘yicha ochiladi. Biroq ayrim hollarda analitik schyotlarni boshqa printsipi bo‘yicha ochish zaruriyati tug‘iladi. Jumladan, mahsulot tannarxini yanada aniqroq hisoblash uchun bir-biriga bog‘langan mahsulotning ayrim turlari bo‘yicha to‘g‘ri xarajatlarni alohida hisobga olish uchun qo‘sishimcha schyot ochiladi. Masalan, qorako‘lchilikda qo‘sishimcha analitik schyotlar ochilishi mumkin: qo‘ylarning junini qirqish bo‘yicha xarajatlar va qorako‘l terilari olish bo‘yicha xarajatlar. Birinchisi jun qirqish punktini saqlash, jun qirquvchilar mehnatiga haq to‘lash, junni markalash, saralash va tashish bo‘yicha xarajatlar kiradi; ikkinchisiga qo‘zichoqlarni so‘yish, dastlabki ishlov berish, terilarni oshlash va tashish xarajatlari kiradi. Natijada jun va qoraqo‘l terining tannarxini aniq belgilash imkonи yaratiladi. Bunday tartib chorvachilikning ayrim xarajatlarni to‘g‘ri, yo‘l bilan tutish mahsulot tannarxini hisoblash ob’ektlariga kiritish mumkin bo‘lgan boshqa tarmoqlarida ham qo‘llanish mumkin.

Chorvachilikdagi ayrim analitik schyotlarda ozuqa tayyorlash; xonalari va tsexlarida ozuqa tayyorlash bo‘yicha xarajatlar hisobga olinadi. Belgilangan muddatlarda hisobga olingan xarajatlar bu schyotlardan chiqarib tashlanadi va hayvonlarni parvarish qilish bo‘yicha xarajatlar ob’ektlari schyotiga tayyorlangan (berilgan) ozuqa miqdoriga proporsional taqsimlanadi. Analitik schyotlarda 2020 - «Chorvachilik» analitik schyoti bo‘yicha xarajatlarni schyotga olish quyidagicha xarajatlar qismlari nomenklaturasi bo‘yicha yuritiladi:

1. Moddiy xarajatlar.
2. Mehnatga haq to‘lash xarajatlari.

3. Ish haqiga nisbatan hisoblangan ijtimoiy ajratmalar.
4. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar eskirishi.
5. Boshqa xarajatlar.

Birinchi modda bo'yicha xarajatlarning xo'jalikning o'zida ishlab chiqarilgan va sotib olingan oziq (em-xashak)lar hisobga olinadi. Oziq sarfi ularni turlari bo'yicha sotib olingan va xo'jalikning o'zida yetishtirilgan oziq sarfi alohida «Oziq sarfi» jurnalida 35- shaklda schyotga olinganligi sababli schyot registrida qo'shib birga hisobga olinadi.

Oziqni oziq tsexida tayyorlash va unga ishlov berish bilan bog'liq bo'lган xarajatlarni ham ularni tegishli analitik schyotlarda chiqarib tashlash yo'li bilan mana shu moddaga kiritiladi.

Ikkinci modda bo'yicha hayvonlarning muayyan turi yoki guruhiga xizmat ko'rsatish bilan bevosita band bo'lган chorvachilik xodimlarining: sut sog'uvchilar, molboqarlar, smenali ishchilar, buzoqboqarlar, cho'chqaboboqarlar, cho'ponlar, parranda-boqarlar va boshqalar (mexanizmlarga qarovchi xodimlar ham shu jumлага kiradi) asosiy va qo'shimcha (mehnat haqi uchun) hisobga olinadi. Mehnatga tarif stavkalari bo'yicha haq to'lash, hayvonlarning mahsulorligini oshirish uchun, mahsulot uchun, mollar bosh sonini saqlash uchun, mahsulot sifati uchun, saralash uchun, yaylovlardagi mollarga qaraganlik uchun, brutsellyoz bilan og'rigan mollarga qaraganlik uchun qo'shimcha to'lovlar va mukofotlar, kasblarni birga qo'shib olib borganlik uchun qo'shimcha to'lovlar ham shunga kiradi. Xodimlar hisobga olinadigan bir necha guruh mollarga bir vaqtning o'zida xizmat qilgan hollarda mehnatga haq to'lash xarajatlarini hisobga olishning turli ob'ektlariga ko'rsatiladigan mollar bosh soniga yoki har bir hisob guruhiga sarflangan oziqning kunlar soniga proportsional taqsimlanadi.

Fermer xo'jaliklarida ishchilarining ish haqidan yagona ijtimoiy to'lov jamg'armasiga ajratmalar mehnatga to'g'ri haq to'lashga proroportsional ravishda tegishlichay hisobga olish ob'ektlariga kiritilganlar ham yuqoridagi birinchi moddada hisobga olinadi. Ikkinci «Chorva mollarni kasalliklardan himoya qilish vositasi» moddasida xarajatlarning mablag'i hisobiga olinib «chorvachilik uchun

sarflangan biopreparatlar, dori-darmonlar, dezinfektsiya qiluvchi vositalar va ularni ishlatish uchun sarflangan asbob-uskunalar harakati hisobga olinadi. Sarflangan ozuqa ularning har biri agar yuqoridan hisoblab o‘tilgan vositalar davlat byudjetidan maxsus ajratilgan mablag‘ hisobiga sotib olinib sarflansa bu xarajat moddasida hisobga olinmaydi.

To‘rtinchi «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar» moddasida.»Avtotransport» parki hayvonlarning muayyan turi yoki guruhi ishlangan tonnani kilometrga proportsional taqsimlanadi. Bu avtoransport bo‘yicha sarflarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan. Yil davomida rejali bahoda bir tonna-kilometrli avtotransport bo‘yicha xarajatlar kiritiladi.

Yil oxirida bir tonna kilometrning haqiqiy tannarxi aniqlangandan so‘ng chiqarib tashlangan summa haqiqiy xarajatlar darajasida tuzatiladi. Tashqaridan jalg qilingan yuk avtotsporti xizmati qiymati ham mana shu modda bo‘yicha aks ettiriladi.

Ushbu xarajat moddasida «Traktorlarda bajarilgan transport xarajatlari» moddasida chorvachilikda traktorlar bilan bajarilgan va hayvonlarning ushbu guruhi yoki turiga ishlatilgan tonna-kilometrga yoki shartli etalon gektarlarga proportsional taqsimlangan transport ishlari xarajatlari ham hisobga olinadi. Yil oxirida ishlarning rejali qiymati haqiqiy bajarilgan ish qiymati bilan tuzatiladi.

Shuningdek to‘rtinchi moddada yil davomida schyotdagi hayvonlar guruhini parvarish qilishga sarflangan elektr energiyasi va suv qiymati hisobga olinadi. Xarajatlar yil davomida rejali tannarx bo‘yicha 2310- «Yordamchi ishlab chiqarishlar» schyotining tegishli analitik schyotlaridan chiqarib beriladi. Yil oxirida esa haqiqiy tannarxga keltiriladi.

Beshinchi «Asosiy vositalar ehtiyoji uchun qilingan sarflar» moddada chorvachilikning ushbu tarmog‘ida foydalilanligan asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsion ajratmalar summasini hisobga olish uchun belgilanadi (bino, sut sog‘ish uskunalari va boshqa asosiy vositalar). Amortizatsiyani hayvonlarning muayyan turi yoki guruhi hisobiga o‘tkazishning imkoniboricha to‘g‘ri yo‘l bilan amalga oshiriladi. Agar amortizatsiyaga ajratilgan summani to‘g‘ridan-to‘g‘ri

hayvonlarning konkret guruhi hisobiga o‘tkazish mumkin bo‘lmasa, unda u amaldagi instruktiv ko‘rsatmalarga tegishlicha taqsimlanadi. Masalan, mollarning ikki yoki undan ko‘tsroq guruhiga xizmat qiladigan chorvachilik binolari bo‘yicha amortizatsiya mollarning har bir guruhi egallab turgan maydonga proportsional taqsimlanadi.

Shuningdek, ushbu moddada chorvachilikning ushbu tarmog‘iga xizmat ko‘rsatishda foydalaniladigan binolar, inshootlar, mashinalar, asbob-uskunalar va boshqa asosiy vositalarning joriy ta’miri bo‘yicha xarajatlar hisobga olinadi. Hayvonlarning bir necha guruhi yoki turi uchun foydalaniladigan asosiy vositalarning joriy ta’miri bo‘yicha xarajatlar amortizatsiya ajratmalarini hisobga o‘tkazish printsiplari bo‘yicha taqsimlanadi.

Xarajatlarning ushbu qismi kompleks ekanligini e’tiborda tutmoq lozim. U ta’mir ishlariga tegishli bo‘lgan turli-tuman sarflar (mehnatga haq to‘lash, ehtiyyot qismlar, ta’mir materiallari va boshqalar)ni o‘z ichiga oladi. Bu xarajatlarning hammasi oldindan 2310-“Yordamchi ishlab chiqarishlar” schyotining analitik schyotlarida jamlanadi va belgilangan kompleks qismlari bilan asosiy ishlab chiqarish schyotiga kiritiladi.

Oltinchi “Ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish xarajatlari” moddasida chorvachilikka tegishli umumishlab chiqarish xarajatlari hisobga olinadi. Umumishlab chiqarish xarajati brigada, bo‘lim bo‘yicha hal bo‘ladi. Bu xarajatlar brigadani umumishlab chiqarish xarajati brigadadagi chorva turi bo‘yicha bo‘limdagi umumishlab chiqarish, barcha chorva tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanadi. Umumishlab chiqarish xarajatiga brigada boshliqlari, bo‘lim zootexniklari, vetvrachlari, ferma qoravullari mehnat haqlari va ularning ishlashi uchun sarflanadigan boshqa turli mablag‘lar kiradi.

Yettinchi «Sug‘urta to‘lovlari» moddasida sug‘urta bo‘yicha mol-mulk va mollarni sug‘urta qilish to‘lovlari summasini hisobga olish mo‘ljallangan. Mollarni sug‘urta qilish bo‘yicha to‘lovlar bevosita hayvonlar turi va guruhi bo‘yicha xarajatlar ob’ektining tegishli schyotiga qarashli bo‘ladi. Chorvachilikda foydalaniladigan binolar, inshootlar va asbob-uskunalar bo‘yicha sug‘urta

to‘lovlari hayvonlar turi va guruhiga (to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tkazishning imkonini bo‘lmasganda) ajratilgan amortizatsiyaga proportsional taqsimlanadi.

Sakkizinchi «Boshqa asosiy xarajatlar» moddasi avvalgi moddalarga kirmagan turli sarflar uchun mo‘ljallangan. Chunonchi, quyidagilar bu qismga tegishli bo‘ladi: eskirish summasi, tegishlichcha hisobdagi mollar guruhiga sarflangan dori-darmonlar, biopreparatlar va dezinfektsiyalovchi vositalar qiymati, 3110-schyotdan hisobdan chiqarilgan bo‘lajak davrlar sarflari.

Ushbu moddaga hayvonlarni sun’iy qochirish sarflari ham kiritiladi: texnik-osemenatorlarning asosiy va qo‘srimcha mehnat haqi hayvonlarni sun’iy qochirish asbob-uskunalarini saqlash xarajatlari, sotib olish bahosi yoki tannarx, sperma qiymati, sun’iy qochirish bo‘yicha stantsiya xizmati qiymati.

To‘qqizinchi «Chorva mollarining o‘lishidan ko‘rilgan zarar»lar moddasida hech kimning aybisiz chorvachilikda harom o‘lgan o‘stirlayotgan va bo‘rdoqiga boqilayotgan mollar, parrandalar, asalarilar, quyonlar va boshqa chorva mollar qiymati aks etiladi.

Chorvachilik ayrim tarmoqlarining o‘ziga xosligini hisobga olib, ularda namunaviy nomenklaturadagi xarajatlar grafalaridan tashqari qo‘srimcha moddalari ham belgilanishi mumkin. Parrandachilikda «Inkubatsiyaga qo‘yilgan tuxumlar qiymati», baliqchilikda «Suv havzalariga qo‘yilgan baliqchalar qiymati», ipakchilikda «Qurt urug‘i qiymati», qo‘ychiliqdada «Jun qirqish punkti xarajatlari», bug‘uchilikda “Bug‘i shoxlarini qirqish va konservalash xarajatlari» mana shunday: grafalar bo‘lishi mumkin. Bu grafalarning ko‘plari bo‘yicha xarajatlar oldindan alohida analitik schyotlarda hisobga olinadi va belgilangan muddatlarda ko‘rsatilgan grafalar bo‘yicha mansubligiga ko‘ra xarajatlarni hisobga olish ob’ektlariga o‘tkaziladi.

Bundan tashqari, parrandachilikda, quyonchilikda, hayvonotchilikda, asalarichilikda katta yoshdagi parrandalar, quyonlar, hayvonlar o‘lati va halok bo‘lgan asalari uyasi qiymatini (moddiy javabgar shaxslarning aybi bilan o‘lat tegishi va tabiiy ofatlar tufayli halok bo‘lishdan tashqari) aks ettirish uchun alohida grafalar belgilanadi.

Dehqonchilikdan farq qilgan holda chorvachilikda yil oxirida, odatda, tugallanmagan ishlab chiqarish bo‘lmaydi. Bu shu bilan bog‘liqki, chorvachilikning asosiy tarmoqlari hisoblangan qoramolchilik, cho‘chqachilik va boshqalar bo‘yicha har bir kalendar yilning xarajatlarini tegishli yilda mahsulot chiqishiga kiritish qabul qilingan. Biroq chorvachilikning ayrim tarmoqlarida (parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, yilqichilik) tugallanmagan ishlab chiqarish yil oxiriga qolishi mumkin. Masalan, parrandachilikda agar tuxumlar inkubatorga dekabrda qo‘yilgan bo‘lsa va yil oxirigacha jo‘jalar ochib chiqarilmagan bo‘lsa (tovuq tuxumlari 10-dekabrdan keyin qo‘yilgan bo‘lsa) tuxumlarni inkubatsiyaga qo‘yish xarajatlari keyingi yilga o‘tadi.

Asalarichilikda tugallanmagan ishlab chiqarishga asalari yashiklarida qish paytida ozuqa uchun qoldirilgan asalning qiymati; baliqchilikda keyingi yilga o‘tadigan baliq urchitish bo‘yicha xarajatlar, tuyachilikda bo‘taloqlar va ona tuyalarni saqlash xarajatlari kiritiladi.

### **3.3. Chorvachilik xarajatlari va olingan mahsulotlarning dastlabki, analitik va sintetik hisobi**

Chorvachilik tarmog‘ida xarajatlarva olingan mahsulotlarni hisobga olishda ko‘plab dastlabki hujjatlar qo‘llaniladi. Bular asosan xarajatlar va olingan mahsulotlar hisobga olinadigan dastlabki hujjatlarga bo‘linadi. Chorvachilikdagi xarajatlar mehnat buyumlari, mehnat vositalari va chorva xodimlarining mehnat haqi xarajatlaridan iboratdir. Ushbu xarajatlar xususiyatlariga ko‘ra tegishli dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtirilib boriladi. Masalan, sarflangan yem-xashaklarning dastlabki hisobi yem-xashak sarflash qaydnomasi (94-shakl)da, yig‘ma hisobi esa ularni hisobga oladigan maxsus jurnal (35-shakl)da yuritiladi. Unda chorva mollarining har bir turi va guruhi uchun alohida betlar ajratilib sarflangan yem-xashak miqdori, ularning ozuqa birligiga va hazm bo‘luvchi proteinga aylantirilgan miqdori, shuningdek ozuqa-kunlar soniga ko‘rsatiladi. Bu jurnalning jamlangan ma’lumotlariga asosan yem-xashak sarflarini hisobga olish yig‘ma qaydnomasi tuziladi.

Chorvachilikda sarflangan boshqa moddiy boyliklar (dori-darmonlar, biopreparatlar va boshqalar) belgilangan tartibda limit-zabor kartalari va nakladnoylar bilan rasmiylashtiriladi.

Mehnat vositalari sarfi dehqonchilikdagi kabi amortizatsiya hisoblash hujjatlariga asosan rasmiylashtiriladi.

Chorvachilik xodimlari mehnatiga haq to‘lash yetishtirilgan mahsulotlar miqdori va sifatiga qarab amalga oshiriladi. Shuning uchun chorvachilikdan olingan mahsulotlarni rasmiylashtiradigan hujjatlar (sut sog‘ishni hisobga olish jurnali, tug‘ilgan hayvon bolalarini kirimga olish dalolatnomasi, chorva mollarining vaznini o‘lchash qaydnomasi, chorva mollarini guruhdan-guruhga o‘tkazish dalolatnomasi va boshqalar) mehnatga haq to‘lash uchun asos bo‘ladi. Chorvachilik xodimlari ishlagan vaqtining hisobi har kuni ish kuni ish vaqtini hisobga olish tabeli(64-shakl)da yuritiladi.

Ushbu hujjatlarga asosan chorvachilik xodimlariga mehnat haqi hisob-kitobi tuziladi.

Chorvachilikdagi ishlab chiqarish xarajatlarining analitik hisobi chorva mollarining turlari, yoshi va jinsiga qarab ochiladigan analitik schyotlarda quyidagi xarajat moddalari bo‘yicha yuritiladi:

1. Mehnat haqi xarajatlari ijtimoiy sug‘urta ajratmalari bilan birga, kishi-soati, so‘m;
  2. Ozuqalar, ozuqa birligi, so‘m;
  3. Chorva mollarini himoya qilish vositalari, so‘m;
  4. Ishlar va xizmatlar, so‘m;
  5. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari, so‘m;
  6. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari, so‘m,
  7. Sug‘urta to‘lovlar, so‘m;
  8. Boshqa xarajatlар, so‘m;
  9. Chorva mollarini yaroqsizga (brakka) chiqarish va ularning nobud bo‘lishdan kelib chiqqan yo‘qotishlar, so‘m.
1. «Mehnat haqi xarajatlari (yagona ijtimoiy to‘lov fondiga ajratmalar

bilan)» moddasida muayyan chorva turi yoki guruuhlariga qarovchi turli toifadagi ishlovchilarning ish haqi yagona ijtimoiy to‘lov fondiga ajratmalar bilan birga, ta’til vaqt uchun to‘lanadigan haqlar hamda moddiy rag‘batlantirish fondidan ajratilgan to‘lovlar aks ettiriladi.

2. «Chorva mollarini himoyalash vositalari» moddasida xo‘jalikning o‘z mablag‘lari hisobidan sotib olinib, sarflangan biopreparatlar, dori-darmonlar va dezinfeksiyalovchi vositalar hamda ularni ishlatish bilan bog‘liq sarflar hisobga olinadi.

Budgetdan ajratilgan mablag‘lar hisobidan sotib olinib, foydalanilgan biopreparatlar, dori-darmonlar va dezinfeksiyalovchi vositalari bu moddaga yozilmaydi.

3. «Yem-xashak» moddasida xo‘jalikning o‘zida ishlab chiqarilgan va chetdan sotib olingan yem-xashaklarning chorva mollariga (ish hayvonlarini ham qo‘sib), parrandalarga va boshqa turdagи chorva mollariga sarflanishi hisobga olinadi. Sotib olingan va xo‘jalikning o‘zida tayyorlangan yem-xashaklar sarflanishi «Em-xashak sarfi» jurnali (35-shakl)da alohida ularning turlari bo‘yicha hisobga olinganligi sababli analitik hisob registrida ushbu modda bo‘yicha birlashtirib hisobga olinadi. Yem-xashak tayyorlash sexlarining xarajatlari ham shu moddada alohida analitik schyot ochilib, hisobga olinadi va tayyorlangan yem-xashak miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

4. «Ish va xizmatlar» moddasida mazkur chorvachilik tarmog‘i uchun xo‘jalikning o‘z yordamchi ishlab chiqarish bajargan ish va ko‘rsatgan xizmatlarining qiymati hamda chet Xo‘jaliklarning ko‘rsatgan xizmatlari uchun to‘lanadigan haq hisobga olinadi. Ushbu xarajat moddasida yuk avtotransporti, otulov transporti, traktorlarning transport ishlari, suv ta’minoti, elektr ta’minoti, ta’mirlash ustaxonasi xarajatlari hisobga olinadi.

5. «Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari» moddasida bevosita chorvachilikda foydalanilayotgan asosiy vositalarni saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar hisobga olinadi. Inventar va xo‘jalik jihozlari hamda moslamalarni tiklash uchun qilinganxarajatlar ham shu moddada hisobga olinadi.

6. «Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari» moddasida ferma larda, tarmoqlarda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari aks ettiriladi.

7. «Sug‘urta to‘lovlari» moddasida ish hayvonlari, yosh va mahsuldar mollar, parrandalar, quyonlar, asalarichilik, shuningdek chorvachilikda foydalani layotgan binolar, inshootlar va asbob-uskunalarning majburiy sug‘urtasiga doir to‘lovlari aks ettiriladi.

Mollar bo‘yicha hisoblangan sug‘urta to‘lovlari bevosita tegishli hisob guruhining xarajatlariga o‘tkaziladi. Chorvachilikda asosiy vositalar bo‘yicha hisoblangan sug‘urta to‘lovlari esa chorvachilikning hisob guruhlari o‘rtasida asosiy vositalarni saqlash xarajatlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

8. «Boshqa xarajatlar» moddasida mahsulot yetishtirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, lekin yuqoridagi xarajat moddalarida hisobga olinmagan sarflar aks ettiriladi.

Bularga quyidagilar kiradi: ferma atroflarini o‘rash xarajatlari, dezinfeksiya g‘ovlarini qurish va boshqa xarajatlar; to‘shamalar; sut sog‘uvchilar, molboqarlar va boshqa xodimlarga berilgan maxsus kiyim va poyafzallar, chorva mollari uchun yozgi lagerlar, bostirmalar va boshqa nokapital inshootlarni qurish xarajatlari.

Shuningdek, oldin 3100-«Kelgusi davr xarajatlari»ni hisobga oladigan (3110, 3120, 3190) schyotlarda hisobga olinib, keyinchalik ularning qoplanish davri davomida bir tekis usulda yoki ishlab chiqarilgan mahsulot(bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmat)lar hajmiga mutanosib ravishda taqsimlanadigan xarajatlarning chorvachilikka tegishli qismi ham ushbu modda bo‘yicha hisobga olinadi.

9. «Chorva mollarini yaroqsizga (brakka) chiqarish va ularning nobud bo‘lishidan ko‘rilgan zararlar» moddasida boquvda turgan yosh va katta yoshdagি mollar, parrandalar, asalarilar, quyonlar va boshqa hayvonlarning nobud bo‘lishidan ko‘rilgan zararlar aks ettiriladi. Nobud bo‘lgan chorva mollari uchun aybdor shaxslardan undirib olinadigan summa va tabiiy ofatdan ko‘rilgan zararlar bu xarajatlar moddasiga yozilmaydi. Chorvachilikdagi ayrim tarmoqlarning o‘ziga xosligini hisobga olib, ularda qo‘srimcha xarajat moddalari ham belgilanishi

mumkin. Parrandachilikda – «Inkubatsiyaga quyilgan tuxumlar qiymati», baliqchilikda – «Suv havzalariga quyilgan baliqchalar qiymati», ipakchilikda – «Ipak qurti qiymati», qo‘ychilikda – «Jun qirqish punkti xarajatlari» mana shunday grafalar bo‘lishi mumkin. Bu grafalarning ko‘plari bo‘yicha xarajatlar oldindan alohida analitik schyotlarda hisobga olinadi va belgilangan muddatlarda ko‘rsatilgan grafalar bo‘yicha mansubligiga ko‘ra xarajatlarni hisobga olish obektlariga o‘tkaziladi. Bundan tashqari, parrandachilikda, quyonchilikda, hayvonotchilikda, asalarichilikda katta yoshdagi parrandalar, quyonlar, hayvonlar o‘lati va nobud bo‘lgan asalari uyasi qiymatini (moddiy javobgar shaxslarning aybi bilan o‘lat tegishi va tabiiy ofatlar tufayli halok bo‘lishidan tashqari) aks ettirish uchun alohida grafalar belgilanadi. Chorvachilikdagi xarajatlarning analitik hisobi «Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish» qaydnomasida yuritiladi (3.3.1-jadval).

### **3.3.1-jadval**

#### **Chorvachilik xarajatlari va mahsulotlari chiqishini hisobga olish**

#### **Q A Y D N O M A S I**

№	Xarajatlar	Analitik hisob obektlari						Debet bo‘yicha jami	Aloqa schyotlar		
		Asosiy poda			Yosh mollar						
		yil boshidan	1 oy	jami	yil boshidan	1 oy	jami				
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10		
<b>I Chorvachilik xarajatlari</b>											
1	Mehnat haqi	1264000		1264000	650000		650000	1914000	6710		
2	Yagona ijt. to‘lov	316000		316000	162500		162500	478500	6520		
3	em-xashak	2588000		2588000	1168400		1168400	3756400	1010		
4	AV eskirishi	247000		247000	250100		250100	497100	0200		
5	AV joriy ta’mir	241500		241500	148200		148200	389700	6010		
6	Avtotransport	530000		530000	170000		170000	700000	2310		
6a	Tannarx farqi	-53000		-53000	-17000		-17000	-70000	2310		
7	Boshqa xarajatlar	330500		330500	-	-	-	330500	1010		
8	<b>j a m i</b>	<b>5464000</b>		<b>5464000</b>	<b>2532200</b>		<b>2532200</b>	<b>7996200</b>			
<b>II Chorvachilik mahsulotlari olinishi</b>											
9	Sut, s	368,8		368,8				368,8	X		
10	Qiymati, so‘m	4425300		4425300				4425300	2810		
11	Buzoq, bosh	30		30				30	X		
12	Qiymati, so‘m	491700		491700				491700	1110		
13	Go‘ng, so‘m	50000		50000				50000	2011		
14	Semirgan vazn, s				26,0		26,0	26,0	X		
15	Qiymati, so‘m				2197000		2197000	2197000	1110		
16	Go‘ng, so‘m				43440		43440	43440	2011		
	<b>jamii mahsulot, so‘m</b>	<b>4967000</b>		<b>4967000</b>	<b>2240440</b>		<b>2240440</b>	<b>7207440</b>			

Unda ishlab chiqarish xarajatlari yuqoridagi moddalar bo'yicha guruhlanib, analitik hisob obektlari va tarkibiy bo'linmalar bo'yicha tuziladi hamda hujjatlar aylanish grafigiga muvofiq belgilangan muddatda markaziy buxgalteriyaga topshiriladi. Bu qaydnomada xarajatlarning miqdor va qiymat ko'rsatkichlari yoziladigan qatorlar, hisob obektlari va tarkibiy bo'linmalarni yozish uchun esa tegishli grafalar ajratilgan.

Ishlab chiqarish xarajatlari qaydnomaga ikki xil: yil boshidan hisobot oyigacha va hisobot oyida kabi ko'rsatkichlar ko'rinishida yoziladi. Bu esa xarajatlarni nazorat qilish va yil davomidagi hamda yillik buxgalteriya hisobotini tuzishda mahsulot tannarxini hisoblash imkonini yaratadi.

Qaydnoma uch qismdan iborat bo'lib, bir yilga ochiladi. Uning birinchi, «Chorvachilik mahsuloti yetishtirish xarajatlari» bo'limida barcha texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar (ishlangan kishi-soat, oziq-kunlar, sarflangan em-xashaklar) va boshqa xarajatlar chorvachilik hisob guruhlari bo'yicha bir tizimga keltirilgan. Bu bo'limda oylik xarajatlar asosiy xarajat moddalar bo'yicha guruhlanib aks ettiriladi. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, amortizatsiya ajratmalari, inventar va xo'jalik jihozlari sarfi kabilar alohida ko'rsatiladi. Xarajatlar to'g'risidagi jami ma'lumotlar bir oylik vayilboshidan o'sib borish tartibida aks ettiriladi.

Qaydnomaning ikkinchi «Chorvachilik mahsulotlar chiqishi» bo'limida chorvachilikdan olingan asosiy va yordamchi mahsulotlar turlari, miqdori va reja tannarxi yoki shartnoma bahosi bo'yicha aniqlangan qiymati, ya'ni 2012-«Chorvachilik ishlab chiqarishi» schyotining krediti va boshqa korrespondensiyalanuvchi (1010-1090, 2010, 2810 va b.) schyotlarning debetiga yoziladigan ko'rsatkichlar aks ettiriladi.

Bu bo'limda aks ettirilgan ma'lumotlar moddiy boyliklarning harakati to'g'risidagi hisobot (121-shakl), hayvon va parrandalarning harakati to'g'risidagi hisobot (102-shakl), hayvonlarning harakatini hisobga olish daftari (34a-shakl), sog'ilgan sutni hisobga olish jurnali (112-shakl) va shunga o'xshagan hujjatlarda, hisobot davri ichida aks ettirilgan ko'rsatkichlarga teng bo'lishi kerak.

Bu hujjatning uchinchi bo‘limi muomalalarni oy oxirida 2012-«Chorvachilik ishlab chiqarishi» schyotining kreditidan boshqa korrespondensiyalanuvchi schyotlarning debetiga yozish uchun mo‘ljallangan. Oy oxirida bu ma’lumotlar 10-ASK jurnal-orderga o‘tkaziladi.

Yig‘ma qaydnomada ko‘rsatilgan 2012-«Chorvachilik ishlab chiqarishi» schyotining debeti va kreditiga yozilgan oylik summalarning jami jurnal-orderlarga asosan tuzilgan Bosh daftarning (18-ASK shakl)dagi 2012-schyotdagi debet va kredit oborotlari yig‘indisiga teng bo‘lishi kerak.

### **Nazorat savollari**

1. Chorvachilik tarmog‘i tavsifi, hisobining vazifalari va uslubiy asoslari nimalardan iborat?
2. Chorvachilikda xarajatlар hisobining obektlari va moddalari nimalar kiradi?
3. Chorvachilik xarajatlari va olingan mahsulotlarning dastlabki, analitik va sintetik hisobini yuritilish tartibi?
4. Chorvachilik mahsulotlarning xarajatlari hisobga olish qaydnomasining rasmiylashtirish tartibi?

## **IV BOB QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH XARAJATLARI MAHSULOTLAR CHIQISHINI HISOBGA OLISH**

### **4.1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ishlab chiqarishi xarajatlari tarkibi va ular hisobini tashkil etish**

Ma’lumki, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqonchilik va chorvachilik tarmog‘i asosiy o‘rinni egallaydi. Bugungi kunda fermer xo‘jaliklari faqat xom-ashyo yetishtirish bilan cheklanmasdan, o‘z ishlab chiqarish tarmoqlarini kengaytirish ya’ni sanoat ishlab chiqarishini tashkil qilish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Buning natijasida amalda mingdan ortiq fermer xo‘jaliklari ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi sifatida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Qishloq xo‘jaligi xo‘jaliklarida sanoat ishlab chiqarishining tashkil etilishi moddiy va mehnat resurslaridan yil davomida bir tekisda foydalanish imkonini beradi. Bu qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligini qisqartiradi. Fermer xo‘jaliklari faoliyatida sanoat ishlab chiqarishining tashkil etilishi va rivojlanishi, ularning buxgalteriya hisobida sanoat ishlab chiqarishi xarajatlari hisobini tashkil etish va mahsulotlar tannarxini hisoblash masalasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni talab qiladi.

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida sanoat ishlab chiqarishi xarajatlari hisobi O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi Qonuni, «Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnomalar» nomli 21-sonli buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) va boshqa buxgalteriya hisobining milliy standartlari, «Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» hamda boshqa tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan yagona uslubiy asoslar va tadbirlarga muvofiq tashkil etiladi. Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash, shuningdek, qurilish materiallari ishlab chiqarish, mayda asbob-uskunalarini tayyorlash va boshqalar uchun sanoat ishlab

chiqarishi tashkil etiladi. Xo‘jaliklarida sanoat ishlab chiqarishining turi va texnologiyalarning xususiyatiga bog‘liq xarajatlarni hisobga olish va tannarxni hisoblashning quyidagi usullari qo‘llanilishi mumkin: oddiy (jarayonli), buyurtmali va normativli. Ushbu usullarning har biri tarmoq xususiyatlari va ishlab chiqarishning turiga qarab qo‘llaniladi. Masalan oddiy (jarayonli) usul kungaboqarni qayta ishslashda, buyurtmali usul asosan tegirmon, yog‘ochni qayta ishslash(piloramalar)da, normativli usul sut va go‘shtni qayta ishslash bo‘yicha ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda qo‘llanilishi yaxshi samara beradi.

Qishloq xo‘jalik xo‘jaliklarida sanoat ishlab chiqarishi xarajatlari quyidagi xarajat elementlari bilan guruhlarga ajratiladi :

1. Bevosita material xarajatlari;
2. Bevosita mehnat xaqi xarajatlari
3. Bevosita mehnat xaqi fondidan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar
4. Amortizatsiya ajratmalari
5. Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari.

1 guruh bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishida qayta ishslash uchun foydalanilgan xom-ashyo va materiallar, yoqilg‘i va moylash materiallari va boshqa material sarflar hisobga olinadi. Shuni ta’kidlash kerakki, sanoat ishlab chiqarishida qayta ishslashga berilgan o‘z ishlab chiqarish xom-ashyosi (sut, sabzavot meva va boshqalar) yil davomida reja tannarxida baholanadi va yil oxirida xaqiqiy tannarxga keltiriladi. Ikkinci guruh bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishida ishlayotgan ishchi va xizmatchilarga hisoblangan asosiy va qo‘srimcha ish xaqlari hamda mukofot pullari hisobga olinadi. Uchinchi guruh bo‘yicha ish haqiga nisbatan hisoblangan ijtimoiy sug‘urta ajratmalari hisobga olinadi. To`rtinchi guruhda sanoat ishlab chiqarishida band bo‘lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga hisoblangan eskirish summalarini aks ettiriladi. Beschichi guruhda sanoat ishlab chiqarishi uchun tashqaridan ko‘rsatilgan xizmatlar(elektr ta’mnoti, suv ta’mnoti va boshqalar), umumishlab chiqarish xarajatlari va boshqa xarajatlar umumlashtiriladi.

Fermer xo‘jaliklarida sanoat ishlab chiqarishi uchun asosiy ishlab chiqarish schyoti tarkibida 2030 «Sanoat ishlab chiqarishi» schyotini ochish tavsiya etiladi. Uning debet tomonida xarajatlar va kredit tomonida olingan mahsulotlar hisobga olinadi. Bunda 2030 schyot bo‘yicha 3 ta: «Dehqonchilik mahsulotlarini qayta ishlash», «Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash», «Boshqa sanoat ishlab chiqarishlari» analitik schyotlari ochish orqali xo‘jalikdagi sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarini to‘liq qamrab olish imkonini bo‘ladi. Sanoatlashgan fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar chiqishining analitik hisobini tashkil etish uchun «Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom»ning 18–ilovasidan foydalanib, quyidagi soddalashtirilgan qaydnomma shaklini tavsiya etamiz shakl «Sanoat ishlab chiqarish hisoboti» da yuritiladi.

#### **4.1.1-jadval**

#### **Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ishlab chiqarishii xarajatlari va mahsulotlarini hisobga olish**

#### **QAYDNOMASI**

Xarajat moddalari va mahsulot nomi	Qayta ishlash tarmog‘i nomi						Jami	Korr schyot		
	Sutni qayta ishlash mini zavodi			Tegirmon						
	Yil boshi- dan	1 oyda	Jami	Yil boshi- dan	1 oyda	Jami				
<b>I xarajatlar (2030 schyot debeti)</b>										
1	Bevosita material xarajatlari							1000		
2	Bevosita mehnat xaqi xarajatlari							6710		
3	Bevosita mehnat xaqi fondidan ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar							6520		
4	Amortizatsiya ajratmalar							0200		
5	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari.							6010 2310 2510 6510		
	<b>Jami xarajatlar</b>									
<b>II olingan mahsulotlar (2030 schyot krediti)</b>										
1	Nomi									
2	Qiymati							2810		

Bunda xarajat moddalari sanoat ishlab chiqarishining xususiyatlari va boshqaruv maqsadlaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. Ushbu shaklning

afzalligi unda xarajatlar moddalar bo‘yicha yil davomida oyma-oy o‘sib boruvchi jami bilan hisobga olib borish ta’minlanadi. Mahsulotning chiqishi ham shu tartibda alohida ko‘rsatiladi. Shuningdek, mahsulotlar tannarxini to‘g‘ri va aniq hisoblash, natijada ularni tahlil qilish hamda tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash ta’minlanadi.

Har oy oxirida ushbu shakldagi yakunlovchi ma’lumotlar 2030 schyot bo‘yicha belgilangan tartibda jamlanma qaydnomaga o‘tkazib boriladi.

*Qishloq xo‘jaligida sanoat ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot olinish hisobi*

Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishslash, shuningdek, qurilish Materiallari ishlab chiqarish, mayda asbob-uskunalarni tayyorlash va hokazolar uchun qishloq xo‘jalik xo‘jaliklari tarkibida yoki mustaqil sanoat xo‘jaliklari hamda yordamchi xo‘jaliklar tashkil etiladi. Bunday sanoat xo‘jaliklari ishchi kuchining mavsumiy oshiqchaligidan to‘la va samarali foydalanish hamda rentabellikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Sanoat ishlab chiqarishini hisobga olish har bir ishlab chiqarish sarfini hisob obekti va xarajat muddasi bo‘yicha hisobda to‘g‘ri va o‘z vaqtida aks ettirish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni aniq hisobga olish va ularning tannarxini to‘g‘ri hisoblash, tugallanmagan ishlab chiqarishni to‘g‘ri aniqlash, mablag‘larni tejab sarflashni nazorat qilish, oila pudrati va pudrat asosida ishlaydigan bo‘linmalarning shartnomaviy majburiyatlarni bajarishi ustidan nazorat qilish va har bir xo‘jalik bo‘yicha ishlab chiqarish faoliyatining (moliyaviy) natijalarini alohida aniqlashni ta’minlash lozim.

Qishloq xo‘jaligida sanoat ishlab chiqarishlariga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan (tegirmon, sutni qayta ishslash, moyjuvoz, konserva va pishloq zavodlari va h.k.) xo‘jaliklar va ishlab chiqarishlar, yog‘och tilish, g‘isht zavodi, salloqxona, hamda mahsulotlarga oddiy ishlov berishga oid ishlab chiqarishlar (meva vasabzavotlarni quritish, bodring va pomidor tuzlash va boshqalar) kiradi.

Sanoat ishlab chiqarishida qilingan xarajatlar quyidagi moddalar bo‘yicha hisobga olinadi: 1. Mehnat haqi xarajatlari ijtimoiy sug‘urta xarajatlari bilan

birgalikda. 2. Xom ashyo va Materiallar. 3. Ishlar va xizmatlar. 4. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari. 5. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishga oid xarajatlari. 6. Sug‘urta to‘lovlari. 7. Boshqa xarajatlari. 8. Yaroqsizlikdan ko‘rilgan yo‘qotishlar.

«Xom ashyo va Materiallar» muddasida tayyorlanadigan mahsulotning negizini tashkil etuvchi yoki uni tayyorlashda zarur bo‘ladigan komponentlar: masalan, tegirmon va juvozzonalarda – donning qiymati; kanop va zig‘irni qayta ishslashda – poyaning qiymati; meva, sabzavot, kartoshka va rezavor mevalarni qayta ishslashda – meva, sabzavot, kartoshka, dukkaklilar, rezavorlar va boshqalar qiymati. «Yaroqsizlikdan ko‘rilgan yo‘qotishlar» muddasida butunlay yaroqsizga chiqarilgan mahsulot (buyumlar, yarim tayyor mahsulotlar) qiymati, qurulmalarning dastlabki ishlatish vaqtida buzilgan xom-ashyo, Materiallar va yarim tayyor mahsulotlar qiymati hamda yaroqsizlikni tuzatish xarajatlari aks ettiriladi. Qolgan xarajat muddalari o‘zlarining mazmuniga qarab 2010 va 2020 schyotlar bo‘yicha ko‘rib chiqilgan xarajat muddalariga o‘xshashdir.

#### **4.2.Qishloq xo‘jaligida sanoat ishlab chiqarishi xarajatlari va mahsulot olinishining dastlabki, analitik va sintetik hisobi**

Sanoat ishlab chiqarishi xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olishda xilma-xil dastlabki hujjatlar va hisob registrlari qo‘llariladi.

Bajarilgan ish va sarflangan mehnatni hisobga olish *ishbay ishlar uchun naryad* (70 va 70a-shakllar)ga asosan amalga oshiriladi.

Salloqxonalarda mollarning so‘yilishini rasmiylashtirish uchun *asosiy podadagi chorva molini brakka chiqarish dalolatnomasi* (№57 shakl), *chorva mollari va parrandalarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi* (№100 shakl) *chorva mollarini tarozida tortish qaydnomasi* (boquvdagi yosh va katta yoshdagi mollar ni so‘yish paytida) kabi dastlabki hujjatlardan foydalilanildi. So‘yishdan olingan mahsulotni hamda mahsulotning tayinlanishi dalolatnomaning orqa tomonidaga shu mahsulotni omborga topshirishga asos bo‘lgan nakladnoy raqamini ko‘rsatgan holda yoziladi.

Sutni va sut mahsulotlarini qayta ishlashni har kuni hisobga olish uchun *sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash qaydnomasi* (№124-shakl) da foydalilanadi. Bu qaydnoma sutni qayta ishlash punktining boshlig‘i tomonidan ikkita nusxada to‘lg‘aziladi. Qaydnomaning birinchi nusxasida qayta ishlash uchun berilgan sut va sut mahsulotlarining nomi, miqdori, sifati, ikkinchi nusxasida esa qayta ishlashdan olingan mahsulotlar xuddi shu ko‘rsatkichlar bo‘yicha yozib boriladi.

Xo‘jalik tegirmon va juvozxonalarda *don yanchish (maydalash) pattasi (kvitansiyasi)* (122-shakl) dastlabki hujjat bo‘lib hisoblanadi. U tegirmon (juvozxona) boshlig‘i tomonidan don olingan vaqtda ikki nusxada to‘lg‘aziladi. Birinchi nusxasi yanchish uchun don topshirgan shaxsga beriladi, ikkinchisi esa tegirmon (juvozxona)da qoladi.

Sabzavot va mevalarni qayta ishlash uchun sarflangan xom-ashyo, materiallar, idishlar va boshqa materiallar, shuningdek, olingan tayyor mahsulotlarni rasmiylashtirishda *mahsulotni qayta ishlash to‘g‘risidagi hisobot* (123-shakl) tuziladi. Bu hisobot ilova qilingan hujjatlar bilan birga buxgalteriyaga topshiriladi. Hisobot ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, uning birinchi bo‘limida qayta ishlash uchun qabul qilingan xom-ashyo va Materiallar ko‘rsatilsa, ikkinchi bo‘limida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar aks ettiriladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan hujjatlar, shuningdek «Ish va xizmatlarni hisobga olish jurnali» ma’lumotlari asosida sex boshlig‘i oy oxirida sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha ishlab chiqarish hisoboti to‘lg‘azadi. Buxgalteriyada tekshirib qabul qilingan ishlab chiqarish hisoboti ma’lumotlari 10-ASK jurnal-orderidagi tegishli schyotlar bo‘yicha o‘tkaziladi.

Sanoat ishlab chiqarishiga xarajatlar qilinganda 2030-«Sanoat ishlab chiqarish» schyoti debetlanib quyidagi schyotlar kreditlanadi:

0500-«Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar» (0510-0590) nomoddiy aktivlarga hisoblangan eskirish summasiga;

1000-«Materiallarni hisobga oluvchi schyotlar» (1010-1090) – sarflangan xom-ashyo va Materiallar qiymatiga;

2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti - qayta ishlashga berilgan

tayyor mahsulotlar qiymatiga;

9110-«Sotilgan tayyor mahsulotlar tannarxi» schyoti – o‘z xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari, o‘stirilayotgan va boquvdagi chorva mollarining shartnama bahosiga;

6710 - «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyoti – hisoblangan mehnat haqi summasiga va boshqa schyotlar.

Qayta ishslash uchun boshqa Xo‘jaliklar va aholidan qabul qilingan Materiallarga ishlov berish tannarxini aniqlash uchun alohida analitik schyotlarda hisobga olingan xarajatlarni qabul qilingan Materiallar hajmiga bo‘lish kerak.

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari reja tannarxida qabul qilinganda 2030 schyot kreditlanib quyidagi schyotlar debetlanadi:

1010 – «Xom-ashyo» schyoti o‘z ishlab chiqarishi uchun xom-ashyo va Materiallar sifatida kirimga olingan mahsulotlar qiymatiga.

2810 – «Ombordagi taylor mahsulot» schyoti – sotish va qisman o‘z ehtiyojlari uchun foydalaniladigan sanoat mahsulotlari qiymatiga;

9720 –«Favqulotdagi zarar» schyoti – tabiiy ofatlar oqibatida to‘liq nobud bo‘lgan sanoat ishlab chiqarish mahsulotlari uchun qilingan xarajatlar summasiga. Yil oxirida mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlangandan so‘ng uni reja tannarx darajasiga yetkazib qo‘yiladi.

### **Nazorat savollari**

1. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishslash ishlab chiqarishi xarajatlari tarkibi va ular hisobini tashkil etilishi qanday amalga oshiriladi?
2. Qishloq xo‘jaligida sanoat ishlab chiqarishi xarajatlari va mahsulot olinishining dastlabki, analitik va sintetik hisobi?

## **V.BOB DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI TANNARXINI HISOBLASH**

### **5.1. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini hisoblashning umumiy qoidalari**

Mahsulot tannarxini hisoblashdan oldin xarajatlarni aks ettiruvchi schyotlar bo‘yicha quyidagilar sinchiklab tekshiriladi:

barcha qilingan xarajatlar va olingan mahsulotlarning hisobda to‘liq aks ettirilganligi;

kelgusi yillar hosili uchun qilingan xarajatlarning yillar bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlanganligi va hisobda to‘g‘ri aks ettirilganligi;

tabiiy ofatlar oqibatida zararlangan ekinlar bo‘yicha xarajatlar summasini to‘g‘ri hisobdan chiqarilganligi;

2011-«Dehqonchilik» schyotida aks ettirilgan miqdor ko‘rsatkichlar (kishi-soatlar, ekilgan urug‘lik va ko‘chatlar, solingan o‘g‘itlar va boshqalar) ning to‘g‘riliği va shu kabilar.

Dehqonchilikdan asosiy, yondosh va qo‘srimcha mahsulotlar olinadi. Ishlab chiqarish qanday mahsulot yetishtirish maqsadida tashkil qilingan bo‘lsa, shu mahsulot (paxta, g‘alla, kartoshka va boshqalar) asosiy hisoblanadi. Ayrim ekinlardan ikki va undan ortiq asosiy mahsulotlar olinsa, ular yondosh mahsulotlar deyiladi. Masalan, bir yillik va ko‘p yillik o‘tlardan pichan, urug‘ hamda ko‘k massa olinishi mumkin.

O‘simliklarning biologik xususiyatlariga qarab asosiy mahsulotlar bilan birga ikkinchi darajali, ya’ni qo‘srimcha mahsulotlar ham olinishi mumkin (poxol, somon, palak va boshqalar). Demak, o‘simlikchilikdan asosiy va xo‘jalikda foydalilanidigan qo‘srimcha mahsulotlar ham olinadi.

Mahsulot tannarxini hisoblashdagi eng muhim hisob ishlaridan biri xarajatlarni asosiy (yondosh) va qo‘srimcha mahsulotlar o‘rtasida to‘g‘ri (haqqoniy) taqsimlashdir. Ekinlardan faqat bir xil mahsulot olinsa, uning tannarxi qilingan barcha xarajatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahsulot hajmi (tsentner, kilogramm, dona) ga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Agar ekinlardan ikki va undan ortiq mahsulotlar olinsa, tannarx hisoblashda maxsus uslublar qo‘llaniladi. Bunday hollarda xarajatlar asosiy (yondosh) va

qo'shimcha mahsulotlar o'rtasida iqtisodiy asoslangan uslublar bo'yicha taqsimlanadi va tegishli mahsulot turi (asosiy, yondosh, qo'shimcha)ga to'g'ri kelgan xarajat summasi mazkur mahsulot miqdoriga bo'linib, mahsulot birligi (ts,kg,dona) ning tannarxi aniqlanadi.

Dehqonchilikda ekinlardan olingan hosil turlari, tugallanmagan ishlab chiqarishga o'tkaziladigan (ularning turlari bo'yicha) kelgusi yil hosili uchun qilingan xarajatlar, xo'jalikning o'z aylanma mablag'i hisobidan yer holatini yaxshilash bo'yicha qilingan ishlar tannarx hisoblash ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

### **5.1.1 - jadval**

#### **Dehqonchilik mahsulotlarini kirim qilish- topshirish joylari**

Mahsulot turi	Kirim-topshirish joyi
1.Paxta	Franko-dala
2.Don	Franko-dala (saqlash joyi)
3. Kartoshka, poliz ekinlari, sabzavot, qand lavlagi	Franko-dala (saqlash joyi)
4.Mevalar, rezavor, uzum, tamaki, maxorka va choy bargi, dorivor efir moy ekinlari va gulchilik mahsulotlari	Franko-qabul qilish (saqlash) joylari
5.O't, zig'ir, sabzavot va boshqa ekinlar urug'lari	Franko-saqlash joylari
6. Oziqa uchun ko'k massa	Franko-iste'mol joyi
7. Somon, xashak	Franko-saqlash joyi

Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini aniqlashda mahsulotni qaergacha yetkazib berish (franko) xarajatlari qo'shilishini bilish muhim ahamiyatiga ega. Hozirgi vaqtda belgilangan tartibga asosan mahsulotlarni quyidagi joylarga yetkazib berish (franko) xarajatlar qo'shib hisoblanadi:

- a) g'alla, paxta, kungaboqar urug'i-franko-dala (xirmon yoki daladan mahsulot yig'iladigan boshqa joy);
- b) somon, pichan-franko-saqlash yoki qayta ishslash joyi;
- v) kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari mahsulotlari, lavlagi va boshqa ildiz mevalar-franko-saqlash joyi;
- g) qand lavlagi (fabrikada qayta ishlanadigan) – franko-dala;
- d) yopiq maydonda yetishtirilgan sabzavoti-franko-ombor yoki franko-qabul punkti;
- e) silosbop ko'k massa-franko siloslash joyi;

j) vitaminlashtirilgan o‘t uni tayyorlash uchun o‘rilgan ko‘k massa – franko oziq tayyorlaydigan joyi.

Demak, mahsulotni iste’molchilar (tayyorlov xo‘jalik, dehqon bozori, agar xo‘jalik yetkazib berayotgan bo‘lsa, bolalar muassasalari va shu kabilar)ga yetkazib berish xarajatlari dehqonchilik mahsulotining tannarxiga kiritilmaydi.

Mahsulotni saqlash joylari (ombor, oziq saqlanadigan joylar)gacha yetkazib berish xarajatlari tannarxga kiritiladi, ya’ni ular yil davomida 2011 schyotining debetida aks ettiriladi.

## **5.2.Donli ekinlari tannarxini hisoblash**

Donli va don dukkakli ekinlar (makkajo‘xoridan tashqari) bo‘yicha kalkulyatsiyalash ob’ekti don va somon hisoblanadi. Analitik hisob ma’lumotlari asosida xarajatlarning umumiyligi summasi, jumladan tugallanmagan yil boshiga tugallanmagan ishlab chiqarish va yillik mahsulot chiqishi aniqlanadi. Bunda somonni tayyorlash (yig‘ib olish, presslash, tashish, toplash)ga ketadigan xarajatlar alohida holda hisobga olinadi va haqiqiy xarajatlar bo‘yicha kalkulyatsiyalashga qo’shiladi. Laboratoriya tahlillari yordamida donli chiqitlari tarkibida mavjud bo‘lgan don miqdori va to‘laqonli donning butun miqdori aniqlanadi. So‘ng ekinlar bo‘yicha barcha xarajatlar summasi bilan qo’shimcha (ikkinci darajali) mahsulotga ketgan xarajatlar summasi o‘rtasidagi tafovut sifatida to‘laqonli donga ketgan xarajatlar summasi aniqlanadi. Ushbu xarajatlarni mos holda asosiy va qo’shimcha mahsulotning chiqishiga bo‘lib, 1 ts don va somonning tannarxi topiladi.

## **G‘alla ekinlari mahsulotlarining tannarxini hisoblash**

G‘alla ekinlari mahsulotining tannarxi ularga qayta ishlov berish, quritish natijasida kamayishi va xo‘jalikda foydalanilmaydigan xas-cho‘plar vazni chiqarib tashlangandan keyingi vaznda aniqlanadi. Masalan, fermer xo‘jaligida yetishtirilgan g‘allaning bunker vazni 992 tsentner. g‘allaga qo’shimcha ishlov berish va uni quritish natijasida kamayishiga tuzilgan dalolatnomalar bo‘yicha:

a) g‘allani xas-cho‘pdan tozalash va quritish tufayli kamaygan vazni 12 tsentner;

b) em uchun foydalilaniladigan don chiqiti (laboratoriya tahlili natijasida tarkibida 40% don borligi aniqlangan) – 80 tsentner. Undan tashqari, 54 tsentner somon olingan. Demak, 830 tsentner sof g‘alla bilan 80 tsentner don chiqitining tannarxini aniqlash kerak.

G‘allaning tannarxini aniqlash uchun 2010-«Dehqonchilik» schyotining tegishli analistik schyotida g‘allaning mazkur turi bo‘yicha hisobga olingan barcha xarajatlar summasidan somon uchun normativlar bo‘yicha qilinadigan (o‘rib-yig‘ib olish, presslash, jo‘natish, g‘aramlash) xarajatlari summasi chegirib tashlanadi. Qolgan summa g‘alla bilan don chiqiti tarkibidagi sof don hajmiga mutanosib taqsimlanadi. So‘ng don chiqiti tarkibidagi 1 tsentner donning tannarxi aniqlanadi.

Fermer xo‘jaligida yuqorida keltirilgan miqdordagi g‘alla mahsulotlarini yetishtirish uchun 13200000 so‘m sarflangan.

G‘alla mahsulotlari tannarxini aniqlash uchun jami qilingan xarajatlardan somonning normativ qiymati chegirib tashlanadi. Faraz qilaylik, 54 tsentner somonning normativ xarajatlar bo‘yicha qiymati 270000 so‘mga teng, unda 1 tsentner somonning normativ tannarxi 5000 so‘m (270000:54) bo‘ladi. Bu holda g‘alla bilan don chiqitiga tegishli xarajat 12930000 so‘mni (13200000-270000) tashkil etadi.

Don chiqitining tarkibida 40% don bo‘lganligi uchun g‘allaga aylantirilganda 32 tsentner bo‘lsa ( $80 \times 40 : 100$ ), jami shartli g‘alla miqdori 862 tsentner ( $830 + 32$ ) ga teng. Shundan don chiqitidagi g‘alla miqdori 3,712%ni ( $32 \times 100 : 862$ ) tashkil etadi. Demak, somonning normativ qiymati (270000 so‘m) chegirib tashlangandan so‘ng qolgan xarajatlar summasining 3,712%i don chiqiti (g‘alla)ga tegishlidir. Bu 480000 so‘mni ( $12930000 \times 3,712 : 100$ ) tashkil etadi. Shunday qilib, 1 tsentner don chiqiti tannarxi 6000 so‘m ( $480000 : 80$ ) bo‘lsa, 1 tsentner sof don tannarxi 15000 so‘mga (( $12930000 - 480000$ ) : 830) teng.

Amaldagi tartibga muvofiq urug‘chilik xo‘jaliklarida yetishtirilgan urug‘lik don tannarxi quyidagi obektlar bo‘yicha hisoblanadi: superelita, elita, 1 va 2

reproduktsiya va foydalaniladigan don chiqiti.

Bir tsentner tegishli reproduksiyadagi urug‘lik don (superelita, elita, I reproduksiya va 2 reproduksiya) tannarxini aniqlash uchun jami xarajatdan don chiqiti normativ qiymati chegirib tashlanadi. Qolgan urug‘lik donga tegishli summa yuqoridagi reproduksiyalarning sotish bahosi bo‘yicha qiymatiga mutanosib taqsimланади va olingan summa tegishli reproduksiyadagi urug‘lik donning, ular tozalanib, quritilgandan so‘nggi miqdoriga bo‘linadi. Natijada tegishli reproduksiyadagi 1 tsentner urug‘lik donning haqiqiy tannarxi aniqlанади.

**Masala.** Xo‘jalikda 30540ts bahorgi bug‘doy, jumladan 150 ts foydalaniladigan don chiqitlari va 45260 ts somon olingan. Somonni tayyorlashga ketgan xarajatlar 2 549 300 ni tashkil etgan. Bug‘doyni yetishtirish bo‘yicha umumiylar xarajatlar, jumladan qo‘sishimcha mahsulot qiymatini qo‘sib hisoblanganda 24 050 000 ga teng. Donli chiqitlardagi don miqdori -35% teng.

*Tannarx hisoblash uslubiyati.* Laboratoriya tahlillari ma’lumotlariga ko‘ra donli chiqitlarda 35% to‘laqonli don mavjud. Demak, to‘laqonli donga o‘tkazib hisoblanganda don miqdori 52,5 ts ga ( $150 * 35 / 100$ ) teng. To‘laqonli donning umumiylar miqdori -30442,5 ts ( $30540 - 150 + 52,5$ ) bo‘ladi.

### 5.2.1.-jadval

#### Haqiqiy xarajatlarning donli ekin turlari bo‘yicha taqsimlanishi

Mahsulot turi	Yalpi hosil, ts	Mahsulotni qayta hisoblash koeffitsent	Shartli mahsulot hajmi, ts	Haqiqiy xarajatlar,
Bug‘doy	30390	1,0	30390	21 463 621
Don chiqiti	150	0,35	52,5	37 079
jami:	3540	x	30442,5	21 500 700
Somon	45 260	x	X	2 549 300
hammasi:	x	x	X	24 050 000

Ekin bo‘yicha xarajatlarning umumiylar summasidan to‘laqonli bug‘doy va donli chiqitlarga xarajatlar 21 500 700 ni (24 050 000) tashkil etadi. 1ts donning tannarxi  $706,27 = (21 500 700 / 30 442,5)$  bo‘ladi. Barcha donli chiqitlar tannarxi  $37 079 = (706,27 * 52,5)$  ni tashkil etadi. 1 ts don chiqiti  $247,19 = (37 079 / 150)$  ga teng. 1 ts somonning tannarxi  $56,33 = (2 549 300 / 45 260)$  bo‘ladi.

## 5.2.2.- jadval

### 1 birlik mahsulotning haqiqiy tannarxini hisoblash

Mahsulot turi	Haqiqiy xarajatlar,	Yalpi hosil, ts	1 ts ning haqiqiy tannarxi,
Don	21 463 621	30390	706,27
Don chiqitlar	37 079	150	247,19
Somon	2 549 300	45 260	56,33

Agar xarajat hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash donli ekinlarning guruxlari bo'yicha amalga oshirilsa, har bir ekinning 1 ts tannarxini hisoblash uchun har xil ekinlardan olingan don o'rtasida uni sotuv bahosi yoki rejaviy bahosi (bozor narxlari to'g'risida axborot mavjud bo'lgan holda) bo'yichabaholashga proportsional (mutanosib) holda taqsimlanadi.

Urug'chilik xo'jaliklarida donli ekin mahsulotlari tannarxini kalkulyatsiyalash uslubiyati ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ixtisoslashtirilgan urug'chilik Xo'jaliklari, xo'jaliklarda urug'lik don ularni super elita, elita, birinchi va ikkinchi reproduktsiyaga ajratgan holda kirim qilinadi. Qolgan repproduktsiyalar bir hisob guruvida donli chiqitlarni ajratgan holda hisobga olinadi. Qolgan Xo'jaliklarda don hisobda to'laqonli (urug'chilik uchun, furaj uchun, oziq-ovqat uchun) donga va donli chiqitlarga bo'linadi. Urug'chilik xo'jaliklarida urug'lik donning turli hisob guruhlarining tannarxini aniqlashda urug'lik donga to'g'ri keladigan xarajatlarning umumiy summasi mazkur guruhlarag amal qilib turgan bozor narxlari bo'yicha tegishli reproduktsiya donning qiymatiga proportsional (mutanosib) holda taqsimlanadi.

**Masala.** Urug'chilik xo'jaliklarida navli prosa urug'inining hosilidan bozordagi sotuv bahosi 1 ts uchun 3000 bo'lgan elita urug'dan 210 ts, 1 ts 2000 bo'lgan 1-reproduktsiya uruhidan 760 ts va 1ts 1500 bo'lgan 2-reproduktsiya urug'idan 850 ts olingan. Bunda tarkibidagi don miqdori 60% bo'lgan donli chiqitlar 200 ts ga yetgan, navsiz prosa ning bozor bahosi 1200 ga teng bo'lgan. Navli tariq urug'larini yetishtirish xarajatlari 1 629 100 ni, jumladan somon tayyorlash xarajatlari 114 700 ni tashkil etgan. Olingan tariqning somoni 1 850ts bўlgan. Urug'chilik xo'jaliklarida tariq mahsulotining haqiqiy tannarxini

hisoblash uchun kalkulyatsion varaqas tuzish tavsiya etiladi. Unda «Mahsulotning chiqishi» bo‘limida dastavval asosiy mahsulotning navlar bo‘yicha kirim qilingan vazni, i shlov berish oxiriga yetkazilgan donli chiqitlar vazni, qo‘sishimcha mahsulotning chiqishi, asosiy mahsulotning bozor narxlarida baholangan navlari bo‘yicha qiymati aks ettiriladi (5.2.3-jadval).

### **5.2.3-Jadval**

#### **Haqiqiy xarajatlarni taqsimlash uchun dastlabki ma’lumotlar**

Asosiy va qo‘sishimcha mahsulot	Yalpi hosili	To‘laqonli mahsulotga qayta hisoblash koeffitsenti	Mahsulot hajmi, ts	1 ts bozor bahosi	bozor bahosida mahsulot qiymati,
Elita urug‘lik don	210	1,00	210	3 000	630 000
1-reproduktsiya doni	760	1,00	760	2 000	1 520 000
2-reproduktsiya doni	850	1,00	850	1 500	1 275 000
Jami urug‘lik don	x	x	1820	x	3 425 000
Don chiqitlari	200	0,6	120	1 200	144 000
Jami don mahsuloti:	x	x	1940	x	3 569 000

Kalkulyatsion varaqaning 3-bo‘limida bir birlik mahsulotning haqiqiy tannarxi hisoblab chiqiladi. Somon haqiqiy tannarxi uni tayyorlash uchun xarajatlardan kelibchiqqan holda aniqlanadi. Somonni tayyorlash uchun xarajatlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Somonni tayyorlash uchun ketgan xarajatlar 114 700 ni tashkil etdi. 1 ts somonning haqiqiy tannarxi 16 ga teng (114 700 so‘m./1850 ts).

### **5.2.4-jadval**

#### **Haqiqiy xarajatlarni mahsulot turi bo‘yicha taqsimlash**

Asosiy va qo‘sishimcha mahsulot	Yalpi hosili	To‘laqonli mahsulotga qayta hisoblash koeffitsenti	To‘laqonli mahsulot hajmi, ts	1 ts uchun bozor bahosi
Elita urug‘lik don	210	630 000	252 074	1 200,35
1-reproduktsiya doni	760	1 520 000	608 177	800,23
2-reproduktsiya doni	850	1 275 000	510 149	600,18
Jami urug‘lik don	1820	3 425 000	1 370 400	x
Don chiqitlari	200	144 000	144 000	720,00
Jami don mahsuloti:	x	3 569 000	1 514 400	x
Elita urug‘lik don	1850	x	114 700	62,00
1-reproduktsiya doni	x	x	1 629 100	x

Somonning qiymati chegirib tashlangandan so‘ng qolgan xarajatlar (1 629 100 -114 700 = 1 514 400) don mahsulotiga kiritiladi. Ularning bir qismi bozor qiymati miqdorida donli chiqitlarga kiritiladi. Donli chiqitlarga to‘g‘ri keladigan xarajatlar summasi 144 000 ni tashkil etadi. (120 ts x 1200 so‘m.). To‘laqonli urug‘lik donga to‘g‘ri keladigan xarajatlar summasi 1 370 400 . (1514400 – 144 000). Keyingi bosqichda urug‘lik don reproduktsiyasi bo‘yicha xarajatlarni amaldagi bozor narxlari bo‘yicha tegishli reproduktsiyali donning qiymatiga mutanosib holda taqsimlash zarur.

1 ts elita urug‘ining haqiqiy tannarxi 1200,35 =(252 074 so‘m./ 210 ts)

1-reproduktsiyali 1 ts donning haqiqiy tannarxi

800,23 =(608177so‘m./760 ts)

1-reproduktsiyali 1 ts donning haqiqiy tannarxi

600,18 =(510149/850 ts)

Urug‘chilik xo‘jaliklarining rejaviy tannarxini haqiqiy tannarxigacha yetkazish uchun tuzatish kiritish (korrektsiyalash) umum o‘rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligi tajriba stantsiyalarida hamda qishloq xo‘jalik oliv o‘quv yurtlari o‘quv xo‘jaliklarida urug‘lik donning tannarxini aniqlashda ko‘paytirish pitomniklarida birlamchi urug‘chilik xarajatlarini kiritishni ko‘zda tutadigan uslubiyatni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bunda urug‘chilikka xos ekin bo‘yicha xarajatlar hisobini yuritishni yarim fabrikatli variant bilan usulda amalga oshiriladi.

Konditsion elita urug‘larini (birlamchi va ikkilamchi y il avlodini, super elita, elita va 1-3 reproduktsiya urug‘larin sinovdan o‘tkazish va ko‘paytirish pitomniklarinikini) sinovdan o‘tkazishda to‘rt turdagи mahsulotni hisobga olish zarur: 1.Konditsion urug‘lar

2.Konditsion urug‘lardan hosil bo‘lgan chiqitlar sifatida oziq-ovqat va furaj uchun don.

3. Donli chiqitlar (ulardagi to‘laqonli don foizini ko‘rsatgan holda).

4. Qo‘sishimcha (ikkinchi darajali) mahsulot somon va b

Pitomniklarning oziq-ovqat va furaj donnig, super elita, elitali ayrim ekinlarning (ekin guruhlarining) 1-2-reproduktsiyalariga ketgan xarajatlar quyidagicha aniqlanadi:

Analitik schyotlarda hisobga olingan biror-bir ekinning urug‘ini ishlab chiqarishga ketgan haqiqiy xarajatlarning umumiyligi summasidan ularni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha qo‘sishimcha xarajatlar: ekinlarni parvarish qilish (navi va turlari bo‘yicha o‘toq qilish), sinash, parvarishlash bo‘yicha qo‘sishimcha xarajatlar (turli navdagi ekinlarni yig‘ib olishdan so‘ng kombaynlarni tozalash va h.k.), urug‘larni tozalashga va ularni tegishli konditsiyaga qadar yetkazishga, saqlashga hamda odatiy xo‘jaliklar tayyorli donli ishlab chiqarishga sarflamaydigan haqiqatda amalga oshirilgan boshqa qo‘sishimcha xarajatlar chegirib tashlanadi. Bundan tashqari, haqiqiy ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha qo‘sishimcha (ikkinchi darajali) mahsulot (somon, poxol) ga ketadigan xarajatlar istisno qilinadi. Qolgan xarajatlar summasini yondosh mahsulotning umumiyligi yalpi chiqimiga uni to‘laqonli bug‘doyga o‘tkazgan holda bo‘lib chiqiladi va shu tarzda 1 ts oziq-ovqat va chiqit donning tannarxi aniqlanib, shu bo‘yicha uning yalpi chiqishi baholanadi. Donli chiqitlar ulardagi to‘laqonli don foizdagi miqdoriga qarab oziq-ovqat va furaj uchun donning haqiqiy tannarxidan yoki tayyorli donning bahosidan kelib chiqqan holda baholanadi.

Konditsion urug‘larga ketgan xarajatlar umumiyligi summasidan oziq-ovqat, furaj uchun donni va donli chiqitlarni, shuningdek qo‘sishimcha (ikkinchi darajali) mahsulotni ayirish orqali aniqlanadi. Shundan so‘ng 1 ts konditsion urug‘larning haqiqiy tannarxi hisoblab chiqiladi. Ish turlari bo‘yicha elita urug‘lar va 1-2-reproduktsiya urug‘larini ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha qo‘sishimcha xarajatlar xarajatlarni hisobga olishning jamg‘arib boriladigan qaydnomasi (301-ASM sonli shakl ma’lumotlari asosida aniqlanadi). Elita va reproduktsion urug‘larni ishlab chiqarishning xarajatlar hisobiga va tannarxni hisoblashda bunday batafsillik ishlab chiqarish hisobini yaxshilaydi, mehnat va vositalar xarajati to‘g‘risida, mahsulot ishlab chiqarish tannarxi to‘g‘risida kengroq axborot olish, ishlab chiqarish faoliyati natijalarini chuqurroq tahlil qilish hamda mahsulot

tannarxini pasaytirish va uning raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini belgilash imkonini beradi.

### **Makkajo‘xorining tannarxini kalkulyatsiyalash**

Makkajo‘xoridan bir necha turdagi yondosh mahsulotlar:to‘liq pishgan makkajo‘xori so‘talari, sut-mum va mum pishig‘idagi so‘tali don, yashil massa va quruq poya shaklidagi qo‘s Shimcha (ikkinchi darajali) mahsulot olinadi.

1 ts donning tannarxini aniqlashda uning quruq donga qayta hisoblangan massasi olinadi. Qayta hisoblash so‘tadagi donning haqiqiy chiqishi bo‘yicha amalgam oshiriladi. U o‘rtacha sutkalik namunalarni maydalash yo‘li bilan so‘talardagi standart namlilik (22%)ni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Masalan: so‘talardagi makkajo‘xorining fizik og‘irligi 10770, donning haqiqiy chiqishi 78% standart konditsiyalarning namlilik bo‘yicha ortib ketishi 2% (bazis 22%), xas-cho‘p aralashmasiniki 3% (bazis 1%)ga teng bo‘lsin. Makkaxo‘jori donining haqiqiy og‘irligi  $8400 \text{ ts} = (10770 * 78 / 100)$

Donning tabiiy chegirmaning og‘irligi-470  $\text{ts} = (8400 * 5 / 100)$

Donning hisobdan o‘tgan og‘irligi -7980  $\text{ts} = (8400 - 420)$

So‘taning olinadigan don chiqishi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi.

*(Donning hisobdan o‘tgan og‘irligi / so‘taning hisobdan o‘tgan og‘irligi) \* 100*

O‘rab qo‘yilgan makkajo‘xori so‘talarini sotish yoki saqlashda uning fizik massasi o‘ramning massadan holi qilgan holda hisobga olinadi va laboratoriya tahlillarining ma’lumotlari bo‘yicha hisoblab chiqiladi. Agar don uchun foydalanishga mo‘ljallangan makkaxo‘jori ekiladigan maydon haqiqatda bir nechta turdagi mahsulot (to‘liq pishgan makkajo‘xori doni, mumli, sutli-mumli va sutli-mumli darajaga yetmagan makkajo‘xori) olish uchun foydalanilgan bo‘lsa, ularning haqiqiy tannarxi umumiylar summasini (quruq poyalar qiymatini ularni yig‘ib olishga ketgan haqiqiy xarajatlar bo‘yicha istisno qilgan holda) har bir turi bo‘yicha yig‘ib olingan maydonga proportsional holda taqsimlash orqali aniqlanadi.

Yashil ozuqa sifatida foydalanishga mo‘ljallangan makkajo‘xori ekinlari bo‘yicha xarajatlar va mahsulotning chiqishi ishlab chiqarish sarflaridagi tafovutlar ancha yuqori bo‘lgani sababli “yashil ozuqa uchun ishlatiladigan makkajo‘xori” analitik hisobida hisobga olinadi. Makkajo‘xorining tannarxi boshqa ozuqaviy ekinlarning yashil massasi tannarxi kabi xisolab chikiladi. Makkajo‘xori so‘tasining mumli va sutli-mumli pishiqlik davrida quruq donga O‘tkazib qayta xisoblab chiqilmaydi. Chunki ular poyasi bilan barcha yashil masaning og‘irligida hisobga olinadi.

Makkajo‘g‘ori maxsulotining tannarxini xisoblashda kal’kulatsiya varag‘i boshka donli ekinlar bo‘yicha shakildagi kabi tuzib chikiladi. Unga so‘talarining quruq donga o‘tkazish buyicha xisob-kitoblar ilova qilinishi lozim, bunda olingan so‘talar miqdori faqatgina ma’lumotnomaga kurinishida qaytd etiladi.

Joriy yilda makkajo‘xori so‘talarida aks ettirilgani tufayli uning so‘talarining xaqiqiy tannarxini xisoblab chikish va shular tannarx asosida chiqarib yuborilgan hamda yil oxiriga qoldirilgan mahsulotning rejaviy tannarxiga tuzatishlar kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

### **5.3. Texnik ekinlar tannarxini hisoblash**

#### **Paxtachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash**

Paxtachilikda o‘rta tolali va ingichka tolali paxta navlari mahsulot tannarxini hisoblash obekti bo‘lib hisoblanadi. G‘o‘zapoya va g‘o‘za po‘choq (agar foydalanilsa) yordamchi mahsulot bo‘lishi mumkin.

1 tsentner paxtaning tannarxini hisoblash uchun g‘o‘zapoya va g‘o‘za po‘choqlar normativ xarajatlar bo‘yicha baholanib, paxtachilik bo‘yicha qilingan umumiyligi xarajatdan chegirib tashlanadi. Qolgan xarajat summasi hisobga o‘tgan paxta miqdoriga bo‘linadi.

**Masala.** Fermer xo‘jaligida hisobga o‘tgan 2620 tsentner o‘rta tolali paxtani yetishtirish uchun 83316,0 ming so‘mlik xarajat qilingan. g‘o‘zapoya va g‘o‘za po‘choqlarning normativ xarajatlar bo‘yicha qiymati 164,0 ming so‘m. Demak, 1 tsentner paxta tannarxi 31,8 ming so‘mni tashkil etadi (83480,0-164,0) :

2620. Paxtaning tannarxini alohida navlari bo‘yicha aniqlashda xarajatlar summasi ularning xarid bahosi bo‘yicha aniqlangan qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. So‘ngra mazkur navga tegishli xarajatni shu nav bo‘yicha hisobga o‘tgan paxta xom ashyosi miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan har bir nav bo‘yicha 1 tsentnerining tannarxi aniqlanadi.

### **Kungaboqar tannarxini kalkulyatsiyalash**

Kungaboqarning asosiy mahsuloti uning urug‘lari bo‘lib, qo‘srimcha (ikkinchi darajali) mahsulotlari poyasi, savatlari, somon polovalarga ishlov berish oxiriga yetkazilgandan so‘ng ularning massasi (og‘irligi) bo‘yicha kalkulyatsiyalaniadi, ular mazkur qo‘srimcha mahsulotni tayyorlash bo‘yicha haqiqiy xarajatlar asosida baholanadi.

Kungaboqarning tannarxi hisobga olingan xarajatlardan qo‘srimcha mahsulot qiymatini ayirib, kungaboqarning butun miqdoriga bo‘lish orqali saqlash ning franko-o‘rni (joyi) bilan kalkulyatsiyalaniadi.

### **Zig‘ir mahsuloti tannarxini kalkulyatsiyalash**

Zig‘irning asosiy mahsuloti uning somoni (poxoli) va urug‘lari hisoblanadi. Ular o‘rtasidagi xarajatlar ularning bozor narxlarida olingan qiymatiga proportsional (mos) holda taqsimlanadi. Somonning tannarxi namlik foizini hisobga olgan holda fizik og‘irligi bo‘yicha franko-g‘aram bilan urug‘lar esa franko-ombor bilan kalkulyatsiyalaniadi.

Masalan, xo‘jalikda zig‘ir yetishtirish bo‘yicha xarajatlar 4840000 ni tashkil etgan. Bozor bahosi bo‘yicha baholangan holda 250 ts urug‘dan 1950000 va 2560 ts somondan 8960000 olingan. bozor bahosi bo‘yicha olingan hamma mahsulot 10 010 000 bo‘lgan. (5.3.1-jadval).

*Tanarxni hisoblash uslubiyati.* Mahsulotning umumiy qiymatida urug‘larning ulushi  $17,9\% = (1950000 \times 100 / 10910000)$  Somonning ulushi  $82,1\% = (8960000 \times 100 / 10910000)$  zig‘irni yetishtirish va yig‘ib olishning umumiy xarajatlar summasidan urug‘larga tegishlisi -866 360  $= (4840000 \times 0,179)$  somonga

tegishli xarajatlar summasi  $3\ 973\ 640 = (4\ 840\ 000 * 0,821)$  1 ts urug‘ning tannarxi  $3465,44 = (866360/250)$  tashkil etgan.

1ts somonning tannarxi  $1552,20 = (3973640/2560)$  tashkil etgan.

### **5.3.1-jadval**

#### **Zig‘ir ekinining tannarxini kalkulyatsiyalash**

Mahsulot turi	Yalpi hosil, ts	Narxi,	bozor qiymati,	Ulushi, %	Franko xarajati	1 ts haqiqiy tannarxi
Urug‘	250	7 800	1 950 000	17,9	866 360	3465,44
Somon	2 560	3 500	8 960 000	82,1	3 973 640	1552,20
Jami :	x	x	10 910 000	100	4 840 000	x

Agar ayrim xo‘jaliklar yetishtirilgan somonni ish joyning o‘zida ivitilgan zig‘ir poyaga zig‘ir poyani esa zig‘ir tolasiga qayta ishlasalar, qayta ishlash bo‘yicha xarajatlar 20-3 “sanoat ishlab chiqarish” schyoti, “Zig‘ir somonini qalin tolaga, qalin toladan ingichka tolaga qayta ishlash” analistik schyotiga hisobga olinadi.

#### **Lavlagi tannarxini kalkulyatsiyalash**

Ushbu ekin bo‘yicha kalkulyatsiyalash ob’ekti ildizmevalardir. Agar poya va barglaridan xo‘jalikda foydalanilsa, uni tayyorlash “poyalarni yig‘ib olish va g‘aramlash” deb nomlanuvchi alohida analistik schyotda hisobga olinadi. Unda poyalarni yig‘ib olish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar aks ettiriladi. Umumo‘rnatilgan tartibda umumishlab chiqarish va umumxo‘jalik sarflari bilan birga hisobga olingan xarajatlar qo‘sishimcha (ikkinchi darajali) mahsulot tannarxini tashkil etadi.

Asosiy mahsulot tannarxini aniqlashda foydalanilmaydigan yordamchi mahsulot kalkulyatsiyalash bo‘yicha hisob-kitoblarda inobatga olinmaydi.

1 ts lavlagining tannarxi lavlagiga tegishli bo‘lgan xarajatlarning umumiy summasini uning miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Lavlagi urug‘ini yetishtirishga ketgan xarajatlar “qand lavlagi uchun urug‘lik tayyorlash” degan alohida analistik schyotda hisobga olinadi. Mazkur schyotga ko‘chatlar qiymatini hamda urug‘larni yetishtirish va yig‘ib olish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni,

jumladan joriy yilda yig‘ib olish bilan birlashtirish yilda yig‘ib olish bilan birlashtirishda yoki undan keyin o‘tkaziladigan tozalash, saralash va quritish sarflari kiritiladi. 1 ts urug‘ning tannarxi xarajatlarning umumiyligi summasini saralash va quritishdan so‘ng olingan urug‘larning tsentnerda o‘lchangan fizik og‘irligiga bo‘lib aniqlanadi.

Texnik ekinlar guruhi guruhiga dorivor o‘tlar va ziravor ekinlar (dorivor valeriana, oddiy zveroboy valeriana lekarstvennaya, oddiy zveroboy, koriandr, kunjut, cho‘lyalpiz, efirmoyli geran va boshqalar) kiradi. Ushbu ekinlarning tannarxini hisoblash ob‘ekti bo‘lib ularning yangi barglari, ildizlari, urug‘lari, mevalari, ko‘chatlari hisoblanadi. Dalada o‘stiriladigan dorivor ekinlar mahsulotining tannarxi barcha xarajatlarni ayrim mahsulot turlari qiymatiga proporsional (mutanosib) holda ularni sotuv narxlari bo‘yicha taqsimlash yo‘li bilan hisoblab chiqiladi.

#### **5.4.Mevachilikda mahsulotlar tannarxini hisoblash**

Bugungi kunda bozorni sifatli bog‘dorchilik mahsulotlari bilan to‘ldirish va aholining sifatli mahsulotlarga bo‘lgan talabini qondirish katta ahamiyatga ega. Chunki, mevalar inson oziq-ovqat mahsulotlari orasida vitamin, mineral moddalar va uglevodlarga boyligi bilan alohida o‘rin tutadi. Shu bois, bog‘dorchilik rivojlantirish va uning normativ-huquqiy hujjalari talablar asosida bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bog‘dorchilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha Prezidentimiz tomonidan bir qancha qarorlar qabul qilingan va bu qarorlarning amalga oshirilishi bog‘dorchilik sohasining rivojlanishiga zamin bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 martdagи «O‘zbekiston Respublikasida bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4246-son Qarori qabul qilinishi mazkur sohani takomillashtirishga yana bir e’tiborni bildiradi.

Ishlab chiqarishni samarali boshqarish, xususan, mahsulotlar tannarxini to‘g‘ri shakllantirish va uning dinamikasini nazorat qilish, norma va normativlarning haqqoniyligini baholash, tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini

aniqlash, mahsulotlarga baho belgilash hamda uni tezkor qayta ko'rib chiqish masalalarini ta'minlaydigan tannarx hisoblash usulini shakllantirish lozim. Bu borada professor N.Yu.Jo'raev haqli ta'kidlagan: «Mahsulotlar tannarxini hisoblash uchun har bir mahsulot turini ishlab chiqarish samaradorligini ishonchli aniqlashga imkon beradigan usul zarur».

Darhaqiqat, har bir muayyan sharoit uchun tannarx hisoblashning maqsadga muvofiq usuli zarur. Masalan, hajmi nisbatan kichik meva-sabzavotchilik fermer xo'jaliklarida bog'lar maydoni unchalik katta bo'lmasdan, asosan bir turdag'i meva yetishtiriladi. Shuning uchun ushbu tarmoq xarajatlari bitta –«Bog'dorchilik» analitik schyotida butunligicha hisobga olinishi mumkin. Ushbu analitik schyotda bog'larni parvarishlash, hosilni yig'ishtirish va hosil yig'ishtirilgandan so'ng hisobot yili oxirigacha bog'da bajariladigan ishlar, barcha turdag'i daraxtlar va bo'tazorlar bo'yicha parvarishlash hamda hosilni yig'ishtirish xarajatlari aks ettiriladi. Natijada, bunday fermer xo'jaliklarida bog'dorchilik mahsulotlari bir sentnerining tannarxi bir butunligicha hisoblanadi. Buning uchun barcha xarajatlар kirimga olingan mahsulotlarning umumiyligi miqdoriga (ularni turlarga ajratmasdan) bo'linadi.

Ixtisoslashtirilgan bog'dorchilik xo'jaligida mazkur tarmoq asosiy hisoblanadi. Alovida ekin turlari uchun katta maydonlar band qilingan bo'lishi mumkin. Shu bois, ularning har biri bo'yicha xarajatlarni alovida hisobga olish maqsadga muvofiq.

Mahsulotlar tannarxini uning alovida turlari bo'yicha aniqlashga zarurat tug'ilganda uni xarajatlarni har bir mahsulotning bozor bahosi bo'yicha qiymatiga proporsional holda taqsimlash asosida hisoblab chiqilishi lozim.

Bog'dorchilikda asosiy mahsulotlar mevalar, rezavorlar bilan bir qatorda ushbu xo'jaliklar yondosh mahsulot sifatida qalamchalar, gajaklar parxishlar, bachkilar ham olinadi. Bu bog'dorchilikning qo'shimcha (ikkinchisi darajali) mahsuloti hisoblanadi. Ulardan foydalanish mumkin bo'lgan narxlar bo'yicha baholanadi va shu narxlarda umumiyligi xarajatlardan chegirib tashlanadi. Agar ular jem, sharbat va h.k uchun qayta ishslashda qo'llanilsa, ushbu xom-ashyoning

rejaviy narxlari bo'yicha uning sifatini hisobga olgan holda baholanadi. Qo'shimcha mahsulotlar to'kilgan yoki buzilgan mevalardan qoramollarga beriladigan ozuqa sifatida foydalanilganda ular mazkur mahsulotning ozuqaviy qimmatini hisobga olgan holda ozuqaviy ildizmevalarning tannarxi bo'yicha baholanadi. Yondosh mahsulotlar esa bozor bahosi bo'yicha baholanadi (5.4.1-jadval).

#### **5.4.1-jadval**

##### **Bog'dorchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash**

Mahsulott urlar	Olingan mahsulot, ts	1 ts. bozor bahosi, so'm	Bozor bahosi bo'yicha qiymati, so'm	Taqsim-lash koef-fitsienti	Xarajatlar, so'm	1 ts.mahsulot tan-bahosi, so'm
Olma	100	557 000	55 700 000	0,7651	42 616 070	426 160,7
Nok	50	380 000	19 000 000	0,7651	14 536 900	290 738
Olxo'ri	40	547 500	21 900 000	0,7651	16 755 690	418 892,25
Shaftoli	40	537 500	21 500 000	0,7651	16 449 650	411 241,25
O'rik	50	472 000	23 600 000	0,7651	18 056 360	361 127,2
Jami	X	X	141 700 000	0,7651	108 414 670	-

Jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, fermer xo'jaligida hisobot yilida xarajatlar 108 414 670 so'mni tashkil etib, 280 tsentner mahsulot kirim qilingan. Bunda bog'dorchilikdan olingan 1 tsentner mahsulotning haqiqiy tannarxi:

$$108\,414\,670 : 280 = 387\,195,25 \text{ so'm}.$$

Bog'dorchilik mahsulotlarining har bir turi bo'yicha alohida tannarx hisoblash zarur bo'lganida xarajatlar har bir mahsulot turining bozor bahosi bo'yicha aniqlangan umumiyligi qiyatidagi ulushiga mutanosib taqsimlanishi mumkin. Agar bog'dorchilik xarajatlari 387195,25 so'm bo'lib, olingan barcha mahsulotlarning bozor bahosi bo'yicha qiymati 141700 000 so'mni tashkil etsa, u holda taqsimlash koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi:  $108414670 : 141700000 = 0,7651$

So'ngra har bir mahsulotning bozor bahosi bo'yicha qiymatini ushbu koeffitsient ( $0,7651$ )ga ko'paytirish yo'li bilan mahsulot turiga tegishli xarajat summasi aniqlanadi. Aniqlangan summa ushbu ekin turidan olingan mahsulot miqdoriga bo'linib, har bir mahsulot turi birligining haqiqiy tannarxi hisoblanadi.

Agar bog‘ning qator oralariga sabzavot ekilgan bo‘lsa, u holda ushbu ekinlar bo‘yicha barcha xarajatlar alohida «Mevachilik» analitik schyotida aks ettirilib, bog‘dorchilik xarajatlariga qo‘silmaydi. Voyaga yetmagan va foydalanishga qabul qilinmagan yosh bog‘lardan meva va rezavor mevalar olinganda, ular sotish mumkin bo‘lgan baholarda qabul qilinishi mumkin. Ushbu baho summasidan yosh bog‘larni parvarishlash xarajatlari chegirib tashlanadi. Natijada, yosh bog‘lardan olingen mahsulot tannarxi ularni parvarishlash va hosilni yig‘ishtirish xarajatlaridan oshib ketmasligi mumkin.

Yerga tushgan mevalar bog‘dorchilikda qo‘srimcha mahsulot sifatida qabul qilinishi mumkin. U foydalanish mumkin bo‘lgan bahoda baholanadi va shu bahoda jami xarajatdan chegirib tashlanadi. Agar ular qayta ishlansa, sifatiga qarab bozor bahosi bo‘yicha baholanadi. Yerga tushgan yoki buzilgan mevalar chorva mollariga berilsa, ular ozuqa ildiz mevalilarning reja tannarxi bo‘yicha baholanib, kirim qilinishi mumkin.

Ixtisoslashgan bog‘dorchilik fermer xo‘jaliklarida alohida ekin turlari katta maydonlarni egallab, xarajatlar ularning har biri bo‘yicha alohida hisobga olinadi. Shuningdek, bunday fermer xo‘jaliklarida asosiy mahsulotlar bilan bir qatorda mahsulotlar sifatida qalamcha, parxish, ildiz bachkisi va ildiz qalamchalari ham olinadi. Har bir mahsulot turining tannarxini hisoblashda mazkur ekindan olingen barcha mahsulot belgilangan koefitsientlar bo‘yicha shartli mahsulotga aylantiriladi. Shundan so‘ng kalkulyatsiyalash umumbelgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mevalarning tannarxini hisoblashda ularni eksportbop va ichki bozorga sotish uchun mo‘ljallangan mahsulotga ajratib kalkulyatsiyalanadi. Hisob-kitoblar xarajatlarning umumiyligi summasini mahsulotlarning shu hisob guruhlariga ularning bozor baholariga proportional holda taqsimlab amalga oshiriladi. Olmaga tegishli xarajat eksportbop va ichki bozorga sotish uchun mo‘ljallangan olmalarning bozor baholari bo‘yicha qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanib, 1 tsentnerining tannarxi aniqlanadi (5.4.2-jadval).

## 5.4.2-jadval

### Olma mahsuloti tannarxini hisoblash

Mahsulotlar guruh nomi	miq-dori, ts	1 ts. bozor bahosi, so‘m	Bozor bahosi bo‘yicha qiymati, so‘m	Ulushi,%	Jami xarajat, ming so‘m	1 ts. tannarxi, so‘m
Ekstortbop olma	80	1 000 000	80 000 000	75	31 962 052	399 525,65
Ichki bozorga mo‘ljallangan olma	20	557 000	11 140 000	25	10 654 017	532 700,85
Jami	100	X	91 140 000	100	42 616 070	X

Jadvalda fermer xo‘jaligida 22 tsentner ichki bozorga sotish uchun mo‘ljallangan olma hosili olingan. Shundan urilgan 2 ts olma qo‘srimcha mahsulot sifatida chegirib tashlanib, qolgan 20 ts tannarxi kalkulyatsiyalanishi lozim.

Jami xarajat summasidan qo‘srimcha mahsulot qiymati (400 000 so‘m) chegirib tashlanganidan so‘ng qolgan summa alohida mahsulot turlari (olma va qalamcha ko‘chat) o‘rtasida belgilangan koeffitsientlar bo‘yicha taqsimlanadi.

Fermer xo‘jaligi bog‘ni parvarishlash va hosilni yig‘ishtirish xarajatlari 160 889 800 so‘nni tashkil etgan. 6 ts yerga to‘kilgan va 2 ts urilgan olma chorvachilik fermer xo‘jaligiga sotilgan. 1 ts olma ozuqa sifatida 50000 so‘mdan baholanib, Ushbu qo‘srimcha mahsulotning qiymati 400 000 so‘m jami xarajatdan chegirib tashlanadi. Ixtisoslashgan fermer xo‘jaligida bog‘dorchilik mahsuloti – 1ts olma tannarxi quyidagicha hisoblanadi. Olma hosilini yetishtirish, yig‘ishtirish va hosil yig‘ishtirilganidan so‘ng bog‘ni parvarishlash xarajatlari 160 889 800 so‘mga teng.

Qo‘srimcha mahsulot qiymati:

- erga tushgan olma  $(6 \text{ ts} \times 50 000 \text{ so‘m}) = 300 000 \text{ so‘m}$ ;
- urilgan olma  $(2 \text{ ts} \times 50 000 \text{ so‘m}) = 100 000 \text{ so‘m}$ .

Kalkulyatsiyalanadigan mahsulotga tegishli xarajat:

$$(160 889 800 - 400 000 \text{ so‘m}) = 160 489 800 \text{ so‘m}$$

Kalkulyatsiyalanadigan mahsulot shartli birliklarga o‘tkazilganda:

$$-\text{eksportbop olma } (80 \text{ ts} \times 1,0) = 80$$

-ichki bozorga sotish uchun mo‘ljallangan olma ( $20 \text{ ts} \times 1,0$ ) = 20

-yondosh mahsulot qalamcha ko‘chatlar ( $6000 \text{ d} \times 0,5$ ) = 3

hammasi

103 ts

1 shartli birlik tannarxi yoki 1ts olmaning o‘rtacha tannarxi

( $43\ 894\ 552,1 : 103 \text{ ts}$ ) = 426 160,7 so‘m

Qalamcha ko‘chatlar tannarxi ( $426160,7 \times 3$ ) = 1 278 482,1 so‘m

Eksportbop va ichki bozorga sotish uchun mo‘ljallangan olma tannarxi

( $43\ 894\ 552,1 - 1\ 278\ 482,1$  yoki  $426160,7 \times 100$ ) = 42 616 070 so‘m bo‘lgan.

Joriy yilda 1ts eksportbop olma o‘rtacha bozor bahosi 80 000 000 so‘m, ichki bozorga sotish uchun mo‘ljallangan olmaniki 11 140 000 so‘m bo‘lgan.

Mamlakatimizda bog‘dorchilik ko‘chatxonalarida ko‘chat va urug‘ yetishtirish uchun shart-sharoitlar mavjud. Ko‘chatlarning tannarxini to‘g‘ri hisoblash esa muhim masalalardan hisoblanadi. Ko‘chatxonalarda asosan urug‘lar yoki payvandlash natijasida mevali daraxtlar yetishtiriladi. Ko‘chatxonalar maydoni juda katta bo‘lmaydi, odatda ular uchun 0,4 dan 0,6 gacha yoki 1 hektar yer ajratiladi. 1 hektar maydondan yillar davomida 130-150 ming to‘p mevali ko‘chatlar yetishtiriladi. Payvandtaglarning ildiz tizimi va ularning yer qatlami qismi qancha baquvvat bo‘lsa, o‘sha tipdagi payvandtaglardan yil sayin shuncha ko‘p ko‘chat olinadi. Ona bog‘larda ko‘chatlarning yaxshi ildiz otib o‘sishini ta’minalash uchun gektariga 120-180 kg dan azot, 90-135 kg dan fosfor va 45-60 kg dan kaliy solinadi. Yerlarni ekish muddati kelgan paytda daraxt turiga qarab 30-100 gektarga ekish mumkin bo‘ladi.

Ixtisoslashtirilgan xo‘jaliklarida meva va rezavorlar mahsulotlari tannarxini hisoblashda ularni eksportbop va ichki bozorga sotish uchun mo‘ljallangan mahsulotga ajratib kalkulyatsiyalanadi. Hisob-kitoblar xarajatlarning umumiy summasini mahsulotlarning shu hisob guruhlariga ularning bozor bahosiga proportsional holda taqsimlab amalga oshiriladi. Bunda mahsulot tannarxini hisoblashning aralash (kombinatsiyalashgan) usuli qo‘llanadi. Bu qo‘sishma mahsulot qiymatini istisno qilish usuli va proportsional (mutanosib) usulidan

tashkil topgan bo‘lib, bog‘dorchilik mahsulotning tannarxini aniqroq hisoblash imkonini beradi. (5.4.3-jadval).

### 5.4.3-jadval

#### Xo‘jalikda olma mahsulotining tannarxini hisoblash

Ko‘rsatkichlar	Miqdor, ts (ming. dona.)	Summa, so‘m.	
<b>I. Kalkulyatsiyalanadigan mahsulotga tegishli xarajatlarni hisoblash</b>			
Joriy yilda olmalarni yetishtirish, yig‘ib olish va hosil terib olingandan so‘ng bog‘larni parvarishlash bo‘yicha xarajatlar	-	205 150 000	
Qo‘srimcha (ikkinchi darajali) mahsulot qiymati: to‘kilgan olmalar (30 ts x 30000 so‘m)	30	900 000	
Buzilgan olmalar (16 ts x 20000 so‘m)	16	320 000	
Bozor bahosida olingen yondosh mahsulot (qalamchalar) qiymati (8 ming dona x 3500 )	6	28 000 000	
Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar (205 150 000 – 900 000 – 320 000 – 28 000 000)	-	175 930 000	
<b>II. Olmalarning navlari bo‘yicha tannarxi</b>			
Ko‘rsatkichlar	Olmalar		
	1-nav	2-nav	Ichki bozorga sotish uchun mo‘ljallangan
Miqdori, ts	50	70	60
1ts sotish bahosi, so‘m	1500 000	1250 000	850 000
Mahsulotning bozor bahosidagi qiymati, so‘m	75 000 000	87 500 000	51 000 000
Mahsulotning jami xarajati uning bozor bahosidagi qiymatiga nisbati, %	0,876	0,876	0,876
Mahsulotga qilingan jami xarajat, so‘m	65 700 000	76 650 000	44 676 000
1 ts mahsulot tannarxi, ts	1 314 000	1095 000	744 600
			X

Bugungi kunda xalqaro standartlardan kelib chiqib, bog‘dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida sifatli navlarni yaratishda ko‘chatxonalar mavjud bo‘lishi lozim. Chunki, ko‘chatxonalarning bo‘lishi sifatli va sog‘lom ko‘chatlar yetishtirishda asosiy manba hisoblanadi.

Bog‘dorchilik fermer xo‘jaliklarida ekish yoki sotishga mo‘ljallangan ko‘chatlar tannarxini aniqlash uchun odatda *soddalashtirilgan usuldan* foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Uning mohiyati shundaki, ekilgan maydonni ko‘chatlar o‘stirish davrida bo‘lgan yillar soniga ko‘paytirib hosil qilingan shartli birliklar

hisoblab chiqiladi. Shartli birliklar miqdori aniqlangandan so‘ng barpo qilishning har bir yiliga tegishli bo‘lgan xarajatlar topiladi. Mevali daraxtlarni ekishning dastlabki ikki yiliga tegishli bo‘lgan xarajatlar ko‘chatxona bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarishni tashkil etadi. Ekishning uchinchi to‘rtinchchi yiliga tegishli bo‘lganlari o‘z xo‘jaligida ekishga hamda sotishga mo‘ljallangan ko‘chatlar bo‘lib tannarxga tegishli bo‘ladi. Bog‘dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaligi to‘rt yoshdagি mevali daraxtlar yetishtirishga mo‘ljallangan ko‘chatxonaga ega bo‘lsa, mazkur ko‘chatxonalarda ekilgan ko‘chatlar tannarxini hisoblash tartibini ko‘rib chiqamiz (5.4.4-jadval).

#### **5.4.4-jadval**

##### **Olma ko‘chatlari tannarxini hisoblash**

Mahsulot turi	Ekila-digan maydon, ga	Yillarni shartli birlklarga o‘tkazish koeffitsenti	Shartli birlik-lar soni	Haqiqqiy xarajat, so‘m.	Ko‘chatlar soni ming dona	1 ming donaning haqiqiy tannarxi, so‘m
1 yilidagi ko‘chatlar	0,6	4	2,4	21 800 000	tugallanmagan ishlab chiqarish	
2 yildagi ko‘chatlar	0,7	3	2,1	18 000 000	tugallanmagan ishlab chiqarish	
3 yildagi ko‘chatlar	0,75	2	1,5	10 800 000	7,2	1 500
4 yildagi ko‘chatlar	1	1	1	7 800 000	9,6	812,5
Jami :	1	x	7,0	54 600 000	x	x

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, xo‘jalikda birinchi yil ko‘chatlar uchun 0,6 ikkinchi yil 0,7 uchinchi yil 0,75 va to‘rtinchchi yil 1 hektar ekiladigan maydon ajratilgan. Ko‘chatxona bo‘yicha bir yillik joriy xarajatlar summasi 31 500 000 so‘mni tashkil etgan.

Mazkur usuldan foydalangan holda ko‘chatxonadan chiqarilayotgan ko‘chatlar tannarxi quyidagi tartibda hisoblab chiqiladi. Inventarizatsiya ma’lumotlariga ko‘ra o‘simliklar barpo qilishning har bir yilda band qilinadigan maydonning o‘lchami aniqlanadi. So‘ng gektarlarda hisoblab chiqilgan mazkur maydon ko‘chatlari ko‘chatzorlarda bo‘lgan yillar soniga ko‘paytiriladi.

Ko‘chatxona bo‘yicha xarajatlarning umumiy summasi shartli birliklarning umumiy soniga bo‘linadi. Bir birlikka to‘g‘ri keladigan xarajatlar summasi aniqlanadi. Shunday qilib, bir shartli birlik quyidagini tashkil etadi:

$$(54\ 600\ 000 /7) = 7800\ 000 \text{ so‘m}$$

Ekishning to‘rtinchi yilidagi ko‘chatlar tannarxi quyidagiga teng.

$$(7800\ 000 \text{ so‘m} \times 1 \text{ ga}) = 7800\ 000 \text{ so‘m}$$

Ko‘chatlar tannarxining hisoblab topilgan summasi o‘z ehtiyojlari uchun va sotishga yaroqli bo‘lgan ko‘chatlarning joriy yilda chiqarilgan miqdoriga bo‘linadi. Barcha ko‘chatlar tannarxini ularning soniga bo‘lib, ming dona ko‘chatning tannarxi topiladi:  $(7800\ 000 /9,6) = 812,5$  ming so‘m

Demak, har bir ko‘chatxonada turli ekinlarning ko‘chatlari, masalan olma, nok va h.k. yetishtirilgan taqdirda, har bir ekinga tegishli xarajatlar egallagan maydoniga mutanosib holda ular egallagan maydon to‘g‘risida inventarizatsiya ma’lumotlaridan foydalanish asosida aniqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ona ko‘chatzorlar daraxtlarni parvarish qilish bo‘yicha rezavor ekinlar yetishtiriladigan ko‘chatxonalarda xarajatlar hisobi «Ona ko‘chatzorlarda butalarni saqlash» analistik schyotida yuritilishi lozim. Bozor bahosilarida Ona ko‘chatzorlar o‘simliklardan yig‘ib olingan rezavorlar (qo‘srimcha mahsulot)ning qiymati rezavorli ko‘chatxonalarini saqlash xarajatlarini kamaytirishga tegishli bo‘ladi, qolgan xarajatlar summasi joriy yildagi ona ko‘chatzor mahsulotining tannarxini tashkil etadi.

Ko‘chatxonalardagi alohida mahsulotlar (parxishlar, gajaklar, qalamchalari, bachkilar)ning haqiqiy tannarxi ularni bozor narxlari bo‘yicha baholangan holda aniqlanishi lozim. Har bir turdagи mahsulot tannarxi haqiqiy xarajatlarning ularni bozor narxlarida baholashga nisbati bo‘yicha hisoblab chiqilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘rmonlarni himoyalovchi daraxtlar bo‘yicha xarajatlar va mahsulot chiqishining hisobi «Dalalarni himoyalash polosalari» (parvarish qilish xarajatlari) analistik schyoti, 2010 –«Asosiy ishlab chiqarish» schyotida yuritiladi. To‘liq rivojlanish darajasiga yetgan himoya daraxtlari (rezavorlar, mevalar va shu

kabi)dan olinish mumkin bo‘lgan mahsulotlar sotilishi mumkin bo‘lgan narxlar bo‘yicha baholanadi. Mazkur mahsulotlar qiymati himoya daraxtlarini parvarish qilish bo‘yicha xarajatlar summasini kamaytiradi. O‘rmonlarni himoyalovchi daraxtlarni parvarish qilish bo‘yicha qolgan xarajatlar summasi meva-sabzavotchilik mahsulotlari tannarxiga kiritiladi. O‘rmonlarni himoyalovchi daraxtlar ularga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xarajatlar ekish maydonlariga mutanosib holda taqsimlanadi. O‘rmonlarni himoyalovchi daraxtlar umumxo‘jalik yoki umumishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan taqdirda, parvarish qilish xarajatlari 2510- «Umumxo‘jalik xarajatlari» schyotiga kiritiladi.

Meva-sabzavotchilik mahsulotlarining haqiqiy tannarxi aniqlanganidan so‘ng yil oxiriga sarflanmay qolgan urug‘lik, yem-xashak, tayyor mahsulotlar hamda sotilgan, qayta ishlangan, chorva mollariga va boshqa ehtiyojlar uchun sarflangan mahsulotlar qayta baholanadi ya’ni ularning reja tannarxi haqiqiy tannarxiga tenglashtiriladi. Meva-sabzavotchilik mahsulotlarining rejada va haqiqiy tannarxlari o‘rtasidagi farqlarni tuzatish (korrektirovka qilish) muhim hisoblanadi. Shu bois mahsulotlarning haqiqiy va reja tannarxi o‘rtasidagi farqlar quyidagicha hisobdan o‘chiriladi: butun xo‘jalik bo‘yicha mahsulotlarning har bir turi bo‘yicha rejadagi va haqiqatdagi xarajat summalarini taqqoslanadi va natijada taqsimlanishi lozim bo‘lgan umumiyligi farq topiladi; mahsulot turlari bo‘yicha umumiyligi farqni korrektirovka qilinishi kerak bo‘lgan mahsulot miqdoriga bo‘lib, mahsulot birligiga qancha tejash yoki oshiqcha sarflash to‘g‘ri kelishi aniqlanadi; aniqlangan summalar mahsulotlarning turlari bo‘yicha ishlatilgan va xo‘jalikda qoldirilgan miqdorlariga ko‘paytiriladi va shu mahsulotlar aks ettirilgan schetlarga qo‘srimcha o‘tkazish (oshiqcha sarflanganda) yoki storno qilinishi (tejalganda) kerak.

Mahsulotlarning reja va haqiqiy tannarxlari o‘rtasidagi tafovutlar boshqacha usulda ya’ni tafovutlarning mahsulotlar reja tannarxiga nisbatan foizda hisoblangan hissalari bo‘yicha ham hisobdan o‘chirilishi mumkin. Bu usulda reja va haqiqiy tannarx o‘rtasidagi tafovut quyidagicha hisobdan o‘chiriladi: har bir analitik schet bo‘yicha yil davomida kirimga olingan mahsulotlarning reja

tannarxini ularni yetishtirishga ketgan haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslanadi va bunday taqqoslash asosida taqsimlanishi lozim bo‘lgan farq topiladi; topilgan farqlar mahsulotlarning reja tannarxiga nisbatan foizlarda aniqlanadi; ishlatilgan va xo‘jalikda qoldirilgan mahsulotlarning reja tannarxi hisoblab chiqarilgan foizga ko‘paytiriladi va korrektirovka qilinishi lozim bo‘lgan summa aniqlanadi.

Mahsulotlar reja va haqiqiy tannarxlari o‘rtasidagi tafovutlarning jami ma’lumotlari ekin turlari (bir xil ekin guruhlari) bo‘yicha «Mevachilik mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi» ga o‘tkaziladi.

### **5.5.Sabzavotchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash**

Bugungi kunda sabzavotlar yetishtirish bilan asosan sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari shug‘ullanmoqdalar. Lekin ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi, assortimenti, tannarxi va samaradorlik ko‘rsatkichlari fermer xo‘jaliklari bo‘yicha sezilarli darajada farq qiladi. Yirik ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida mazkur ishlab chiqarish muhim hisoblanib, asosiy sabzavot mahsulotlari katta maydonlarda yetishtiriladi. Bunday fermer xo‘jaliklari ichki bozorni sabzavotchilik mahsulotlari bilan ta’minalash va chetga eksport qilish bilan ham shug‘ullanadilar. Ular odatda, shahar atrofida joylashgan bo‘lib, mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazish xarajatlari, ushbu mahsulotlar tez buziluvchan bo‘lganligi bois, yo‘qotishlar ham qisqaradi. Ixtisoslashmagan fermer xo‘jaliklarida sabzavotchilik mahsulotlari xo‘jalikning ichki ehtiyojlarini qondirish va qisman bozorda sotish uchun ishlab chiqariladi.

Sabzavotchilik tarmog‘ining oziq-ovqat mahsulotlari orasida kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlari alohida axamiyatga ega. Ushbu mahsulotlarning ma’lum qismi yangiligicha iste’mol qilinsa, sabzavotlarning katta qismi konservalash, quritish, tuzlash va boshqa yo‘llar bilan qayta ishlanadi.

Sabzavotchilikda har xil mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada farq qiladi. Chunki bozorda ularga bo‘lgan talab va mahsulotlarning tayinlanishi ham turlicha. Shu munosabat bilan ochiq yerdagi sabzavotchilik asosiy

ekinlar (karam, bodring, pomidor, lavlagi, sabzi, sarimsoqpiyoz) va boshqa sabzavot ekinlariga (petrushka, salat, shpinat, ukrop) bo‘linadi.

Ushbu sabzavot mahsulotlarining ahamiyati, yetishtirish hajmi va fermer xo‘jaliklarining ixtisoslashganligini hisobga olgan holda sabzavot ekinlari bo‘yicha xarajatlarni hisobga olish ob’ektlarini belgilash lozim. Sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida xarajatlar har bir asosiy ekin turi bo‘yicha alohida va boshqa ekinlar bo‘yicha bir butunligicha, ixtisoslashmagan fermer xo‘jaliklarida esa ochiq yerdagi barcha sabzavot ekinlari bo‘yicha butunligicha hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir. Bu o‘z navbatida kalkulyatsiya ob’ektlari va har xil ekinlar mahsulotlarining tannarxini hisoblash tartibini belgilashda tegishli uslubiy yondashuvlarni taqazo etadi. Fikrimizcha, ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida sabzavotchilik mahsulotlari tannarxi har bir asosiy ekin turi bo‘yicha alohida, boshqa ekinlar bo‘yicha butunligicha hisoblanishi lozim. Ixtisoslashmagan fermer xo‘jaliklarida esa ochiq yerdagi barcha sabzavot mahsulotlari tannarxi bir butunligicha hisoblanishi maqsadga muvofiq.

Odatda sabzavot ekinlaridan bir turdagи mahsulotlar olinadi. Ayrim hollardagina palak, karam bargi, to‘liq rivojlanmagan karam boshlari ham foydalanishi mumkin. Bunday mahsulotlar qo‘srimcha hisoblanadi va ko‘k massa tannarxi bo‘yicha baholanadi (agar kirim qilinsa). Shunday qilib, alohida ekin turi, ekinlar guruhi butun quyi tarmoq bo‘yicha asosiy sabzavot mahsulotlari tannarxi uni parvarishlash uchun qilingan barcha xarajatlardan qo‘srimcha mahsulot qiymatini (agar u mavjud bo‘lsa) chegirib, aniqlanadi.

Sabzavotlar tannarxi uni saqlashning franko-joyiga nisbatan kalkulyatsiyalanadi. Bunda tannarx xo‘jalikning ixtisoslashuviga qarab hisoblab chiqiladi. Ixtisoslashtirilgan sabzavotchilik xo‘jaliklarida har bir sabzavot ekinining tannarxi aniqlanadi. Ixtisoslashmagan sabzavotchilik xo‘jaliklarida esa umuman ochiq maydondagи sabzavotchilik bo‘yicha tannarx aniqlanadi. Chiqitlar (poyasi, barglari, karam barglari, rivojlanmagan karam boshlari va h.k.)dan xo‘jalikda foydalanilgan taqdirda ularning qiymati sabzavot ekinlariga qilingan xarajatlar summasi ularni tayyorlashning amaldagi xarajatlari bo‘yicha chegirilib

tashlanadi. Qolgan xarajatlar summasi alohida sabzavot mahsulotlari bilan ularni sotishdan olingan tushumga mutanosib holda taqsimlanadi. 1ts sabzavotlar tannarxi hisoblab chiqilgan xarajatlarni har bir sabzavot ekinining massasiga bo‘lish orqali aniqlanadi (5.5.1-jadval).

### **5.5.1-jadval**

#### **Sabzavot mahsulotlarining tannarxini hisoblash, 1 ga**

Mahsulot turi	Miqdori, ts	1 ts. bozor bahosi, so‘m	Bozor bahosi bo‘yicha qiymati, so‘m.	Ulushi,%	Jami xarajatlar, so‘m.	1 ts haqiqiy tannarxi, so‘m.
Piyoz	300	100 000	30 000 000	31,4	22 800 000	76 000
Sabzi	250	70 000	17 500 000	18,3	13 750 000	55 000
Sarisoq	100	480 000	48 000 000	50,3	37 000 000	370 000
Jami :	x		95 500 000	100	73 550 000	X
Poyasi va barglari	25		x	x	95 000	3 800
Hammasi :	x		x	x	73 645 000	X

Jadvalda xo‘jalikda sabzavot ekinlari mahsulotlarini yetishtirish va yig‘ib olish xarajatlari 3 362 000 so‘mga teng. Bunda 300 ts piyoz bo‘yicha 30 000 000 so‘mga, 250 ts sabzi 17 500 000 so‘mga, 100 ts sarimsoq 48 000 000 so‘mga bozor bahosida sotilgan. Jami sabzavot ekinlariga 73 550 000 so‘m xarajat qilgan bundan tashqari poyasi va barglari 25 ts ni yig‘ishtirib olish va tashish uchun ketgan xarajatlari 95000 so‘mni tashkil etgan. Tannarxni hisoblash usuli quyidagicha hisoblanadi.

Poya va barg qiymatisiz xarajatlar  $73\ 550\ 000 = (73\ 645\ 000 - 95\ 000)$

Sabzavotlarni sotishdan olingan jami tushum

$95\ 500\ 000 = (30\ 000\ 000 + 17\ 500\ 000 + 48\ 000\ 000)$ .

Piyoz qiymatining sabzavotlarning sotishdan olingan umumiyl tushumdagি solishtirma hissasi  $31,4 \% = (30\ 000\ 000 * 100 / 95\ 500\ 000)$ . Sabzi  $18,3 \% = (17\ 500\ 000 * 100 / 95\ 500\ 000)$ . Chisnok  $50,3 \% = (48\ 000\ 000 * 100 / 95\ 500\ 000)$

Piyoz ishlab chiqarishga ketgan xarajat summasi

$22\ 800\ 000 = (73\ 550\ 000 * 31,4 / 100)$  ni tashkil etadi.

Sabzi ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar summasi

$13\ 750\ 000 = (73\ 550\ 000 * 18,3 / 100)$

Sarimsoq ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar summasi

$$37\ 000\ 000 = (73\ 550\ 000 * 50,3 / 100)$$

$$1 \text{ ts piyozning tannarxi} (22\ 800\ 000 / 300) = 76\ 000 \text{ so'm}$$

$$1 \text{ ts sabzining tannarxi} (13\ 750\ 000 / 250) = 55\ 000 \text{ so'm}$$

$$1 \text{ ts sarimsoqning tannarxi} (37\ 000\ 000 / 100) = 370\ 000 \text{ so'mni tashkil etgan.}$$

Sabzavotchilikka ixtisoslashmagan fermer xo'jaliklarida sabzavotchilik mahsulotlari ularning turlari bo'yicha ham hisoblanishi mumkin. Bunda hisobga olingan xarajatlarning asosiy mahsulotlarga tegishli qismi ularning bozor bahosi bo'yicha aniqlangan qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlash lozim. Ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida «boshqa sabzavot mahsulotlari» guruhiga kiruvchi ekinlardan olingan mahsulotlar tannarxi ham shu tartibda aniqlanadi. Toshkent viloyati qibray tumani joylashgan Baytqurg'on Muxitdinov Afzal fermer xo'jiligida bug'doydan keyingi kechki mahsulotlar ham ekiladi. Kechki sabzavot mahsulotlarning tannarxini hisoblash tartibi ham yuqoridagi asosiy mahsulotlar tannarxini hisoblash ko'rinishida bo'ladi (5.5.2-jadval).

### 5.5.2-jadval

#### Kechki sabzavot mahsulotlarining tannarxini hisoblash, 1ga

Mahsulot turi	Miqdori, ts	1 ts. bozor bahosi, so'm	Bozor bahosi bo'yicha qiymati, so'm.	Ulushi, %	Jami xarajatlar, so'm.	1 ts haqiqiy tannarxi, so'm.
Lavlagi	200	100 000	20 000 000	23,9	15 487 200	77 436
Kartoshka	200	220 000	44 000 000	52,7	34 149 600	170 748
Karom	250	78 000	19 500 000	23,4	15 163 200	60 652,8
Jami :	x		83 500 000	100	64 800 000	X
Poyasi va barglari	18		x	x	72 000	4000
Hammasi :	x		x	x	64 872 000	X

Sabzavot mahsulot turlaridan biri lavlagi kalkulyatsiyalash ob'ekti ildizmevasi hisoblanadi. Agar poya va barglaridan xo'jalikda foydalanilsa, uni tayyorlash «poyalarni yig'ib olish va g'aramlash» deb nomlanuvchi alohida analitik schyotda hisobga olinadi. Unda poyalarni yig'ib olish bilan bog'liq bo'lган barcha xarajatlar aks ettiriladi. Umumo'rnatilgan tartibda umumishlab

chiqarish va umumxo‘jalik sarflari bilan birga hisobga olingan xarajatlar qo‘shimcha (ikkinchi darajali) mahsulot tannarxini tashkil etadi.

Asosiy mahsulot tannarxini aniqlashda foydalanilmaydigan yordamchi mahsulot kalkulyatsiyalash bo‘yicha hisob-kitoblarda inobatga olinmaydi. 1 ts lavlagining tannarxi lavlagiga tegishli bo‘lgan xarajatlarning umumiyligi summasini uning miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Lavlagi urug‘ini yetishtirishga ketgan xarajatlar “qand lavlagi uchun urug‘lik tayyorlash” degan alohida analitik schyotda hisobga olinadi. Mazkur schyotga ko‘chatlar qiymatini hamda urug‘larni yetishtirish va yig‘ib olish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni, jumladan joriy yilda yig‘ib olish bilan birgalik yilda yig‘ib olish bilan birgalikda yoki undan keyin o‘tkaziladigan tozalash, saralash va quritish sarflari kiritiladi. 1 ts urug‘ning tannarxi xarajatlarning umumiyligi summasini saralash va quritishdan so‘ng olingan urug‘larning tsentnerda o‘lchangan fizik og‘irligiga bo‘lib aniqlanadi.

Sabzavotchilikda mahsulotlarni yetishtirishga ketgan xarajatlar summasi bilan chiqitlarning qiymati (ularni yig‘ib olishning haqiqiy xarajatlari bo‘yicha) o‘rtasidagi farq eksportbop va ichki bozorga sotish uchun mo‘ljallangan sabzavotlar tannarxini tashkil qiladi. Bu esa o‘z navbatida mazkur sabzavot guruhiga ularning bozor bahosidagi qiymatlariga proportsional (mutanosib) tarzda taqsimlanadi.

Sabzavotchilik mahsulotlarini kirish qilishda ular eksportbop va ichki bozorga sotish uchun mo‘ljallangan mahsulotlarga bo‘linib, bu keyinchalik mazkur mahsulotlar har bir guruhining tannarxini alohida hisoblash uchun zarur axborotlar bilan ta’minlaydi. Bizning fikrimizcha, eksportbop va ichki bozorga sotish uchun mo‘ljallangan mahsulotlar tannarxini alohida hisoblash uchun asosiy mahsulotga tegishli xarajatlar ushbu mahsulot guruhlari bo‘yicha ularning bozor bahosiga asosan aniqlangan qiymatiga mutanosib taqsimlanishi zarur. Fikrimizni tasdiqlash uchun fermer xo‘jaligida yetishtirilgan sabzavotchilik mahsulotlari tannarxini hisob-kitobini keltiramiz (5.5.3-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 1ts eksportbop sabzavot mahsulotlari haqiqiy tannarxi 76 273 so'm, 1ts ichki bozorga sotish uchun mo'ljallangan sabzavotning tannarxi esa 65 635 ming so'mni tashkil etgan.

### **5.5.3-jadval**

#### **Piyoz mahsulotining tannarxi hisob-kitobi**

Sabzavot mahsulotlari	Miqdori, ts	1ts bozor bahosi, so'm.	Bozor bahosi bo'yicha qiymati, so'm.	Ulushi, %	Jami xarajat, so'm.	1ts tannarxi, so'm.
Ekstortbop sabzavot	250	120 000	30 000 000	85,7	19 068 250	76 273
Ichki bozorga mo'ljallangan sabzavot	50	100 000	5 000 000	14,3	3 181 750	63 635
Jami	300	X	35 000 000	100,0	22 250 000	X

1ts eksportbop sabzavot sotishdan 10931750 so'm (30 000 000 – 19 068250), ichki bozorga sotish uchun mo'ljallangan sabzavot sotishdan 1818250 so'm (5 000 000 – 3 181750) foyda olingan. Demak, fermer eksportbop mahsulotlar ulushini ko'paytirish va sotish bahosini yanada oshirish imkoniyatlarini izlashi lozim.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida sabzavotchilik mahsulotlaridan kartoshkachilik alohida o'rinn tutadi. Chunki, kartoshka inson uchun muhim oziq-ovqat hisoblanib, jahonda inson oziqlanib quvvat oladigan bug'doy, makkajo'xori, guruch va arpadan so'ng kartoshka beshinchi o'rinda turadigan quvvat manbai hisoblanadi. Shu sababli uni "ikkinchi non" ham deb ataydilar. 100 g kartoshka 301,5 kDj yoki 72 kkal quvvat beradi. Mamlakatimizda sog'liqni saqlash mutasaddi Xo'jaliklar aholi jon boshiga yil mobaynida 45 kg kartoshka iste'mol qilishni tavsiya etadilar. Shu bois kartoshkani deyarli barcha tumanlarda yetishtiriladi. Fermer xo'jaliklarida kartoshka yetishtirib uni hisobga olishda tannarxini kalkulyatsiyalaydi. Kartoshkani kalkulyatsiyalashda *qo'shimcha (ikkinchi darajali) mahsulotlarga ketgan xarajatlarni istisno qilish usuli* qo'llaniladi. Kartoshka asosiy mahsuloti uning ildizmevasi hisoblanadi.

Qo'shimcha mahsuloti esa uning poyasi va barglaridir. Ular yig'ib olingan taqdirda uni yig'ib olishga ketgan amaldagi xarajatlar bo'yicha baholanadi.

Kartoshka ildizlarining amaldagi tannarxini hisoblash uchun kartoshkani yetishtirish va hosilni yig'ib olishga ketgan umumiy xarajatlar summasidan xo'jalikda poya va barglaridan foydalanishning qiymati chegirib tashlanadi. 1 ts kartoshkaning tannarxi olingan natija ildizlar massasiga bo'lish orqali aniqlanadi. Ishlab chiqarilgan barcha kartoshka saralangan taqdirda eksportbop va ichki bozorga sotish uchun mo'ljallangan kartoshka tannarxini kalkulyatsiyalash lozim. Foydali chiqitlar (mayda va urilgan kartoshkalar, chirigan kartoshkalar) ushbu chiqitlarning ozuqaviy qiymatini hisobga olgan holda (ozuqaviy ildiz mevalarning yoki silos ekinlar yashil massasining o'rtacha tannarxi bo'yicha) baholanadi. Bunda joriy yildagi kartoshka hosilining tannarxiga omborxonalarini tozalash tayyorlash bo'yicha va saqlash uchun qoldirilgan mahsulotni parvarishlash bo'yicha xarajatlar ham kiritilishini ko'zda tutish lozim (5.5.4-jadval).

#### **5.5.4-jadval**

##### **Kechki kartoshka tannarxini hisoblash, 1ga**

Mahsulot turi	Miqdori, ts	1 ts bozor bahosi, so'm.	Bozor bahosi bo'yicha qiymati, so'm.	Ulushi, %	Jami xarajat, so'm.	1 ts mahsulot tannarx, so'm.
Ekstortbop kartoshka	150	220 000	33 000 000	76,7	26 001 300	173 342
Ichki bozorga mo'ljallangan kartoshka	50	200 000	10 000 000	23,3	7 898 700	157 974
Jami:	200	x	43 000 000	100	33 900 000	x
Buzilgan mahsulot	8	x	x	x	381 144	47 643
Bargi va poyasi	18	x	x	x	263 286	14 627
Hammasi:	x	x	x	x	34 544 430	x

Ularning qiymati hamda poya va barglar qiymati kartoshka yetishtirish bo'yicha umumiy xarajatlar summasidan chegirib tashlanadi. Qolgan xarajatlar eksportbop va ichki bozorga sotish uchun mo'ljallangan kartoshkalar o'rtasida ularning bozor bahosii bo'yicha qiymatiga mutanosib holda taqsimlanadi. Yil

oxiriga ushbu tannarx bo'yicha mazkur xo'jalikda hisobot davrida chiqarib tashlangan kartoshka ham, qishda saqlashga qoldirilgan kartoshka ham baholanishi lozim. Jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki, biz tahlil qilayotgan fermer xo'jaligi hisobot davri oxiridagi hamma xarajatlar 22 946 930 so'mni tashkil etgan. Chegirib tashlangan xarajatlar mavjud bo'lib, ular barg va poya qiymati (18ts\*14 627)=263 286 so'm hamda buzilgan kartoshkaning qiymati (8 ts\*47 643)= 381 144 so'mga teng. Asosiy mahsulot kartoshkaning tannarxi miqdoriga kiritilgan xarajatlar esa (34544430-263 286-381 144)=33 900000 so'mni tashkil etadi. Kartoshka mahsulotining bozor bahosidagi qiymatlari 150 ts eksportbop kartoshka 33 000 000 so'm bo'lib, 50ts ichki bozorga sotish uchun mo'ljallangan kartoshka 10 000 000 so'mni tashkil etadi. Jami 200 ts kartoshka 43 000 000 so'mga teng. Mahsulotning umumiyligi qiyatidagi ulushi eksportbop kartoshka (33 000 000/43 000 000)\*100=76,7 foizni tashkil qilgan. Ichki bozorga sotish uchun mo'ljallangan kartoshka esa (10 000 000/43 000 000)\*100=23,3 foiz bo'lgan. Demak, 1ts kartoshkaning tannarxi:

- eksportbop kartoshka 26 001 300/150=121 652,7 so'mni tashkil etadi.
- ichki bozorga sotish uchun mo'ljallangan kartoshka esa  
7 898 700 /50)= 157 974 so'mga teng bo'ladi.

Ma'lumki, dunyo aholisini oziq-ovqaga bo'lgan ehtiyojini qondirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois olimlar tomonidan ko'pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mutaxassislar fikricha rivojlangan mamlakatlarda sabzavot mahsulotlarning 80-90 % hosili yoz va kuz fasllarida yetishtiriladi. Sabzavot mahsulotlarni uzlusiz ta'minlash maqsadida uchinchi ming yillikda himoyalangan yerda maydonlarida mahsulotlarni yetishtirish to'liq tizimiga o'tadi. Bu ob-havo va iqlimga bog'liq bo'limgan holda issiqxonada mahsulotlar yetishtirish ochiq maydonga nisbatan bir necha marta ko'p hosil olinadi hamda oziq-ovqatga bo'lgan talabni qondirish imkoniyati mavjud bo'ladi. Qishloq xo'jaligida sabzavot mahsulotlarni yetishtirishda zamonaviy issiqxonalariga bo'lgan talab ortmoqda. Zamonaviy issiqxonalar maydoni nur o'tkazadigan yopqichlar bilan qoplangan, sun'iy iqlim sharoiti bilan ta'minlangan.

Zamonaviy issiqxonalarda ochiq maydonga nisbatan 5-6 marta ko‘p sifatli hosil olishni ta’minlaydi. Yil mobaynida zamonaviy issiqxonalarda bir maydonda 2-4 xil ekinni o‘sirish yalpi hosilni yanada ko‘paytiradi. Shu bilan birga zamonaviy issiqxonalarini qurishda katta mablag‘, ishchi kuchi sarflanadi, bu o‘z navbatida u yerda yetishtirilgan sabzavot hosili tannarxini ochiq maydonda yetishtirilganga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, ochiq yerdagi va yopiq yerdagi sabzavotchilik tashkiliy-texnologik jihatdan bir-birlaridan sezilarli darajada farq qilib, bu o‘z navbatida ularning tannarxini hisoblashda turli usullarni qo‘llashni taqozo etmoqda.

Shu boisdan yopiq yerda yetishtirilgan sabzavot mahsulotlari tannarxini hisoblash o‘ziga xususiyatlariga ega. Yopiq yerda sabzavot mahsulotlari yetishtirish asosan parnik va issiqxonalarda amalga oshiriladi. Bunday inshootlar ko‘proq yirik shaharlar atrofidagi mintaqalarda keng tarqalgan. Yopiq yerda sabzavot mahsulotlari yetishtirish xarajatlari ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklarida inshoot turlari (qishki issiqxonalar, oyna yoki shaffof plenka qoplangan bahorgi issiqxonalar, kichik ko‘lamdagи plyonka bilan qoplangan joylar, isitiladigan yerlar, gidropponika) va ulardagi har bir ekin bo‘yicha alohida, ixtisoslashmagan fermer xo‘jaliklarida esa har bir inshoot bo‘yicha hisobga olinadi. Amaldagi qoidalarga muvofiq yopiq yerdagi sabzavotchilikda xarajatlarning hisob ob’ekti bo‘lib inshootlarning turlari (qishki, bahorgi issiqxonalar, parniklar va h.k) bo‘yicha aks ettirilgan xarajatlar qabul qilingan. Bunday xarajatlar butun inshoot bo‘yicha hisobga olinganligi esa har bir issiqxona bo‘yicha har xil mahsulotlar yetishtirilganligi bois, ularni yetishtirish uchun qilingin xarajatlarni mahsulot turlariga taqsimlash zarurati vujudga keladi. Bunday taqsimlash belgilangan bazaga mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Bunda mazkur o‘simlik turini parvarishlash uchun sarflangan urug‘likka, ko‘chat va ekish materiallarigina bevosita xarajat hisoblanadi. Hisobot yili hosiliga tegishli bo‘lgan xarajatlarning umumiyl summasidan urug‘ va ekiladigan materiallarga ketgan bevosita xarajatlar ajratib olingandan so‘ng to‘g‘ridan-to‘g‘ri tegishli ekinga

kiritiladi. Barcha boshqa chiqimlar yopiq inshootda o'stiriladigan ekinlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

-qishki va yozgi issiqxonalarda, pylonka bilan yopilgan va pylonkasiz issiq maydon bo'yicha u yoki bu ekinni ishlab chiqarishning kvadrat metr-kunlari miqdoriga proportsional (mutanosib) holda bo'ladi. Kvadrat metr-kunlar miqdori u yoki bu ekin turi uchun band qilingan maydonni (kv.m) aynan shu ekinning vegetatsiya kunlari soniga ko'paytirish orqali aniqlanadi;

-parniklarda – ekinning rom-kunlarda bo'ladigan miqdoriga proportsional holda bo'ladi. Rom-kunlar soni tegishli ekin band qilgan romlar sonini uning vegetatsiya davri kunlari soniga ko'paytirib aniqlanadi.

Issiqxonada yetishtirilgan mahsulotlar tannarxini hisoblashda xarajatlar ekin turlari o'rtasida metr-kunlarga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Ularni aniqlash uchun issiqxonada mazkur ekin bilan band bo'lgan maydon uning vegetatsiya davriga (parvarishlangan kunlar soniga) ko'paytiriladi. Ushbu ma'lumotlar har bir inshoot bo'yicha yuritiladigan vegetatsiya jurnalidan olinadi. Misol tariqasida bahorgi issiqxonada yetishtirilgan mahsulotlar tannarxini hisoblashni keltiramiz (5.5.5-jadval).

### **5.5.5-jadval**

#### **Issiqxonada yetishtirilgan mahsulotlar tannarxini hisoblash**

Ekin turlari Ko'rsatkichlar	Bodring	Pomidor	Hammasi
Yer maydoni, m <sup>2</sup>	1000	1000	2000
Vegetatsiya davri, kun	90	100	X
Kvadrat-metr kunlar	90 000	100 000	190000
Bevosita xarajatlar jami	8 700 000	10 800 000	19 500 000
Ko'chat	3 300 000	4 200 000	7 500 000
Pylonka	2 400 000	3000 000	5 400 000
Mineral o'g'it	1400 000	2000 000	3 400 000
Ish haqi	1600 000	1600 000	3 200 000
Bilvosita (taqsimlanadigan) xarajatlar	19 152 500	21 168 090	40 320 590
Issiq suv ta'minoti	18 000 000	20 000 000	38 000 000
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 004 500	1 000 090	2 004 590
Elektr energiya	148 000	168 000	316 000
1 m <sup>2</sup> tannarxi, so'm	-	-	20 160,3
Jami xarajat, so'm	27 852 500	31 968 090	59 820 590
Olingan mahsulot, kg	7500	9500	X
1kg mahsulot tannarxi, so'm	3 714	3 365	X

Issiqxonalardan olingen mahsulotlar eksportbop va ichki iste'molga mo'ljallangan mahsulotlarga ajratilib, kirim qilinadi. Ichki bozorga sotish uchun mo'ljallangan mahsulotlar mavjud bo'lganida xarajatlarni ushbu sifat guruhlari o'rtasida (ularning tannarxini alohida hisoblash maqsadida) umum belgilangan tartibda, ya'ni mahsulotlarning bozor bahosi bo'yicha aniqlangan qiymatiga mutanosib amalga oshiriladi. Ta'kidlash joizki, qishki issiqxonalarda yil oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarish summalar qolishi mumkin. Bu holda uni aniqlash va shu bilan barcha xarajatlarni olingen mahsulotlar va yil oxiriga o'stirishda mahsulotlar o'rtasida taqsimlash zarurati vujudga keladi. Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash umum belgilangan tartibda amalga oshiriladi, ya'ni vegetatsiya jurnali ma'lumotlariga muvofiq parvarishlanayotgan ekinlar bo'yicha kvadrat-metr-kunlar soni va ekish materiallari qiymati hisob-kitob qilinadi. Shunga asosan tugallanmagan ishlab chiqarishga taalluqli xarajatlar aniqlanadi.

Mavjud issiqxonalarning ko'rsatilgan kamchiliklari, hosildorlikni ko'paytirishning zarurligi, yetishtirilgan mahsulot xarajatlarini va tannarxini kamaytirish uchun himoyalangan yer inshootlari konstruktsiyasini takomillashtirish yo'llarini, ulardan foydalanish usullari va sabzavot ekinlari yetishtirish texnologiyasini o'zgartirishni talab etmoqda. Bunday usullarni asosiyлari deb quyidagilarni hisoblash mumkin.

Har bir ekin bo'yicha mahsulot birligining tannarxi (1 kilogramm yoki tsentner erta yetiladigan sabzavotlarniki va 1000 dona ko'chatniki) ekinga kiritilgan xarajatlarning umumiyl summasini mahsulotning yalpi chiqishiga bo'lib aniqlanadi.

Yuqorida fikrlarni inobatga olib, misol tariqasida sabzavotchilikka ixtisoslashgan "Turon" fermer xo'jaligi misolida ko'rib chiqamiz. Xo'jalikda himoyalangan yer maydonlarida har bir parnik romi ostidan 10 kg bodring va 15 kg ko'k piyoz hosili yetishtirilgan (5.5.6-jadval).

Mahsulotlar tannarxini hisoblash usuli quyidagicha aniqlanadi:

Har bir ekin turi bo'yicha rom-kunlar soni topiladi:

- bodring 45000 rom-kun= (1000 rom\*45 kun)

- ko'k piyoz 11000 rom-kun =(500 rom\*22 kun)
- jami 56000 rom-kun.

### **5.5.6-jadval**

#### **Himoyalangan yer maydonidagi sabzavot mahsulotlari tannarxini hisoblash**

Mahsulot turi	Romlar soni, dona	Vegetatsiya davri, kun	Rom-kunlar soni	Yalpi hosil,kg	Haqiqiy xarajatlar,	1 kg haqiqiy tannarxi,
Bodring	1 000	45	45 000	20 000	28 125 000	2 812,5
Ko'k piyoz	500	22	11 000	7 500	6 875 000	916,6
Jami :	1 500	x	56 000	x	35 000 000	x

Har bir ekinga tegishli bo'lgan xarajatlar summasi:

- bodring 28 125 000 =(35 000 000\*45 000)/56 000.
- ko'kpiyoz 6 875 000 =(35 000 000\*11 000)/56 0000.

Demak, olingan 1 kg mahsulotlarning tannarxi:

- bodring 2 812,5 = (28 125 000/10000)
- ko'kpiyoz 916,6 = (6 875 000/7500) ga teng bo'ladi.

Sabzavotchilik mahsulotlarining haqiqiy tannarxi aniqlanganidan so'ng yil oxiriga sarflanmay qolgan urug'lik, tayyor mahsulotlar hamda sotilgan, qayta ishlangan, chorva mollariga va boshqa ehtiyojlar uchun sarflangan mahsulotlar qayta baholanadi ya'ni ularning reja tannarxi haqiqiy tannarxiga tenglashtiriladi.

Mahsulotlarning haqiqiy va reja tannarxi o'rtasidagi farqlar quyidagicha hisobdan o'chiriladi: butun xo'jalik bo'yicha mahsulotlarning har bir turi bo'yicha rejadagi va haqiqatdagi xarajat summalarini taqqoslanadi va natijada taqsimlanishi lozim bo'lgan umumiy farq topiladi; mahsulot turlari bo'yicha umumiy farqni korrektirovka qilinishi kerak bo'lgan mahsulot miqdoriga bo'lib, mahsulot birligiga qancha tejash yoki oshiqcha sarflash to'g'ri kelishi aniqlanadi; aniqlangan summalar mahsulotlarning turlari bo'yicha ishlatilgan va xo'jalikda qoldirilgan miqdorlariga ko'paytiriladi va shu mahsulotlar aks ettirilgan schetlarga qo'shimcha o'tkazish (oshiqcha sarflanganda) yoki storno qilinishi (tejalganda) kerak.

Mahsulotlarning reja va haqiqiy tannarxlari o'rtasidagi tafovutlar boshqacha usulda ya'ni tafovutlarning mahsulotlar reja tannarxiga nisbatan foizda hisoblangan hissalarini bo'yicha ham hisobdan o'chirilishi mumkin. Bu usulda reja

va haqiqiy tannarx o‘rtasidagi tafovut quyidagicha hisobdan o‘chiriladi: har bir analitik schet bo‘yicha yil davomida kirimga olingan mahsulotlarning reja tannarxini ularni yetishtirishga ketgan haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslanadi va bunday taqqoslash asosida taqsimlanishi lozim bo‘lgan farq topiladi; topilgan farqlar mahsulotlarning reja tannarxiga nisbatan foizlarda aniqlanadi; ishlatilgan va xo‘jalikda qoldirilgan mahsulotlarning reja tannarxi hisoblab chiqarilgan foizga ko‘paytiriladi va korrektirovka qilinishi lozim bo‘lgan summa aniqlanadi.

Mahsulotlar reja va haqiqiy tannarxlari o‘rtasidagi tafovutlarning jami ma’lumotlari ekin turlari (bir xil ekin guruhlari) bo‘yicha «Sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi»ga o‘tkaziladi.

## **5.6.Gulchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash**

So‘ngi yillarda o‘simlikchilikning alohida quyi tarmog‘i sifatida gulchilik ayniqsa yirik shaharlar yaqinida gurkirab rivojlanmoqda. Amal qilib turgan va yangidan qurilayotganoranjeriya –parnikli gulchilik xo‘jaliklarini kengaytirishda ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarni hisobini to‘g‘ri tashkillashtirish zarur. Gulchilik xo‘jaliklari sharoitida ancha mushkul ish hisoblanadi, chunki chiqariladiga mahsulotning assortimenti ancha kata bo‘lib, ayrim hollarda 1000 xil nomgacha yetadi.

Shu boisdan, hisobni to‘g‘ri yuritishni va tannarxi aniqlashni ta’minalash uchun nomlari har xil, ammo o‘sirish muddatlari, parvarish qilinishi va boshqa belgilari bo‘yicha o‘xshash bo‘lgan o‘simliklarni yig‘ma guruhlarga birlashtirish lozim.

Gulchilikda tavsiya etiladigan quyidagi namunaviy kalkulyatsion guruhlar ro‘yxatidan foydalanish mumkin:

1. Bir yilliklar;
2. Ikki yilliklar;
3. Ko‘p yilliklar

4. Tuganakli-piyozlilar;
5. Bo‘tali gullar;
6. Sanoat uzoq muddatlilar
7. Hamisha yashil gullar;
8. Gul ko‘chatlari.

Gullarni yetishtirishga ixtisoslashtirilgan xo‘jaliklarda, xarajatlar qoida bo‘yicha, ikki analitik schyotda: «ochiq maydondagi gulchilik» va «himoyalangan maydondagi gulchilik» schyotlarining 20-1schyoti tarkibida hisobga olinadi.

Buxgalteriya hisobi bilan paralel holda operativ hisob (kirim-chiqim tamoyili bo‘yicha) ham yuritiladi, unda har bir ekin egallagan maydon, o‘simpliklar soni, tabiiy otpad, nobud bo‘lish va boshqa natural ko‘rsatkichlar aks ettiriladi.

Gulchilikdagi xarajatlar umumiy analitik schyotlar tarkibida elementlar bo‘yicha aks ettiriladi. So‘ng mazkur schyotlardan sarflar har bir element bo‘yicha o‘simplik guruuhlarining analitik schyotlarga ular egallagan maydonga mutanosib holda ko‘chiriladi.

**Masala.** Xo‘jalikda bir oy mobaynida ochiq maydonda  $4000\text{ m}^2$  maydonda gullarni parvarish qilish bo‘yicha ishlar o‘tkazilgan, bunda xarajatlar 70 000 ni tashkil etgan. Bir kvartalda bir martadan kam bo‘lmagan holda tuziladigan xarajatlarni taqsimlash qaydnomasiga ko‘ra yuqorida ko‘rsatilgan xarajatlar xarajat moddalari bo‘yicha har bir o‘simplik guruhi egallagan maydonga mutanosib holda  $1\text{m}^2$  maydonning qiymatiga mos tarzda taqsimlangan (5.6.1-jadval).

Sepilgan urug‘lar (ekilgan matochly o‘simpliklar) qiymati guruhning analitik schyotiga kiritiladi, urug‘lar yoki qalamchalar nomining yozuvlari, ular egallagan maydon hamda ularning joylashgan o‘rni mazkur guruhning operativ hisob kartochkasida aks ettiriladi. Ishlab chiqarish xarajatlari (urug‘lik va ekish materiali bundan mustasno) odatda bir xil bo‘lib, egallagan maydoni hamda o‘simpliklarning ishlab chiqarishda bo‘lgan vaqt bilan belgilanadi va umumiy analitik schyotlarda aks ettiriladi. Ammo yetakchi ekinlar (gladioluslar, xrizantemalar va boshqalar) katta miqdorlarda o‘stiriladigan yirik gulchilik xo‘jaliklarida gullarni xuddi parvarish qilish bo‘yicha xarajatlar urug‘lik va qalamchalarning qiymati kabi

mazkur ekinlarning bevosita alohida analitik schyotiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

### **5.6.1-jadval**

#### **Ochiq maydondagi gulchilik schyoti bo‘yicha xarajatlarning taqsimlanishi qaydnomasi**

Ko‘rsatkichlar	Gul guruhlari				
	1 yillik	2 yillik	Ko‘p yillik	Tuganakli-piyozi	Jami
Egallagan maydoni, m <sup>2</sup>	800	1200	1600	400	4000
Xarajatlar, so‘m./m <sup>2</sup>	17,5	17,5	17,5	17,5	17,5
Moddiy xarajatlar, so‘m.	2110	3220	4260	1050	10640
Mehnatga to‘lanadigan asosiy va qo‘shimcha haq, so‘m.	9321	13940	18619	4666	46546
Ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari, so‘m.	1865	2790	3725	934	9314
Yordamchi ishlab chiqarishlarning xizmatlari, so‘m.	704	1050	1396	350	3500
Jami , so‘m.	14000	21000	28000	7000	70000

Ochiq va yopiq maydondagi gul o‘simgliklarini parvarish qilish bo‘yicha xarajatlar odatda har chorakda, texnologik qarashlilik bo‘yicha har oyda, tuproqni va parniklarni tayyorlash bo‘yicha esa mavsumda bir marta aks ettiriladi.

Umumiy majmuaviy xarajatlarni taqsimlash uchun o‘simgliklar egallagan maydon to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalilanadi. Ular ishlab chiqarish bo‘linmalarida gul guruhi yoki turining nomini, miqdori, egallagan maydoni va xaroratini ko‘rsatgan holda tuzib chiqiladi. Buxgalteriyada ushbu ma’lumotlar gul o‘simgliklarining turlari bo‘yicha alohida analitik schyotlardan xarajatlarni taqsimlashga muvofiq holda isitish xizmatini hisoblab chiqish bilan to‘ldiriladi.

Gulchilikda hisobot kalkulyatsiyalarini tuzishni boshlashdan oldin xarajatlar qismida ham, mahsulotni kirim qilish borasida ham ko‘rsatkichlarning to‘liq va to‘g‘ri aks ettirilishi tekshirib chiqiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarishning inventarizatsiyasi alohida maydonlarda ekinlarning almashtirilishi tufayli xarajatlarni qayta taqsimlash o‘tkaziladi. Gulchilikda tegishli turdagи mahsulotlarni kalkulyatsiyalashning o‘rnatilgan ketma-ketligiga rioya qilish zarur. Buni

mahsulotning alohida turlaridan xuddi shu tarmoqning boshqa ishlab chiqarishlarida foydalanish mumkinligi taqozo etadi. Masalan, yopiq maydonda o'stirilgan ko'chatlarga tayyor mahsulot sifatida qaraladi, so'ng ulardan ochiq maydonga ekiladigan material sifatida foydalaniladi. Shu bois ko'chatlarning haqiqiy tannarxini aniqlashdan oldin gullarni kesishning tannarxi hisoblab chiqilishi kerak.

Ko'p yillik ekinlarning mahsulotlari tannarxini hisoblashda kalkulyatsiyalash yillar bo'yicha izchillik bilan ya'ni ilgariroq davrda o'stirila boshlagan gul ekinlaridan boshlab amalga oshiriladi.

Gulchilikning texnologik jihatdan o'ziga xos xususiyati tugallanmagan ishlab chiqarishning mavjudligi hisoblanadi. Xarajatlarning 90% gacha qismi shunga to'g'ri kelishi tufayli uni hisobgaolish va baholash ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini keyingi kalkulyatsiyalash uchun g'oyat muhimdir.

Tugallanmagan ishlab chiqarishlarni hisobga olish va baholash ekish muddatlarini, sotish boshlangunga qadar o'tadigan vaqtini, mahsuldorlik davrini va tegishli xarajatlarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Xarajatlarning asosiy qismi, masalan sanoat gulchiligida o'simliklarning kesishdan oldin o'tkaziladigan vegetatsiya davriga to'g'ri keladi. Ularga ustunoykalarni xarid qilish, bog'lash va boshqalar kiradi. Bu sarf xuddi gullarni kesish chog'ida qilingani kabi o'stirish tsiklining oxirigacha butun mahsulotga bir tekisda taqsimlanadi. Shuning uchun tugallanmagan ishlab chiqarishning qiymati ekish yoshiga mutanosib holda pasaytiriladi.

Misol Chinnigulning vegetatsiya davri 2 yil. Gullarning ochilishi shartli ravishda 18 oy davomida ro'y beradi. Demak, gullarni uzish davri 6 oyni tashkil qiladi (24-18). Shunday qilib, gullah boshlangunga qadar har oydagि xarajatlar 5,56% ga teng (100/18). Ekinning vegetatsiya davri oxirigacha har oyda tugallanmagan ishlab chiqarish summasi 5,56 % ga pasayib boradi. Agar chinnigulning o'stirish xarajatlari uni o'zib olingunga qadar, ya'ni 6 oy uchun hisoblab chiqilganda 1 ming dona tup uchun 35 500 ni tashkil etsa, kesilgan gullarni sotishning birinchi oyida tugallanmagan ishlab chiqarishni 1973,80

hisobdan chiqarish lozim ( $35\ 500 \times 5,56\% / 100$ ). Chinnigulning vegetatsiya davri turlicha ekanligini inobatga olgan holda ko'rsatilgan hisoblashlarni shu omilni hisobga olib o'tkazish zarur. Vegetatsiya davri uzoqroq bo'lgan gulli ekinlarning tugallanmagan ishlab chiqarishini baholashda, masalan, atirgulning vegetatsiya davri 8 yilni, ekilgan vaqtadan boshlab uzib olingunga o'tadigan muddat 1 yil bo'lsa, hisob-kitoblar quyidagicha bajariladi.

Agar 1 ming tup atirgulni o'stirishga ketgan xarajatlar birinchi yilda 160 000 ni tashkil etgan bo'lsa, tugallanmagan ishlab chiqarishning qiymati har yili 14,29 % ga ( $100\% / 7$ ) pasayib borsa, atirgullar o'tgan yilning dekabr oyi oxirida ekilgan sharoitda joriy yilning yanvariga 1 ming tup atirgulning tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati 114 272 ga teng bo'ladi ( $16\ 000 - (16\ 000 \times 14,29) \times 2 / 100$ ).

Vegetatsiya ning birinchi yilidagi xarajatlar har oyda atirgullar sotilib borishi jarayonida 1, 19% miqdorda hisobdan chiqariladi.

Gullarni uzish davrida amalga oshiriladigan joriy xarajatlar har oyda sotilgan mahsulotga kiritiladi. Tugallanmagan ishlab chiqarishni baholash va hisobga olishning yuqorida bayon etilgan uslubiyati xarajatlarni u yoki bu gul mahsulotini butun parvarish qilish davriga bir tekisda taqsimlash imkonini beradi, bu esa o'z navbatida har bir o'simlik turining tannarxini kalkulyatsiyalash aniqlik darajasini oshiradi.

Yirik gulchilik xo'jaliklarida ko'p yillik o'simliklarni ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlar hisobi o'stirish agrotexnikasi o'xhash bo'lgan alohida guruuhlar kesimida olib boriladi, bularga piyozlilar (lola, nargis, giatsikt, krakuslar), tuganakli-piyozlilar (gladiolus, liliya), boshqa ko'p yillik gullar (delfinium, romashka, astra, floks, so'mekiya, akvilegiya va boshqalar) kiradi. Ko'pchilik gulli ekinlar orasida hamochiq ham yopiq maydonda o'stiriladigan piyozli gullarni yetishtirish eng ko'p tarqalgan.

Texnologik kartaga binoan piyozli gullarni kavlab olish iyun, iyul oylarida o'tkaziladi va bir ikki oydan so'ng boshqa yerlarga ekiladi, nargis gullari yetishtiriladigan uchastkalar bundan mustasno bo'lib, ular bir yildan so'ng kavlanadi. Yil boshidan piyozlarni kavlab olingunga qadar bo'lgan ishlab chiqarish

xarajatlari (bularga xarid qilingan mahsulotlar kirmaydi) 75%ni, ekilgandan so‘ng (keyingi yil hosiliga hisoblanadigan) yil oxirigacha xarajatlar 25%ni tashkil etadi. Agar xo‘jalikda piyozi gullarda ilmiy maydonlarda o‘sirilsa, kavlab olishgacha va ekilgandan so‘ng xarajatlar hisobi va tannarxi hisoblash amalga oshirilmaydi.

**Masala.** Ko‘p yillik piyozligul (kesilgan gullar va piyozi) mahsulotlari tannarxini kalkulyatsiyalashni ko‘rib chiqamiz (5.6.2-jadval).

### 5.6.2-jadval

#### Ko‘p yillik piyozligul (kesilgan gullar va piyozi) mahsulotlari tannarxini hisoblash

Ko‘rsatkichlar	Kesilgan gullar	PIYOZLAR					Hammasi (kesilgani, piyozi)
		jami	Ekstra 1-tahlil	2-tahlil	3-tahlil	Donabay Shtuchna detka	
Olindi, dona	381 800	928530	215952	219273	248140	245165	X
tukilgan, dona	11 462	35983	15055	6179	2492	12257	X
tukilgani hisobga olgan holda olindi, dona	370 338	892547	200897	213094	245648	232908	X
Sotish bahosi,	11,55	X	19,40	14,11	7,04	5,65	X
Mahsulotning qiymati,	4277 404	9953106	3898332	3007275	1730499	1317000	14230510
Ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar-ning sotish baho-sidagi mahsulot qiymatiga nisbati, %	30,1	69,9	27,4	21,1	12,2	9,2	X
Haqiqiy xarajatlar,	2 040 538	4745420	1858674	1433873	825173	627700	6785958
1 donanining tannarxi,	5,51	x	9,25	6,73	3,36	2,70	X

Yil boshiga piyozlarning qoldig‘i 575855 dona bo‘lib 4584580 ni tashkil etgan. Joriy yil xarajatlari -3871910 ni, shu jumladan xarid qilingan ekish materiallari (97670 dona) qiymati 936740 Piyozlarni kavlab olungunga qadar bo‘lgan xarajatlar  $2901378 = ((3871910 - 936740) * 75\% / 100)$  tashkil etgan.

Ekilgan vaqtidan boshlab yil oxirigacha bo‘lgan xarajatlar

$733 792 = ((3871910 - 936740) * 29\% / 100)$  shunday qilib, joriy yil xarajatlari  $6785978 = (4584 + 2 201 378)$

Vazonnaya gul mahsulotining tannarxini hisoblash o‘ziga xos xususiyatlariga egadir. Tannarxni kalkulyatsiyalash uchun o‘simliklar harakatining miqdoriy balansdan foydalaniladi (5.6.3-jadval).

### 5.6.3-jadval

Ekilgan yil	Yil boshiga		Ko‘paytirish uchun	tukilgan	Sotish uchun	Ko‘rgazma uchun	Urug‘ uchun	Yil oxiriga qoldiq	
	dona	so‘m						dona	so‘m
1 yil	1523	136360	-	-	593	30	1000	-	-
2 yil	-	105000	23000	1000	9319	-	-	12681	633796
Jami	1623	241360	23000	1000	9912	30	1000	12681	633796

Masalan, gulchilik xo‘jalikda tsiklamen nomli gullarni o‘sirish va parvarish qilish bo‘yicha joriy yil xarajatlari 994 350 ni tashkil etgan.

Mavjud qoldiqdan qiymati 105 000 so‘m o‘lgan 1000 dona urug‘ oilasidan ajratib olingan ( $1000 \times 105$ ). Barcha tayyor mahsulotning tannarxi

$$1130710 = (241\ 360 + 994\ 350 - 105\ 000)$$

Kalkulyatsiyaga kiritiladigan o‘simliklar soni

$$22623 = (1623 - 1000 + 23\ 000 - 1000)$$

Shundan kelib chiqqan holda 1 dona o‘simlikning tannarxi

$$49,98 = (1130710 / 22\ 623) \text{ teng.}$$

Bunda yil oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarishning tannarxi

$$633\ 796 = (49,98 \times 12\ 681) \text{ tayyor mahsuloti esa}$$

$$496\ 914 = (1130710 - 633\ 796).$$

Xuddi shu tartibda vazonlarda o‘siriladigan gulli ekin mahsulotlarining haqiqiy tannarxi hisoblab chiqiladi.

Yopiq maydonda gulchilik mahsulotini kalkulyatsiyalashdagi muhim bosqich kesilgan gullarning tannarxini aniqlash hisoblanadi.

Shu maqsadda ekinlarning texnologik jihatdan o‘ziga xususiyatlarini hisobga olgan holda ulardan har biri alohida hisoblab chiqiladi.

**Masala.** Xo‘jalikda  $2600\ m^2$  maydonda atirgullar (kesish uchun o‘siriladi, bunda o‘simliklar harakatining miqdoriy balansi quyidagicha bo‘lgan. Gullarni o‘sirish va parvarishlash xarajatlari 1 853740 ni tashkil etgan. Kesilgan gullar hosili 166 955 dona bo‘lib, sotuv narxlarida 2 947 700 ga teng. O‘simliklarning vegetatsiya davri uzunligi (8 yil) hisobga olgan holda o‘simliklar qiymatini har yili

amortizatsiya summasiga (ularning boshlang‘ich qiymatining 1/8 qismiga) kamaytirib boriladi (5.6.4-jadval).

#### **5.6.4-jadval**

#### **Kesilgan gullarning chiqishida atirgullar harakatining miqdoriy balansi**

Ekilgan yil	Yil boshiga qoldiq		Olindi, dona	Otpad, dona	Yil oxiriga qoldiq	
	dona	so‘m			dona	so‘m
1 yil	7247	710220	-	200	7047	493290
2 yil	3530	345940	-	100	3430	240100
3 yil	12279	1031450	-	2481	9798	685860
4 yil	-	-	7150	-	7150	753553
Jami	23056	2087610	7150	2781	27425	2172803

Bir dona o‘simlikning yil boshiga tannarxi 90,55 ni (2087610/2305), amortizatsiya summasi 11,32 =(26095/23 056) tashkil etadi. Shunday qilib, yil oxiriga bitta o‘simlikning tannarxi 79,23 =(90,55-11,32)ga teng. Joriy yil uchun o‘simliklar amortizatsiyasi 260951ni tashkil etadi (2087610/8). Kesilgan gullarning barcha tayyor mahsuloti tannarxi 1 768 547 ga teng (2087610+1 853 740-2172803). Shundan kelib chiqqan holda bitta kesilgan o‘simlikning haqiqiy tannarxi 10,59 ni tashkil etadi (1768547/166 995). Boshqa kesilgan ekinlar (chinnigul kalla, xrizantema va h.k)ning tannarxi ham xuddi shunday aniqlanadi.

#### **5.7.Ozuqaviy ekinlarning mahsulotlari va tayyorlanadigan ozuqalarning tannarxini hisoblash**

Ekiladigan (sepiladigan) bir yillik va ko‘p yillik o‘tlardan iborat bo‘lgan ekinlardan olinadigan mahsulotlar tannarxini aniqlash ularning har bir turi pichan, yashil massa, urug‘lar, somon bo‘yicha amalga oshiriladi:

-agar bir yillik o‘tlardan bir turdag'i mahsulotni olish uchun foydalanilsa, tannarxni hisoblash oddiy usulda o‘tkaziladi va mazkur ekin bo‘yicha xarajatlar summasini olingan mahsulot miqdoriga bo‘linadi. Qoida bo‘yicha ekilgan o‘tlardan bir necha turdag'i mahsulot olinadi. Shu bois ularning tannarxini hisoblashda har bir turdag'i mahsulotni o‘rnatilgan koeffitsent bo‘yicha shartli mahsulotga qaytadan hisoblanadi. Shundan so‘ng mahsulot turlari bo‘yicha xarajatlarni taqsimlash umumqabul qilingan tartibda amalga oshiriladi;

-ko‘p yillik o‘tlar bo‘yicha, har xil turdagи mahsulotlarni olish uchun maydonlardan foydalanish muddatidan qat’iy nazar 1 ts mahsulotning tannarxi ham o‘rnatilgan koeffitsentlar yordamida aniqlanadi.

Ko‘p yillik o‘tlardan iborat bo‘lgan mahsulotlar tannarxini hisoblashda bir qancha o‘ziga xos xususiyat mavjud. Ular ko‘p yillik o‘tlarni o‘stirish bo‘yicha xarajatlar o‘tgan yillarning va joriy yilning xarajatlariga bo‘linishi bilan shartlangandir. Ko‘p yillik o‘tlar bo‘yicha o‘tgan yillarning xarajatlari (tuproqqa ishlov berish, ekish, ekinlarni parvarishlash va boshqalar). Har yil uchun hosildorlikdan va mazkur ekinlardan foydalilanligan yillar sonidan kelibchiqqan holda yondosh yillar o‘rtasida taqsimlanadi. Chunonchi, hosildorlik bir tekis bo‘lgan va ekinlardan uch yil davomida foydalilanlik sharoitida birinchi yil uchun ushbu xarajatlarning 34 %, ikkinchi yil uchun 33%, uchinchi yil uchun 33% tegishli bo‘ladi. Agar ko‘p yillik o‘tlardan ikki yil davomida foydalanssa va ularning hosildorligi bir xil bo‘lsa, har bir yilga mazkur xarajatlarning yarmi (50%) tegishli bo‘ladi. Kelasi yil mahsulotiga tegishli bo‘lgan ko‘p yillik o‘tlarning o‘tgan yillardagi xarajatlariga ushbu ekin bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida qaraladi. Ko‘p yillik o‘tlarni o‘stirish va yig‘ib olish bilan bog‘liqbo‘lgan joriy yil xarajatlari to‘liqligicha o‘sha yilning tannarxiga kiritiladi. Shunday qilib, ko‘p yillik o‘tlar bo‘yicha olingan mahsulotga tegishli xarajatlar o‘tgan yillarda qilingan xarajatlarning bir qismini va joriy yil xarajatlarining barcha summasini o‘z ichiga oladi. Ular birgalikda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tannarxini tashkil etadi. Misol: hisobot yilida xo‘jalik 100 ga yerda yetishtirilgan ko‘p yillik o‘tlardan foydalangan. Mazkur maydondan quyidagicha foydalilanigan. (5.7.1-jadval).

#### (5.7.1-jadval).

#### **Ko‘p yillik o‘tlardan iborat bo‘lgan ekinlardan foydalanish, ga**

Maydondan foydalanish	I o‘rim	II o‘rim	Jami
Pichan	70	20	90
Urug‘lik	5	15	20
Yashil massa	5	20	25
Dalada boqish	20	25	45
Jami	100	80	180

Ushbu maydonda o‘tgan yillarda qilingan va joriy yilga kiritilgan xarajatlar summasi 360 000 ga teng. O‘tgan yillardagi xarajatlarni olingan mahsulotga kiritish uchun umumiylar xarajatlar summasi 36 000 ni umumiylar foydalaniladigan maydonga ikkini yillik foydalanishni hisobga olgan holda 180 ga bo‘lib chiqiladi va 1 ga maydoga 200 ni hosil bo‘ladi. (360000 / 180ga).

Har bir mahsulot turiga to‘g‘ri keladigan xarajatlar ulushi aniqlanadi:

- pichan (barcha o‘rimlardan)-180 000 =(2000 \*90ga)
- rug‘lik (barcha o‘rimlardan)-40000 =(2000 \*20 ga)
- yashil massa (barcha o‘rimlardan)-50 000 =(2000 \*25 ga)
- dalada boqish uchun (barcha o‘rimlardan)-90 000 =(2000 \*45 ga)

Jami -360 000 .

Joriy yil xarajatlari 416740 ni tashkiletgan. Ozuqaviy ekinlar mahsulotining tannarxini kalkulyatsiyalash uchun umumiylar xarajatlar summasi o‘tgan yillardagi xarajatlarni qo‘sib hisoblaganda 776740 ni tashkil etgan. (360 000 +416740 ) (5.7.2-jadval).

#### (5.7.2-jadval)

#### **Ozuqaviy ekinlardan olinadigan mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash**

Mahsulot turi	Yalpi hosil, ts	Shartli mahsulotga o‘tkazish koefitsenti	Shartli mahsulot miqdori, ts	Haqiqiy xarajatlar,	1 ts haqiqiy tannarxi,
Pichan	1 800	1,0	1 800	258 912	143,84
Urug‘lar	40	75,0	3 000	431 520	10 788
Yashil massa	2 000	0,3	600	86 304	43,15
jami:	x	x	5 400	776 740	x

Shartli o‘lchamda o‘tkazilganda olingan mahsulot, ts:

- pichan (1800 ts x 1,0)..... 1 800 ts
- urug‘lar(40 ts x 75,0)..... 3 000 ts
- yashil massa (2000 ts x 0,3)..... 600 ts
- jami..... 5 400 ts

Shartli birlikdagi 1 ts mahsulotning haqiqiy tannarxi hisobot yiliga tegishli bo‘lgan barcha xarajatlar summasini 776740 , uni shartli mahsulot miqdoriga bo‘linadi.  $(360\ 000+416\ 740)/5400$  ts=143,84 .

Har bir mahsulot turiga tegishli bo‘lgan xarajatlar:

- pichan – 258912 so‘m. (1 800 ts x 143,84 so‘m.)
- urug‘lik – 431520 so‘m. (3 000 ts x 143,84 so‘m.)
- yashil massa – 86304 so‘m. (600 ts x 143,84 so‘m.)

1 ts haqiqiy tannarxi:

- pichan – 143,84 so‘m. (258 912 so‘m./ 1800 ts)
- urug‘lik – 10788 so‘m. (431 520 so‘m./ 40 ts)
- yashil massa – 43,15 (86 304 so‘m./ 2000 ts)

Pichanning tannarxi (tabiiy pichan bo‘yicha ) uni o‘rish, saqlanadigan joyga tashib olib borish va g‘aramlarga qo‘yish xarajatlarining umumiy summasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Pichanning tannarxi (madaniy pichanzorlarda) yuqorida aytib o‘tilganlardan tashqari ularni yaratish xarajatlari: yerni haydash ishlari, disklash, o‘tlarni ekish va h.klarni qamrab oladi. Ularga madaniy pichanzorlar bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida qaraladi va 3-4 yil mobaynida mazkur maydonдан olingan pichan tannarxiga kiritiladi. Buning natijasida ko‘rsatilagan muddatda madaniy pichanzorlar bir turdagи mahsulot pichan yetkazib beradi. Shu sababli uning tannarxini hisoblash uchun oddiy kalkulyatsiyalash usuli qo‘llaniladi.

Yaylovlarning mahsuloti hayvonlarni boqish uchun beriladigan yashil massa hisoblanadi. Uning miqdori hisoblab chiqish yo‘li bilan aniqlanadi va dalolatnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Iste’mol qilingan yashil massaning qiymati uni qishloq xo‘jalik mahsulotlari tarkibiga kirish qilmagan holda hayvonlarning tegishli turi yoki guruhi xarajatlariga kiritiladi.

Tabiiy yaylovlardan olingan yaylov ozuqasi faqat miqdor ko‘rinishida (tsentnerlarda ozuqa birliklarida) aks ettiriladi. Ularning tannarxi hisoblab chiqilmaydi, chunki ularni olish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar mavjud emas.

Madaniy yaylovlardan bo'yicha ozuqaviy ekinlarni ekish, o'stirish hamda qoramollarni boqish uchun foydalaniladigan yaylovlarni saqlash bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar bevosita 2011-«Dehqonchilik» schyotining kreditidan 2012-«Chorvachilik» schyotining debetiga, yaylovlardan foydalanuvchi qoramol guruhlarning analistik schyotiga kiritiladi. Madaniy yaylovlarda yaylov ozuqasining tannarxi ularni yaratish va saqlash bo'yicha (o'tgan yil va joriy yildagi) xarajatlarni ko'rsatilgan ozuqaning tsentnerlari miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Ekilgan o't mahsulotining tannarxini kalkulyatsiyalashda tortib o'lchanadigan yashil massa hosili e'tiborga olinadi. Hayvonlarga beriladigan (dalada boqiladigan), madaniy yaylovlarda ekilgan o'tlarning yashil massasi kirim qilinmaydi va kalkulyatsiyalanmaydi. Molga berilgan yashil massaning og'irligi alohida turdag'i qoramollar iste'mol qilgan ozuqani hisoblash uchun aniqlanadi. Agar xo'jalikda har xil hayvonlarni boqish uchun foydalaniladigan bitta yaylov mavjud bo'lsa, yaylovlarni saqlash bo'yicha xarajatlarni taqsimlashda ma'lum bir qiyinchiliklar vujudga keladi. Bu holda yaylovlardan foydalaniladigan qoramol guruhlari orasida xarajatlar yaylovdan tashqari davrda pichan sarflash me'yordan kelib chiqqan holda ozuqa-kunlarga mutanosib tarzda taqsimlanadi.

**Masala:** Xo'jalikda o't ekish va yaylovlarnisaqlash bo'yicha xarajatlar 699300 ni tashkil etgan. Yaylov kunlarni (ozuqa-kunlar) va foydalaniladigan ozuqa miqdori 5.7.3-jadvalda keltirilgan.

### 5.7.3-jadval

#### Xarajatlarning o'tlarni ekish bo'yicha va yaylovlarni hayvon guruuhlariga ko'rashaqlash bo'yicha taqsimlanishi

Qoramol turi	Ozuqa kunlar soni	1 kunlik pichan sarfi me'yori, kg	Yaylovlarda pichandan foydalanish, kg	Haqiqiy xarajatlar,
Sigirlar	154 840	7	1 083 880	541 960
Joriy yilda tug'ilgan buzoqlar	42 720	4	170 880	85 440
Barcha yoshdag'i qo'ylar	95 867	1,5	143 801	71 900
Jami	293 427	X	1 398 561	699 300

*Yashil massa berib boqishning qiymatini hisoblash*

1 kg pichan berib boqishning tannarxini aniqlash:

$$699300 / 1\ 398\ 561 \text{kg} = 0,50$$

Xarajatlarning hayvon guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi:

$$\text{-sigirlar } (0,50 \text{ so‘m.} \times 1\ 083\ 880 \text{ kg}) = 541\ 960 \text{ so‘m.}$$

$$\text{-buzoqlar } (0,50 \text{ so‘m.} \times 170\ 880 \text{ kg}) = 85\ 440 \text{ so‘m.}$$

$$\text{- qo‘ylar } (0,50 \text{ so‘m.} \times 143\ 801 \text{ kg}) = 71\ 900 \text{ so‘m.}$$

$$\text{-jami} - 699\ 300 \text{ so‘m.}$$

### **Silos va senajning yashil massasi tannarxini kalkulyatsiyalash**

Silos va senajni ishlab chiqarish jarayoni ikki bosqichni o‘z ichiga oladi: silos yoki snaj massasini tayyorlash hamda silos yoxud senajni tayyorlash. Shunga mos holda xarajatlar 2011-«Dehqonchilik» schyoti bo‘yicha har xil analitik schyotlarda hisobga olinadi. «siloslar yoki senaj uchun yashil massani (tegishli ekinni) yetishtirish» analitik schyoti bo‘yicha uni o‘sirish, yashil massani yig‘ib olish, maydalash bo‘yicha barcha xarajatlar, yetkazib berish va tushirib olish sarflari e’tiborga olinadi. Yashil massa bir yil davomida uning rejaviy tannarxi bo‘yicha kirim qilinadi hamda «silos (senaj) uchun yashil massa» analitik schyotining 1070 - «ozuqa» schyotining debeti va «silos (senaj) uchun yashil massani yetishtirish» analitik schyotining 2011-«Dehqonchilik» schyotining krediti bo‘yicha aks ettiriladi.

Shu bilan bir vaqtida aynan shunday baholash bo‘yicha foydalanilgan yashil massa «siloslash» yoki «senaj tayyorlash» analitik schyotining 1070-«ozuqa» schyotining kreditidan 2011-«Dehqonchilik» schyotining debetiga hisobdan chiqariladi.

Yil oxirida umumishlab chiqarish va umumxo‘jalik xarajatlari (luar «silos massasini yetishtirish» schyotiga ham, «siloslash» schyotiga ham tegishli bo‘ladi) taqsimlangandan so‘ng silos yoki senaj uchun foydalanilgan yashil massaning haqiqiy tannarxi aniqlanadi. Bunda 1 ts silosning tannarxi yashil massaning haqiqiy tannarxi hamda qiymati bilan va siloslash bo‘yicha amalga oshirilgan

haqiqiy xarajatlar bilan aniqlanadi. Silosning haqiqiy tannarxi tayyor silosning og‘irligi bo‘yicha (silos bostirib qo‘yilgandan keyin kamida 20 kun o‘tgandan so‘ng) kalkulyatsiyalanadi. Silosning massasi hajm birliklari (kubometr) dan og‘irlik birliklari (tsentnerlar)ga maxsus jadvallar (sinov massani maydalash usuliga, komponentlarning tarkibiga, ularning namligi, bostirilgan muddatiga ko‘ra) bo‘yicha yoki bir kub metrdagi o‘rtacha og‘irligiga ko‘ra o‘rnataladi. Buning uchun transheya (burt) yoki boshqa inshootning uzunligi bo‘yicha 0,5-1 m qatlam kesib olinadi va tortiladi, shu qatlamni o‘lchagan holda uning 1 kubometrining o‘rtacha og‘irligi aniqlanadi. 1 ts silosning tannarxini hisoblash 5.7.4-jadvalda keltirilgan.

#### **5.7.4-jadval**

##### **Silos tannarxini hisoblash**

Ko‘rsatkichlar	Qiymati
Silos uchun yashil massa, ts	12000
Yashil massa (bostirilgan vaqtdan 20 kun o‘tgandan so‘ng), ts	9750
Makkajo‘xonining siloslangan yashil massasi qiymati, .	820500
Siloslash bo‘yicha xarajatlar, so‘m.	96820
Jami xarajat, so‘m.	917320
1 ts silosning tannarxi (917 320/ 9750), so‘m.	94,08

Xuddi shu tartibda 1ts senajni tayyor ozuqaning massasi kalkulyatsiyalash o‘tkaziladi. Bunda fermentatsiyalash chog‘idagi zarar chegirib tashlanadi (bostirilgandan 10-15 kun keyin).

Vitaminli o‘qli unni va granulali ozuqalarni tayyorlashda ularning to‘yimliligi, sifati va tannarxning darajasi ulardan tayyorlanadigan va qayta ishlanadigan massa hamda ularga kiritiladigan mineral va boshqa qo‘sishimchalarga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu ozuqalar qayta ishlangan massani hisobga olgan holda turlari bo‘yicha kirim qilinadi. O‘t uni va granulali ozuqalar har bir turining tannarxi ham alohida hisoblab chiqiladi. 1ts o‘t unining tannarxi xarajatlarning umumiy summasi (yashil massa, boshqa komponentlar hamda quritish va maydalash bo‘yicha xarajatlar)ni omborga kirim qilingan o‘t unining tsentnerlardagi miqdoriga bo‘lib aniqlanadi.

## **5.8. Dehqonchilik mahsulotlarining rejadagi va haqiqiy tannarxlari o‘rtasidagi farqlarni tuzatish (korrektirovka qilish)**

Dehqonchilik mahsulotlarining haqiqiy tannarxi aniqlanganidan so‘ng yil oxiriga sarflanmay qolgan urug‘lik, yem-xashak, tovar mahsulotlar hamda sotilgan, qayta ishlangan, chorva mollariga va boshqa ehtiyojlar uchun sarflangan mahsulotlar qayta baholanadi ya’ni ularning reja tannarxi haqiqiy tannarxiga tenglashtiriladi.

Mahsulotlarning haqiqiy va reja tannarxi o‘rtasidagi farqlar quyidagicha hisobdan o‘chiriladi: butun xo‘jalik bo‘yicha mahsulotlarning har bir turi bo‘yicha rejadagi va haqiqatdagi xarajat summalarini taqqoslanadi va natijada taqsimlanishi lozim bo‘lgan umumiy farq topiladi; mahsulot turlari bo‘yicha umumiy farqni korrektirovka qilinishi kerak bo‘lgan mahsulot miqdoriga bo‘lib, mahsulot birligiga qancha tejash yoki oshiqcha sarflash to‘g‘ri kelishi aniqlanadi; aniqlangan summalar mahsulotlarning turlari bo‘yicha ishlatilgan va xo‘jalikda qoldirilgan miqdorlariga ko‘paytiriladi va shu mahsulotlar aks ettirilgan schyotlarga qo‘sishma o‘tkazish (oshiqcha sarflanganda) yoki storno qilinishi (tejalganda) kerak.

Mahsulotlarning reja va haqiqiy tannarxlari o‘rtasidagi tafovutlar boshqacha usulda ya’ni tafovutlarning mahsulotlar reja tannarxiga nisbatan foizda hisoblangan hissalarini bo‘yicha ham hisobdan o‘chirilishi mumkin. Bu usulda reja va haqiqiy tannarx o‘rtasidagi tafovut quyidagicha hisobdan o‘chiriladi: har bir analitik schyot bo‘yicha yil davomida kirimga olingan mahsulotlarning reja tannarxini ularni yetishtirishga ketgan haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslanadi va bunday taqqoslash asosida taqsimlanishi lozim bo‘lgan farq topiladi; topilgan farqlar mahsulotlarning reja tannarxiga nisbatan foizlarda aniqlanadi; ishlatilgan va xo‘jalikda qoldirilgan mahsulotlarning reja tannarxi hisoblab chiqarilgan foizga ko‘paytiriladi va korrektirovka qilinishi lozim bo‘lgan summa aniqlanadi.

Mahsulotlar reja va haqiqiy tannarxlari o‘rtasidagi tafovutlarning jami ma’lumotlari ekin turlari (bir xil ekin guruhlari) bo‘yicha «Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish

qaydnomasi»ga o‘tkaziladi.

Hisobot yili oxirida har bir soha bo‘yicha yetishtirilgan mahsulotlarning reja tannarxi va haqiqiy tannarxi o‘rtasidagi farq summalarini hisob-kitob qilinadi.

Reja tannarx va haqiqiy tannarx o‘rtasidagi farq summasi barcha mahsulotlar bo‘yicha quyidagicha topiladi:

$$\mathbf{Tf} = (\mathbf{Tx} - \mathbf{Tr}) \times \mathbf{Mts}$$

Bu yerda:

**Tf** – bir birlik mahsulot reja va haqiqiy tannarxlari o‘rtasidagi farq summasi;

**Tx** – bir birlik mahsulotning haqiqiy tannarxi;

**Tr** – bir birlik mahsulotning reja tannarxi;

**Mts** – yetishtirilgan mahsulotning miqdori (ts.)

Reja tannarx va haqiqiy tannarx o‘rtasidagi farq summasi mos ravishda ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarida «qizil yozuv» yoki «qo‘sishimcha yozuv» usullari bo‘yicha aks ettiriladi. Bunda reja tannarxi haqiqiy tannarxdan yuqori bo‘lgan hollarda «qizil yozuv» usuli, reja tannarxi haqiqiy tannarxdan past bo‘lganda esa «qo‘sishimcha yozuv» usulidan foydalilanadi.

Qizil yozuvlar yoki qo‘sishimcha yozuvlarni qaysi korresponden-tsyalyanadigan schyotlarga berilishini aniqlashda yetishtirilgan mahsulot-larning to‘liq sotib yuborilganligi, ishlatilganligi hamda omborda tayyor mahsulot sifatida saqlanayotganligi e’tiborga olinishi kerak. Chunonchi, to‘liq sotib yuborilgan mahsulotlar bo‘yicha reja tannarx va haqiqiy tannarx o‘rtasidagi farq summalarini bevosita 9130- «Sotish tannarxi» schyotiga, qisman sotilgan mahsulotlar bo‘yicha ushbu farq ularning sotilgan va omborda saqlanayotgan qismlarini aks ettiruvchi schyotlar o‘rtasida taqsimlanishi lozim. O‘z maqsadlarida ishlatilgan mahsulotlar (masalan, yem-xashaklarni chorva mollariga berilishi) bo‘yicha reja tannarxi va haqiqiy tannarx o‘rtasidagi farq mos ravishdagi ishlab chiqarish schyotlariga olib borilishi kerak. Ishlab chiqarish xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar maxsus «Ishlab chiqarish xarajatlari to‘g‘risida hisobot»da (18-shakl) jamlanadi. Barcha yetishtirilgan mahsulotlar bo‘yicha haqiqiy tannarx va reja tannarx o‘rtasidagi farq

summalarining hisob-kitobi hamda ularni tegishli schyotlarda aks ettirish tartibi misol tariqasida 6.9.1-jadvalda keltirilgan.

### **6.9.1-jadval**

#### **Dehqonchilik tarmog‘i sohalarida yetishtirilgan mahsulotlarning reja va haqiqiy tannarxlari o‘rtasidagi farq hisob-kitobi**

<b>Mahsulot</b>	<b>Miqdori, ts.</b>	<b>1 birlik tannarxi, so‘m</b>			<b>Summa, so‘m</b>	<b>Korr. Schyotlar</b>	
		<b>Reja</b>	<b>haqiqat</b>	<b>Farq (+,-)</b>		<b>Dt</b>	<b>Kt</b>
Paxta	1500	38000	37000	-1000	-1500000	9110	2010
Don	2250	15500	14000	-500	-1125000	9110	2010
Don chiqiti	1000	7725	8000	+275	+275000		
a) sotilgan	800				+220000	9110	2010
b) chorvaga	200				+55000	2020	2010
Somon	2300	150	155	+5	+11500		
a) sotilgan	300				+1500	9110	2010
b) chorvaga	2000				+10000	2020	2010
Pomidor	350	10000	11000	+1000	+350000	9110	2010
Piez	200	20000	20600	+600	+120000		
a) sotilgan	150				+90000	9110	2010
b) qoldiq	50				+30000	2810	2010
Karam	250	5000	6000	+1000	+250000	9110	2010
Kartoshka	200	32000	33500	+1500	+300000		
a) sotilgan	150				+225000	9110	2010
b) qoldiq	50				+75000	2810	2010
Sabzi	320	8000	8500	+500	+160000	9110	2010

Buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shaklida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi quyidagi maxsus reestrlarda yuritiladi:

- Hisobot davri xarajat (sarflarini hisobga olish qaydnomasi;
- Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish qaydnomasi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini hisoblashning umumiy qoidalari
2. Donchilik mahsulotlari tannarxi qanday hisoblanadi
3. Texnikn ekin mahsulotlari tannarxi qanday hisoblanadi
4. Meva-sabzavotchilik mahsulotlari tannarxi qanday hisoblanadi
5. Em-xashak ekinlari tannarxi qanday hisoblanadi
6. Dehqonchilik mahsulotlarining rejadagi va haqiqiy tannarxlari o‘rtasidagi farqlarni tuzatish (korrektirovka qilish) qanday amalga oshiriladi

## **VI.BOB CHORVACHILIK MAHSULOTLAR TANNARXINI HISOBLASH**

### **6.1. Chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblashning umumiy qoidalari**

Chorvachilik mahsulotlari tannarxini kalkulyatsiyalashni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri alohida quyi tarmoqlar (qoramolchilik-sut va go‘sht yo‘nalishi, qo‘ychilik va echkichilik, qorako‘lchilik, cho‘chqachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va h.k.) xususiyatlarini hisobga olgan holda tannarx hisoblash uslubini hisob siyosatining elementi sifatida shakllantirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, bunday kalkulyatsiyalash uslubi tannarx ko‘rsatkichining ishonchlilagini pasaytirmasdan, fermer xo‘jaligining ixtisoslashganlik darajasini va bozor konyunkturasini hisobga olishi, kalkulyatsiya hisob-kitoblarining oddiyligini hamda tahlil talablarini ta’minlashi lozim.

Chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash uchun 2012-«Chorvachilik ishlab chiqarishi» va 1100-«O‘sirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlar» (1110, 1120) bo‘yicha analitik schyotlar ma’lumotlaridan foydalilanildi.

Yil oxirida chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblashdan oldin ushbu schyotlar bo‘yicha hisob ma’lumotlari puxta tekshiriladi. Har bir chorva turi (guruhi) bo‘yicha umumiy xarajatlar va yil davomida olingan mahsulotlarning umumiy summasi aniqlanadi. Bunda xarajatlar hisob ob’ektlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlanishi, kishi-soatlar, ozuqa-kunlar va ozuqa birliklari to‘g‘ri hisobga olinishi, chorvachilikning ayrim tarmoqlari (parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, tuyachilik) bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish hajmining to‘g‘ri aniqlanishi, olingan *asosiy*, *yondosh* va *qo’shimcha* mahsulotlar miqdori hamda qiymatining to‘g‘ri aks ettirilishga e’tibor berish zarur.

Chorvachilikda asosiy mahsulotlar: sut, jun, tuxum, nasl, tirik vazn, umumiy tirik vazn va boshqalar tannarx hisoblash ob’ektlari bo‘lib hisoblanadi. ko‘pchilik tarmoqlarda bir vaqtning o‘zida o‘zaro bog‘liq mahsulotlarning bir qancha turlari olinadi. Sut yo‘nalishidagi qoramollardan sut va nasl; qo‘ychilikdan-jun, nasl, qo‘shilgan vazn; parrandachilikdan-tuxum, go‘sht va boshqalar olinadi. Shu sababli xarajat ob’ektlari bilan tannarx hisoblash ob’ektlari bir-biridan farq qiladi

va natijada xarajatlarni mahsulot turlariga to‘g‘ri taqsimlash zarurati tug‘iladi. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida mazkur qo‘llanmaga chorvachilikda ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirish va hisobga olish ob’ektlari, tannarx ob’ektlari va birliklari jadval sifatida ilova qilinadi. Chorvachilikda qo‘srimcha mahsulotga go‘ng, parranda axlati, jun-tivit, pat, teri hamda nobud bo‘lgan hayvonlardan olingan nimtalangan go‘sht va boshqalar kiradi.

Go‘ngning tannarxi muayyan sharoitdagi uni yig‘ishtirish va to‘shamalarning normativ xarajatlari hamda go‘ng chiqarish va saqlash xarajatlari asosida aniqlanadi.

Kalkulyatsiya hisob-kitoblarini amalga oshirishdan oldin bir qator tayyorgarlik ishlari bajarilishi lozim. Jumladan, tegishli quyi tarmoqlar va chorva mollari guruahlari bo‘yicha xarajatlarning natural ko‘rsatkichlarini (kishi-soat, ozuqa birligi, ozuqa-kuni va h.k.) ham inobatga olgan holda, to‘liq va to‘g‘ri hisobga olinishi tekshiriladi. Bunday tekshiruv mantiqiy nazorat va mahsulot chiqishini bosh soni bilan solishtirish kabi usullar yordamida amalga oshiriladi.

Shuningdek, chorva mollarini inventarizatsiya qilish natijalarining to‘g‘ri va to‘liq rasmiylashtirilganligi, hisobot davriga taalluqli bo‘lgan kelgusi davr xarajatlari, xususan, chorva mollarini yozgi lagerlarda saqlash xarajatlarining tegishli tarmoq va chorva mollariga asosli hamda to‘liq olib borilganligini ham tekshirish zarur. Agar yozgi lager qaysidir bitta chorva moli guruhi mo‘ljallangan bo‘lsa, u holda mazkur yilga to‘g‘ri keladigan xarajat summasi oldin 3190-«Boshqa kelgusi davr xarajatlari» schyotida to‘planib, undan mazkur guruhga o‘tkaziladi va «Boshqa asosiy xarajatlar» moddasi bo‘yicha aks ettiriladi. Lager chorva mollarining bir qancha turlari yoki guruhlarini saqlash uchun foydalilaniladi, hisobot yiliga tegishli xarajatlar chorva mollarining ushbu guruhlari o‘rtasida ularning lagerda saqlangan shartli ozuqa-kunlariga mutanosib taqsimlanishi lozim.

Bulardan tashqari, veterinariya dori-darmonlari va dezinfektsiya vositalarining hisobdan chiqarilgan summalari asosliligi ham tekshirilishi lozim. Qilingan xarajatlar, agar ular fermer xo‘jaligining xususiy mablag‘lari hisobidan

sotib olingan bo‘lsagina tegishli chorva mollari turlari yoki guruhlari bo‘yicha xarajatlarga olib boriladi. Agar xarajatlar chorva mollari va parrandalarning yuqumli kasalliklariga qarshi davlat byudjetidan ajratilgan maxsus mablag‘lar hisobidan amalga oshirilgan bo‘lsa, bunday xarajatlar tannarxga qo‘shilmaydi. Maqsadli moliyalashtirish mablag‘lari hisobidan xarid qilingan inventar va jihozlar sarfi ham shunday tartibda aks ettiriladi. Shuningdek, mazkur mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar miqdorini ham tekshirish zarur. Masalan, asalarichilikda changlangan ekinlarga olib boriladigan xarajatlar.

Yordamchi ishlab chiqarishlar va xo‘jalikning o‘zida yetishtirilgan ozuqalar bo‘yicha kalkulyatsiya farqlarining to‘g‘ri va to‘liq aks ettirilganligi hamda umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning asosliligini tekshirish kalkulyatsiyalashda muhim tayyorgarlik bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning analitik schyotlar bo‘yicha to‘liq va to‘g‘ri kirim qilinishi ham alohida puxta nazorat qilinishi lozim. Bunda agar xarajatlar tegishli analitik schyot debeti bo‘yicha hisobga olingan bo‘lsa,mahsulot chiqishini aynan shu analitik schyot krediti bo‘yicha aks ettirish lozim. Chunki olingan mahsulot oldin amalga oshirilgan xarajatlarning moddiy ifodasi hisoblanadi.

Yuqorida bayon etilgan ishlarni sifatli amalga oshirish natijasida butun chorvachilik tarmog‘i bo‘yicha har bir chorva moli guruhi bo‘yicha xarajatlar va mahsulot chiqishini to‘liq va to‘g‘ri aks ettirish ta’minlanadi. Kalkulyatsiyalash jarayonida chorvachilikdagi tugallanmagan ishlab chiqarishni aniqlash va baholash ham muhim ahamiyatga ega. Uning qiymati inventarizatsiya ro‘yxatida ko‘rsatilgan summaga mos bo‘lishi lozim. Amaldagi qoidalarga muvofiq fermer xo‘jaliklarida chorvachilik mahsulotlarining haqiqiy tannarxi yil oxirida hisoblanadi. Bunday tartibni chorvachilikning ayrim quyi tarmoqlarida mahsulotlar, masalan quychilikda-jun, asalarichilikda-asal vaqtı-vaqtı bilan, mavsumiy olinishi bilan izohlanadi.

Ayni vaqtida ayrim tarmoqlarda muntazam va nisbatan bir tekisda mahsulot olinsada (masalan, sut, tuxum, vazn) chorva mollarining ushbu guruhlari va turlari

bo‘yicha haqiqiy tannarx faqat yil oxirida hisoblanadi. Chunki shungacha mazkur tarmoq yoki guruh bo‘yicha haqiqiy xarajatlar summasini aniqlash imkoni bo‘lmaydi.

Ko‘pchilik chorva fermer xo‘jaliklari ustun darajada o‘z ozuqa bazasiga ega bo‘lib, u barcha xarajatlarning taxminan 50-60% ini tashkil etadi. Bunday fermer xo‘jaliklarida o‘simplikchilik mahsulotlari, shu jumladan yem-xashaklar, haqiqiy tannarxini hisoblamasdan oldin chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash imkoni bo‘lmaydi. Bu esa chorvachilik mahsulotlari haqiqiy tannarxini faqat yil yakunlanganidan keyingina hisoblashning asosiy sababidir. Bundan tashqari, amaldagi qoidalarga muvofiq yordamchi ishlab chiqarishlar xizmatining qiymati chorvachilik xarajatlariga yil davomida reja bahosida olib boriladi. Va nihoyat, umumishlab chiqarish xarajatlari smetasi bir yilga tuzilib, ular faqat yil oxirida taqsimlanadi. Bularning barchasi chorvachilik tarmoqlarida barcha haqiqiy xarajatlarni faqat ko‘rsatilgan vaqtida aniqlashni taqazo etadi.

Shu bilan birga, tor ixtisoslashgan (parrandachilik, cho‘chqachilik, bo‘rdoqichilik) fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini muntazam ravishda har oyda hisoblab borishga imkoniyat mavjud. Bundan tashqari, chorvachilik mahsulotlari tannarxi shakllanishini nazorat qilib borish uchun ko‘pchilik fermer xo‘jaliklarida yil davomida ayrim turdag'i chorvachilik mahsulotlarining taxmini yil davomida ayrim turdag'i chorvachilik mahsulotlarining taxmini tizimida “Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va tannarxi” segmentar hisobot shaklini ishlab chiqish zarur.

Chorvachilikning alohida quyi tarmog‘i va guruhlari bo‘yicha mahsulotlar tannarxini hisoblashda belgilangan ketma-ketlikka ham rioya qilish zarur. Sut yo‘nalishidagi qoramolchilikda mahsulotlar tannarxini hisoblash sut sog‘iladigan asosiy podadan boshlanishi maqsadga muvofiq. Chunki olingan sut boshqa qoramol turlari va guruhlariga ichirilishi mumkin. Bunday holatda sutning aniqlangan haqiqiy tannarxi chorva mollari mazkur guruhlari mahsulotlari haqiqiy

tannarxini hisoblash uchun birlamchi shart hisoblanadi. O'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari mahsulotlarining tannarxini kalkulyatsiyalashda mazkur guruh yoki tur bo'yicha avvalo qo'shilgan vaznning, so'ngra tirik vazn haqiqiy tannarxini aniqlash zarur. Bu qo'shilgan vazn tannarxi tirik vazn tannarxining bir qismi ekanligi bilan izohlanadi. Tirik vaznning haqiqiy tannarxini hisoblashda kalkulyatsiya hisob-kitoblari chorva mollarining kichik yoshdagi guruhlaridan boshlab, ketma-ketlikda amalga oshirilishi lozim. Chorvachilikda kalkulyatsiya hisob-kitoblari va tannarx tahlili uchun oraliq kalkulyatsiya birligi sifatida chorva mollarining alohida guruhlarini saqlash ozuqa-kun tannarxi keng qo'llaniladi. Ushbu ko'rsatkich chorva mollarini saqlash uchun qilingan jami xarajat summasini (qo'shimcha mahsulot qiymatini chegirmasdan) mazkur guruhdagi chorva mollarini saqlash ozuqa-kunlari soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. O'rtacha yillik bitta chorva molini saqlash xarajatlari ham shu tartibda aniqlanadi.

## **6.2.Qoramolchilik mahsulotlarining tannarxini hisoblash**

Chorvachilik mahsulotlari tannarxini kalkulyatsiyalashni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri alohida quyi tarmoqlar (qoramolchilik-sut va go'sht yo'nalishi va h.k) xususiyatlarini hisobga olgan holda tannarx hisoblash uslubini hisob siyosatining elementi sifatida shakllantirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, bunday kalbkulyatsiyalash uslubi tannarx ko'rsatkichining ishonchligini pasaytirmasdan, fermer xo'jaligining ixtisoslashganlik darajasini va bozor konyunkturasini hisobga olishi, kalkulyatsiya hisob-kitoblarining oddiyligini hamda tahlil talablarini ta'minlashi lozim.

Chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash uchun 2012-«Chorvachilik ishlab chiqarish» va 1100-«O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlar» bo'yicha analitik schyotlar ma'lumotlaridan foydalilanildi.

Yil oxirida chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblashdan oldin 2012-«Chorvachilik ishlab chiqarish» schyoti bo'yicha hisob ma'lumotlari puxta tekshiriladi. Har bir chorva turi (guruhi) bo'yicha umumiylar xarajatlar va yil davomida olingan mahsulotlarning umumiylar summasi aniqlanadi. Bunda xarajatlar

hisob obektlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlanishi, kishi-soatlar, ozuqa-kunlar va ozuqa birliklari to‘g‘ri hisobga olinishi, chorvachilikning ayrim tarmoqlari (parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, tuyachilik) bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish hajmining to‘g‘ri aniqlanishi, olingan *asosiy*, *yondosh* va *qo‘s Shimcha* mahsulotlar miqdori hamda qiymatining to‘g‘ri aks ettirilishga e’tibor berish zarur.

Chorvachilikda asosiy mahsulotlar: sut, jun, tuxum, nasl, tirik vazn, umumiylar tirik vazn va boshqalar tannarx hisoblash obektlari bo‘lib hisoblanadi. Ko‘pchilik tarmoqlarda bir vaqtning o‘zida o‘zaro bog‘liq mahsulotlarning bir qancha turlari olinadi. Sut yo‘nalishidagi qoramollardan sut va nasl; qo‘ychilikdan – jun, nasl, qo‘shilgan vazn; parrandachilikdan – tuxum, go‘sht va boshqalar olinadi. Shu sababli xarajat obektlari bilan tannarx hisoblash obektlari bir-biridan farq qiladi va natijada xarajatlarni mahsulot turlariga to‘g‘ri taqsimlash zarurati tug‘iladi. Chorvachilikda qo‘s Shimcha mahsulotga go‘ng, parranda axlati, jun-tivit, pat, teri hamda nobud bo‘lgan hayvonlardan olingan nimtalangan go‘sht va boshqalar kiradi.

Go‘ngning tannarxi muayyan sharoitidagi uni yig‘ishtirish va to‘shamalarning normativ xarajatlari hamda go‘ng chiqarish va saqlash xarajatlari asosida aniqlanadi.

Chorvachilikning asosiy tarmoqlari bo‘yicha mahsulotlar tannarxini hisoblash tartibini ko‘rib chiqamiz.

### **Sut yo‘nalishidagi chorvachilikda mahsulotlar tannarxini hisoblash**

Bu yo‘nalishidagi chorvachilikda tannarx hisoblash obekti bo‘lib olingan sut va buzoqlar hisoblanadi.

Bir tsentner sut va bir bosh buzoqning tannarxini hisoblash uchun sut yo‘nalishidagi qoramollarga qilingan yillik xarajatlar summasidan go‘ng, tullahdan tushgan jun va boshqa shunga o‘xhash qo‘s Shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanadi.

Misol: hisobot yilida xo‘jalikning sigirlar fermasida 15306000 so‘m xarajat

qilinib, 1420 tsentner sut, 81 buzoq olingan. 26800so‘mlik go‘ng jami xarajatdan chegirib tashlanadi (15306000-26800 q 15279200) qolgan xarajat summasining 90% i sut miqdoriga va 10%i buzoqlar bosh soniga bo‘linadi ya’ni:

bir tsentner sut tannarxi =15279200x90 : 1420 s=9684 so‘m.

100

bir bosh buzoq tannarxi = 15279200x10 : 81 bosh q18863 so‘m

100

Demak, 1 s. sutning tannarxi 9684 sum, bir bosh buzokniki 18863 sum ekan.

### **O‘stirilayotgan va boquvdagi qoramollarning qo‘shilgan va tirik vaznining tannarxini hisoblash**

O‘stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari bo‘yicha tirik vazni, qo‘shilgan vazni va molning umumiy tirik massasi tannarx hisoblash obektlari bo‘lib hisoblanadi.

Qo‘shilgan tirik vaznning tannarxi ushbu hisob guruhidagi mollarni saqlash xarajatlari umumiy summasini (qo‘shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlangan holda) qo‘shilgan tirik massaga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

U yoki bu hayvon turining tegishli guruhi bo‘yicha qo‘shilgan vazn quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$V_q = V_o + V_{ch} - V_k - V_b$$

Bunda:  $V_q$  - qo‘shilgan (semirgan) vazn;

$V_o$  - yil oxiriga qolgan vazn;

$V_{ch}$  – yil davomida xo‘jalikdan chiqarilgan hayvonlar vazni (nobud bo‘lgan hayvonlarning yil boshiga bo‘lgan tirik vaznnini ham qo‘shgan holda);

$V_k$  – yil davomida xo‘jalikka kirim qilingan hayvonlar vazni;

$V_b$  – yil boshiga bo‘lgan vazni.

Tirik vazn tannarxini hisoblash shuning uchun ham zarurki, o‘stirilayotgan va boquvdagi chorva mollarining har bir turi bo‘yicha 1100-«O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlar» (1110-1120) bo‘yicha hisob yuritishda har xil baholar qo‘llaniladi. Masalan, olingan buzoq, uning olingan bosh

sonidan qat’iy nazar sut yo‘nalashidagi asosiy podaga qilingan xarajatning 10 foizi bo‘yicha tannarxi aniqlanadi. Buzoqning qo‘shilgan vazni rejadagi qo‘shilgan vazn tannarxi bo‘yicha baholanadi. Sotib olingan buzoqlar esa haqiqatda sotib olingan baholarda kirim qilinadi. Boquvga qabul qilingan katta yoshli mol va o‘tgan yilgi yosh mollar yil boshidagi bir tsentner tirik vazni o‘tgan yillardagi o‘rtacha tannarxi bo‘yicha hisobga olinadi.

O‘stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari bo‘yicha qo‘shilgan vazn tannarxini hisoblashdan tashqari bir tsentner tirik massasining ham tannarxi hisoblanadi (6.2.1-jadval).

### **6.2.1-jadval**

#### **O‘stiriladigan va boquvdagi chorva mollari 1 ts tirik vaznining tannarxini**

#### **hisoblash**

Ko‘rsatkichlar	Bosh soni	Tirik vazni, ts	Qiymati, m. s
Yil boshiga qoldig‘i	96	264	40800
Yil davomida olinda:			
-buzoq	81	22	1528
-qo‘shilgan vazn	-	84	8102
-asosiy podadan o‘tkazilgan	12	46	10386
-sotib olingan	2	9	2610
Jami (qoldiq bilan birga):	191	425	63426
1 ts tirik vazn tannarxi (63426 ts / 365 =173,8 ming, so‘m)	x	x	173,8
Asosiy podaga o‘tkazilgan	16	52	10612
Xaridorlarga sotilgan	68	296	42814
Xarom o‘lgan	1	2	182
Yil oxiriga qoldiq	107	75	9644,2

Go‘sht yo‘nalishidagi chorvachilikda tannarx hisoblash obektlari quyidagilar: asosiy poda bo‘yicha – olingan asl, qo‘shilgan tirik vazn va sut, o‘stirishdagi va boquvdagi chorva mollari bo‘yicha esa qo‘shilgan tirik vazn va katta yoshdagi chorva mollari guruhi bo‘yicha qo‘shilgan vatirik vazn.

Go‘sht yo‘nalishidagi chorva mollaridan olingan sut qo‘shimcha mahsulot bo‘lib hisoblaniladi va asosiy mahsulot tannarxini hisoblashda uning qiymati (davlat xarid narxlari yoki sotish bahosida baholanib) umumiy xarajatlardan chegirib tashlanadi.

### **6.3.Parrandachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash**

Yil oxirida parrandachilik mahsulotlari tannarxini hisoblashdan oldin 2013-«Parrandachilik» schyoti bo‘yicha hisob ma’lumotlari puxta tekshiriladi. Har bir chorva turi bo‘yicha umumiylar xarajatlar va yil davomida olingan mahsulotlarning umumiylar summasi aniqlanadi. Bunda xarajatlar hisob ob’ektlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlanishi, kishi-soatlar, ozuqa-kunlar va ozuqa birliklari to‘g‘ri hisobga olinishi, parrandachilikning ayrim tarmoqlari (tovuqchilik, o‘rdachilik, kurkachilik) bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish hajmining to‘g‘ri aniqlanishi, olingan asosiy, yondosh va qo‘sishimcha mahsulotlar miqdori hamda qiymatining to‘g‘ri aks ettirilishga e’tibor berish zarur.

Parrandachilikda asosiy mahsulotlar: tuxum, nasl, tirik vazn, umumiylar tirik vazn va boshqalar tannarx hisoblash ob’ektlari bo‘lib hisoblanadi.

Ko‘pchilik tarmoqlarda bir vaqtning o‘zida o‘zaro bog‘liq mahsulotlarning bir qancha turlari olinadi. Shu sababli xarajat ob’ektlari bilan tannarx hisoblash ob’ektlari bir-biridan farq qiladi va natijada xarajatlarni mahsulot turlariga to‘g‘ri taqsimlash zarurati to‘g‘iladi. Parrandachilikda qo‘sishimcha mahsulotga parranda axlati, pat hamda nobud bo‘lgan parrandalardan olingan nimtalangan go‘sht va boshqalar kiradi.

Go‘ngning tannarxi muayyan sharoitdagi uni yig‘ishtirish va to‘shamalarning normativ xarajatlari hamda go‘ng chiqarish va saqlash xarajatlari asosida aniqlanadi.

Parrandachilikda tannarx hisoblash obektlari asosiy podadan olinadigan tuxum, o‘stirishdagi yosh parrandalarning qo‘shilgan vazni va sutkalik jo‘jalar hisoblanadi. 1 ming dona tuxum va parrandalarning 1 tsentner qo‘shilgan vaznining tannarxi parrandalarni saqlash va parvarishlash xarajatlaridan qo‘sishimcha mahsulot (pat, axlat) qiymati chegirib tashlanib, qolgan summani tegishli mahsulot (tuxum, qo‘shilgan tirik vazn) miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan topiladi. Sutkalik jo‘jalarning tannarxi inkubatsiyaga doir barcha xarajatlardan (tuxumlar qiymatini ham qo‘sghan holda), qo‘sishimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanib, qolgan summa sutkalik sog‘lom jo‘jalar miqdoriga bo‘lish yo‘li

bilan aniqlanadi.

Tuxum ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, tuxum qo‘yadigan tovuqlar bosh soni 10000 dan ortiq bo‘lgan parrandachilik xo‘jaliklarida xarajatlar hisobi quyidagi guruhlar bo‘yicha yuritiladi:

Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar: tuxum qo‘yadigan tovuqlar podasi; tuxum qo‘yadigan sanoatlashgan poda; 1 kunlikdan 60 kunlikkacha bo‘lgan jo‘jalar; 61 kunlikdan 150 kunlikkacha bo‘lgan yosh tovuqlar; 151 kunlikdan 180 kunlikkacha tovuqlar; boquvdagi jo‘jalar;

Go‘sht yo‘nalishdagi tovuqlar: ona tovuqlar podasi; 1 kunlikdan 60 kunlikkacha bo‘lgan jo‘jalar guruhi; 61 kunlikdan 150 kunlikkacha bo‘lgan jo‘jalar guruhi; 181 kunlikdan 210 kunlikkacha tovuqlar; go‘sht uchun boqilayotgan (broyler) jo‘jalar.

Tovuqlar asosan go‘sht va tuxum yetishtirish uchun ko‘paytiriladi. Bundan tashqari ulardan pat, pari va parranda axlati olinadi. Tuxum qo‘yadigan tovuqlarning tirik vazni 1,8-2,2 kg; xo‘rozlarniki 2,7-3,0 kg; go‘sht uchun boqiladigan naslli tovuqlar mos ravishda 3,0 va xo‘rozlar 3,5-4,5 kg ni tashkil etadi. Go‘sht uchun boqiladigan jo‘jalar vazni 60-65 kunlik bo‘lganida 1,4-1,6 kg gacha yetadi. 1 yilda tovuqlardan o‘rtacha 200 tadan 250 tagacha tuxum olinad. Tovuqlar asosan 10 yil davomida tuxum berishi mumkin, ammo ularni 1 yil davomida foydalanish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq.

O‘rdaqlar: katta yoshdagi poda va yosh o‘rdakchalar guruhiga bo‘linadi. O‘rdaklardan go‘sht, tuxum, pat, pari va parranda axlati olinadi. O‘rdaklar vazni ularning nasliga qarab 2 kg dan 3,5 kg gacha bo‘ladi. O‘rdaklar 1 yilda o‘rtacha 100 tadan 150 tagacha tuxum qo‘yadi. Pekin o‘rdaklari 60-65 kunlik bo‘lganida o‘rtacha 2 kg vaznga ega bo‘lib so‘yishga yaraydi.

Kurkalar: katta yoshdagi poda va yosh kurkalar guruhiga bo‘linadi. Kurkalar 13 kg dan 20 kg gacha vaznda bo‘linadi. Kurkalar vazni 120 kunlik bo‘lganidap 4-5 kg ni tashkil etib go‘sht uchun so‘yilishi mumkin. Bitta kurka 30-40 bosh jo‘ja ochishi, ular boqilib so‘yilganida 120-160 kg go‘sht olinishi mumkin. Kurkalar bir yilda o‘rtacha 30-40 dona tuhum beradi.

Parrandachilikda kalkulyatsiya ob'ekti bo'lib tuxum va boquvdagi yosh tovuqlar qo'shilgan vazni hisoblanadi.

Parrandachilikda xarajatlar hisobi chorvachilikda qabul qilingan moddalar nomenklaturasi bo'yicha yuritiladi, lekin «Boshqa asosiy xarajatlar» moddasida tuxum yo'nalishidagi parrandachilikda katta yoshdagi parrandalar tannarxi bilan sotilgan yoki go'sht uchun so'yilgan parranda va ularni sotishdan tushgan pul kirimi o'rtasidagi farq aks ettiriladi. Bundan tashqari xarajat moddalari nomenklaturasiga «Xarom o'lган parrandalar qiymati» (katta yoshdagi poda bo'yicha moddasi qo'shimcha kiritilib, unda o'lган parrandalar qiymati) 1110-«O'stiruvdagi va boquvdagi chorva mollari»schyoti kreditida aks ettiriladi.

Parrandachilik mahsulotlirining tannarxi parrandalarning har bir turi bo'yicha yosh va katta yoshdagi parrandalar guruhlari bo'yicha alohida xarajatlar hisobi ma'lumotlariga asosan aniqlanadi.Parrandachilikdan olingan qo'shimcha mahsulotlar biznes-rejada belgilangan reja baholarida yoki sotish mumkin bo'lган bozor bahosi bo'yicha kirim qilinadi. Oziq-ovqat uchun ishlatiladigan tuxumlar tannarxi hamda g'oz, o'rdak, va kurka tuxumlarining tannarxlar ham quyidagi tartibda hisoblanadi.

Tuxum tannarxini hisoblash. Fermer xo'jaligida «tuxum qo'yadigan tovuqlar” guruhi bo'yicha quyidagi xarajatlar qilingan va mahsulotlar olingan (6.3.1-jadval).

### **6.3.1-jadval**

#### **Tuxum yo'nalishidagi tovuqlardan olingan naslli tuxumlar tannarxini hisoblash**

Nº	Ko'rsatkichlar	Miqdori	Summasi, so'm
1	Tuxum qo'yadigan tovuqlar o'rtacha bosh soni, bosh	120456	x
2	Xo'rozlar o'rtacha bosh soni, bosh	4028	x
3	Jami xarajatlar summasi	x	2155233
4	Olingan naslli tuxum, dona	22445700	x
5	Qo'shimcha mahsulot qiymati	x	143600
6	1 dona tuxum tannarxi: reja bo'yicha haqiqatda	x x	50 89,6
7	Bitta tovuqdan olingan tuxum, dona: Reja bo'yicha Haqiqatda	200 186	x x

Agar xo‘jalikda xarajatlar katta yoshdagi parrandalar guruhi bo‘yicha alohida yuritilmasa, u holda oziq-ovqat uchun ishlatiladigan va naslli tuxumlar tannarxi quyidagi tarzda aniqlanadi. Hisob ma’lumotlari bo‘yicha ona tovuqlar, xo‘rozlar va tuxum qo‘yadigan sanoat podasi bo‘yicha ozuqa-kunlar soni aniqlanadi. «Katta yoshdagi poda» guruxi bo‘yicha hisobga olingan xarajatlar ozuqa –kunlarning jami miqdoriga bo‘linadi. 1 ozuqa kuni tannarxi va ona tovuqlar, xo‘rozlar va tuxum qo‘yadigan sanoat podasiga o‘tkaziladigan xarajatlar summasi aniqlanadi.

Naslli tuxumlar tannarxini aniqlash uchun ona tovuqlar, xo‘rozlar va tuxum qo‘yadigan sanoat podasiga olib borilgan xarajatlar birlashtiriladi va kirim qilingan naslli tuxumlar miqdoriga bo‘linadi.

Sanoatda ishlatiladigan tuxumlar tannarxini aniqlash uchun ona tovuqlar, xo‘rozlar va tuxum qo‘yadigan sanoat podasiga olib borilgan xarajatlar kirim qilingan tuxumlar miqdoriga bo‘linadi.

Katta yoshdagi poda guruhi bo‘yicha hisobga olingan xarajatlardan qo‘shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanib, qolgan summa naslli va oziq-ovqat uchun ishlatiladigan umumiyl soniga bo‘linib, bir dona tuxumning o‘rtacha tannarxi aniqlanadi.

Ta’kidlash joiz-ki, barcha nasldagi va tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarning o‘rtacha tuxum berishini hisoblashda yosh parrandalardan olingan tuxumlar hisobga olinmaydi va xo‘jalikning hisobotida alohida ko‘rsatiladi. Bitta tovuqdan olingan tuxumlar sonini hisoblash uchun asosiy podadan olingan jami tuxumlar sonini o‘rtacha tovuqlar bosh soniga bo‘lish zarur.

#### **6.4. Asalarichilik mahsulotlari tannarxini hisoblash**

Asalarichilik tarmog‘idan asosan asal olinadi va qishloq xo‘jalik ekinlarini changlatishda foydalaniladi. Bu tarmoqda olinadigan asal, asalari mumi, yangi asalari uyalari, perga, ona asalarilar, ona asalari suti, propolis tannarx hisoblash obekti hisoblanadi. Changlantiriladigan ekinlarning maydoni va hosildorligiga qarab asalarichilik xarajatlarining rezavor-meva ekinlari va urug‘lik bedaga 40-60

foizi, boshqa ekinlarga 20-40 foizi o‘tkaziladi. Asalarichilikdan olinadigan mahsulotlar (naslsiz ona ari, nasl beradigan ona ari, yangi asalari uyalari, asal, ona asalari suti, mum va xokazo) tannarxi qilingan xarajatlar summasini olingan mahsulot turlariga ularning xarid bahosi bo‘yicha bahosiga mutanosib taqsimlash yo‘li bilan aniqlanadi. Ortgan mum kataklarning tannarxi yeritilgan konditsiyadagi mumlar tannarxi bo‘yicha aniqlanadi. Bunda uyadagi 435x230 mm hajmdagi mum katak 140 gramm, 435x125 mm – 110 gramm, 435x145 mm – 70 gramm mumga teng qilib olinadi.

Yangi asalari oilalari ularni sotish bahosida kirimga olinadi. Bunda 1 kg asalari 10 kilogramm asalga tenglashtiriladi.

Sotilgan, qish-bahor davrida oziq uchun uyalarda va omborlarda qoldirilgan asal asalarichilikdan olingan yangi hosilni tashkil etadi. Asalarichilikda asalari uyalarining balans qiymati ham aniqlanib, u ona asalari, ishchi asalari, oziq sifatida uyada qoldirilgan asal, asalari yashiklari vashu kabilarning qiymatlari yig‘indisidan iboratdir. Faqat qishloq xo‘jalik ekinlarini changlantirish uchun mo‘ljallangan asalarichilik xarajatlari changlantiriladigan ekinlardan olingan mahsulotlar tannarxiga o‘tkaziladi. Bunda olingan asal, mum va boshqa mahsulotlar qo‘srimcha mahsulot hisoblanib, xarid bahosi bo‘yicha baholanadi va xarajatlar summasidan chegirib tashlanadi.

Ekinlarni changlatish uchun boqiladigan asalarichilikda ham yondosh mahsulotlar tannarxini aniqlash usuli shunday. Lekin mahsulotlar tannarxini aniqlashdan oldin xarajatlarning umumiyligi summasidan ekinlarni changlatishga tegishli qismi chegirib tashlanib, qolgan summa yondosh mahsulotlar o‘rtasida taqsimlanadi (6.4.1-jadval)

Rezavor-meva ekinlari va urug‘lik bedalarni changlatishga, hosildorligiga qarab, asalarichilik xarajatlarining 40-60 foizi boshqa ekinlarga 20-40 foizi o‘tkaziladi. Faqat ekinlarni changlatishga mo‘ljallangan asalarichilik xarajatlari changlantiriladigan ekinlardan olinadigan mahsulotlar tannarxiga o‘tkaziladi. Bunda olingan asal, mum, va boshqa mahsulotlar qo‘srimcha mahsulot hisoblanib, sotiladigan narxda baholanib haqiqiy xarajatlar summasidan chegirib tashlanadi.

## 6.4.1-jadval

### Asalarichilik mahsulotlari tannarxini aniqlash

Mahsulot nomi	Miqdori	1 birlik reja tannarxi, ming so‘m	Jami shartli qiymati, ming so‘m	Shartli qiymat bo‘yicha salmog‘i, %	Xarajat larning umumiy summasi, ming so‘m	Mahsulot Birligi ning tannarxi, ming so‘m
Asal, tsentner	40	850	34000	79,3	31179	779,5
Mum, tsentner	2	120	240	0,6	238	119
Yangi asalari uyalari, dona	40	82	3280	7,6	3016	75,4
Ona asalarilar, dona	15	42	630	1,5	595	39,7
Ona ari suti, kilogramm	0,5	2250	1125	2,6	1032	516
O’sishi (sotoramkalar), dona	300	12	3600	8,4	3624	12,1
Jami	x	x	42875	100	39684	x

Sotilgan (tovar), uyalaridan qoldirilgan, qish-bahor davrida oziq uchun omborda qoldirilgan asal asalarichilikdan olingan yalpi asal hisoblanadi.

Asalarichilikda asalari uyalarining balans qiymati ham aniqlanib, u ona asalari, ishchi asalari, oziq sifatida qoldirilgan asal, asalari yashiklari va shu kabilarning qiymatidan tashkil topadi.

### 6.5. Baliqchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash

Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini hisoblashning tashkiliy-uslubiy ta’minoti, baliqchilik tarmog‘iga xos xususiyatlari

Mahsulotlar tannarxini boshqarish tizimining asosi ilmiy asoslangan norma va normativlar negizida alohida xarajat turlarini prognozlash va rejalashtirish, hisobi va kalkulyatsiyalashni, sarf-xarajatlar shakllanishi ustidan nazorat va auditni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdan iborat. Ushbu barcha elementlar o‘zaro chambarchas bog‘liqlikda va aloqadorlikda bo‘ladi.

Ob’ekti hisoblangan, karpsimon baliqlar yetishtirishga ixtisoslashagan to‘liq tizimli xo‘jaliklarda mahsulotlar tannarxini quyidagi ketma-ketlikda hisoblash tavsiya etiladi:

Asosiy vositalarni saqlash, ish va xizmatlar bo‘yicha bilvosita xarajatlarni tannarx ob’ektlariga taqsimlash;

Yordamchi ishlab chiqarish va xo‘jaliklarning ish va xizmatlari qiymatini taqsimlash;

Umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash;

Hisob(tannarx) ob’ektlari bo‘yicha jami xarajatlarni aniqlash;

Baliqchilik mahsulotlarining tannarxini (turlari bo‘yicha) hisoblash;

Baliqchilik, baliq ovlash va qayta ishslash mahsulotlarining ishlab chiqarish tannarxini hisoblash.

Xarajatlar hisobini tashkil etish va yuritish bo‘yicha takliflar hamda baliqchilik tarmog‘ining tashkiliy-texnologik, biologik va boshqa o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda kalkulyatsiyalash ob’ektlarini quyidagicha tasniflanadi (6.5.1-jadval).

### **6.5.1-jadval**

#### **Karpsimon baliqlar yetishtirishga ixtisoslashgan to‘liq tizimli xo‘jaliklarda mahsulotlar tannarxini hisoblash ob’ektlari va birliklari**

Xo‘jalik ob’ekti	Tannarx ob’ektlari	Tannarx hisoblash birliklari
1. To‘liq tizimli xo‘jalikda karpsimon baliqlar yetishtirish	Lichinkalar	1000 000 dona
	Chavoq(malk)lar	1000 dona
	Segoletkalar	1ts
	Bir yillik baliqchalar	1ts
	Ikki yillik baliqlar	1ts
	Sotiladigan (tayyor) baliqlar	1ts

Lichinkalar tannarxini aniq va ishonchli hisob-kitob qilish uchun «*Lichinkalarni o’stiriladigan hovuzlarga o’tkazish to‘g‘risida hisobot*» ishlab chiqish tavsiya etiladi. Ushbu hisobot ma’lumotlariga muvofiq tannarxni hisoblash uchun mahsuldor baliqlarni saqlash va voyaga yetmagan baliqlarni saqlash hovuzlariga qilingan jami xarajatlar aniqlanadi. Olingan summa o’tkazilgan lichinkalar miqdoriga bo‘linib, 1000 donasining tannarxi aniqlanadi.

Chavoqlar tannarxini aniqlash uchun esa «*O’stirilayotgan hovuzlardan chavoqlarni ovlash hisoboti*» shaklini ishlab chiqish tavsiya etiladi.Ushbu

hisobotda lichinkalarni qiymati va ularni parvarishlash xarajatlari yuqorida taklif qilingan 2010004-«Chavoqlarni o'stirish xarajatlari» analitik schyotida shakllantiriladi. Natijada, 1 ts. chavoq tannarxini hisoblash uchun ushbu analitik schyotning debetida (yuqorida tavsiya etilgan «O'stirilayotgan hovuzlardan chavoqlarni tutish hisoboti»ga asosan) to'plangan xarajatlarning umumiyligi summasi olingan chavoqlar miqdori (tsentneri)ga bo'linadi. Bunda bitta chavoqning o'rtacha og'irligi 30 grammidan kam bo'lmasligini nazarda tutish lozim.

Qishlatiladigan havzalarga qo'yilgan chavoqlarning tannarxi hamda ularni qishlatish xarajatlariga asosan 1 yillik baliqchalar tannarxi hisoblanadi. Buning uchun ushbu xarajatlar summasi baliqlarning qishlatish hovuzlaridan erkin boqiladigan hovuzlarga o'tkazish vaqtidagi miqdori (tsentneri) ga bo'linadi. Shu tarzda bir yillik baliqlar 1 tsentnerining haqiqiy tannarxi aniqlanadi.

Va nihoyat, 1 tsentner sotiladigan (tayyor) baliqning haqiqiy tannarxi 2010007 - «Sotiladigan( tayyor) baliqlarni boqish xarajatlari» analitik scheti ma'lumotlari asosida aniqlanadi. Ushbu analitik schetda baliqlarni o'stirish bilan bog'liq barcha xarajatlar to'planadi. Buning uchun boquvga qo'yilgan bir yillik baliqchalar tannarxi va ularni sotish yoki qayta ishlash uchun ovlashga bo'lgan davrdagi boqish xarajatlari jamlanadi.

Sotiladigan(tayyor) baliq kalkulyatsiya birligi (1 tsentneri)ning tannarxini aniqlash uchun jami xarajat summasi ovlangan baliq miqdori (tsentneri)ga bo'linadi va fermer xo'jaligi rahbariyati (menejmenti) yetishtirilgan 1 ts. tayyor baliqning haqiqiy tannarxi to'g'risida ishonchli ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bunday ma'lumotlardan fermer (yoki uning menejeri) quyidagi masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish maqsadida foydalanishi mumkin:

- xo'jalikda baliqchilik biznesini davom ettirishning maqsadga muvofiqligini asoslash;
- bozorni o'rganib, baliq mahsulotlariga optimal baho belgilash;
- ishlab chiqariladigan baliqlar assortimentini optimallashtirish;
- amaldagi texnologiyani qo'llashni davom ettirish yoki yangilashning maqsadga muvofiqligini asoslash;

- baliqchilik xo‘jaligi menejmentining samaradorligini baholash;
- alohida baliq turlarining tannarxini tahlil qilish, dinamikasini baholash va pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash;
- butun baliqchilik xo‘jaligi va alohida baliq turlari bo‘yicha ishlab chiqarish rentabelligini tahlil qilish;
- baliqchilikda yangi texnika va innovatsion, shu jumladan raqamli texnologiyalarni joriy qilishning iqtisodiy samaradorligini asoslash;
- baliqchilik klasteri tarkibidagi xo‘jaliklar o‘rtasida ozuqa va baliq mahsulotlari uchun ichki xo‘jalik (transfert) baholarini shakllantirish.

Shuningdek, to‘liq tizimli baliqchilik xo‘jaliklarida yil oxiriga 2010 - «Asosiy ishlab chiqarish» sintetik schetida faqat qishlatiladigan hovuzlarda qoldirilgan chavoqlarning qiymati tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida aks ettiriladi.

Shuning uchun jami xarajatlarni ikkita guruhga: tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida qishlatishga qoldirilgan baliqlar va sotish uchun ovlanadigan baliqlarga taqsimlanadi. Batafsilroq (tahliliy) ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun xarajatlarni baliqlarning har bir toifasiga: mahsuldor baliqlar, lichinkalar, chavoqlar, bir yillik baliqchalar va sotish uchun boqilayotgan (tayyor) baliqlarga taqsimlash ham mumkin. Ikkinci holat uchun ushbu maqolada tavsiya etilgan analitik hisob tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi shart. Bu o‘z navbatida, moliyaviy hisobot, xususan buxgalteriya balansi (aktiv, II bo‘lim 160-satri) ko‘rsatkichlarining ishonchlilagini ham ta’minlaydi.

Bayon qilinganlar asosida ta’kidlash mumkinki, baliqchilik xo‘jaligining buxgalteriya xizmati har bir analitik hisob ob’ekti(baliq turlari va texnologik jarayonlar) bo‘yicha alohida tannarx tannarx hisoblashni ta’minlaydi. Bunda chavoqlar tannarxini hisoblash uchun kalkulyatsiya birligi sifatida 1000 dona chavoq, qolgan barcha turdag'i (jarayondagi) mahsulotlar uchun og‘irlik o‘lchovi (tsentner) asos qilib olinadi.

Baliqchilik xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar tannarxi yil yakunida hisoblanadi. To‘liqsiz tizimli baliqchilik xo‘jaliklarida tannarx sotib olingan

baliqlantirish materiallarining qiymati va ularni parvarishlash xarajatlaridan tashkil topadi. To‘la tizimli baliqchilik xo‘jaliklarida lichinkalar, segoletkalar, bir yillik baliqlar, ikki yillik baliqlar tannarxi alohida-alohida aniqlanishi lozim. Buning uchun quyidagi uslubiy jadvallar, formulalar va hisob-kitob tartibida aks etiladi:

$$T_l = \frac{(LIX - BL)}{LS}, \quad (1)$$

Bunda,

LIX – Lichinkalarni inkubatsiyada yetiltirish xarajatlari, ming so‘m.

BL – Brak qilingan lichinkalar qiymati, ming so‘m.

LS – Inkubatsiyada qoldirilgan lichinkalar soni, mln dona.

Lichinkalar inkubatsiyada bir haftalik bo‘lganidan so‘ng sotilishi mumkin. Lichinkalar tannarxi onalik va o‘sirish hovuzlarida yil davomida saqlangan mahsuldor baliqlarni parvarishlash xarajatlari va lichinkalar o‘sirish hovuzlariga o‘tkazilgunga qadar qilingan xarajatlardan tashkil topadi (6.5.2-jadval).

Bunda yetishtirilgan lichinkalar tannarx hisoblash ob’ekti hisoblanadi va tannarx birligi sifatida esa 1000 000 dona lichinka qabul qilinadi. O‘sirish uchun hovuzlariga o‘tkazilgan lichinkalar bir oycha boqilib, chavoq(malk) darajasigacha (karpsimon baliqlar o‘rtacha 0,2-1,0 gramm) yetiltirilib, baliqchilik xo‘jaliklariga sotiladi va qisman xo‘jalikning o‘zida qoldirilishi mumkin.

## **6.5.2-jadval**

### **lichinkalar tannarxini hisoblash**

T.r.	Ko‘rsatkichlar	miqdori, mln. dona	Summa, m s.
1	Mahsuldor baliqlar va ular boqiladigan hovuzlarni saqlash bo‘yicha yil boshiga xarajatlar (tugallanmagan ishlab chiqarish)		340480,0
2	Mahsuldor baliqlar va lichinkalarni o‘sirish hovuzlariga o‘tkazishgacha yil boshidan qilingan xarajatlar		1787520,0
3	Jami xarajatlar:		2128000,0
4	Olingan lichinkalar qiymati (reja tannarxi bo‘yicha)	950,0	1187512,0
5	1000 000 dona lichinkaning haqiqiy tannarxi	x	2240,0
6	Jami sotilgan lichinkalar haqiqiy tannarxi	560,0	1254400,0
7	O‘sirish uchun hovuzlariga o‘tkazilgan lichinkalarning haqiqiy tannarxi	390,0	873600,0
8	Mahsuldor baliqlar ovlangandan so‘ng hovuzlarni yil oxirigacha saqlash xarajatlari	x	940488,0

Bunda yetishtirilgan chavoq (malk)lar tannarx hisoblash ob'ekti va tannarx birligi sifatida 1000 dona chavoq (malk) qabul qilinadi (6.5.3-jadval).

Yetishtirilgan chavoq(malk)lar tannarxini hisoblash uchun quyidagi formulada aniqlanadi:

$$T_l = \frac{(L_{ht} + ChBX - BCh)}{HChS}, \quad (2)$$

Bunda,

$L_{ht}$  – Lichinkalarning haqiqiy tannarxi, ming so‘m;

$ChBX$  – Chavoqlarni boqish xarajatlari, ming so‘m;

$BCh$  – Brak qilingan chavoqlar qiymati, ming so‘m;

$HChS$  – Hovuzda qolgan chavoqlar soni, ming dona.

### 6.5.3-jadval

#### Chavoqlar tannarxini hisoblash

T.r.	Ko‘rsatkichlar	ming dona	Summa, ming so‘m.
1	O‘sirish uchun hovuzlariga o‘tkazilgan lichinkalarning haqiqiy tannarxi	390000,0	873600,0
2	Chavoqlar boqiladigan hovuzlarni saqlash bo‘yicha yil boshiga xarajatlar (tugallanmagan ishlab chiqarish)		169200,0
3	Lichinkalarni o‘sirish hovuzlariga o‘tkazishgacha yil boshidan qilingan xarajatlar		295600,0
3	Jami xarajatlar:		5840000,0
4	Olingan chavoq(malk)lar qiymati (reja tannarxi bo‘yicha)	127000,0	7620000,0
5	1000 dona chavoq(malk)ning haqiqiy tannarxi	x	46,0
6	Jami sotilgan chavoq(malk)lar haqiqiy tannarxi	25500,0	1173000,0
7	Keyinchalik o‘sirish uchun hovuzlarga o‘tkazilgan chavoq(malk)lar tannarxi	101500,0	4667000,0
8	Chavoq(malk)lar boqiladigan hovuzlarni saqlash xarajatlari	x	782460,0

O‘sirish hovuzlarida bir oy boqilgan chavoq(malk)lar segoletkalar o‘siriladigan yaylov hovuzlariga o‘tkazilib, qishlatish davrigacha boqiladi. Bunda yetishtirilgan segoletkalar tannarx ob’ektlari va 1ts segoletka tannarx birligi hisoblanadi. Xarajatlarga baliqlantirish materiallari (chavoqlar) qiymati ularning haqiqiy tannarxi bo‘yicha va ularni segoletka darajasigacha o‘sirish xarajatlari hamda yil boshidan boshlab ular ovlangunga qadar hovuzlarni saqlash uchun qilingan xarajatlar kiradi.

Segoletkalar qishlatiladigan hovuzlarga o‘tkazilganidan so‘ng hovuzlarni saqlash uchun qilingan xarajatlar esa yil oxirigacha alohida hisobga olinadi va hisobot yilida yetishtirilgan segoletkalar tannarxiga qo‘shilmaydi. Bunday xarajatlar yil oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida qoldirilib, keyingi yildagi baliq mahsulotlari tannarxiga o‘tkaziladi (6.5.4-jadval).

#### **6.5.4-jadval**

##### **Segoletkalar tannarxini hisoblash**

T.r.	Ko‘rsatkichlar	Miqdori, ming dona	Summa, ming so‘m
1	I-tartibli o‘stirish (yaylov) hovuzlariga o‘tkazilgan chavoqlarning qiymati	101500,0	4667000,0
2	O‘stirish hovuzlarini saqlash xarajatlarining yil boshiga (tugallanmagan ishlab chiqarish) qoldig‘i	x	19813,0
3	O‘stirish hovuzlarini saqlash va segoletkalarni o‘stirish xarajatlari (hovuzlardan tutib(ovlab) olingunga qadar)		74535,8
4	Jami xarajatlar		94348,8
5	Olingen segoletkalar va ularning haqiqiy tannarxini (yo‘qotishlar qiymati chegirilgan holda), kg	2246400,0	94348,8
6	1 kg segoletka tannarxi, ming so‘m	x	42,0
7	Boshqa Xo‘jaliklarga sotilgan segoletkalar tannarxi	314496,0	13208,8
8	Qishlatiladigan hovuzlarga o‘tkazilgan segoletkalar tannarxi	1931904,0	81140,0
9	Segoletkalar qishlatiladigan hovuzlarga o‘tkazilganganidan so‘ng yil oxirigacha hovuzlarni saqlash xarajatlari(tugallanmagan ishlab chiqarish)	x	656420,0

Segoletkalar tannarxini ( $T_{sg}$ ) hisoblash uchun quyidagi formulada aniqlanadi:<sup>5</sup>

$$T_{sg} = \frac{(LBX + ChBX + SGX - BS)}{SM_1}, \quad (3)$$

Bunda,

SGX – segoletkalarni yetiltirish xarajatlari, ming so‘m;

BS – brak qilingan segoletkalar qiymati, ming so‘m.

$SM_1$  – segoletkalar (bir yillik baliqchalar) ning o‘stirish davri (tsikl) oxiriga umumiy og‘irligi, ts.

O‘stirilgan bir yillik baliqchalar tannarxini hisoblashda ular ovlangunga qadar hovuzlarni saqlash uchun qilingan xarajatlari, shuningdek bir yillik baliqchalarni qishlatiladigan hovuzlarda saqlash xarajatlari, segoletkalarning ular qishlatiladigan hovuzlarga o‘tkazilganidan keyingi haqiqiy tannarxi, ular

ovlanganidan to yil oxirigacha qishlatish hovuzlarini saqlash uchun qilingan xarajatlar (tugallanmagan ishlab chiqarish) hisobga olinadi. Bir yillik baliqchalartannarx *ob'ekti* va 1 ts bir yillik baliqchalar *tannarx birligi* hisoblanadi(6.5.5-jadval).

### 6.5.5-jadval

#### Bir yillik baliqchalar tannarxini hisoblash

T.r	Ko'rsatkichlar	miqdori, ts	summa, ming so'm
1	Qishlatish hovuzlarini baliqlantirishga tayyorlash va segoletkalarni o'tgan yil oxirigacha saqlash xarajatlari (yil boshiga tugallanmagan ishlab chiqarish)	X	42610,0
2	Qishlatish hovuzlariga o'tkazilgan segoletkalar qiymati	19319,0	81140,0
3	Segoletkalarni va ular ovlanib, bir yillik baliqlar 2-tartibli o'stirish hovuzlariga o'tkazilgunga qadar qishlatish hovuzlarini saqlash uchun hisobot yilda qilingan xarajatlar	X	712450,0
4	Jami xarajatlar	X	863200,0
5	O'stirilgan bir yillik baliqchalarva ularning haqiqiy tannarxi	186840,0	863200,0
6	1ts bir yillik baliqlarning haqiqiy tannarxi	x	4,62
7	Boshqa Xo'jaliklarga sotilgan bir yillik baliqchalar tannarxi	74240	342989,0
8	2-tartibli yaylov hovuzlarga o'tkazilgan bir yillik baliqlarning tannarxi	112600,0	520211,0
9	Qishlatish hovuzlaridagi baliqlar ovlanganidan keyin yil oxirigacha qishlatiladigan hovuzlarni saqlash xarajatlari (yil oxiriga tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i)		58964,4

Bir yillik baliqchalar ovlanganidan to yil oxirigacha qishlatish hovuzlarini saqlash uchun qilinadigan xarajatlar, ya'ni tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini ularning tannarxiga qo'shmasdan, keyingi yilda ushbu hovuzlarda o'stiriladigan baliqlantirish materiallarining tannarxiga olib borish tavsiya etiladi.

Sotiladigan (tayyor) baliqlar tannarxiga quyidagilar kiritiladi: sotiladigan (tayyor) baliqlarni saqlash va parvarishlash xarajatlari, ular ovlangunga qadar nagul hovuzlarni saqlash uchun qilingan xarajatlar va nagul hovuzlarga o'tkazilgan ikki yillik baliqlarning haqiqiy tannarxi (6.5.6-jadval). Sotiladigan (tayyor) baliqlarning tannarxini ( $T_{sb}$ ) hisoblash uchun quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$T_{sb} = \frac{(LBX + ChBX + SGX + RBX + HBX - BB)}{SBM}, \quad (4)$$

Bunda,

RBX – remont baliqlarni boqish xarajatlari, ming so'm;

HBX – baliqlarni hovuzlarda boqish xarajatlari, ming so‘m;

BB – brak qilingan baliqlar qiymati, ming so‘m.

SBM<sub>2</sub> – Sotiladigan (tayyor) baliqlarning umumiy og‘irligi, ts

### **6.5.6-jadval**

#### **Sotiladigan (tayyor) baliqlar tannarxini hisoblash**

T.r.	Ko‘rsatkichlar	miqdori, tsentner	summa,ming so‘m
1	Yaylov hovuzlarini saqlash bo‘yicha yil boshiga xarajatlari (tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig‘i)	x	8510390,0
2	Yaylov hovuzlariga qo‘yilgan bir yillik baliqlarning haqiqiy tannarxi	112600,0	520210,0
3	Sotiladigan(tayyor) baliqlarni boqish va ular ovlangunga qadar hovuzlarni saqlash xarajatlari	x	25527000,0
4	J a m i xarajatlar		34557600,0
5	Sotish uchun ovlangan(tayyor) baliq (ts) va uning haqiqiy tannarxi	46200,0	34557600,0
6	Sotish uchun ovlangan(tayyor) baliq Itsentnerining haqiqiy tannarxi	x	748,0

Tavsiya qilinayotgan uslublar va ular bo‘yicha hisob-kitoblar natijalarini umumlashtirib, karpsimon baliqlar yetishtirishga ixtisoslashgan to‘liq tizimli xo‘jaliklarda baliqchilik mahsulotlari tannarxini hisoblashga quyidagi jadvalni keltiramiz (6.5.7-jadval).

### **6.5.7-jadval**

#### **Baliqchilik mahsulotlari tannarxi hisob-kitobi**

	O‘lch. birl.	Tanbahosi, ming so‘m	Hajmi	Jami xarajat, ming so‘m
Lichinkalar	1 000 000 d.	2240,0	950,0	1187512,0
Chavoq (malk) lar	1000 d.	46,0	127000,0	5840000,0
Segoletkalar	1 ts.	420,0	22464,0	94348,8
1 yillik baliqlar	1 ts.	462,0	186840,0	863200,0
Tovar baliqlar	1 ts.	748,0	46200,0	34557600,0

Shunday qilib, baliqchilikda tannarxni kalkulyatsiyalashning mohiyati ishlab chiqarish xarajatlarini taqqoslash uchun tannarx ko‘rsatkichlariga ega bo‘lish, baliq mahsulotlariga baho belgilash, nazorat va boshqaruv qarorlari qabul qilish hamda tannarx hisoblash usullarini belgilangan maqsadlar uchun qo‘llash zarurati bilan izohlanadi. Baliqchilikda ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologiyaning o‘ziga

xos xususiyatlari hamda har xil boshqaruv maqsadlaridan kelib chiqqan holda tannarx hisoblashning har xil usullari qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## **6.6. Ipakchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash**

Xo‘jaliklarda pilla yetishtirish bilan shug‘ullansa, unga ketgan xarajatlarni hisobi yuritish va mahsulot tannarxini hisoblash lozim bo‘ladi.

Pillachilikda xarajat birliklari sifatida metodik tavsiyalarga ko‘ra 1 kg ipak qurti tuxumlari (birinchi qayta ishlash mahsuloti) va 1 ts ipak qurti pillasi (ikkinci qayta ishlash mahsuloti) belgilangan.

1 kg ipak qurti tuxumlarini tannarxini aniqlash uchun: pilla yetishtirish xarajatlariga ipak qurti tuxumlarining xarajatlarini qo‘shib, kapalaklar paydo bo‘lgan va kapalaklar paydo bo‘lmagan pillalarni sotish mumkin bo‘lgan qiymati bo‘yicha hisoblab chegirib tashlanadi. Chiqqan summani esa massasiga bo‘lish orqali topiladi.

Ipak qurti pillsining asosiy mahsulot tannarxiga ipak qurti tuxumlari tannarxi (birinchi qayta ishlash xarajatlari summasi yoki uni tashqaridan sotib olingan taqdirda sotib olish bahosi bo‘yicha), uni inkubatsiya qilish, qurtlarni boqish va pilla olish xarajatlari kiradi.

Ipakchilikda xarajat moddalari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan moddiy resurslar
2. Mehnat xaqi xarajatlari ijtimoiy sug‘urta xarajatlari bilan
3. Asosiy vositalarga texnik xizmat ko‘rsatish (amortizatsiya, ishlab chiqarish uskunalarini ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish)
4. Yordamchi ishlab chiqarish ob’ektlarining ishlari va xizmatlari
5. Soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar
6. Pillalarning o‘limidan kelib chiqadigan yo‘qotishlar
7. Boshqa xarajatlar

*Pillachilik mahsulotlarini tannarxini hisoblash tartibi.* 1ts pillaning tannarxini aniqlashda mahsulotga ketgan xarajatlarni (qo‘sishimcha mahsulot

tannarxidan tashqari) yetishtirilgan xom pilla massasiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Yuqoridagi xarajat moddalaridan kelib chiqib, pillachilikda quyidagi qaydnomalar rasmiylashtiriladi (6.6.1-jadval).

### **6.6.1-jadval**

#### **Pillachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar chiqishini hisobga olish qaydnomasi**

Xarajatlар	O‘lchov birligi	Xarajat	1 birlik mahsulotning bozor bahosi	500 kg uchun umumiylar xarajat, so‘m	1 kg ipak qurti uchun umumiylar xarajat
Ipak qurtining urug‘i	quti	10	150 000	1 500 000	3 000
Barglar iste’moli	kg	10 000	300	3 000 000	6 000
Elektr energiyasi iste’moli	kVt/soat	270	12,96	3 499	7
Pilla olish uchun kimyoviy preparatlar xarajati		25 000	500	12 500 000	25 000
Mehnat haqi		50	60 000	3 000 000	6 000
Mehnatga haq to‘lashdan ajratmalar	so‘m			330 000	660
Qo‘srimcha ishlab chiqarish xarajatlari	so‘m			6 000 000	12 000
Ishlab chiqarish tannarxii	so‘m			26 333 499	52 667
Davr xarajatlari	so‘m			2 332 030	4 664
Mahsulot tannarxi	so‘m			28 665 529	57 331
Mahsulotlarni sotish narxi	so‘m			36 750 000	73 500
Sotishdan olingan daromad	so‘m			8 084 471	16 169

Pillachilik mahsulotlarining tannarxini hisoblash tartibi quyidagi misol orqali kurib chiqamiz. Xo‘jalikda joriy ishlab chiqarish tsiklida 1437 kilogramm ipak qurti urug‘larini tayyorlab, undan 26 540 tsentner pilla xom ashyosi olindi. Shu bilan birga, birinchi qayta taqsimlashda xo‘jalikning ipak qurti urug‘lari ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlari: pilla yetishtirish - 64 500 000 so‘m; ipak qurti tuxumlari tayyorlash - 18 700 000 so‘m qo‘srimcha mahsuloti sifatida 520 000 so‘m kapalaklardan paydo bo‘lgan pillalar va 280000 so‘m urug‘ pillalarni tashkil etadi. Ipakchilikda qayta taqsimlashda olingan barcha ipak qurti tuxumlari, pilla ishlab chiqarishga qaratilgan. Ikkinchidan ishlab chiqarish jarayonida, ipak qurti

tuxumlari inkubatsiya qilish, qurtlarni boqish va pilla olish uchun qo'shimcha xarajatlar 54 800000 so'mni tashkil etdi.

Xar bir turdag'i maxsulotning tannarxini xisoblash tartibi quyidagicha:

$$1) 520\ 000 + 280\ 000 = 800\ 000 \text{ so'm (jami qo'shimcha maxsulot)}$$

$$2) \text{Jami xarajat} \quad \text{Jami qo'shimcha mahsulot}$$

$$(64\ 500\ 000 + 18\ 700\ 000) - 800\ 000 = 82\ 400\ 000 \text{ so'm.}$$

$$3) 82\ 400\ 000 \text{ so'm.} : 1437 \text{ kg} = 57\ 341,68 \text{ so'm/kg}$$

ya'ni 1 kg ipak qurti tuxumlarini tannarxi

Ishlab chiqarilgan pillaning umumiyligi qiymati ipak qurti tuxumlarini qiymati va ikkinchi qayta ishslashning qo'shimcha xarajatlari yig'indisidan iborat:

$$4) 82\ 400\ 000 + 54\ 800\ 000 = 137\ 200\ 000 \text{ so'm.}$$

$$5) 137\ 200\ 000 \text{ so'm} \times 26\ 540 \text{ ts} = 5169,55 \text{ so'm /ts ya'ni, 1ts pillaning tannarxi}$$

Yuqoridagi ma'lumotlardan quyidagi buxgalteriya hisobi yozuvlari aks ettiriladi:

Urug'ni tayyorlash uchun naslchilik pillasi xarajatlari hisobga olindi

Debet 2012 «Chorvachilik» («Urug' tayyorlash» analitik hisobi)

Kredit 1010 Materiallar

Xo'jalikda ipakchilikda xarajatlarni va mahsulot tannarxini hisoblashdan tashqari mahsulotlardan foydalilik darajasini ham bilish zarur. Biz tut daraxtini yetishtirishning moliyaviy natijasini ham ko'rib chiqamiz.

*Tut daraxtini yetishtirishda rentabil ko'rsatkichi*

Tadqiqot jarayonida 1 hektar tut daraxtlarining iqtisodiy samaradorligi hisoblab chiqildi. Tadqiqot jarayonida tut daraxtining (O'zbekiston duragayi va Pioneer navi misolida) 1 hektar yer maydonidan olingan barg hosili jami 11000 kgni tashkil qildi yoki o'rtacha bir tupdan 2,2 kg hosil olindi.

Xuddi shu vaqtda qiyoslovchi tut hisoblanadigan Xashaki tutining 1 hektaridan olingan barg hosili esa o'rtacha 8000 kg yoki bir tupdan o'rtacha 1,6 kg hosil olindi.

Natijada, 1 hektar Xashaki tutidan olingan mahsulot O'zbekiston duragayi va Pioneer navlaridan olingan barg hosili solishtirilganda quyidagi farqlar kelib chiqdi.

Ya’ni barg hosili qo’shimcha 3000 kgni yoki bir tupdan o’rtacha 0,6 kgni tashkil qildi. Bu esa pirovard natijada qo’shimcha iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Bunda  $3000 \text{ kg} \times 600 \text{ so'm} = 1800000 \text{ so'm}$

yoki bir tupdan o’rtacha  $0,6 \times 600 = 360 \text{ so'm}$  foyda

Endi tut daraxtlaridan olinadigan barg hisobidan foyda miqdorini hisoblaymiz. Bunda foyda miqdori bargni sotishdan olinadigan yalpi tushum va shu barg miqdorini yetishtirish uchun qilingan xarajat summasi o’rtasidagi farqqa nisbatan aniqlanadi.

Bizning misolimizda, 1 tut daraxti misolida o’rtacha 0,6 kg barg olingan bo’lib, 1 kg bargni o’rtacha 600 so’mdan sotganimizda bir tup tut daraxtidan o’rtacha 360 so’m sof tushumga bo’ladi.

*Xarajatlar taqsimoti.* Bunda haqiqiy xarajatlarni hisoblab chiqiladi. Xarajatlar miqdori o’rtacha 500 so’mni (ish haqi, mineral o’g‘itlar, suv, mexanizatsiya xarajatlari va boshqalar) tashkil qilgan bo’lsa, qolgan 100 so’m foyda deb hisobga olinadi. Demak, bargni sotish bahosining 80 foizi xarajatlarni qoplashga yo’naltirilib, qolgan 20 foizi esa foydani tashkil qiladi.

Ushbu foyda miqdorini 1 hektar maydon hisobiga hisoblaganda, 300 kg barg 600 so’mdan sotilganda jami 180000 so’m sof tushum tushgan, uning 80 foizi

( $144\ 000 \text{ so'm}$ ) xarajatlarni qoplashga sarflanadi, foyda  $36\ 000 \text{ so'm}$  ni tashkil qildi.

*Daromadlilik darajasi (rentabellik ko’rsatkichi).* Xo’jalikda mahsulotlarning daromadlilik darajasini aniqlash zarur hisoblanadi. Daromadlilik darajasi-mahsulot sotishdan olingan foyda miqdorini shu mahsulotni yetishtirish va sotish uchun ketgan xarajatlarga nisbati va 100 soniga ko’paytirish orqali aniqlanadi.

Xo’jalikda ajratilgan 1 hektar tut maydonidan olinadigan tut bargining daromadlilik darajasini aniqlash lozim. Shu bois 1 hektar tut maydonidan olingan foyda miqdori ( $36\ 000 \text{ so'm}$ ) shu tut bargini yetishtirish uchun sarflangan xarajatlarga ( $144000 \text{ so'm}$ ) nisbatini ( $36\ 000 \text{ so'm}/144\ 000 \text{ so'm} \times 100$ ) hisoblaganimizda, daromadlilik darajasi (rentabellik ko’rsatkichi) o’rtacha 25 foizni tashkil qilmoqda.

Demak, 1 hektar maydonda tut bargini yetishtirishga qilingan 100 so‘mlik xarajat hisobiga 25 so‘m qo‘sishimcha daromad olingan. Bu quyidagi ko‘rinishida aks ettirilgan: *Realizatsiya qilingan tushum –xarajat =foyda*.

sotishdan tushum – 0,6 kg (1 tupdan x 600 = 360 so‘m)

Xarajat - 600 so‘m 20% =100 so‘m; shundan 500 so‘mi xarajat, 100 so‘m foyda.

Foyda - 0,6 kg (barg)x100 = 60 so‘m foyda;

Xarajat - 0,6 kg (barg) x 500 = 300 so‘m xarajat.

Foyda (1 ga hisobidan) – 180 000 – 144 000=36 000 so‘m

Rentabellik=foyda/xarajat x 100%;

Rentabellik – 36 000/144 000 x 100% = 25%;

1 so‘m xarajatga olib daromad = daromad/xarajat;

1 so‘m xarajatga olib daromad- 180 000/144 000= 1,25 so‘m

Demak, yuqoridagi hisob-kitoblardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, xo‘jalik misolida ko‘rilgan hisob kitoblardan shuni ko‘rish mumkinki, xo‘jalikda 1 hektardan olingan tut daraxtidan olingan foydaning rentabellik ko‘rsatkichi barqaror bo‘lib, 25 foizlik daromad olingan. Bu foydalilik darajasi kelgusi yilda tut daraxtlarini yetishtirishdan daromad olish va uni ko‘paytirish uchun yetarli miqdorda foyda miqdori borligini bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, ipakchilik mahsulotlari tannarxini to‘g‘ri hisoblash muhim hisoblanib, yuqorida keltirilgan usul yordamida hisoblash orqali tannarxni pasaytirish imkoniyatini yaratadi. Yetishtirilgan mahsulotlar va ularning xarajatlari bir hujjatda ya’ni qaydnomada rasmiylashtiriladi. Bundan tashqari tut daraxti yetishtirishning rentabillik ko‘rsatkichlari hisoblash mumkin. Bu esa xo‘jalikda samaradorlik yo‘llarini topish ikonini beradi.

## **6.7.Boshqa chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash**

### **Cho‘chqachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash**

Cho‘chqachilik tarmog‘ida tannarx hisoblash obektlari quyidagilar hisoblanadi: «Asosiy poda» hisob guruhi bo‘yicha qo‘silgan tirik vazn, «2 oylikdan 4 oylikkacha bo‘lgan cho‘chqalar», «4 oylikdan katta cho‘chqa bolalari»

va «boquvdagi katta yoshli cho‘chqalar» hisob guruhi bo‘yicha - qo‘shilgan va umumiyl tirik vazn.

Oناسидан ажратиш пайтida 2 ойга то‘лан cho‘chqa болаларининг таннархини аниqlash учун «Асосија пода» hisоб guruhi bo‘yicha qilingan haqiqiy xarajatlar jami summasидан qo‘shimcha mahsulotlar (go‘ng, qil) qiymati normativ bahoda baholanib chegirib tashланади. Qolgan summaga onalarидан ажратilmagan cho‘chqa болаларининг yil boshiga bo‘лан balans qiymati qo‘shilib hosil bo‘лан summani yil davомида onасидан ажратilmagan cho‘chqa болаларининг umumiyl tirik vazniga (o‘ланларининг vazni chegirib tashланib) taqsimланади.

Oناسидан ажратилган bir bosh cho‘chqa бolasining таннархини hisoblash учун har tsentner tirik vazn таннархини ularning umumiyl vazniga ko‘paytirib, hosil bo‘лан summa onасидан ажратилган cho‘chqa болалари таннархини hisoblashda tekshiriluvchi va bir martalik ona cho‘chqalarni saqlash xarajatlari ham hisobga olinади (cho‘chqalar qochirilgandan boshlab ularni saqlash xarajatlari asosија пода hisobiga o‘tkaziladi).

Boshqa hisоб guruhlari bo‘yicha tirik vazn, umumiyl tirik vazn va qo‘shilgan tirik vazni таннархини hisoblash qoramolchilikdagi kabi amalga oshirilади.

### **Yilqichilik va tuyachilik mahsulotlarinинг таннархини hisoblash**

Yilqichilikda quyidagi mahsulotlar таннарх hisoblash obekti hisobланади: asosија пода bo‘yicha – baytaldan ажратилган qulunlar, toyлар bo‘yicha o‘sishi va o‘stirilgan toyлarning to‘liq qiymati, sut yo‘nalishidagi yilqichilikda qimiz, qulun, katta yoshli boquvdagi otlar bo‘yicha qo‘shilgan va tirik vazn.

Yilqichilikda tulashдан oлинган jun, qil, o‘лан otlarning terisi, go‘shti va go‘ng kabi qo‘shimcha mahsulotlar olinади. Bular normativ asosida yoki bozor narxларida baholanib kirimga olinади.

Qulun tug‘ilgan vaqtida biyani asrash 60 ozuqa - kunining qiymati bo‘yicha baholab kirimga olinади. Asosија podadagi qulunlarni biyasидан ажратиб olish paytidagi таннархини аниqlash учун biyalar, ayg‘irlar va qulunlarni boqish xarajatlari summasидан yordamchi mahsulotlar va ayg‘irlar hamda biyalar bajargan

ishlarning (ishchi otlar ot-kunining normativ tannarxi bo'yicha baholab) qiymatini chegirib tashlab, qolgan summani biyasidan ajratilgan qulunlar soniga bo'linadi.

Toylar bo'yicha qo'shilgan vazn (semirish) aniqlanmaydi ya'ni ular tarozida tortilmaydi. Shuning uchun toylarning o'sish tannarxi hisoblanadi. Bunda toylarning xo'jalikda bo'lган kunlari sonini aniqlash lozim. Buning uchun toylarning yil boshidan mazkur guruhdan chiqib ketgunga qadar (sotilishi, boshqa hisob guruhiga o'tkazilishi) yoki ushbu hisob guruhida hech qanday o'zgarish bo'lmasa – yil oxiriga bo'lган ozuqa-kunlar soni aniqlanadi. So'ng umumiy xarajat summasidan qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanadi. Agar toylar ishchi ot sifatida foydalanilgan bo'lsa, bajargan ishlar bir ish kunining normativ qiymati bo'yicha baholanib, aniqlangan summa umumiy xarajatlardan chegirib tashlanadi. Qolgan xarajatlar summasini muayyan hisob guruhi bo'yicha ozuqa kunlar soniga taqsimlash yo'li bilan bir ozuqa-kun tannarxi aniqlanadi. Bu ko'rsatkich toylarning muayyan guruhida boqilgan kunlarisoniga ko'paytirilib ularning o'sish tannarxi aniqlanadi.

Qimizchilik biyalar ferma sining asosiy mahsuloti biya suti, qimiz va biyasidan ajratilmagan qulunlardir. Biya va ayg'irlarni asrash xarajatlaridan qo'shimcha mahsulotlar qiymatini chegirib tashlab qolgan summa qimiz bilan qulunlarga quyidagicha taqsimlanadi:

Sut – 1 tsentner – 1,0; 6-9 oylik 1 bosh qulun – 6,0.

Qimiz olinmaydigan yilqichilikda bir bosh qulun tannarxi biya va ayg'irlarni asrash xarajatlaridan qo'shimcha mahsulotlar qiymatini chegirib tashlanib qolgan summani qulunlar bosh soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Tuyachilikda tug'ilgan bir bosh bo'taloqning tannarxi urg'ochi tuyalarning 120 ozuqa-kuni qiymati bilan aniqlanadi. Bir bosh bo'taloqning moyasidan ajratish vaqtidagi tannarxini aniqlash uchun yil boshiga qolgan tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlariga joriy yildagi bo'taloqni tuyalarning bo'talog'i ajratilgunga qadar qilingan saqlash xarajatlarini qo'shib, olingan summadan katta yoshdagi tuyalar bajargan ishlar, olingan sut, jun va qo'shimcha mahsulotlar qiymati hamda kelgusi yilga o'tkaziladigan tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari qiymati

chevirib tashlanadi va qolgan summa bo‘taloqlar bosh soniga bo‘linadi.

Bo‘taloqlar o‘sishining tannarxi ham yilqichilikdagi kabi aniqlanadi. Lekin bu ishda ayrim xususiyatlar mavjud. Tuyalar ikki yilda bir marta bolalaydi va ularning bo‘g‘ozlik davri 13 oygacha cho‘ziladi. Shuning uchun ham tuyalarning bir yillik asrash xarajatlari tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari sifatida kelgusi yilga qoldiriladi.

### **Qo‘ychilik va echkichilik mahsulotlari tannarxini hisoblash**

Qo‘ychilik va echkichilik mahsulotlarining tannarxi asosiy podadagi va yosh qo‘y echkilarni parvarishlash hamda ularning junini qirqish bilan bog‘liq xarajatlardan iborat. Bu tarmoqda quyidagi mahsulotlar tannarx obektlari bo‘lib hisoblanadi: jun-go‘sht va go‘sht – jun yetishtirishga ixtisoslashtirishgan qo‘ychilikda – jun, qo‘shilgan hamda tirik vazni: qorako‘lchilikda - qorako‘l teri, jun, joriy yilda tug‘ilgan qo‘zilar va oldingi yillardagi qo‘zilarning o‘sgan vazni.

Go‘sht va jun yo‘nalishidagi qo‘ychilikdan quyidagi yordamchi mahsulotlar olinadi: shirdon, sut, nobud bo‘lgan va o‘lik tug‘ilgan qo‘zilar terisi, go‘ng va boshqalar. Qorako‘lchilikda bulardan tashqari, barra go‘shti bo‘lishi mumkin.

Qo‘ychilikning barcha tarmoqlaridan olingan mahsulotlar tannarxini hisoblashda hisobot yilida qilingan xarajatlardan qo‘shimcha mahsulotlar qiymati normativ xarajatlar asosida baholanib chevirib tashlanadi. Qolgan xarajatlar summasi olingan asosiy mahsulot turlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Tug‘ilgan qo‘zilar tannarxini hisoblashda asosiy podaga qilingan jami xarajatlardan (qo‘shimcha mahsulot qiymati chevirib tashlangandan qolgani) quyidagi miqdorda ajratib mahsulot birligiga (qo‘zilar bosh soniga) taqsimlanadi: jun-go‘sht va go‘sht – jun yo‘nalishidagi qo‘ychilikda – 10%, romanov qo‘ychiligida – 12% va qorako‘lchilikda – 15%.

Umumiylar xarajatdan qo‘zilar tannarxiga o‘tkaziladigan summa chiqarib tashlangandan so‘ng qolgan summa qo‘ychilikdan olingan boshqa asosiy mahsulotlarning (1s ortgan vazn va 1 s jun) realizatsiya bahosi bo‘yicha qiymatiga mutanosib taqsimlanadi. Tegishli summa esa mahsulot miqdoriga bo‘linib, uning

o‘lchov birligi tannarxi aniqlanadi.

Qo‘ychilikdan olingan ayrim mahsulotlar bir qancha qo‘shimcha xarajatlarni talab etadi. Bular jun qirqish xarajatlari, junlarni saralash, joylash, markalash va jun qirqish punktlarining xarajatlaridan iborat. Qorako‘l teri olishda esa qo‘zilarni so‘yish, dastlabki ishlov berish, saralash, markalash xarajatlaridan tashkil topadi. Bunday xarajatlar alohida analitik schyotlarda hisobga olinib, tannarx hisoblashda bevosita jun va terilar tannarxiga o‘tkaziladi. Qo‘zilarning sovlig‘idan ajratish paytidagi 1 tsentner ortgan tirik vaznining tannarxi, ularning tug‘ilgan paytdagi tannarxiga parvarishlash xarajatlari va yil davomida chetdan keltirilgan qo‘zilar qiymatini qo‘shib qo‘zilarni sovlig‘idan ajratish vaqtidagi joriy yilga tegishli bo‘lgan vazniga (nobud bo‘lgan qo‘zilar vazni ham qo‘shilgan holda) bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Echkichilikda ham olingan nasl, tirik vazn va jun tannarxi qo‘ychilikdagi kabi tartibda (qorako‘lchilikdagidan tashqari) aniqlanadi.

## **6.8. Qishloq xo‘jaligida sanoat ishlab chiqarishining ayrim turlari bo‘yicha tannarxni hisoblash**

Sanoat ishlab chiqarishi mahsulotlarining tannarxini hisoblashda mahsulot tayyorlash uchun qilingan xarajatlardan (qayta ishlangan xom-ashyo qiymatinini ham qo‘shgan holda) olingan yordamchi mahsulotlar qiymati chegirib tashlanib, qolgan summa asosiy mahsulot miqdoriga bo‘linadi.

Lekin har bir sanoat ishlab chiqarishi o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lganligi uchun ularning mahsulotlari tannarxini hisoblashda ham shunday xususiyatlar mavjud.

Sanoat ishlab chiqarishi mahsulotlarining tannarxini hisoblash tartibini quyidagi ishlab chiqarishlar misolida ko‘rib chiqamiz.

*Tegirmon (juvozxona)da donni qayta ishlash.*

Donni qayta ishlashda, un, yorma, maydalangan don tannarx hisoblash obektlari bo‘lib hisoblanadi. Tegirmonda tortilgan I t un, yorma yoki maydalangan donning tannarxi muay’an mahsulot turini tayyorlash uchun tegirmon yoki juvozxonada qilingan xarajatlar umumiylashtirish uchun tashqari hisoblashda hisoblanadi. Tegirmonda qilingan xarajatlar umumiylashtirish uchun tashqari hisoblashda hisoblanadi.

qiymatini ham qo'shgan holda) foydalansa bo'ladigan chiqindilar qiymati (xarid bahosi yoki foydalanish bahosida baholanib) chegirib tashlanib qolgan summani qayta ishlashdan olingan mahsulot miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Agar tegirmonda xo'jalikning o'zida yetishtirilgan g'alla bilan birga chet buyurtmachilar va aholi g'allasi tortilsa, xarajatning umumiy summasidan tortishga qabul qilingan o'z donining qiymati chegirib tashlanadi va g'allani tortishga qilingan xarajat aniqlanib olinadi. So'ngra bu xarajatlar summasi tortilgan g'alla (o'ziniki va buyurtmachilarlarni) miqdoriga bo'linib, 1 tsentner tortilgan g'alla tannarxi aniqlanadi.

Xo'jalikka tegishli tortilgan un, yorma va boshqa mahsulotlar tannarxini aniqlash uchun 1 s g'allaning tortish tannarxi jamim tortilgan g'alla miqdoriga ko'paytirilib, hosil bo'lган summaga g'allaning qiymati qo'shiladi va qo'shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanib, qolgan summa olingan un yoki yorma miqdoriga bo'linadi.

*Sabzavot, ho'l meva va kartoshkani qayta ishslash.*

Sabzavot, mevalar va kartoshkani qayta ishlashdan olingan konservalar, tez muzlatilgan mahsulotlar, tuzlangan va achitilgan mahsulotlar, quritilgan kartoshka va sabzavotlar, quruq mevalar va sharbatlar tannarx hisoblash obekti bo'lib hisoblanadi.

Sabzavot, mevalar va kartoshkani qayta ishlashdan olingan mahsulotlar tannarxi har bir mahsulot turini tayyorlash uchun ketgan xarajatlar summasidan tashkil topadi. Bunda har bir mahsulotni qayta ishslash uchun ochilgan analitik schyotlarda qilingan xarajatlar yig'ib boriladi va xarajatdan xo'jalikda ishlatiladigan chiqtlarning qiymati (silos ekinlari ko'k massasi ozuqa birligining reja tannarxida baholanib) chegirib tashlanadi. Qolgan summani olingan tayyor mahsulot miqdoriga bo'lish yo'li bilan mahsulot birligining tannarxi aniqlanadi.

Meva-sabzavot konservalari va sharbatlar tayyorlashda ming shartli bankamahsulot tannarx hisoblash obekti bo'lib hisoblanadi.

Har bir tayyorlangan mahsulot turini shartli mahsulotga o'tkazish uchun koeffitsientlardan foydalaniladi. Bu koeffitsientlar bir banka yoki shishaga

solingan mahsulot massasi va ularning hajmiga bog‘liq. Masalan, 0,5 l hajmdagi bankada konservalangan bodring uchun 1,53, 1 l hajmdagi uchun 2,83 va 3 l hajmdagi bank auchun 8,48 koeffitsientlar qo‘llaniladi. Ming shartli banka tannarxini hisoblash uchun har bir mahsulot turiga sarflangan xarajatlar summasini tayyorlangan shartli banka miqdoriga bo‘lish kerak.

*Sutni qayta ishslash.*

Sutni qayta ishslashdan olingan sariyog‘, qaymoq, tvorog, kefir va pishloq tannarx hisoblash obekti hisoblanadi. Sutni qayta ishslashdan olingan ayrim turdag'i mahsulotlar tannarxini hisoblash uchun qayta ishslashga sarflangan xarajatlarning umumiyligi summasidan foydalansa bo‘ladigan ayron, zardob va boshqa qo‘shimcha mahsulotlar qiymati chegirib tashlanib, qolgan summa ayrim mahsulot turlariga ularning xarid bahosi bo‘yicha aniqlangan qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Hisobning bunday soddalashtirilgan usuli sutni qayta ishlab chiqarish hajmining unchalik katta bo‘lmagan hollarida qo‘llanilishi mumkin.

Sutni qayta ishslash xo‘jalikda doimiy ishlab turuvchi ishlab chiqarish mavjud bo‘lgan holda xarajatlar hisobi quyidagi bosqich (qayta ishslash) lar bo‘yicha yuritiladi: sutni qaymoqqa aylantirish, yog‘i olingan olingan sutni yog‘siz tvorogga aylantirish, qaymoqni yog‘ga aylantirish va boshqalar. Bunda har bir qayta ishslashga analistik schyot ochiladi. Sex sarflari alohida hisobga olinadi. Sutni qayta ishslash bo‘yicha asosiy xrajatlar va sex sarflarini hisobga olish belgilangan xarajat moddalari bo‘yicha yuritiladi.

Sut mahsulotlari tannarxini hisoblab chiqarish ishlab chiqarishning har bir bosqichi bo‘yicha hisobga olingan xarajatlar va mahsulotning chiqishi ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Birinchi qayta ishslash bosqichida qaymoqning tannarxi qayta ishlab chiqariladi. Buning uchun uning qayta ishslashdagi xarajatlar umumiyligi summasidan (qo‘shimcha xarajatlar summasi ham shu hisobga kiradi) realizatsiya narxlarida qaymog‘i olingan sut qiymati chiqarib tashlanadi va qolgan xarajatlar summasi qaymoqdan olingan asosiy mahsulot soniga tegishli bo‘ladi.

Ikkinchı bosqichda sariyog‘ tannarxi hisoblab chiqiladi. Buning uchun taqsimlangan qo‘srimcha sarflarni ham hisobga olingan holda qayta ishlashda hisobga olingan xarajatlar summasidan qo‘srimcha mahsulot – ayronning belgilangan narxlardagi qiymati chiqarib tashlanadi va qolgan xarajatlar summasi olingan asosiy mahsulot – sariyog‘ga tegishli bo‘ladi.

Xarajatlarni alohida hisobga olish mavjud bo‘lgan boshqa qayta ishlashlar bo‘yicha ham mahsulot tannarxi mana shunday yo‘l bilan aniqlanadi (pishloq, yog‘li tvorog, quyultirilgan sut ishlab chiqarish).

Sutni qayta ishlab chiqarishda sut xom-ashyosining (sut, qaymoq, yog‘i olingan sut) sarfini va tayyor mahsulotning chiqishini doimiy nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. *Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash qaydnomalari* (124-shakl) mana shu maqsadda yuritiladi. Ularda xronologik izchillikda qayta ishlov berishga kelgan sut mahsuloti, qayta ishlashdan keyin olingan sut mahsulotlari nomi, ularning soni va yog‘ning miqdorini qayd qilinadi. Qaydnomaning orqa tomoni ish vaqtini hisobga olish va ish haqini hisoblab chiqish uchun foydalaniladi. Sutni qayta ishlashdan olingan mahsulotlar sarfi ham mana shu yerda aks ettiriladi. Bunda mahsulotning qaerga, kimga berilganligi, hujjatning tartib nomeri, soni, yog‘ining miqdori ko‘rsatiladi. Qaydnomada asosida har kuni xom ashyo sarfi va tayyor mahsulotning chiqishi nazorat qilinadi.

*Mol so‘yish.* Chorva mollari va parrandalar xo‘jalikning ichki ehtiyojlari uchun noilojlikdan so‘yiladi. Mol va parrandalarni so‘yishdan asosiy mahsulot – go‘sht, qo‘srimcha mahsulotlar – teri, tuyog‘i, shoxi, pat va boshqalar olinadi. Mol va parrandalarni so‘yishdan olingan mahsulotlar tannarxi ularning har bir turi bo‘yicha aniqlanadi. Masalan, go‘shtning tannarxini hisoblash uchun qilingan jami xarajatdan (so‘yilgan chorva mollari qiymatini ham qo‘sghan holda) qo‘srimcha mahsulotlar, shox, tuyoq, pat va boshqa yordamchi mahsulotlar sotish bahosida baholanib chegirib tashlanadi va qolgan summa olingan go‘sht miqdoriga bo‘linadi. 1 tonna go‘sht tannarxini uning massasiga tegishli xarajatlar summasini olingan go‘sht miqdoriga (tonna) bo‘lib aniqlanadi.

*Qorako‘l teri tannarxini aniqlash* uchun oldin qorako‘l qo‘zilarni so‘yish

punktiga olib kelish, so‘yish, terilarga dastlabki ishlov berish, so‘yish punktiga doir xarajatlar va so‘yilgan qo‘zilarining qiymati alohida analitik schyot olib hisobga olinadi. So‘ng bu xarajatlardan sotish bahosida baholangan qo‘shimcha mahsulot (barra go‘shti, shirdon)lar qiymati chegirib tashlanadi. Qolgan summani qorako‘l terilarning miqdoriga bo‘lib bir dona qorako‘l terining haqiqiy tannarxi aniqlanadi.

*Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz (brak) mahsulotlarni hisobga olish*

Sifati bo‘yicha belgilangan standartlar, texnik talablar yoki shartnomalarga mos kelmaydigan buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar yaroqsiz (brak) hisoblanadi. Tayyor mahsulotlar yoki yarim tayyor mahsulotlarni baholashda aniqlangan kamchiliklarning tavsifiga ko‘ra yaroqsizlik tuzatiladigan va tuzatilmaydigan yaroqsizlikka bo‘linadi.

Tuzatiladigan yaroqsizlik deb tuzatilganidan so‘ng tayinlanishiga ko‘ra ishlatilishi mumkin bo‘lgan hamda tuzatilish imkonini mavjud va bu iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lgan buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar hisoblanadi.

Tuzatilmaydigan yaroqsizlik deb tuzatilganidan so‘ng tayinlanishiga ko‘ra ishlatilishi mumkin bo‘lmagan hamda tuzatilish imkonini yo‘q va tuzatish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmagan buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar hisoblanadi. Bunday buyumlar ishlatish mumkin bo‘lgan bahoda sotiladi yoki boshqa turdagiga mahsulotlarni qayta ishlash uchun ikkilamchi xom ashyo sifatida ishlatiladi. Yaroqsizlik aniqlangan joyiga ko‘ra ichki va tashqi yaroqsizlikka bo‘linadi. Ichki yaroqsizlik deb mahsulot xaridorga jo‘natilgunga qadar xo‘jalikda aniqlangan yaroqsizlik hisoblanadi. Mahsulot xaridorga jo‘natilgandan so‘ng aniqlangan yaroqsizlik tashqi yaroqsizlik deyiladi. Yaroqsizlik aniqlangan chog‘da texnik nazorat bo‘limining xodimlari mahsulot chiqishini hisobga olish bo‘yicha dastlabki hujjatlarda tegishli belgilar qo‘yadi.

Tuzatilmaydigan yaroqsizlik *yaroqsizlik to‘g‘risidagi dalolatnoma* yoki *yaroqsizlik to‘g‘risidagi qaydnoma* bilan rasmiylashtirilib, unda yaroqsizlikning bir qancha faktlari qayd qilinadi. Dalolatnomada yaroqsizlik tavsifi, uning sababi,

yaroqsizga chiqarilgan mahsulot miqdori, yaroqsizlik aybdori, yaroqsiz mahsulot tannarxi, aybdor shaxslardan undirilishi lozim bo‘lgan summa, yaroqsizlikdan yo‘qotishlar hamda yaroqsizga chiqarilgan mahsulotlar qabul qilinganligi to‘g‘risida omborchi yoki qabul qilgan sex belgisi ko‘rsatiladi.

Dalolatnoma texnik nazorat bo‘limining xodimi, usta va sex boshlig‘i tomonidan tuziladi va buxgalteriyaga topshiriladi. U yerda yaroqsiz mahsulotning tannarxi hisoblab chiqariladi. Dalolatnoma xo‘jalik yurituvchi subekt rahbari tomonidan tasdiqlanib, unda yaroqsizlikdan ko‘rilgan zararni hisobdan chiqarish – aybdor shaxsdan undirish yoki ishlab chiqarishga olib borish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Tuzatilmaydigan yaroqsizlikdan kelib chiqqan yo‘qotishlar uning tannarxidan yaroqsizga chiqarilgan buyumlarning ishlatish mumkin bo‘lgan bahosi bo‘yicha qiymati va aybdor shaxslardan undiriladigan summalarini chegirib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Tuzatilmaydigan ichki yaroqsizlik tannarxi belgilangan xarajat moddalari bo‘yicha haqiqiy xarajatlardan tashkil topadi. Bunda «ishlab chiqarishni tayyorlash va o‘zlashtirish xarajatlari», «yaroqsizlikdan kelib chiqadigan yo‘qotishlar», «boshqa ishlab chiqarish xarajatlari» moddalari hisobga olinmaydi. Buyumlar soni ko‘p bo‘lgan xo‘jaliklarda yaroqsizlik odatda reja yoki normativ tannarxdan kelib chiqqan holda baholanadi. Tuzatiladigan ichki yaroqsizlik tannarxi tuzatish uchun sarflangan xom-ashyo, Materiallar va yarim tayyor mahsulotlar hamda tuzatishda band bo‘lgan xodimlarning ish haqi, ijtimoiy sug‘urta ajratmalarini va umumishlab chiqarish xarajatlarining tegishli ulushidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Tuzatiladigan ichki yaroqsizlikdan yo‘qotishlar uning tannarxidan aybdor shaxslardan undiriladigan summalarini chegirib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Tashqi yaroqsizlik qiymati yaroqsizga chiqarilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, xaridorlar tomonidan ushbu mahsulotni sotib olish xarajatlari, hamda yaroqsizga chiqarilgan mazhsulotlarni almashtirishdagi transport xarajatlari yoki iste’molchining yaroqsizga chiqarilgan mahsulotni tuzatish xarajatlaridan tashkil topadi. Ishlab chiqarishdagi yaroqsizlikdan yo‘qotishlar to‘g‘risidagi

axborotlar 2610-«Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar» schyotida umumlashtiriladi. 2610-schyotning debetida aniqlangan yaroqsizlikka doir xarajatlar hamda kafolatli ta'mirlash xarajatlari aks ettiriladi. Bu schyotning kreditida esa yaroqsizlikdan ko'rilgan yo'qotishlarni kamaytiradigan summalar (yaroqsizga chiqarilgan mahsulotlarning ishlatish imkonini bo'lган bahodagi qiymati, aybdor shaxslardan undiriladigan summalar, ishlatilishi natijasida yaroqsizlik vujudga kelgan, mol yetkazib beruvchilar tomonidan yetkazilgan sifatsiz Materiallar yoki yarim tayyor mahsulotlar uchun undiriladigan summalar va h.k.) hamda yaroqsizlikdan ko'rilgan yo'qotishlar sifatida ishlab chiqarish xarajatlariga olib boriladigan summalar aks ettiriladi.

2610-«Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar» schyoti bo'yicha analitik hisob xo'jalikning alohida bo'linmalari, mahsulot turlari, xarajat moddalari va yaroqsizlik sabablari bo'yicha yuritiladi. Aniqlangan yaroqsizlik va kafolatli ta'mirlash bo'yicha xarajatlarga 2610-«Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar» schyoti debetlanganda quyidagi schyotlar kreditlanishi mumkin:

1000-«Materialarni hisobga oluvchi schyotlar» (1010-1090) – yaroqsizlikni tuzatishga sarflangan Materiallar qiymatiga;

2010-«Asosiy ishlab chiqarish», 2310-«Yordamchi ishlab chiqarish» schyotlari – asosiy va yordamchi ishlab chiqarishda aniqlangan, tuzatilmaydigan yaroqsizlikdan yo'qotishlar hisobdan chiqarilganda;

2110-«O'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar» schyoti – o'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarning yaroqsizligi aniqlangan va hisobdan chiqarilganda;

2510-«Umum ishlab chiqarish xarajatlari»schyoti – umum ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli ulushi yaroqsiz mahsulot tannarxiga qo'shilganda;

2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti – yaroqsizga chiqarilgan mahsulotlar o'rniga xaridorlarga jo'natilgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxi;

6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» – mol yetkazib beruvchilardan yaroqsizlikni tuzatishda va kafolatli ta'mirlash bo'yicha olingan xizmatlar summasiga;

6520-«Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti – yaroqsizga chiqarilgan mahsulotlar bilan bog‘liq xarajatlar bo‘yicha davlat maqsadli fondlariga qlingan ajratmalar summasiga;

6710-«Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyoti – yaroqsizlikni tuzatishda ishtirok etgan xodimlarga mehnat haqi hisoblanganda;

4220-4290, 6970-schyotlar – yaroqsizga chiqarilgan mahsulotlarni qaytarish bilan bog‘liq xarajatlar hisobdor shaxslar zimmasidan hisobdan o‘chirilganda;

6990-«Boshqa majburiyatlar» schyoti – iste’molchilarning yaroqsizlikni tuzatishga doir xarajatlari bilan bog‘liq sarflar summasiga.

2610-«Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar» schyoti kreditlanganda quyidagi schyotlar debetlanadi:

1000-«Materiallarni hisobga oluvchi schyotlar» (1010-1090) – yaroqsizlikni tuzatish chog‘ida qolgan Materiallar kirimi va tuzatilmadigan yaroqsizlik ishlatish mumkin bo‘lgan bashoda hisobdan chiqarilganda;

2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schyoti, 2310-«Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti – yaroqsizlikdan ko‘rilgan yo‘qotishlar asosiy va yordamchi ishlab chiqarishlarning mahsulotlari, ish va xizmatlari tannarxiga qo‘shilganda;

9430-«Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti – o‘tgan yillardagi yaroqsizlikdan ko‘rilgan yo‘qotishlar hisobdan chiqarilganda.

### **Nazorat savollari:**

1. Chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblashning umumiyligini qoidalari
2. Qoramolchi mahsulotlari tannarxi qanday hisoblanadi
3. Boshqa chorvachilik mahsulotlari tannarxi qanday hisoblanadi
4. Qishloq xo‘jaligida sanoat ishlab chiqarishining ayrim turlari bo‘yicha tannarxi qanday amalga oshiriladi

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” Qonuni (yangi tahriri), 2016 yil 13 aprel, № 404.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi” Qonuni. 1997 y 30 avgust. 483-I-son.
3. O‘zbekiston respublikasining buxgalteriya hisobining milliy standatrlari, To‘plami.T.: O‘zR BAMA nashriyot markazi. 2012 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasito‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5853-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-sonli qarori ijrosi
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5-fevraldagagi 54-sonli «Mahsulot(ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarни shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom.
8. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos”(AV 09.09.2016 y. 475-1-son bilan ro‘yxatga olingan)«O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi» O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent, 2000. - 392b.
9. Баширов А.А Учет издержек производства и калкулирование себестоимости в подрядном строительстве.-М.: Финансы и статистика,1986.-52с.
10. Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi T-2013-320 b.

11. Dusmuratov R.D. Menglikulov B.Y Qishloq xo`jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. O`quv qo`llanma.-T. : -«Fan va texnologiya» nashriyoti, 2014 -392 b.
12. KarimovA, Islomov F, Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi.-T: «Sharq» NMAK, 2004.-93 b.
13. Махкамбаев А.Т, Абдувахидов Ф.Т., Сатывалдиева Д.А., Шодиев Е.Т. Калкуляция себестоимости: Учебное пособие. - Т: Издательский дом « Ilm ziy», 2012 г.-208 с
14. Menglikulov B.Y Fermer xo‘jaliklarida chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash bo‘yicha Tavsiyanoma-2015, B-1-24.
15. Носкова Н.Ю. Учет затрат, калкулирование и бюджетирование в различных отраслях производственной деятельности: Учебное пособие Н.Ю.Носкова. -Ульяновск: УГТУ, 2009. - 124 с
16. Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуелл Д. Принципы бухгалтерского учёта.-М: Финансы и статистика, 1997. -477с.
17. Pardaev A.X va Pardaevlar B.X. Boshqaruv hisobi. Toshkent –G‘ofur G‘ulom -2008-49b
18. Поклад И.И. Учет, калкулирование и анализ себестоимости промышленной продукции. -М.: Финансы, 1996 г.с.131.
19. Raximov M.Y., Kalandarova N.N Moliyaviy tahlil. Darslik.- Toshkent-“Iqtisodiyot-moliya”, 2019-738 b.
20. Ro`zmetov B., Bekturdiev O., Yo`ldosheva Q., Matqulieva S., Matkarimov D. Tannarx kalkulatsiyasi Toshkent-ILM ZIYO-2006 230b.
21. Tashnazarov S.N.. Boshqaruv hisobi. Ma’ruza matnlari. SamISI, 2010. - 260 b
22. Турсункулова Г.Б. Фермер хўжаликларида дехқончилик маҳсулотлари таннархини ҳисоблаш // Тавсиянома. -Т., 2010. - Б. 1-30.
23. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. - Toshkent: Cho`lpon nomidagi nashriyoti NMIU, 2013. – 312 b.

## ILOVALAR

### 1-ILOVA

#### **Xarajatlarni rejalashtirish, hisobga olish va mahsulotlar tannarxini hisoblash**

<b>Ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirish va hisobga olish ob'ektlari</b>	<b>Tannarx ob'ektlari</b>	<b>Tannarxini hisoblash birligi</b>
<b>O'simlikchilik</b>		
<b>Donli va donli dukkanakli ekinlar</b>		
Kuzgi donli ekinlar	don don chiqiti	1ts 1ts
1. Kuzgi bug'doy		
2. Kuzgi javdar	don don chiqiti	1ts 1ts
3. Kuzgi arpa	don don chiqiti	1ts 1ts
Bahorgi bug'doy	don don chiqiti	1ts 1ts
1. Bahorgi qattiq bug'doy		
2. Bahorgi yumshoq bug'doy	don don chiqiti	1ts 1ts
Bahorgi donli ekinlar	don don chiqiti	1ts 1ts
1. Bahorgi arpa		
2. Suli	don don chiqiti	1ts 1ts
3. Bahorgi javdar va b.	don don chiqiti	1ts 1ts
Yormali ekinlar		
1. Yasmiq	don don chiqiti	1ts 1ts
2. Sholi	don don chiqiti	1ts 1ts
3. Marjumak	don don chiqiti	1ts 1ts
Don dukkanakli ekinlar	don don chiqiti	1ts 1ts
1. No'xat		
2. Loviya	don don chiqiti	1ts 1ts
3. Xashaki no'xat	don don chiqiti	1ts 1ts
4. Mosh	don don chiqiti	1ts 1ts
<b>Texnik ekinlar</b>		
Moyli ekinlar		
1. Kungaboqar don uchun	urug'i	1ts
2. Zig'ir (moyli)	urug'i	1ts
3. Soya	urug'i	1ts
4. Bahorgi raps, kuzgi raps, kunjut, yeryong'oq, maxsar b.	urug'i	1ts
Tolali ekinlar		
1. G'o'za	paxta homashyosi	1ts
2. Kanop	urug'i poyasi	1ts 1ts
<b>Qand lavlagi</b>		
1.Qand lavlagi qayta ishslash uchun	ildizmevasi	1ts
2. Qand lavlagi onalik uchun	ildizmevasi	1ts
3. Urug'lik uchun ekilgan qand lavlagi	urug'i	1ts

Tamaki	bargi urug‘i	1ts 1ts
Efir moyli o‘simliklar 1. Efir moyli o‘simliklar: bir yillik va ikki yillik o’tsimon, kashnich, anis va b.	urug‘i	1ts
<b>Sabzavot poliz ekinlari va kartoshka (urug‘liklari ham)</b>		
Kartoshka	tugunagi	1ts
Ochiq yerdagi sabzavot ekinlari		
Karam (oqbosh, ertagi, o’rtta, kechki va b.)	bosh	1ts
Ildizmevali sabzavot ekinlari		
Xo‘raki lavlagi, xo‘raki sabzi, sholg‘om, rediska, turp, selder, petrushka va b.	Ildizmevalari	1ts
Piyozli sabzavot ekinlari		
1. Bosh piyoz	bosh piyoz	1ts
2. Sarimsoq piyoz	bosh piyoz	1ts
Sabzavot ekinlari (Ituzumguldoshlar)		
1. Pomidor	mevasi	1ts
2. Shirin qalampir, achchiq qalampir	mevasi	1ts
3. Baqlajon	mevasi	1ts
Sabzavot qovoq ekinlari	mevasi	
1. Bodring		1ts
2. Pattisson, qovoqcha	mevasi	1ts
Salatbop sabzavot ekinlari	salat	1ts
Ko‘katli sabzavot ekinlar	ko‘kat	1ts
Ko‘p yillik sabzavot ekinlari (rovoch, sarsabil)	ko‘kat urug‘ ildiz	1ts 1ts 1ts
Sabzavot ekinlari urug‘chiligi		
Bir yillik sabzavot ekinlari	urug‘lik	1ts
Ikki yillik sabzavot ekinlari onaligi		
1. Karam onaliklari	bosh	1ts
2. Ildizmevali sabzavot ekinlari onaliklari (lavlagi, sabzi, selder, petrushka, sholg‘om, turp, pasternak, bryukva va b.)	ildizmevalari	1ts
Ikki yillik sabzavot ekinlarini ekish	urug‘lari	1ts
<b>Ko‘p yillik sabzavot ekinlari urug‘liklari</b>		
1. Sarsabil, xren, rovoch, shovul va boshqalar urug‘liklari	ildizlari urug‘lari	1ts 1ts
2.. Piyoz, sarimsoq piyoz urug‘liklari	urug‘lari bosh piyoz (sarimsoq piyoz) onaligi	1ts 1ts
<b>Oziq-ovqat uchun poliz ekinlari</b>		
Xo‘raki tarvuz, qovun, xo‘raki qovoq	mevasi	1 ts
Urug‘lik uchun xo‘raki poliz ekinlari (tarvuz, qovun, qovoq)	urug‘lari	1 ts
<b>Himoyalangan yer sabzavotchiligi</b>		
No‘sh piyoz, bodring, pomidor, salat, rediska, ismalloq va b. issiqxonada yetishtirilgan ko‘chatlar	sabzavotlar turlari bo‘yicha ko‘chatlar	1 ts ming dona
Shampinon yetishtirish joylari (qo‘ziqorin, mitseliylar)	qo‘ziqorin mitseliylar	1 ts 1 ts
<b>Xashaki ekinlar</b>		
<b>Ildizmevali va tuganakmevali xashaki ekinlar</b>		
1. Xashaki sabzi, xashaki lavlagi, xashaki bryukva, topinambur va b.	ildizmevalari tuganaklari	1ts 1ts

<b>Xashaki poliz ekinlari</b>		
Xashaki tarvuz, xashaki qovoq, xashaki kovoqcha	mevalari	1ts
<b>Xashaki ildizmevali,tuganakmevali va poliz ekinlarining onaliklari va urug'liklari</b>		
<b>Xashaki ildizmevali va tuganakmevali ekinlarning onaliklari</b>		
1. Sabzi, xashaki lavlagi, xashaki bryukva, topinambur va b. onaliklari	ildizmevali tuganaklari	1ts 1ts
2. Sabzi, xashaki lavlagi, xashaki bryukva, topinambur va b. onaliklarini urug' olish uchun ekish	urug'i	1ts
<b>Poliz ekilari urug'liklari</b>		
1. Tarvuz, qovoq, qovoqchalar va b. urug'liklari	urug'i	1ts
<b>Silos va ko'k ozuqa uchun makkajo'xori</b>		
Kungaboqar, xashaki karam silos uchun jo'xori va b.	ko'k massa	1 ts
Bir yillik o'tlar (pichan va ko'k massa, urug'lik uchun)	pichan ko'k massa urug'lik	1ts 1ts 1ts
Ko'p yillik o'tlar (pichan va ko'k massa, urug'lik uchun – dukkaklilar, boshoqlilar)	pichan ko'k massa urug'lik	1ts
Tabiiy yaylovlari va o'tloqlari	pichan ko'k massa	1ts 1ts
Noqishloq xo'jalik yerlaridagi yovvoyi o'simliklar Somon, palak, makkajo'xori, kungaboqar poyasi va b. (turlari bo'yicha) tayyorlash	ko'k massa, somon, quruq poya, palak, kungaboqar poyasi va b.	1ts
Pichan tayyorlash	pichan	1ts
Silos bosish	silos	1ts
Senaj bosish	senaj	1ts
<b>Ko'p yillik o'simliklar</b>		
<b>Mevali ekinlar, rezavor meva ekinlari va uzumzorlar</b>		
1. Urug'li meva bog'lari	mevasi qalamchasi	1ts 1000 dona
2. Danakli meva ekinlari	mevasi qalamchasi	1ts 1000 dona
3. Rezavor meva ekinlari (rezavor meva ekinzorlari) Qulupnay, malina (xo'jag'at), smorodina (qorag'at), maymunjon va b.	rezavor mevasi o'simtasi yon novdasi qalamchasi	1ts 1000 dona 1000 dona 1000 dona
4. Yong'oq mevali ekinlar	yong'oqlari qalamchasi	1ts 1000 dona
5. Sitrus mevalilar	mevasi qalamchasi	1ts 1000 dona
6. Subtropik mevalilar	mevasi qalamchasi	1ts 1000 dona
7. Uzumzorlar	mevasi qalamchasi	1ts 1000 dona
<b>Gulchilik</b>		
1. Ochiq yerdagi gullar	kesilgan gullar piyozchalar,tuga-nakpiyozchalar ildizlar tuganaklar qalamchalar ko'chatlari	1000 dona 1000 dona 1000 dona 1000 dona 1000 dona 1000 dona

2. Himoyalangan yerdagi gullar	kesilgan gullar tuvakli gullar ko‘chatlar urug‘lar qalamchalar	1000 dona 1000 dona 1000 dona 1000 dona 1000 dona
<b>Gulli ekinlarning urug‘chiligi</b>		
1. Gulli ekinlar urug‘chiligi (bir yillik, ikki yillik, ko‘p yillik)	urug‘lari	1kg
<b>Ko‘chatxonalar va onalik ekinlari. Mevali ekinlar va ko‘p yillik ekinzorlar onaliklari</b>		
1. Onalik-urug‘lik bog‘lar. Urug‘li, danakli, tsitrus, subtropik, efirmoyli butazorlar, daraxtsimon ekinlar va ekinzorlarning onaliklari	mevasi urug‘lari	1ts 1ts
2. Navli (qalamcha) bog‘lari		
1. Urug‘li, danakli, yong‘oqmevali, tsitrus, subtropik, tok, efirmoyli butazorlar, daraxtsimon ekinlarning onaliklari	qalamchalar (chubuki) payvandtag (privoy), payvandust (podvoy)	1000 dona 1000 dona
Mevali ekinlar urug‘lik ko‘chatxonalarini	payvandtag	1000 dona
<b>Vegetativ ko‘paytiriladigan meva ekinlari ko‘chatxonalarini</b>		
1. Urug‘li meva ekinlari, tok va b. ko‘chatxonalarini	payvandtag	1000 dona
2. Mevali ekinlarning 1 yilgi ko‘chatxonalarini	ko‘zchalar	1000 dona
3. Mevali ekinlarning 2 yilgi ko‘chatxonalarini	ko‘chatlar	1000 dona
4. Mevali ekinlarning 3 yilgi ko‘chatxonalarini	ko‘chatlar	1000 dona
<b>Vegetativ ko‘payadigan meva ekinlarining onaliklari</b>		
1. Urug‘li, danakli, rezavor mevali, yong‘oqmevali, tsitrus, subtropik ekinlar va toklarning onaliklari	o‘sintasi tag novdasi yon novdasi qalamchasi	1000 dona 1000 dona 1000 dona 1000 dona
2. Tut daraxti va lavr onaliklari	qalamchasi o‘sintasi	1000 dona 1 ga
<b>O‘simlikchilik bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish (kelgusi yil hosili uchun qilingan xarajatlari)</b>		
Don uchun kuzgi bug‘doy ekini	bajarilgan ish	1 ga
Ko‘k ozuqa va silos uchun ekilgan kuzgi donli ekinlar	bajarilgan ish	1 ga
Qishki sabzavot ekinlari ekish (turlari bo‘yicha)	bajarilgan ish	1 ga
Kuzgi shudgor	bajarilgan ish	1 ga
Tuproq yuzasini yumshatish	bajarilgan ish	1 ga
Mahalliy o‘g‘it solish	bajarilgan ish	1 ga
Mineral o‘g‘it solish	bajarilgan ish	1 ga
O‘tgan yillardagi ko‘p yillik o‘tlari (kelgusi yillarda hosil berib boradigan)	bajarilgan ish	1 ga
Hisobot yilining bahorgi va kuzgi ko‘p yillik o‘tlari	bajarilgan ish	1 ga
Kelgusi yil hosili uchun bahorgi ekinlar uchun bo‘sh qolgan yer	bajarilgan ish	1 ga
Yangi yerlarni o‘zlashtirish	bajarilgan ish	1 ga
Tubdan yaxshilangan o‘tloqlar va madaniy yaylovlari	bajarilgan ish	1 ga
O‘tloqlar va yaylovlarning ustki qismini yaxshilash	bajarilgan ish	1 ga
Sug‘oriladigan yerlarni birlamchi ma’daniylashtirish	bajarilgan ish	1 ga
Issiqxonalar, parniklar, shampinion xonalar	bajarilgan ish	1 m <sup>2</sup>
Ko‘chatxonalar	bajarilgan ish	1 ga
Tugallanmagan ishlab chiqarishlar bo‘yicha boshqa ishlar	bajarilgan ish	1 ga
Sug‘orish xarajatlari	bajarilgan ish	1 ga

## MUNDARIJA

<b>KIRISH . . . . .</b>	<b>5</b>
<b>I BOB XARAJATLARNING IQTISODIY MOHIYATI, ULARNING TASNIFlashi VA HISobi . . . . .</b>	<b>6</b>
1.1. Tannarx kalkulyatsiyasi fanining mazmuni, predmeti va metodi . . . . .	6
1.2. Agrar sektor xo'jaliklarida xarajatlarning tarkibi, ularning turkumlanishi va hisobining tashkiliy- uslubiy asoslari . . . . .	22
<b>II BOB DEHQONCHILIK XARAJATLARI, MAHSULOTLAR CHIQISHINI HISOBGA OLİSH . . . . .</b>	<b>40</b>
2.1. Dehqonchilik tarmoqlarining tasnifi, hisobining uslubiy asoslari va vazifalari . . . . .	40
2.2. Dehqonchilik xarajatlarining hisob ob'ektlari va moddalari . . . . .	43
2.3. Dehqonchilik xarajatlari va olingan mahsulotlarning dastlabki, analitik va sintetik hisobi . . . . .	52
<b>III BOB CHORVACHILIK XARAJATLARI, MAHSULOTLAR CHIQISHINI HISOBGA OLİSH . . . . .</b>	<b>67</b>
3.1. Chorvachilik tarmog'i tavsifi, hisobining vazifalari va uslubiy asoslari . . . . .	67
3.2. Chorvachilikda xarajatlar hisobining obektlari va moddalari . . . . .	69
3.3. Chorvachilik xarajatlari va olingan mahsulotlarning dastlabki, analitik va sintetik hisobi . . . . .	80
<b>IV BOB QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH XARAJATLARI MAHSULOTLAR CHIQISHINI HISOBGA OLİSH . . . . .</b>	<b>87</b>
4.1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab chiqarishi xarajatlari tarkibi va ular hisobini tashkil etish . . . . .	87
4.2. Qishloq xo'jaligi sanoat ishlab chiqarishi xarajatlari va mahsulot olinishining dastlabki, analitik va sintetik hisobi . . . . .	91
<b>V BOB DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI TANNARXINI HISOBBLASH . . . . .</b>	<b>94</b>
5.1. Dehqonchilik mahsulotlari tannarxini hisoblashning umumiy qoidalari . . . . .	94
5.2. Donli ekinlari tannarxini hisoblash . . . . .	96
5.3. Texnik ekinlar tannarxini hisoblash . . . . .	104
5.4. Mevachilik mahsulotllari tannarxini hisoblash . . . . .	107
5.5. Sabzavotchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash . . . . .	117
5.6. Gulchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash . . . . .	129
5.7. Ozuqaviy ekinlarning mahsulotlari va tayyorlanadigan ozuqalarning tannarxini hisoblash . . . . .	136
5.8. Dehqonchilik mahsulotlarining rejadagi va haqiqiy tannarxlari o'rtasidagi farqlarni tuzatish (korrektirovka qilish) . . . . .	143
<b>VI BOB CHORVACHILIK MAHSULOTLARI TANNARXINI KALKULYASIYALASH . . . . .</b>	<b>146</b>
6.1. Chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblashning umumiy qoidalari . . . . .	146
6.2. Qoramolchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash . . . . .	150
6.3. Parrandachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash . . . . .	154
6.4. Asalarichilik mahsulotlari tannarxini hisoblash . . . . .	157
6.5. Baliqchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash . . . . .	159
6.6. Ipakchilik mahsulotlari tannarxini hisoblash . . . . .	168
6.7. Boshqa chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblash . . . . .	172
6.8. Qishloq xo'jaligida sanoat ishlab chiqarishining ayrim turlari bo'yicha tannarxni hisoblash . . . . .	176
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI . . . . .</b>	<b>184</b>
<b>ILOVALAR . . . . .</b>	<b>186</b>

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>Введение . . . . .</b>	<b>5</b>
<b>ГЛАВА I ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ЗАТРАТ, ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ И УЧЕТ . . . . .</b>	<b>6</b>
1.1. Содержание, предмет и метод предмета «Калькуляция себестоимости” . . . . .	6
1.2. Структура расходов в хозяйствах аграрного сектора, их категоризация и организационно - методические основы учета. . . . .	22
<b>ГЛАВА II УЧЕТ ЗАТРАТ НА СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО, УЧЕТ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ . . . . .</b>	<b>40</b>
2.1. Классификация, методологические основы и задачи учета отраслей сельского хозяйства. . . . .	40
2.2. Объекты и статьи учета затрат на сельское хозяйство. . . . .	43
2.3. Первичный, аналитический и синтетический учет затрат на сельское хозяйство и полученной продукции . . . . .	52
<b>ГЛАВА III УЧЕТ ЗАТРАТ НА ЖИВОТНОВОДСТВО, УЧЕТ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ . . . . .</b>	<b>67</b>
3.1. Характеристика отрасли животноводства, задачи и методические основы учета. . . . .	67
3.2. Объекты и статьи калькулирования затрат в животноводстве. . . . .	69
3.3. Первичный, аналитический и синтетический учет затрат животноводства и получаемой продукции. . . . .	80
<b>ГЛАВА IV ЗАТРАТЫ НА ПЕРЕРАБОТКУ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ УЧЕТ ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ . . . . .</b>	<b>87</b>
4.1. Структура затрат на перерабатывающее производство сельскохозяйственной продукции и организация их учета. . . . .	87
4.2. Предварительный, аналитический и синтетический учет затрат сельскохозяйственного промышленного производства и получения продукции. . . . .	91
<b>ГЛАВА V РАСЧЕТ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ СЕЛСКОГО ХОЗЯЙСТВА . . . . .</b>	<b>94</b>
5.1. Общие правила расчета себестоимости продукции сельского хозяйства. . . . .	94
5.2. Расчет себестоимости зерновых культур. . . . .	96
5.3. Расчет себестоимости технических культур. . . . .	104
5.4. Расчет себестоимости плодовоощной продукции. . . . .	107
5.5. Расчет себестоимости продукции овощеводства. . . . .	117
5.6. Расчет себестоимости продукции цветоводства. . . . .	129
5.7. Расчет себестоимости продукции кормовых культур и готовых кормов. . . . .	136
5.8. Корректировка (корректировка) разницы между плановой и фактической себестоимостью продукции сельского хозяйства. . . . .	143
<b>ГЛАВА VI КАЛЬКУЛЯЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ ЖИВОТНОВОДСТВА . . . . .</b>	<b>146</b>
6.1. Общие правила расчета себестоимости продукции животноводства. . . . .	146
6.2. Расчет себестоимости продукции животноводства. . . . .	150
6.3. Расчет себестоимости продукции птицеводства. . . . .	154
6.4. Расчет себестоимости продукции пчеловодства. . . . .	157
6.5. Расчет себестоимости продукции рыбоводства. . . . .	159
6.6. Расчет себестоимости шелковой продукции. . . . .	168
6.7. Расчет себестоимости прочих продуктов животноводства. . . . .	172
6.8. Расчет себестоимости отдельных видов промышленного производства в сельском хозяйстве. . . . .	176
<b>СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ . . . . .</b>	<b>184</b>
<b>Приложения . . . . .</b>	<b>186</b>

# CONTENT

Introduction .....	5
<b>CHAPTER I ECONOMIC ESSENCE OF COSTS, THEIR CLASSIFICATION AND ACCOUNTING.....</b>	<b>6</b>
1.1. Content, subject and method of the subject «Cost calculation».....	6
1.2. The structure of expenses in the farms of the agricultural sector, their categorization and organizational and methodological basis of accounting .....	22
<b>CHAPTER II ACCOUNTING FOR AGRICULTURAL COSTS, ACCOUNTING FOR PRODUCTION.....</b>	<b>40</b>
2.1. Classification, methodological foundations and tasks of accounting for agricultural sectors....	40
2.2. Objects and articles of cost accounting for agriculture.....	43
2.3. Primary, analytical and synthetic accounting of agricultural costs and products received.....	52
<b>CHAPTER III ACCOUNTING FOR LIVESTOCK COSTS, ACCOUNTING FOR PRODUCTION.....</b>	<b>67</b>
3.1. Characteristics of the livestock industry, tasks and methodological foundations of accounting	67
3.2. Objects and articles of cost calculation in animal husbandry.....	69
3.3. Primary, analytical and synthetic accounting of the costs of animal husbandry and the resulting products .....	80
<b>CHAPTER IV COSTS FOR PROCESSING AGRICULTURAL PRODUCTS ACCOUNTING FOR THE PRODUCTION OF PRODUCTS.....</b>	<b>88</b>
4.1. The structure of costs for the processing of agricultural products and the organization of their accounting .....	87
4. 2. Preliminary, analytical and synthetic accounting of the costs of agricultural industrial production and production .....	91
<b>CHAPTER V CALCULATION OF THE COST OF AGRICULTURAL PRODUCTS.....</b>	<b>94</b>
5.1. General rules for calculating the cost of agricultural products.....	94
5.2. Calculation of the cost of grain crops.....	96
5.3. Calculation of the cost of industrial crops.....	104
5.4. Calculation of the cost of fruits and vegetables.....	107
5.5. Calculation of the cost of vegetable production.....	117
5.6. Calculation of the cost of floriculture products.....	129
5.7. Calculation of the cost of production of fodder crops and finished feed.....	136
5.8. Correction (adjustment) of the difference between the planned and actual cost of agricultural products.....	143
<b>CHAPTER VI COST CALCULATION OF ANIMAL PRODUCTS.....</b>	<b>146</b>
6.1. General rules for calculating the cost of livestock products.....	146
6.2. Calculation of the cost of livestock products.....	150
6.3. Calculation of the cost of poultry products.....	154
6.4. Calculation of the cost of beekeeping products.....	157
6.5. Calculation of the cost of fish products.....	159
6.6. Calculation of the cost of silk products.....	168
6.7. Calculation of the cost of other livestock products.....	172
6.8. Calculation of the cost of certain types of industrial production in agriculture.....	176
<b>LIST OF USED LITERATURE.....</b>	<b>184</b>
<b>APPLICATIONS.....</b>	<b>186</b>

**D.R.DUSMURATOV, G.B. TURSUNKULOVA**

## **TANNARX KALKULYASIYASI**

Ozbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus  
ta`lim vazirligi oily o`quv yurtlari talabalari uchun  
o`quv qo`llanma sifatida tavsiya etilgan

(5233100 «Agrosanoatda buxgalteriya hisobi» yunalishi talabalari hamda mazkur soha  
mutaxassislari uchun)

**Toshkent - “IDEAL PRESS” - 2022**

**Dizayner:**

Xamrayev X.O

**Kompyuterda sahifalovchi:**

Xamrayev M.O.

Bosushga ruxsat etildi 05.12.2022. Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ .

«Times New Roman» garniturasi. Rezografiya usulida chop etildi.

Shartli bosma tabog‘i 12.25. Nashr bosma tabog‘i 12.5

Tiraj 100. Buyurtma №.01/01

Toshkent shahri, Mirobod tumani, Farg‘ona yo‘li 222/7

